Saodat Qambarova, Dilnavoz Yusupova, Orifjon Olimjanov

ADABIYOT

11-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

UO‘K 21.512.133.09(075.3)
KBK 83.3(5O‘)ya72
Q 19

Adabiyot 11-sinf [Matn]: darslik / S. Qambarova, D. Yusupova, O. Olimjanov; muharrir X. Abulfaizov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026. – 240 b.

Mas’ul muharrir:
Qunduzoy Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Mahfuza To‘ychiyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Sitora Shomurodova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Shahodat Abdullayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, “Xalq ta’limi a’lochisi”.

Xosiyat Matyakubova – Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 48-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, “Xalq ta’limi fidoyisi”.

Nasiba Nig‘matxo‘jayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 90-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Ushbu darslik Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda tayyorlandi

ISBN 978-9910-247-37-8

© G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

MUNDARIJA

XXI asr: inson, texnika va adabiyot 4

XALQONA OHANGLAR

Termalar 5
“Biyigul” termasi 6

MUMTOZ SO‘Z JOZIBASI

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 9
“Layli va Majnun” dostonidan parcha 11
Zahiriddin Muhammad Bobur 25
“Boburnoma” asaridan parcha 26
Nazariy ma’lumot. Memuar va avtobiografik xarakterdagi badiiy asarlar 37

MA’RIFAT YOG‘DUSI

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat 38
“Ilm xosiyati” masnaviysidan parcha 39
“Fasli navbahor o‘ldi…” g‘azali 42

YANGI DAVR NAFASI

Abdulla Qodiriy 44
“O‘tkan kunlar” romanidan parcha 46
Adabiy laboratoriya 74
Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 76
“Kecha va kunduz” romanidan parcha 77

INSON VA DAVR TALQINI

XX asr o‘zbek adabiyoti 99
Erkin Vohidov 103
“Inson” qasidasi 105
“Arslon o‘rgatuvchi” she’ri 107
“Jaholat to‘g‘risida rivoyat” she’ri 110
Chingiz Aytmatov 115
“Asrga tatigulik kun” romanidan parcha 116
Adabiy laboratoriya 133
Shukur Xolmirzayev 134
“Qora kamar” dramasidan parcha 135
Abdulla Oripov 157
“Genetika” she’ri 159
“Ayol” she’ri 162
Andre Morua 164
“Qaytish” hikoyasi 165
Rauf Parfi 170
“Yomg‘ir yog‘ar” she’ri 172
“Yoshlik zangor fasl…” she’ri 173
“Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon” soneti 174
Tog‘ay Murod 176
“Ot kishnagan oqshom” qissasidan parcha 178
Istiqlol epkinlari 200
Adabiy laboratoriya 203

TAFAKKUR VA TUYG‘ULAR OHANGI

Abduvali Qutbiddin 204
“Gina” she’ri 205
“Ikkimiz aylanib…” she’ri 206
Luqmon Bo‘rixon 208
“Quyosh hali botmagan” qissasidan parcha 209
Baxtiyor Genjamurod 228
“Men ham…” she’ri 229
“Yuragingda…”, “Jumboq”, “Kunchiqarga…” she’rlari 230
Eshqobil Shukur 231
“Pul sanayotgan odam” hikoyasi 232
Nazariy ma’lumot
Monolog (ichki monolog) 237
Adabiy laboratoriya 238

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

XXI ASR: INSON, TEXNIKA VA ADABIYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Texnika inson bajaradigan ko‘plab vazifalarni uddalay olsa-da, nega san’at va adabiyotning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi?
2. “Bo‘sh vaqtim bo‘lsa, kitob o‘qiyman” va “Kitob o‘qish uchun vaqt ajrataman” fikrlari o‘rtasida qanday farq bor?

XXI asrda texnologiya inson imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytirdi. Aqlli qurilmalar yo‘limizni ko‘rsatmoqda, qidiruv tizimlari ulkan ma’lumotlar orasidan keraklisini bir necha soniyada topmoqda, sun’iy intellekt esa matn, musiqa va tasvir yaratmoqda. Biroq texnika hayotimizni qanchalik qulaylashtirmasin, bir savol ochiq qoladi: elektron tizimlar inson o‘rniga go‘zallikdan hayratlana oladimi? O‘zganing dardiga sherik bo‘lib, adolatsizlik qarshisida turib bera oladimi?

Insonning kimligini bilimi va texnik ko‘nikmalari bilan birga, doimiy rivojlantirishga muhtoj bo‘lgan hamdardlik, mehr-shafqat, adolat, go‘zallikni his etish va o‘zgalarni tushunish kabi ichki fazilatlari ham belgilaydi; adabiyot esa inson birovning dardini navbatdagi oddiy xabar sifatida qabul qilishiga yo‘l qo‘ymay, uning qalbini uyg‘oq saqlashga yordam beradi.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov “Yon daftari”ga “Baxtiyorlik lahzasi” degan film yaratishni orzu qilishini, unga “marraga yetib kelgan sportchining g‘alabadan charaqlagan ko‘zlari”, “she’rini yozib tugatgan shoirning quvonchi”, “uzoq ayriliqdan so‘ng farzandini bag‘riga bosgan onaning sevinch yoshlari” lavhalarini kiritishini yozgan edi[1]. Bir-biridan farqli bu lavhalarni yagona tuyg‘u – baxt birlashtiradi. Adabiyot ham biz ko‘rib tursak-da, har doim ham his qila olmaydigan ana shunday insoniy lahzalarni ko‘rsatadi: voqeaning o‘zinigina emas, shu voqea ichidagi inson qalbini ochadi.

Sara badiiy asarlarni muntazam va mushohada bilan o‘qish estetik didni ham rivojlantiradi. Estetik did – faqat tashqi jozibadan zavqlanish emas, balki so‘zning nozik ma’nosini sezish, chin tuyg‘uni soxtalikdan, badiiy go‘zallikni tashqi jimjimadorlikdan, teran asarni vaqtinchalik ommalashgan sayoz asardan farqlay olishdir. Didi shakllangan kitobxon nimani o‘qish, tinglash va tomosha qilishni ongli ravishda tanlaydi, ommaviy urf yoki ijtimoiy tarmoq algoritmlarining tavsiyalariga ko‘r-ko‘rona ergashmaydi.

Biroq asarni o‘qib chiqishning o‘zi uni anglash degani emas. Birinchi mutolaada “Keyin nima bo‘ladi?” degan qiziqish bizni oldinga yetaklaydi. Asarga qaytganimizda esa avval sezilmagan detal, timsol, ohang yoki tagma’no ko‘zga tashlanadi. Yetuk kitobxon matnga suyanadi, asar yaratilgan davrni o‘rganadi, turli talqinlarni qiyoslaydi va o‘z fikrini matniy dalillar bilan asoslaydi. U asarni shunchaki o‘qib tugatmaydi – matn bilan fikriy va hissiy muloqotga kirishadi.

XXI asrda adabiyot insonni texnik taraqqiyotdan uzoqlashtirish uchun emas, u bilan yonma-yon yashab turib ham o‘z insoniyligini asrab qolishi uchun zarur. Texnologiya turmushimizni qulaylashtirishi mumkin, lekin umrimizni qanday va qay darajada mazmunli yashashni vijdonimiz, didimiz, tuyg‘ularimiz va insoniy munosabatlarimiz belgilab beradi.

Munosabat bildiring

Adabiyot insonga tayyor javoblarni bermaydi, balki uni muhim savollar qarshisida uyg‘oq tutadi.

Ushbu fikrga munosabatingizni bildiring. Mulohazalaringizni mutolaa qilgan biror badiiy asarlaringiz g‘oyasi yoki qahramonlari misolida dalillang.

[1] Erkin Vohidov. Shoir-u she’r-u shuur: adabiy o‘ylar. – Toshkent: “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1987.

RESPUBLIKA MARKAZI



TERMALAR

Dars davomida:

- terma janri va xususiyatlarini o‘rganamiz;
- Shomurod baxshi Tog‘ay o‘g‘li hayoti va ijodi bilan tanishamiz;
- “Biyigul” termasini tahlil qilamiz.

Hurmatli o‘quvchi!

Siz quyi sinflarda og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqallangan “Ravshan”, “Alpomish” kabi o‘zbek xalq dostonlari bilan tanishgansiz. Ushbu dostonlarda aks etgan g‘oyalar, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash sizda katta qiziqish va hayajon uyg‘otgan.

Endi esa siz baxshining individual – yakka ijodi mahsuli bo‘lgan **terma** janri bilan tanishasiz. “Terma” so‘zi “terib aytmoq”, “tanlab termoq” ma’nolarini anglatadi. Termalar baxshilar tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Ularning hajmi odatda 10–12 misradan 150–200 misragacha bo‘lishi mumkin.

Termalarda baxshining hayoti, kundalik turmushda yuz berayotgan voqealar, ayrim kulgili holatlar, dostonlarning eng hayajonli parchalari, shuningdek, tinglovchilarga qaratilgan samimiy murojaatlar o‘z ifodasini topadi. Baxshining ilhomi ko‘p jihatdan tinglovchilarning munosabatiga bog‘liq bo‘ladi: iliq so‘z, e’tibor va hurmat baxshini yanada ruhlantiradi. Ana shunday paytlarda baxshi terma to‘qib, she’riy shaklda ijro eta boshlaydi. Shu jarayonda u keyinchalik kuylaydigan dostonining umumiy rejasini ham shakllantirib boradi.

Elimizning sevimli baxshilaridan biri Shomurod baxshi 1932-yil 3-mart kuni Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida tug‘ilgan. Uning otasi Tog‘ay shoir (baxshilar xalq orasida shoir deb ham ataladi) tuhmat va chaquvlar oqibatida olis va sovuq Sibirga oilasi bilan surgun qilingan. O‘sha paytda Shomurod yetti oylik chaqaloq edi. To‘qqiz oyligida esa onasi sovuq iqlimga moslasha olmay og‘ir shamollash oqibatida vafot etgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Shomurod baxshi opalarining qo‘lida tarbiya topib ulg‘aygan, ko‘plab sargardonliklarni boshidan kechirgan. Ushbu og‘ir sinovlar uning ijodida chuqur iz qoldirgan.

Bolaligi Sibirning bolalar uylarida Aleksandr Tumanov nomi bilan kechgan Shomurod baxshi Vatanga qaytgach, baxshichilik san’atining sir-asrorlarini, avvalo, otasidan, shuningdek, mashhur do‘mbira yasovchi usta Narzulladan puxta o‘rganadi. U “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avazxon”, “Nurali va Sherali”, “Malikayi ayyor”, “Ravshan” kabi an’anaviy dostonlar, “Guldana”, “Do‘mbiram”, “Biyigul”, “Jonim G‘irot – ko‘zim G‘irot” termalarining yuksak ijrosi bilan xalqimiz mehrini qozongan.



Shomurod baxshi Tog‘ay o‘g‘li.

Tog‘ay shoir o‘zining achchiq qismatini “Biyigul” termasida ifodalagan bo‘lsa, ushbu termani undan o‘rgangan Shomurod baxshi ijrosiga o‘z hayotidagi alamli iztiroblarni ham singdirib, asarga yanada chuqur mazmun va ta’sir bag‘ishlagan.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘zbekiston xalq baxshisi Shomurod baxshi Tog‘ay o‘g‘lining “Biyigul” termasi bilan tanishamiz. Mazkur termada XX asrning 30-yillarida begunoh insonlarning ayovsiz qatag‘on qilinishi bilan bog‘liq fojiali voqealar badiiy ifodasini topgan.

XX asrning 30-yillaridagi qatag‘ondan ko‘zlangan maqsad va uning oqibatlari haqida nimalar bilasiz? Fikrlaringizni dalillar bilan asoslang.

BIYIGUL

(Terma)

Jigit o‘lgur Mekkam chol,
Letiba[1]mdi sindirding.
Otam olib beruvdi,
Letibamdi sindirding.

Biyigul, Biyigul, Ravzangul,
Po‘pak[2]laring qirqtan[3] gul,
Otajon, norim-ay[4], begim-ay,
Sog‘indik, kelag‘ang...

Mo‘lla to‘rg‘ay tong sahardan sayraydi,
Mo‘lla to‘rg‘ay tong sahardan sayraydi.

Enajon, voy ena, ena-yay,
Nega mening otajonim kelmaydi?..

Ena qurg‘ur sochin jayib jilaydi,
Jilama, enajon, jon ena, jilama,
Jilag‘aning dushmanlaring bilama,
Yolg‘on aytmay rostin aytgin, ena-yo,
Otajonim Sibirlardan kelama?

Biyigul, Biyigul, Rangsangul, Ravzangul,
Po‘paklari qirqtan gul,

[1] **Letiba** – burunga taqiladigan halqa.
[2] **Po‘pak** – popuk.
[3] **Qirqtan** – qirqta.
[4] **Nor** – bir o‘rkachli erkak tuya. Baquvvat, mard yigitlarga nisbatan ham qo‘llanadi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



Voh-voy-ay, otajon, begim-ov, nasilim,
Sog‘indik, yetkirgil, Rabbim-ov.

Bilmaganim bildirding,
Poyezdlarga mindirding,
Sibirlarga surdirding.
Poyezd ketdi bel oshib,
Ponar-chirog‘in osib.
Ketib qoldim, yoronlar,
o‘zbek eldan odashib.

Bordik endi, yoronlar,
Sibirlarga en oshib.
O‘ldimov, ketdimov, otajon,
Kelag‘ang...

Uchar edim, qonatimdi qayirding,
Jurar edim, oyog‘imdan toyirding,
O‘zbekiston elimdan
hay-hay barxan ayirding,
Jigit o‘lgur Mekkam chol,
yashamagin, Mekkam chol,
Xudoy urg‘ur Mekkam chol.

Biyigul, Ravzangul,
Po‘paklaring qirqtan gul,
Voh-voy-ay, elim-ay, begim-ay,
Sog‘indim...

Karvon o‘tib boradi,
karvon o‘tib boradi,
Ikki o‘g‘loni karvonlarg‘a chovadi,
Otasini ko‘rolmagan bolalar
Enasiga kelib pinhon jiladi,
Ena-yo, voy ena, enajon...
Karvon keldi, otajonim kelmadi...
Uchovlashib bo‘tadayin bo‘zladik.
O‘ldimov, ketdimov, otajon, norim-ov,
Yetkirgin, Rabbim-ov.

Shomurod baxshidan
O‘ktam Hakimov yozib olgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Topshiriq

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hosila Rahimova ijrosidagi “Biyigul” termasini diqqat bilan tinglang.

1

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Terma matni va Hosila Rahimovaning ijrosi sizda qanday his-tuyg‘ular uyg‘otdi? Nima uchun?
2. Bolaning *“Jilama, enajon, jon ena, jilama”*, deya onasini yupatishga urinishidan nimalarni tuydingiz? Uning onasini *“Yolg‘on aytmay, rostin aytgin, ena-yo, otajonim Sibirlardan kelama?”* deya qayta-qayta savolga tutishi nimadan dalolat beradi? Bu holat orqali bolaning ruhiy kechinmalari va haqiqatni bilishga ehtiyoji haqida fikr yuriting.
3. Otasini kutib, karvon yo‘liga intizor bo‘lib, *“Sog‘indik, kelag‘ang…”,* deya ich-ichidan iztirob chekkan bolalar nega pinhona yig‘laydi? Ularning bor ovozi bilan yig‘lashiga to‘sqinlik qilayotgan omillar nima? Fikringizni matndan dalillar keltirgan holda asoslang.
4. Qaysi misralar orqali bolaning umidi hali so‘nmaganini sezish mumkin? Nima uchun?
5. Termadagi *letibaning sindirilishi, to‘rg‘ayning tong saharda sayrashi, poyezd, karvon* nimalarning ramziy ifodasi? Matn mazmunidan kelib chiqib, fikr bildiring.
6. Termada Mekkam cholga *“jigit o‘lgur”, “yashamagin”, “Xudoy urg‘ur”* deyiladi. Nega? Siz o‘qigan qaysi badiiy asarlarda chaquv orqali boshqalarga kulfat yetkazgan, Mekkam cholga o‘xshash obrazlar tasvirlanganini aniqlang va fikringizni dalillang.
7. Termadagi qaysi o‘rinlar onaning, qaysi o‘rinlar bolaning tilidan aytilgan deb o‘ylaysiz? Aniqlang va asoslang.

Topshiriq

Quyidagi ikki topshiriqdan birini tanlab, bajaring.

2

1. Termadagi qaysi so‘zlarni tushunishga qiynaldingiz? O‘sha so‘zlarning ma’nosi yoki adabiy tildagi muqobil variantlarini topib ko‘chiring.

2. Havola orqali “Biyigul” termasini Shomurod baxshi ijrosida tinglang.

Siz o‘qigan va tinglagan terma matnida qanday farqlar borligini aniqlang. Farqlar nima sababdan yuzaga kelgan deb o‘ylaysiz? Xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlarga tayanib, javob bering.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY (1441–1501)

Dars davomida:

- Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning xalqparvarligi haqida suhbatlashamiz;
- “Layli va Majnun” dostonidan parchalar o‘qiymiz va tahlil qilamiz.

Alisher Navoiy Sharq Uyg‘onish davrining yirik namoyandasi sifatida jahon tamadduni tarixida, ayniqsa, turkiyzabon xalqlarning madaniy va ma’naviy hayoti rivojida alohida o‘rin tutadi.

1469-yili maktabdosh do‘sti Husayn Xuroson taxtiga chiqqach, Navoiyni dastlab muhrdor, keyin amir – bosh vazir lavozimiga tayinlagan. Qolaversa, shoirga **“amir ul-muqarrab” – “shohning eng yaqin kishisi”** unvoni ham berilgan. Bu unvon hukmdorga bir masala yuzasidan to‘qqiz marotabagacha murojaat qilish vakolatini bergan.

Tarixchi Xondamir Alisher Navoiy hayoti haqida bitgan **“Makorim ul-axloq” (“Oliyjanob xulqlar”)** asarida bir voqeani keltiradi: Sulton Husayn Xorazm viloyatini obod qilish uchun Xurosondan uch ming oilani Xorazmga ko‘chirishga farmon beradi. Navoiy esa mazkur ish yaxshi maqsadda qilinayotgani, biroq aholiga moddiy qiyinchiliklar, sargardonliklar olib kelishini ta’kidlab, hukmdorni bu ishdan qaytarishga urinadi:

“A’lohazratning chiqargan muborak farmoniga muvofiq kamina har bir muhim masala borasidagi o‘z vaqtida bildiriladigan fikrimni to‘qqiz martagacha qayta-qayta aytishga haqli bo‘lganimdan kelib chiqqan holda, xalqni Xorazmga ko‘chirish masalasi to‘g‘risidagi fikrimni to‘qqiz marta ma’lum qildim, biroq natija bermadi. Hatto undan oshirib, o‘ninchi marta ham bu ishning oldini olish uchun sizga bosh og‘rig‘i bo‘ldim, lekin iltimosimning bajarilishiga erisholmadim. Endi iltimosimni yana bir marta takrorlayman va umid qilamanki, bu gal iltimosim inobatga olingay”, deb Sulton Husaynga o‘n birinchi marta murojaat qiladi. Natijada Xorazmga ko‘chiriladigan oilalar soni mingta etib belgilanadi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Navoiy o‘z mablag‘i hisobidan Hirot va boshqa shaharlarda bir necha madrasa, rabot, hovuz, ko‘prik, to‘g‘on, shifoxona, musofirxona va masjidlar bunyod etgan.

Xondamir Navoiyning saroy ehtiyojlari uchun ham xayriya qilganini quyidagicha yozib qoldirgan: *“Shunday holatlar ham ko‘plab yuz berganki, Sohibqiron Sulton saroyi amaldorlari ayrim zaruriy xarajatlar uchun katta miqdordagi pulni (soliqlar sifatida to‘lash uchun) xalq zimmasiga yuklamoqchi bo‘lishganida, qalbi dengizday keng bo‘lgan bu Amir xalq qiynalib qolmasligi va bu narsa saltanat qasri poydevorining larzaga kelishiga sabab bo‘lmasligi uchun o‘sha pulni o‘z xazinasidan to‘lab yuborardi”.*

O‘ylab ko‘ring

Agar Navoiy Sulton Husaynning farmoniga e’tiroz bildirmaganida, sizningcha, bu qarorning xalq osoyishtaligi va davlat barqarorligiga qanday ta’siri bo‘lishi mumkin edi? Fikringizni asoslang.

Tavsiya

“Xalq yuragi” turkumida suratga olingan **“Alisher Navoiy”** tarixiy-hujjatli filmini ushbu havola orqali tomosha qiling.

Manba: Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi.

3

MUTOLAADAN OLDIN

“Layli va Majnun” asari turkiy tilda ushbu mavzuda bitilgan ilk doston bo‘lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy dostonlarini chuqur o‘rganadi. Xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an’analardan ijodiy foydalangan holda dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, *“afsonaga yangi libos kiygizadi”.*

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, adabiyotda *“yangi libos”* tushunchasi nimani anglatadi va u asarning mazmuni hamda g‘oyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin? Taxminlaringizni asoslang.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. Muqaddima 9 bobni qamrab oladi. Dostonning asosiy qismi 10-bobdan boshlanadi. Unga ko‘ra, arablarning Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan farzand – Qays dunyoga keladi. Qaysning tug‘ilishi, o‘sishi tasvirida ham ilohiy taqdir sezilib turadi…

Eslatma

Quyida dostondan parcha nasriy bayoni bilan taqdim etilmoqda. Biroq nasriy bayonni o‘qish bilangina Navoiyni kashf qilib bo‘lmaydi. Siz asar matni ustida ishlaganingizda har bir misrani mustaqil tushunishga harakat qiling.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

LAYLI VA MAJNUN

(Dostondan parchalar)

Arabiston diyorida saxovati va mehmondo‘stligi bilan tanilgan bir badavlat kishi yashar edi. Uning osig‘liq qozoni o‘choqdan hech tushmas, gulxanining olovi tun-u kun pasaymasdi. Sahroda yo‘l yo‘qotganlarga bu olov qorong‘i kechadagi yorug‘ yulduz kabi ko‘rinardi. U bilimni kasb, saxovatni hunar qilib olgan, ot-u tuyalari, qo‘y-qo‘zilari son-sanoqsiz edi. Biroq tez o‘tuvchi umridan qayg‘uda, mol-dunyosi ko‘p bo‘lsa-da, farzand orzusida edi.

Qabila boshlig‘i Tangriga ko‘p yolvorib, maqsadiga – farzand ne’matiga erishdi. Unga o‘z otasining ismini berdi: Qays deb ot qo‘ydi. Go‘dakning zoti ishq sharofatidan el ko‘ziga shirin va azaliy dardning haroratidan xalq nazariga issiq ko‘rinardi.

Qays nafaqat oddiy voris, balki ishq ahlining murod qiblasidir. Uning dunyoga kelishi oddiy emas, balki bashariy qatradan bo‘lgan ma’no sadafining ishq gavhari, jon gulshanining yorug‘ shabadasidir. Ishqning o‘zi uning yonog‘ida tovlanib, vafo farmonlari yuzida ko‘rinar edi. Ishqning buyuk hukmi ostida uning ko‘ksidagi abadiy dard xursandchilik nag‘masini chalar, u tufayli dunyodagi g‘am lashkari talvasaga tushardi.

Go‘dak dunyoga kelishi bilan uning qismatiga yozilgan balo seli darhol o‘z ofatiga yo‘l ochib, bolaning ko‘zini ochdi. Bebosh firoq uning boshini silab, “bu bosh ustiga tosh yog‘diraman”, deb qasam ichdi. Shu bilan birga, dard ham uning og‘zini yuvib, “bu yerdan chiqadigan oh-u nolalar o‘tlarini falakka o‘rlataman”, dedi. Ishqning o‘zi uning ko‘ngliga moyil bo‘ldi va “bundan boshqa pok va abadiy manzil yo‘q”, deb Majnun qalbiga butunlay joylashib oldi.

Qays ota-onasining cheksiz mehr-muhabbati ostida voyaga yetdi. So‘zlashni o‘rganishi bilan uning aqlli so‘zlari xalq orasida yoyilib, odamlar uni ko‘rishga kela boshladi. Ota-onasi uni ko‘z qorachig‘idek asrab, yomon ko‘zlardan saqlashga intilardi.

Qaysning yoshi to‘rt-besh oralig‘ida bo‘lganda otasi unga ta’lim berish vaqti yetganini angladi. O‘g‘lini o‘qitish uchun uzoqdagi qabila sardorining uyida maktabdorlik qiluvchi ustozni izlab topdi. Bu ustoz Layli ismli go‘zal va dono qizga ham ta’lim berar edi. Qays maktabga borib, g‘ayrat bilan ta’lim olishga kirishdi.

Betobligi sababli maktabga qatnamayotgan Layli tuzalib qaytganida ustoz shodlanib, shogirdlarni gulshan sayriga chiqardi. Shu sayr chog‘ida Qays Laylini ko‘rib, hushini yo‘qotdi. Haq ishqi uni egallab oldi va u Laylini har ko‘rganida hushidan keta boshladi. Uning piri ham, ustozi ham endi ishq edi.

Ishq o‘ti Qaysning ixtiyorini qo‘lidan oldi. U mahbubasining uyi tomon ketar ekan, beixtiyor, mast odamlardek yiqilib-turib borar, yo‘lida uchragan alanga (o‘t) va itga xitob qilib, ularni o‘zining hijron tunidagi do‘sti va ma’shuqasining ostonasini o‘puvchi hurmatli posbon deb ulug‘ladi. Uning bu holati qabila ahli orasida afsonaga aylanib, uni “Majnun” – telba, deya atay boshladilar.

Majnun haqidagi xabardan Laylining otasi g‘azablandi. U Majnunning otasiga tahdidli xabar yuborib, o‘g‘lining telbaligini to‘xtatish uchun zanjirband etishni, aks holda uning qa-

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

bilasini dashtdan yo‘qotishini aytdi. Qaysning otasi nomani javobsiz qoldirdi. Qabila ahli Majnunni dashtdan topib, uyiga olib keldi-da, zanjir bilan bog‘lab tashladi.

Ayni shu paytda Laylining chiroyiga shaydo bo‘lgan Bani Asad qabilasining boy va obro‘li boshlig‘i Ibni Salomdan sovchi keldi. Laylining otasi Ibni Salomning mol-u davlati va obro‘sini bilgani uchun xursand bo‘lib, rozilik bildirdi. Biroq qizi betobligi sababli biroz sabr qilishni so‘rab, sovchilarni ko‘ndirdi.

Oradan vaqt o‘tib, ishq otashi va ko‘z yoshlari ta’siridan Majnunning zanjiri uzildi va u yana uydan chiqib, jamiyatni unutgan holda dasht tomon qochdi. Ota-onasi g‘am chekib, uni izladi, topa olmagach, Allohga iltijo qilib, sadaqa berishga qaror qildi…

Haj mavsumi boshlangach, ular Majnunni topib kelib, Ka’baga olib ketdi.

Majnun Ka’bani ko‘rishi bilan ko‘z yoshlari yomg‘ir kabi oqib, chaqindek sakrab turib, xuddi yer atrofida falak aylanayotgandek, Ka’ba atrofida aylanib yura boshladi. Nihoyat u yuzi bilan Ka’baning eshigini supurib, qo‘lini uning halqasiga qo‘ydi va faryod ko‘tardi.

O‘ylab ko‘ring

Doston boshida Qaysning tug‘ilishini “ilohiy taqdir” bilan bog‘lab tasvirlanishi asarning keyingi voqealari haqida qanday ishoralar beradi deb o‘ylaysiz?

20-bob

Otasi Majnunni ishq biyobonidan keltirib, Ka’ba ziyoratiga olib borgani va u munojot bahonasi bilan ko‘nglidagi yaralarni yorgani va duo qilmoq ohangi bilan ko‘nglidagi maxfiy maqsadini tilidan chiqargani va Arafot ahli orasida g‘avg‘o ko‘targani[1].

Asl matn	Nasriy bayon
Dediki: “Ayo Hakimi Dono, Har hukmda hokim-u tavono!	Dediki: “Ey hukmiga hokim bo‘lgan dono va qudratli hakim!
Ey ishq o‘tin aylagan jahonso‘z, Andin meni notavonni jonso‘z.	Ey ishq o‘ti bilan jahonni yondirgan va bu ishq o‘ti bilan mendek bechoraning ham jonini kuydirgan!
Ey urg‘on ul o‘tni xirmanimg‘a, Xirman neki, jon bila tanimg‘a!	Ey u o‘tni xirmonimga, xirmon ham emas, balki jonim va tanimga urgan!
Ey ishq angakim, mulozim etgan, Hijron o‘tin anga lozim etgan!	Ey ishqni kimsaga hamroh qilib, ayriliq o‘tini loyiq ko‘rgan!
Ey kimgaki ishqdin solib band Talx aylab anga nasihat-u pand!..	Ey birovni ishqqa kishanlab, pand-nasihatlarni unga achchiq qilgan!
Ey kimniki aylagan parichehr, Devonasi sori bermagan mehr!	Ey birovni parichehra etib, uni devonasiga bemehr qilgan!

[1] D. Yusupova va O. Davlatov nashrga tayyorlagan “Layli va Majnun” dostoni matniga tayanildi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Ey jon aro solib ozari ishq, Ko‘ngul sadafida gavhari ishq!	Ey jonga ishq olovini, ko‘ngil sadafiga ishq gavharini to‘ldirgan!
Ishq ichra bukun meni shikasta Kelmishmen asir-u poybasta.	Men ishq dardidan shikast yeb, bugun qo‘l-oyog‘i bog‘langan bir asir bo‘lib keldim.
Har rag tanim ichra ishq bandi, Jon rishtasi ishqning kamandi.	Tanimning har bir tomiri ishqqa bandi, jonimning iplari esa ishqning kamandi bo‘libdi.
Tori badanim aro bo‘g‘unlar, Ham ishq tanobidin tugunlar.	Badanimdagi asab va tomirlarning bo‘g‘inlari ishq chilvirlarining tugunlaridir.
Jismim aro dog‘i begarona, Ishq o‘tlaridin kelib nishona,	Vujudimdagi cheksiz dog‘lar ishq o‘tlari belgilaridir.
Mamlu’ aning o‘ti birla jonim, Jonim neki, mag‘zi ustuxonim.	Uning o‘ti bilan jonim to‘la, jon nimasi, ilik suyaklarim to‘la.
Bu ishq o‘tikim bayon qilurmen, Muhlik g‘amini ayon qilurmen.	Bu ishq o‘tini bayon qilish bilan halokat keltiruvchi g‘amni ham ayon etaman.
Demonki meni tarabg‘a xos et, Yoxud g‘ami ishqdin xalos et!	Ishq g‘amidan qutqarib, meni shodlantir, demayman!
Dermenki manga bu o‘tni hardam, Afzun qil-u, qilma zarraye kam!	Aksincha, bu o‘tni har dam ko‘paytirsang-u, sira kam qilmasang, deyman!
Chek aynima ishq to‘tiyosin, Ur qalbima ishq kimiyosin!	Ko‘zimga ishq to‘tiyosini sur, yuragimga ishq kimyosini ur!
Ko‘nglumga fazo harimi ishq et, Jonimg‘a g‘izo nasimi ishq et!	Ko‘nglim jilvagohi ishq sahnasi bo‘lsin, ishq nasimidan jonimni yayrat!
Ishq isidin et damimni mushkin, Ishq o‘tidin et yuzumni rangin!	Ishq bo‘yidan nafasimni xushbo‘y et, ishq o‘tidan yuzimga rang ber!
Bo‘ynum uza, “ayn”in aylagil tavq, “Shin”in qil ichimga shu’layi shavq.	“Ishq” so‘zining “ayn” harfini bo‘ynimga halqa va “shin”ini ko‘nglimga shavq shu’lasi deb kirit.
“Qof”in manga ayla ko‘h-u anduh, Ko‘nglumga g‘amini ko‘h to ko‘h.	“Qof”ini menga g‘am tog‘i et-da, g‘amini esa ko‘nglimga tog‘-tog‘ qilib ort.
Uch nuqtasini sharora ayla, Ikkisini ikki xora ayla.	Uch nuqtasini uchqun aylab, ikki nuqtasini qattiq toshga aylantir.
Ul shu’lag‘a ham kerak sharora, Bu qofg‘a dog‘i xora pora.	U shu’laga ham uchqun kerak bo‘lgani kabi bu g‘am tog‘iga ham tosh parchalari lozim.
Jonimg‘a sol ul sharorani ham, Boshimg‘a ur ushbu xorani ham.	O‘sha uchqunlarni ham jonimga sol, tosh parchalarini esa boshimga yog‘dir!

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Yuz munchag‘a elni moni’ etma, Ming munchag‘a meni qoni’ etma!	El menga shuncha azob bersa ham qaytarma, ming shuncha azoblarga meni qondirma!
Ko‘nglum g‘am ila to‘q ayla, yo Rab! Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo Rab!	Ko‘nglimni g‘am bilan to‘q etgil, Rabbim; ishq ichida meni yo‘q etgil, Rabbim!
Derlar manga “Ishqni unutg‘il, Layli g‘amidin kanora tutg‘il”.	Menga “Ishqni unutib, Layli g‘amidan uzoqlash”, deb aytadilar.
Alloh-Alloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay, Ul qavmg‘a Tengri uzr qo‘lg‘ay.	Ajabo, bu nima degan so‘z, Tangri u kishilarni afv qilsin.
Yo Rabki, bu xushguvor boda, Jomi talabimg‘a quy ziyoda!	Yo Rabbim, bu lazzatli bodani talabim jomiga ko‘proq quy!
Ul bodadin o‘yla tut manga qo‘sh Kim, yodima hargiz o‘tmasun hush!	U maydan menga qo‘sha-qo‘sha tut, toki hushimga hargiz kelmayin!
Layli ishqin tanimda jon qil, Layli shavqin ragimda qon qil!	Laylining ishqini tanimda jon etib, Layli shavqini tomirimda qon qil!
Dardini najotim et, Ilohi, Yodini hayotim et, Ilohi!	Ey Tangrim, Layli dardini najotim ayla, yodini esa hayotim ayla!
Hardamki emas aning xayoli, Ko‘nglum uyin andin ayla xoli!	Bir lahza ham uning xayolini ko‘nglim uyidan chiqarma!
Har o‘tki yo‘q anda ishq so‘zi, Men xastag‘a qilma oni ro‘zi!	Ishq o‘ti bo‘lmagan olovni men xastaga nasib etma!
Huyiki emas aning g‘amidin, Fosh etma bu telbaning damidin.	“Yohu”larim uning g‘amidan bo‘lmasa, unday ohni men – devonaning damidan chiqarma!
Dardimg‘a xayolini tabib et! Jonimg‘a visolini nasib et!	Uning xayolini dardimga tabib et! Vaslini jonimga nasib et!
G‘ayrin nazarimda foni ayla, Mehrin manga jovidoni ayla!	Nazarimni Laylidan o‘zgasiga tushirma, uning mehrini menga abadiy et!
To bo‘lsa hayotdin nishonim, Savdosini qil tan ichra jonim!	To hayot ekanman, uning ishq savdosini tanimda jonday saqla!
Jon chiqsa bu jismi notavondin, Yodi bila o‘q chiqor jahondin…	Bu notavon tanimdan jon chiqsa, uning yodi bilangina jahondan chiqar!
Do‘zax manga yetsa jovidoni, Ishqi o‘tidin qizitqil oni.	Abadiy do‘zaxga tushish mening qismatim bo‘lsa, uni Layli ishqi o‘ti bilan qizit!
Jannat sari cheksa sarnavishtim, Vasli haramini qil bihishtim.	Manglayimda jannatga tushish bitilgan bo‘lsa, uning vasl haramini jannatim et!
Onsiz meni bir dam etma mavjud, Budumni qil onsiz o‘lsa nobud!”	Usiz meni bir nafas ham yashatma, uningsiz tirik bo‘lsam, nobud qil!”

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Topshiriq

1. **Nasriy bayonga tayanib, quyidagi so‘zlarning izohini yozing:**

Ozar		*Muhlik*		*Xora*	
Rag		*Harim*		*Jovidon*	
Mamlu’		*Sharora*		*Sarnavisht*	

2. Majnun munojotida ritmik ohangning ta’sirchan chiqishida eng ko‘p o‘rin tutgan badiiy vositalardan biri tarse’ san’atidir. Poetika ilmida baytning birinchi misrasidagi so‘zlarning ikkinchi misradagi so‘zlar bilan o‘zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo‘lishiga asoslangan san’at tarse’ deb ataladi. Masalan:

Dardini najotim et, Ilohi,
Yodini hayotim et, Ilohi!

Munojot tarkibidan ana shunday baytlarni topib, yozing.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Majnunning Ka’badagi munojotida Allohdan najot yoki yengillik emas, balki ishq azobining ko‘payishini so‘raydi. Sizningcha, bu holat Majnunning ruhiy olami va ishqqa munosabati haqida qanday xulosalar chiqarishga undaydi?
2. Parchada ishq *“o‘t”, “kishan”, “kamand”, “tog‘”, “g‘am”, “chilvir”* kabi timsollar orqali tasvirlanadi. Bu obrazlar Majnunning ichki kechinmalarini qanday ochib beradi?
3. Majnun ishq dard va halokatga yetaklashini bilsa-da, undan voz kechishni istamaganining sababi nimada? Navoiy ushbu holat orqali nima demoqchi?
4. “Ishq” so‘zi tarkibidagi harflarga badiiy ma’no yuklanishi (ayn, shin, qof) sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Bu usul Navoiyning so‘z san’atkori sifatidagi mahoratini qay darajada ko‘rsatadi?
5. Majnun Layliga kuchli muhabbatini Tangriga iltijosi bilan bog‘lab ifodalaydi. Sizningcha, Majnunning bu tuyg‘usini shunchaki ikki inson o‘rtasidagi oddiy muhabbat deb atash mumkinmi yoki u allaqachon ilohiy darajaga ko‘tarilganmi? Fikringizni parchadan misollar keltirish bilan asoslang.



“Tavba”. Rassom Akmal Nur.

Topshiriq

O‘zbekiston xalq rassomi Akmal Nurning “Tavba” suratini munojot matni bilan bog‘lab tahlil qiling.

Tavsiya

Dostondagi “Munojot”ni O‘zbekiston xalq artisti Afzal Rafiqov ijrosida tinglang.

4

Manba: O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi arxivi.

RESPUBLIKA MARKAZI

HIJRON MAKTUBLARI

Majnun Ka'baga yetib borgach, cheksiz shavq va hayajon bilan uning atrofida aylanib, yig'lab, Ka'ba eshigining halqasiga yopishib faryod urdi. Uning dardli munojotini eshitgan hojilar lol qoldi, otasi esa hushidan ketdi. Bu holat hech bir kuch Majnunni ishqdan judo qila olmasligini barchaga isbotladi.

Uyga qaytarilgan Majnun yana sahroga qochdi va u yerda ovga chiqqan lashkarboshi Navfalga duch keldi. Navfal o'z vaqtida ishq dardini boshdan kechirgani uchun Majnunga rahmi kelib, uning dardiga malham bo'lish maqsadida Layliga sovchi yubordi. Laylining otasi rozi bo'lmagach, Navfal urush boshladi. Urush paytida Laylining otasi g'azablanib, qizini o'ldirishga qasd qilgach, buni tushida ko'rgan Majnun Navfaldan urushni to'xtatishni iltimos qildi.

Sahroda yurgan Majnunga Layli qabilasidan Zayd ismli kishi duch keldi. Zayd o'zining Layli qabilasiga aloqador ekanini aytib shikoyat qilgach, Majnun Navfalning lashkarlari qilgan ishlarga sababchi o'zi ekanini tan oldi. U barcha narsasi (oti, kiyimlari, qurol-aslahasi)ni Zaydga berib, undan Layliga salomi va uzrini yetkazishni so'radi.

Zayd Majnunning kimligini bilib, unga hayrat bilan boqdi va Laylining ham Majnun g'ami bilan yashayotganini aytdi. Zayd Layliga borib, xabarni yetkazgach, Layli juda shodlandi, Zaydga pul in'om etdi va Majnunga yetkazish uchun maktub yozib berdi. Shunday qilib, Zayd ikki oshiq o'rtasida elchilik vazifasini ado etib, ularning sadoqatiga vositachi bo'ldi.

LAYLINING MAKTUBI

(26-bobdan parcha)

"Ul Tengri oti bila bu manshur[1]
Kim, berdi ko'ngulga ishqdin nur...

Kim, "Ushbu raqamki naqshi Chindur,
Bir xastag'a bir shikastadindur.

Ya'ni meni zor-u mubtalodin,
Sangaki qutulmading balodin.

Ey ishq o'tida xasim, nechuksen?
Ey bedil-u bekasim, nechuksen?..

Ey furqatim ichra gar yog'ib tosh,
Ming tosh yebon yashurmayin bosh!

Ey hajrim o'tida gar bo'lub kul,
Har shu'la ko'runubon anga gul!

Ey xori g'amimni jong'a urg'on,
Gulbong[2]in aning jahong'a urg'on!

Ey silsilayi junun elingda,
Dad quyrug'idin rasan[3] belingda.

Holing nedurur firoqim ichra?
Fikring nedur ishtiyoqim ichra?

Sochingga yopushsa xor-u xoshok,
Kim tortar ekin birin-birin pok?

[1] **Manshur** – farmon.

[2] **Gulbong** – baland ovoz, nola qilish, jar solish.
[3] **Rasan** – arqon, ip.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Farqingki emish qush oshyoni,
Kim urkutur[1] erkin andin oni?

Boshingki, sipehr ushotti darham,
Kim bog‘lar ekin alarg‘a marham?

O‘ltursa yuzungga gard-u xori,
Kim oritur erkin oni bori?

Jismingki qonasa g‘am toshidin,
Kim yur ekin oni ko‘z yoshidin?

G‘am za’fida dasht uzra yotsang,
Qum bistar[2] ekin ayog‘ uzotsang.

Tun boshinga vahsh o‘lur ekin jam’,
Ollingda bo‘ri ko‘zi ekin sham’.

Qon yutqali istasang piyola,
Topilmas ekin magarki lola...

Kim, tun-u kun o‘lg‘amen rafiqing,
Yo‘lsiz yugururda hamtariqing.

Sen bo‘lsang-u men jahonda mavjud,
Bo‘lsa yana koinot nobud.

Gah sobit-u, gah jahonda sayyor,
Yo‘q dahr diyori ichra dayyor[3]...

Naylayki sipehri harzanovard[4],
Qildi bu muroddin meni fard.

Sening nechakim g‘amingg‘a yo‘q mahl[5],
Chun er kishisen bu sahl erur, sahl[6]...

Miskin meni zor-u poybasta[7],
Yo‘q, yo‘qki, zaifi poshikasta[8]...

Bo‘lmoq yuz alam uyida mahbus,
Bir yon, yana bir yon o‘ldi nomus...

Bu mehnati ishq pech[9]-darpech,
Nomus chu ketti barchasi hech...

Sensizki g‘amim dame kam ermas,
Sendin gar emas ko‘p, oz ham ermas.

Sen tortibon ohi otasholud[10],
Men o‘t yoqibon chiqormayin dud...

Men muncha baliyat[11] ichra xushdil
Kim, yorg‘a kom bo‘lsa hosil.

Gar voqea juz halok emasdur,
Yuz muncha ham o‘lsa bok[12] emasdur...

Yovar[13] sanga Haq taborak o‘lsun,
Bu xayr ishing muborak o‘lsun.

Bo‘lsang necha oning ila xurram,
Yod ayla gahi bu xastani ham.

Insofg‘a ham kanora[14] tutma,
Bizni dag‘i bir yo‘li unutma”...

Laylidan kelgan maktubni o‘qish Majnunni qamishdek zaiflashtirib yubordi. U Zayd oldida bosh qo‘yib, yig‘ladi va “Bu nomaga javob yozish uchun asboblarim yo‘q”, deb aytdi. Zayd buni oldindan o‘ylab, kerakli narsalarni – qog‘oz, qalam va siyohni olib kelgan edi. Majnun darhol sevgilisining maktubiga javob yozdi. Zayd javobni olib, vaqtni boy bermay, tezda Layli qabilasi tomon yo‘l oldi.

[1] **Urkutur** – hurkitar.
[2] **Bistar** – ko‘rpa-yostiq.
[3] **Dayyor** – yashovchi.
[4] **Harzanovard** – behuda kezuvchi.
[5] **Mahl** – fursat.
[6] **Sahl** – oson.
[7] **Poybasta** – oyog‘i bog‘liq.
[8] **Poshikasta** – siniq.
[9] **Pech** – o‘ralish.
[10] **Otasholud** – olov aralash, olovli.
[11] **Baliyat** – balo, ozor, mashaqqat.
[12] **Bok** – qo‘rquv, xavf.
[13] **Yovar** – madadkor.
[14] **Kanora** – qirg‘oq, chet.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

MAJNUNNING MAKTUBI

(27-bobdan parcha)

“Ul Tengri oti bila bu noma
Kim ishq elidin ko‘tardi xoma[1].

Fardeki, yo‘q avval-ibtidosi
Hayyeki, yo‘q oxir-intihosi…

Kim “Ushbu g‘am-u alam bayoni,
Jon safhasida bag‘ir nishoni.

Mendinki ichim g‘amingda qondur,
Sangaki g‘aming tanimda jondur…

Ne haddim ila duo degaymen,
Yuz madh bila sano degaymen?

Madhing degali dag‘i qoni til?
Bo‘lsa de olurmu ham oni til?

Kun vasfini qilmoq oshkoro,
Xuffosh[2] tiliga qayda yoro?..

Ey kishvari husn podshohi,
Husn ahli bu kishvaring sipohi.

Ey noz-u karashma bog‘ida vard[3],
Ne vard, bahori nozparvard[4].

Ey lutf jahonining bahori,
Yuzung bu bahor lolazori.

Bo‘lg‘onda sahar yeli gulafshon[5],
Zulfungnimu aylamas parishon?..

Sarmast ko‘zungki erdi bemor,
Sog‘ o‘lmog‘i bo‘ldimu padidor[6]?

Ruxsoring o‘tida xoli hindu[7],
O‘zidek ulusni kuydururmu?

Gulbarg uza sunbulung tushub hech,
Qil yanglig‘ ururmu o‘t aro pech?

Yuzung xay[8]i-yu soching tanobi,
Bormu ul ikovning ob-u tobi?

Og‘zingki adamda bor edi gum,
Aylarmu ayon ani takallum[9]?

Qadding qilibon havoyi raftor[10],
Aylarmu jahon elin giriftor?

Noz uyqusidin ocharmusen ko‘z,
Yuz noz ila elga dermusen so‘z?

Ko‘yungdaki yo‘q mening kibi xas,
Xasdin dag‘i qadr ichinda vopas[11].

Bu ermish irodayi ilohiy,
Kim, sirrini bilmas el kamohi[12].

Kim, ko‘zki o‘yulg‘ay erdi, ey kosh,
Ne ko‘zki, kesilgay erdi bu bosh.

Ul orazi dilrabog‘a tushgay,
Jon birla ko‘ngul balog‘a tushgay.

---

[1] **Xoma** – qalam.
[2] **Xuffosh** – ko‘rshapalak.
[3] **Vard** – atirgul.
[4] **Nozparvard** – noz qilishga o‘rgangan.
[5] **Gulafshon** – gul sochuvchi.
[6] **Padidor** – paydo bo‘lgan, ko‘ringan.
[7] **Hindu** – qora tusli.
[8] **Xay** – ter tomchisi.
[9] **Takallum** – so‘zlash, gapirish.
[10] **Raftor** – yurish.
[11] **Vopas** – orqada.
[12] **Kamoh** – mohiyat.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Fikr etsam edi bu nav’ o‘zumni
Ko‘r etgay edim iki ko‘zumni.

Men kim edim-u bu dardi jovid[1],
Zarra boshida havoyi xurshid.

Bexost yuzunga bir nigohim,
Tushganga mening nedur gunohim.

Kim, muncha kelib balo boshimg‘a,
Yuz dard-u balo qaro boshimg‘a.

Devona bo‘lub chiqib jahondin,
Ovora diyor-u xonumondin.

Har kun vatanim bir o‘zga vodi,
Har tun yana bir daman savodi.

Qum nat’i bo‘lub mening sarir[2]im,
Kun qursi bo‘lub mening fatirim.

Ot manga jibol[3] qulla[4]sidin,
To‘n manga samum[5] hullasidin.

Gah yor-u musohib[6]im dad[7]-u dom[8],
Gah tutmay alar bila ham orom.

Dasht uzra chu vahshatim topib tul,
G‘am topib vahsh, bal qochib g‘ul[9]...

Bu za’f bila chu po‘ya[10] qilib,
O‘rgamchi tanobidin yiqilib...

Bu damki guharnisor[11] xomang,
Tahrir etibon yetishti nomang.

Alfoz[12]in o‘qurda ruh toptim,
Har harfida yuz futuh[13] toptim...

Devonamen, ey parisifat hur,
Ma’zurdur ulki tutsa ma’zur...

Yo‘qluq manga gar bo‘lubturur yo‘l,
Sen bor bo‘l-u, bu yo‘qqa yor o‘l.

Iqbol ila baxt yoring o‘lsun,
Jonlar naqdi nisoring o‘lsun”.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Layli maktubidagi *“Nomus chu ketti, barchasi hech”* misrasini qanday tushundingiz? Ushbu satr Laylining axloqi, ichki iztirobi va ruhiy holatini qay darajada ifodalaydi?
2. Majnun maktubida o‘zini zarraga, Laylini esa quyoshga qiyoslaydi. Shuningdek, quyoshni “non”, issiq shamolni “kiyim” deb ataydi. Bu tashbehlar orqali oshiqning ma’shuqaga munosabati va Majnunning hayotiy ehtiyojlari qanday talqin qilingan?
3. Layli maktubida xavotir, savollar va iztirob ohangi ustun bo‘lsa, Majnun maktubida qismatga ko‘nish va shukrona ruhi kuchli. Navoiy bu ruhiy farqni qaysi badiiy vositalar orqali ochib bergan?
4. Maktublarning qaysi o‘rnida oshiqlar bir-birining holidan xabar oladi va o‘z kechinmalarini bayon etadi? Ushbu joylarni aniqlab, ularning mazmunini izohlang.

[1] **Jovid** – abadiy.
[2] **Sarir** – karavot, so‘ri.
[3] **Jibol** – tog‘lar.
[4] **Qulla** – cho‘qqi, tog‘ cho‘qqisi.
[5] **Samum** – shiddatli garmsel, issiq shamol.
[6] **Musohib** – suhbatdosh.
[7] **Dad** – yirtqich.
[8] **Dom** – tuzoq.
[9] **G‘ul** – dev, jin.
[10] **Po‘ya** – yugurish.
[11] **Guharnisor** – gavhar sochuvchi.
[12] **Alfoz** – so‘zlar.
[13] **Futuh** – sharaf, marhamat.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ijodiy ish

1. Ikki maktubdan quyidagi she’riy san’atlar qo‘llangan misralarni aniqlab, yozing.

Tashbeh	
Tazod	
Tanosib	
Mubolag‘a	

2. To‘rt guruhga bo‘lining. I va II guruh Layli maktubidan, III va IV guruh Majnun maktubidan 5 baytdan tanlab, nasriy bayonini tayyorlaydi. Quyidagi bosqichlarga amal qiling:

1-bosqich: izohli lug‘at asosida notanish so‘zlarning ma’nosini aniqlang;

2-bosqich: misralardagi so‘zlarni zamonaviy gap qurilishi shakliga keltiring;

3-bosqich: matndagi ramzlar, o‘xshatishlar va ko‘chma ma’nolarni tushunib oling;

4-bosqich: har bir misraning mazmunini nasriy matn shaklida yozing (bunda avvalgi darslarda o‘rganilgan 20-bob uslubiga amal qilish tavsiya etiladi).

Tavsiya

Dostondagi notanish so‘zlarning ma’nosini aniqlash uchun ushbu havola orqali 4 jildli **Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati**dan foydalanish tavsiya qilinadi.

5

Manba: ziyouz.uz sayti.

BIR BADANDA IKKI RUH

Majnundan maktubni olgan Zayd yo‘lga tushdi. Borib, maktubni Layliga topshirdi.

Layli bu maktubni o‘qigancha, ko‘p iztirob chekdi, undagi har bir so‘z ustida fikr yuritar ekan, necha bor o‘zini o‘zi koyidi, alam chekdi. O‘z maktubidan xijolat chekib, bu nomadan ko‘ngli to‘ldi-yu, maktubni Majnunga o‘xshab o‘zi uchun tumor qilib oldi.

Majnunning g‘amgin otasi, yuz alamga mubtalo bo‘lgan onasi o‘g‘lidan ayrilgandan beri uning dardida iztirob chekardi. Otasi bir kuni farzandini izlab topish, uning oldida zor yig‘lab, nasihat qilish va uyga qaytishga ko‘ndirish niyatini diliga tugib, sahro sari yo‘l oldi. Dashtni bir necha kun kezib, oxiri uni bir vayrona ichidan topdi.

Majnunga bu vayrona uyidan ko‘ra afzalroq bo‘lib, o‘zi esa undan ham xarobroq edi. Devonaligi haddidan oshib ketgan, goh chumoli tutib o‘ldirar, goh tuproqdan go‘r yasar, goh boshiga tuproq sochib, goh tishi bilan tirnoq olar, goh eski devor ustiga minib olib, ot choptirgandek harakatlar qilar, goh yuzlarini chimdir, goh yenglarini chaynar, goh boyqush sayrog‘iga qo‘shilib kuylar, goh boyo‘g‘li yuzidagi changlarni artar, qonli ko‘zlarini tikan-u cho‘p bosib ketgan, ular kipriklaridan ham ko‘proq edi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Otasi bu holatni ko‘rgach, hayratdan qotib qoldi. “Subhonolloh, bu qanday ahvol? Odamga o‘xshamaydigan bunday kimsani kim ko‘rgan ekan?” deb so‘ylanar ekan, o‘g‘lining oldiga qarab yurdi. Majnun otasini ko‘rgach, uni tanimadi-da, o‘zini panaga oldi. Otasi yoqasini yirtib, faryod chekdi-da, so‘ng Majnunga murojaat qildi: “Ey yuz yaralig‘ bag‘rim porasi, nega mendin o‘zingni chetga olyapsan?” Majnun uning o‘z otasi ekanini bilib, oh urib oldiga yiqildi. Otasi uning boshini ko‘tarib, bag‘riga bosdi, ikkovi bir-birini mahkam quchoqladi.

Navfal Majnun uchun yana bir chora sifatida qizini unga berishga qaror qiladi. Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig‘i Ibni Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo‘lishni taklif qiladi. Ibni Salomning esa quyonchiq (tutqanoq) kasali qo‘zg‘ab, behush yiqiladi.

Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadi. Navoiy bu uchrashuvni chuqur hayajon bilan tasvirlaydi. Ular bir-birining vasliga yetishgan damlarda butun borliq ularga madad ko‘rsatadi, osmon jismlari, yerdagi barcha tirik mavjudot sukutga cho‘madi, oshiq-ma’shuqlarga xayrixohlik qiladi. Layli va Majnun ruhan birlashadi, ikkilik o‘rnini birlik – tavhid egallaydi. Navoiy ularning vasli poklikdan ayri bo‘lmaganini aytadi. Shoirning fikricha, ishq ahli ulardek pok bo‘lar ekan, ularga abadiy vasl muyassar bo‘lsa, ne ajab. Zero nafs maqsadida oshiq bo‘lganlar uchun oshiqlik haromdir.

Majnunning yarim kechada Navfal uyidan chiqib, dasht tomon ketganini bilgan ota-onasi el oldida uyalganidan g‘am ostida qoldi. O‘sha zahotiyoq uy tomon yo‘l olishdi, yetib borishgach, otasini isitma tutib, to‘xtovsiz terlab, to‘shakka mixlanib qoldi. Har xil muolajalar qilishsa ham foyda bermadi. Tabiblarning mahorati ham kor qilmay, isitmasi pasaymadi. Dardi og‘ir bo‘lgani sababli ahvoli borgan sari yomonlashib, oxiri jon omonatini topshirib, qorong‘i maskan sari yo‘l oldi. Qabila ahli aza tutib, oh-faryod chekdi. Bundan xabar topgan keksa onasi bir tomondan o‘g‘lining dard-u g‘ami, ikkinchi tomondan yostiqdoshining alami bilan iztirob chekib, eri ortidan boqiy dunyoga yuz tutdi. El unga ham aza tutib, qora kiydi. Ularni o‘sha qabilaning go‘ristoniga dafn etdilar.

Najd tog‘ini o‘ziga maskan qilib olgan Majnun ota-onasining vafotidan bexabar edi. Bir kuni ichini qayg‘u bosib, ko‘zi uyquga ketdi. Tushida ajoyib bir voqeani ko‘rdi: ikkita kaptar bir uyda bola ochibdi, jo‘janing qanoti chiqqach, u birdan havoga parvoz qilibdi. Buni ko‘rgan ikkala kaptar uni uyasiga olib kelish uchun osmonga parvoz etibdi. Jo‘jani topgan bo‘lsa ham u o‘jarlik qilib uyiga qaytmas emish. Ikkovi noumid bo‘lib iniga qaytayotganida yuqoridan ikkita burgut uchib kelib, ikkovini yeb qo‘yibdi. Bu tushni ko‘rgach, Majnun ko‘zini ochdi-yu, qonli ko‘z yoshlarini to‘ka boshladi. Tushiga ta’bir istab, uni o‘z holatiga qiyosladi-da, ota-onasi o‘lganini, hayoti quyoshi qora bo‘lganini bildi. Tog‘dan pastga qarab sel singari shoshilib, seldek ko‘z yoshlarini to‘kib, qabilasining mozorigacha oh-faryod urib yugurdi. U yerda yangi ikki qabrni ko‘rib, jismi zorini chaqin urgandek bo‘ldi. Boshiga tuproq sochib, ko‘kragiga tosh bilan ura boshladi. Otasining mozoriga boshini qo‘yib fig‘on chekdi: “Ey sahro ahlining azizi, faqat dasht emas, Makkadan Shomga qadar barcha el sening rahmating dasturxonidan bahramand edi. Arablarning eng ulug‘ kishilari ham

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

sening dastingdan shikast topardi. Lekin sen mendan shikast topding. Ko‘ngling g‘amimda noshod bo‘lib, umring men tufayli barbod bo‘ldi. Meni shodlik uchun tilagan eding, lekin men tufayli yorug‘ chirog‘ing o‘chdi”.

Keyin Majnun onasi qabri oldiga borib, yoqasi o‘rniga ko‘ksini pora qilib, yerni ko‘z yoshlari bilan dengizga aylantirdi. Bahor bulutidek o‘kirib, yuziga ura boshladi. So‘ng alam bilan bunday deb faryod urdi: “Ey jonim qiblasi, qiblamning nuri! Jonimning shodligi, ko‘zimning chirog‘i, ko‘nglimning rohati-yu, fikr-u xayolim oromi! Sen Ka’bam esang-da, men mayxonani istab, tavof qilmadim, atrofingda aylanib sayr etmadim. Qalbingga har doim iztirob solib, Ka’bamni xarob ayladim. Mening Ka’bam xarob bo‘ldi, endi Tangriga ne deb javob beraman?” Shunday fig‘on qilganicha, boshini yerga urarkan, yana hushidan ketib yiqildi.

Hayot kuyi, go‘zalligidan mahrum bo‘lgan Majnun endi ota-onasidan ham judo bo‘ldi.

Bu payt Layli ham g‘am-alam ichida iztirob chekardi. Majnun visolidan shodlikka to‘lgan qiz yana hijronga duch keldi. Majnunning ota-onasi vafot etganini eshitgan Laylining dardiga dard qo‘shildi. Chunki yuz bergan barcha voqeaga o‘zi sabab bo‘lganini yaxshi bilar edi. U tinmay yig‘lar ekan, bunday so‘zlar bila nola qilardi:

“Bu qayg‘u-azoblarim yetmagandek, yorimning iztiroblari ham boshimga tushdi. Uning ota-onasi o‘lib, men ham motamda qoldim. Agar u qattiq alam chekayotgan bo‘lsa, mening dardim unikidan ikki barobar kuchliroqdir. Unga ota-onasining g‘ami yetgan bo‘lsa, bu mening ham g‘amimdir. Laylini furqat balosi qiynayotgan bo‘lsa, buning ustiga ikki Majnuncha mashaqqati ham bor. Unga umr zaruriyati qolmadi, shuning uchun jondan kechsam ajab emasdir”.

Shunday so‘zlarni faryod urib xitob qilar ekan, nola o‘ti haddan oshib, jismida isitma paydo bo‘ldi. U xuddi quyoshning botar chog‘idagi haroratiga o‘xshardi. Guldek yuzi terga botib, isitma o‘tidan qizarib ketdi. Onasi qizining bu ahvolini ko‘rib, iztirob chekardi, jigari kabobga o‘xshab kuyardi. U Laylining otasini xabardor qilgach, qizining holatidan u ham qattiq tashvishga tushdi. Ota-onasi, dugonalari tabib chaqirib keldilar. Iso nafasli hakimlar har qancha davo qilishsa ham isitma pasaymasdi. Kundan kunga dardi kuchayib, bosh og‘rig‘i dam-badam zo‘rayib borardi…

Bu olamni tark etish onlari yaqinlashganini sezgan parivash huzuriga onasini chaqirtirib, unga bunday murojaat qildi:

“Ey joningni menga bag‘ishlagan onajonim! Bu xasta jonim sening joningga sadqa bo‘lsin. Mening bor mashaqqatimni o‘z ustingga olib, ko‘p dard-u alamimga qolding. Ming yil tirik bo‘lib xizmatingni qilsam ham bu yaxshiliklaringni qaytara olmayman. Endi gulim xazonga uchrab, gulistonimga sovuq kuz shamoli yetishdi, bu chamanni tark etish zarur bo‘lib qoldi. Vidolashish chog‘i yetib kelgan ekan, dilimdagi dardlarimni sendan yashirishim to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu motam elga oshkor bo‘lgach, dasht-u sahro ahliga ham yetib boradi. Shubhasizki, mening tog‘-u dashtlarda shamoldek kezib yurgan g‘aribi zorimning qulog‘iga bu so‘zlar eshitilgach, hodisadan xabar topib, ruhi mening ruhimni istab, tezda bu yoqqa keladi-yu, quyosh kabi mening boshimga yetadi. Ayriliq dardidan qutulib, elga ishq qanday bo‘lishini ko‘rsatib, tuprog‘imga tuprog‘ini qo‘shadi. Ruhini menga topshirib, tani jonsiz bo‘lib yerda jismi zori yotsa, hurmatini qilib yonimga yotqizgil. Uning sharif jismi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

pok bo‘lgani uchun ko‘z yoshlaring bilan yuvsang ham arziydi. Ginani unutib, unga yaxshilik va mehribonlik ko‘rsatgin-da, jon pardasidan kafan qilgin va ana shu kafanga meni ham o‘ragin. Unga farzandingdek munosabat ko‘rsatib, farzanding bilan birga uyquga yotqizgin-da, ikki ruh bir-biri bilan qo‘shilgach, bir tobutga solgin”.

Layli ushbu so‘zlarni tugatdi-yu, “Majnun”, deganicha jon berdi. Onasi bu kunni ko‘rib, bir ovoz chiqardiki, u osmonning bag‘rini teshib o‘tgandek bo‘ldi. Qizining boshidan aylanib, tovoniga ko‘zlarini surtar, go‘yoki kipriklari bilan uni qitiqlab, “Uyqu vaqti emas-ku hozir, ko‘zlaringni och, oyoqlaringni qimirlatib, so‘zlagin”, degandek uyg‘otmoqchi bo‘lardi. Titrab, yig‘lab qizini mahkam bag‘riga bosib, yuzini yuziga qo‘yar, ko‘z yoshlaridan uning ruxsoriga suv urar, go‘yo suv bilan seskanib, zora uyqusidan uyg‘onib ketsa, degandek bo‘lardi.

Ona bu so‘zlari bilan jahonni g‘am-g‘ussaga botirdi-yu, ohi bilan osmonni qorong‘i qildi. Tashqarida otasi boshyalang holda yoqasini yirtib, ko‘ksiga tosh bilan urar, yolg‘iz otasi emas, qavm-u qarindoshlari, butun qabila ahli aza tutib, oh-faryod chekardi.

Bu payt Majnun yalang‘och holda bir qabr ichida yotardi. Layli og‘ir betob bo‘lib qolgach, u ham kasal bo‘lib yiqilgan edi. Ma’shuq bemor bo‘lganda, oshiq halok bo‘ladi. Majnun behol bo‘lib yotarkan, Layli goh tushida, goh xayolida namoyon bo‘lardi. Layli ajal qo‘lidan qadah ichgan, ya’ni bu olam bilan vidolashgan chog‘da ko‘ngli birdan simob kabi titrab ketdi-da, qulog‘iga bunday bir ovoz eshitildi:

“Ey dard-u balo askarlarining podshosi! Hozir yotishning vaqti emas, o‘rningdan tur. Pokiza bog‘ingga kuz keldi, chirog‘ing tong shamoliga uchradi…Yoring safarga tayyor holda hamrohini kutib turibdi. Hamrohligingni ko‘rsatasanmi yo u oy sensiz safarga yo‘l olaversinmi?”

Devona bu so‘zlarning ma’nosini darhol anglab yetdi-yu, tani nihoyatda behol ekaniga qaramay, yotgan joyidan qoplon kabi sakrab turib, qabila tomon tez yugurib ketdi.

Chaqmoq kabi yelib borarkan, visol kuyini kuylagan holda ko‘z yoshlarini yomg‘irdek sochardi. Mehr o‘ti jahonni yoritar, ko‘nglida o‘lim xavfi ham yo‘q edi. Uning atrofida yovvoyi hayvonlar ham sakrab borar, odamlarning ba’zilari Majnun holatidan, ba’zilari esa hayvonlar ofatidan qo‘rquvda edi. Majnun Layli eshigiga qadam qo‘ygach, hayvonlar tashqarida qoldi. Devona yigit ostonadan dadil kirdi va uy ichida yotgan sevgilisiga ko‘zi tushdi, uning oldiga borib, yoniga yotdi-yu, jon taslim qildi. Uyga kirgan qabila ahli bu holatni ko‘rib, hayratdan qotib qoldi. Ularni dafn etish zaruriyati tufayli bu holatda qanday ish tutish haqida maslahatlasha boshladilar…

So‘ng kerakli hamma narsani tayyorlab, marhumlarni mashhur kishilardek yasatib, ikkovini – jonsiz kelin-u o‘lik kuyovni bir tobutga solishdi.

Bir na’sh[1]qa soldilar ikovni,
Jonsiz kelin-u o‘luk kuyovni.

Kirdi iki jism bir kafang‘a,
Yo‘q, yo‘q, iki ruh bir badang‘a.

Bir na’sh ila ul iki dilorom,
Andoq edikim, du[2] dona bodom…

Donadek o‘lub ikki badan bir,
Dona qobug‘i kibi kafan bir.

[1] **Na’sh** – tobut.
[2] **Du** – ikki.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Oy bilan kun yuzini bulut yashirdi, go‘r bitta edi, shuning uchun bitta qabr yasashdi. Ishq ahlining umid shami o‘chdi, chunki oy bilan xurshid yer ichiga kirdi. Ishq eliga shoh ham qolmadi, husn ko‘kida oy ham qolmadi. Laylining ota-onasi qabila ahli va qarindosh-lari bilan har kuni ikki mahal yig‘ilib, bu qabr boshida yig‘i-sig‘i qilardi. Yillar o‘tib, ular ham birin-ketin tuproqdan orom topdi[1]…

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Majnun tushida ko‘rgan ramzlar (ikki kaptar, jo‘ja va burgutlar) hamda Layli vafotini olisdan turib sezishi nimadan dalolat berishi mumkin deb o‘ylaysiz?
2. Laylining Majnun bilan bir kafanda, bir tobutda dafn etilishini so‘rashi va ularning uchrashuvi paytida butun borliqning sukutga cho‘mgan holatda tasvirlanishi ishqning qanday ramziy va ma’naviy darajasini anglatadi?
3. Majnunning ota-onasi qabri oldida aytgan *“Ka’bamni xarob qildim”* degan nolasi orqali ishq va farzandlik burchi o‘rtasidagi ziddiyat qanday talqin qilinadi? Sizningcha, Navoiy bu ziddiyatga qanday axloqiy baho beradi?
4. Navoiy nima sababdan *“Nafs maqsadida oshiq bo‘lganlar uchun oshiqlik haromdir”,* deb ta’kidlaydi? Fikringizni asoslang.
5. Doston yakunida Layli va Majnunning vafotini siz ishqning tugashi deb baholaysizmi yoki haqiqiy sevgi g‘alabasi deb? Mulohazalaringizni asar voqealari va muallif qarash-lariga tayangan holda asoslang.

Topshiriq

“Layli va Majnun” dostoni asosida Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatrida sahnalashtirilgan spektaklni havola orqali tomosha qiling.

Spektakl asosida quyidagi vazifalarni bajaring:

1. Spektaklda ishq, firoq va Majnunning ruhiy holati qanday sahna vositalari (musiqa, harakat, ovoz ohangi, dekoratsiya) orqali ifodalanganini aniqlang.
2. Sahna talqinini doston matni bilan qiyoslab, qaysi jihatlar kuchaytirilgan yoki o‘zgacha talqin qilinganini izohlang.
3. Sizningcha, sahna talqini doston g‘oyasini chuqurroq anglashga yordam berdimi? Fikringizni dalillar bilan asoslang.

6

Manba: “MUQIMIY TEATR TV” (YouTube).

Tavsiya

Dostonning *asl matn+tabdil* variantini to‘laligicha ushbu havola orqali mutolaa qilishingiz mumkin.

7

Nashrga tayyorlovchilar: Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov.

Manba: Alisher Navoiy, “Xamsa”. “Tamaddun”, 2021.

[1] Anvar Hojiahmedov tayyorlagan nasriy bayondan foydalanilgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483–1530)

Dars davomida:

- Bobur ijodining dunyo adabiyoti tarixidagi ahamiyati haqida fikr almashamiz;
- “Boburnoma”dagi tasvir mahoratini muhokama qilamiz;
- “Boburnoma”dan olingan parchalar orqali Bobur shaxsini kashf etamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning boy adabiy-ilmiy merosi Sharq va G‘arb mutafakkirlarining shoir shaxsiyati va ijodiga yuksak bahosida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, mustaqil Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharlal Neru Bobur hind jamiyatining ruhiy-ma’naviy dunyosini kengaytirgani, xalqni tor mahalliy doiradan chiqarib, keng dunyoqarash sari yetaklaganini ta’kidlaydi. Ingliz tarixchisi Eduard Holden esa Bobur shaxsini yuksak insoniy fazilatlar sohibi sifatida baholab, tarixdagi buyuk siymolar bilan qiyoslaydi.

Boburning eng yirik asari – “Boburnoma” memuar janrining nodir namunasi bo‘lib, unda 1494–1529-yillari Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar izchil bayon etilgan. Asar dastlab **“Vaqoye”** deb atalgan bo‘lsa-da, keyinchalik “Boburnoma” nomi bilan shuhrat topgan.

Bobur yoshlik chog‘idanoq o‘z hayoti va davr voqealarini xotira daftariga qayd etib borgan. Mazkur qaydlar keyinchalik **“Boburnoma”**ning bitilishiga asos bo‘lgan. Asarning XVI – XX asrlarga oid 17 ta qo‘lyozma nusxasi aniqlangan bo‘lib, ular asosida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Qo‘lyozmalarning bugungacha yetib kelgan nusxalari Fransiya, Turkiya, Hindiston, Eron, Pokiston va Rossiya kitob fondlarida saqlanadi hamda ularning **faksimile nusxalari** yurtimizga olib kelingan.

O‘ylab ko‘ring

Faksimile tushunchasi nimani anglatadi? Qaysi turdagi kitob va qo‘lyozmalar faksimile shaklida nusxalanadi va buning sababi nimada?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Bu – qiziq

“Boburnoma” faqat tarixiy xotiralar majmuyi emas. Unda jug‘rofiya, nabotot, hayvonot, etnografiya, harbiy san’at kabi fanlarga oid muhim ilmiy kuzatuvlar ham o‘z aksini topgan.

Asarda **1500 dan ortiq** shaxs nomi qayd etilgan bo‘lib, ularning qariyb **700 nafari** shoh, hokim, amir-amaldor, din ulamosi, shuningdek, ilm-fan, san’at va adabiyot namoyandalari, dehqon, hunarmand hamda boshqa kasb egalari edi.

180 ga yaqin umurtqali jonivor va **150 dan ortiq** o‘simlik turi haqida muhim ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Shuhrat Hayitov (“Xorijda bobur shunoslik” kitobidan).

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

1. Murakkab va xavfli vaziyatlarga duch kelganda insonning to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradigan qaysi shaxsiy sifatlar eng muhimi deb o‘ylaysiz?
2. Sizningcha, sadoqat va xiyonat inson va jamiyat hayotiga qanday ta’sir qilishi mumkin? Hayotiy misollar keltiring.

BOBURNOMA

(Asardan parcha[1])

1502–1503-YIL VOQEALARI

Xon tog‘amning eshigiga borsam, goh bir kishi, goho ikki kishi bilan borardim. Biroq yaxshiligi shu ediki, ular yot emas, qarindoshlarim bo‘lardi. Xon tog‘amga ko‘rinish berib, Shohbegim huzuriga borardim. O‘z uyimdek boshyalang, oyoqyalang kirar edim…

Ulug‘ xon dodam ham Toshkanddan uch-to‘rt yig‘och yo‘l yurib, qarshimizga chiqib keldi. Bir yerda katta chodirlar tikib, ulug‘ xon o‘tirdi. Kichik xon ro‘paradan kelardi. Yaqin yetgach, xonning chap qo‘li bilan orqasidan aylanib o‘tib, xonning oldiga tushib keldi. Ko‘rishar yerga yetishib, to‘qqiz marotaba egilib ko‘rishdi. Ulug‘ xon ham, kichik xon ham yaqin yetgach, turib ko‘rishdilar, uzoq quchoqlashib turishdilar. Qaytganda ham kichik xon to‘qqiz marotaba ta’zim qildi. Tortiq tortganda ham takror-takror egildi. Undan so‘ng kelib o‘tirdilar. Kichik xonning kishilari butunlay mo‘g‘ulcha yasanib olgan edilar: mo‘g‘ulcha bo‘rk[2]lar, xitoyi atlas va sanchma tikilgan to‘nlar, mo‘g‘ulcha yashil sag‘rilik sadoq[3]lar, egarlar, mo‘g‘uliy otlar va har birlari alohida farqlanuvchi zeb-ziynat bilan kelishdi.

---

[1] “Boburnoma”dan berilgan parchalar V. Rahmonov va K. Mullaxo‘jayeva tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilingan nashrdan (2008-yil) olindi.

[2] **Bo‘rk** – bosh kiyim.

[3] **Sadoq** – o‘qdon, yoy xaltasi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Kichik xon ozroq kishi bilan kelib edi: mingdan ko‘proq, ikki mingdan ozroq chiqardi. Kichik xon tog‘am g‘alati fe’l-atvorli – zo‘r qilichboz va o‘ziga ishongan, mardona kishi edi. U qurol-aslahadan qilichga ko‘proq e’tiqodli edi. Der ediki: “Shashpar, cho‘qmor, kistan, tabarzin[1] va bolta tegsa, bir yerga ta’sir qiladi; agar qilich tegsa – boshdan oyoqqacha kesadi”. Qilichini hargiz o‘zidin ayirmas, yo belida, yo qo‘lida bo‘lardi. Chekka joyda ulg‘aygani uchun biroz qishloqiroq, dangal so‘zli edi. Qayd etilganidek, ushbu mo‘g‘ulcha kiyimda kichik xon dodam bilan birga keldim. Xoja Abulmakorim ulug‘ xon dodam bilan edi: meni tanimay, “Bular qaysi sultondir?” deb so‘rabdi. Aytganlaridan so‘ng tanibdi. Toshkandga kelib, darhol Sulton Ahmad Tanbalning ustiga – Andijonga lashkar tortdi. Kandirlik dovoni orqali yo‘lga tushdi. Ohangaron tog‘ etaklariga yetganda kichik xonni va meni ilgariroqqa ayirdilar. Dovondan oshib, Zirqon va Karnon yurtida ikki xon qo‘shildilar. Karnon yurtida bir kun dam oldilar, lashkarlarining hisobi o‘ttiz mingtacha edi. Oldindan Tanbal ham lashkarni yig‘ib, Axsiga kelibdi, degan xabar kela boshladi. Xonlar kengash qilib, maslahat shunga qaror topdiki, menga bir qism lashkar qo‘shadilar. Men Xo‘jand daryosidan o‘tib, O‘sh va O‘zgand sari borib, yov orqasiga aylanib o‘taman…

* * *

Sulton Ahmad Tanbal yuztacha kishi bilan to‘xtab turibdi, Tanbalning o‘zi, yana bir kishi safidan u bilan ilgariroq chiqib: “ur-ur!” deb turibdi. Biroq eli aksari yonlarini berib, qochay-qochmay degandek bo‘lib turibdi. Ushbu paytda men bilan to‘rt kishi qolib edi: Do‘st Nosir, Mirzoquli ko‘kaldosh, Karimdod, Xudoydod turkman. Kamonga qo‘ygan bitta o‘qni Tanbalning dubulg‘asiga otdim. Yana sadoqqa qo‘l cho‘zdim, xon dodam bir yashil qirrali o‘q berib edi, o‘sha chiqdi. Tashlagani hayfim keldi. Yana sadoqqa solguncha ikki o‘q otguncha fursat o‘tdi chamamda. Yana bir o‘qni paypaslab olib, ilgariroq yurdim. Bu to‘rt kishi ham keyinroq qoldi. Qarshimdagi ikki kishidan biri Tanbal ekan, u ham ilgariroq yurdi. Orada bir katta ko‘cha bor edi. Men bu saridan, u u saridan yo‘lga kirib yuzma-yuz bo‘ldik. Shundayki, mening o‘ng qo‘lim yov sari, Tanbalning o‘ng qo‘li bizning sari bo‘ldi. Tanbalning bir kejim[2]dan o‘zga barcha yarog‘i bor edi. Mening sadoq va qilichdan o‘zga hech yarog‘im yo‘q edi. Qo‘limdagi o‘q bilan qalqonining tutqich tomonini ko‘zlab otdim. Ushbu holatda o‘ng sonimga yoy o‘qini o‘tkazib otdilar. Boshimda dubulg‘a bo‘rki edi. Tanbal boshimga chopti, boshim qilich zarbidan karaxt bo‘ldi. Dubulg‘a bo‘rkidan biror tori kesilmaganiga qaramasdan, boshim xiyla[3] yaralandi… G‘animlar bir nishona otimicha keyinda ta’qib etib keldilar. Xoqon arig‘i juda katta va chuqur, har qanday yeridan kechib o‘tib bo‘lmaydi. Tangri to‘g‘ri keltirdi: bu ariqning bir kechigiga to‘ppa-to‘g‘ri keldik. Ariqdan kechgach, Do‘st Nosirning oti zaifroq edi, yiqildi. To‘xtab, uni otlantirib, Xarobuk bilan Farg‘ona oralig‘idagi tepalik orqali O‘sh sari ketdik. Qirga chiqqan paytimizda Mazid tag‘oyi[4] kelib qo‘shildi. Uning ham o‘ng oyog‘iga – tizzasidan quyiroqqa o‘q tegipti. Garchi o‘q teshib o‘tmagan bo‘lsa-da, O‘shga ko‘p tashvish tortib keldi. Mening sara kishilarimni asir oldilar…

[1] **Shashpar, cho‘qmor, kistan, tabarzin** – harbiy qurol-aslahalar nomi.
[2] **Kejim** – otning zirhli yopinchig‘i.
[3] **Xiyla** – ancha, qattiq.
[4] **Tag‘oyi** – tog‘a.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Xonlar Tanbalning izidan kelib, Andijonning atrofida to‘xtadilar. Ulug‘xon sayhonlik yonida – mening katta onam Eson Davlatbegimning Qo‘shtegirmondagi bog‘iga qo‘ndi. Kichik xon Bobo Tavakkul qadamjoyining yaqiniga tushdi. Ikki kundan so‘ng O‘shdan keldim. Ulug‘ xonni Qo‘shtegirmonda ko‘rdim. Xon bilan ko‘rishganim zahotiyoq menga o‘tgan yerlarni kichik xonga berdilar. Menga bunday uzr ayttilarki, Shayboqxon[1]dek g‘anim Samarqanddek shaharni olib, o‘sib bormoqda. Ushbu maslahat uchun kichik xonni ne yerlardan keltirdilar, bunda yeri yo‘q, u viloyatlar – yiroq. Xo‘jand daryosining janubiy viloyatlarini Andijondan boshlab kichik xonga bermak kerakki, unda o‘rnashsin.

Axsidan boshlab Xo‘jand daryosining shimoliy viloyatlarini menga va’da qildilar. “Bunda o‘rnashgandan so‘ng, yurib Samarqand viloyatini olgach, senga beramiz. Undan so‘ng Farg‘ona batamom kichik xonniki bo‘ladi”, dedilar. Aftidan menga aytilgan bu so‘zlar firib ekan. Muyassar bo‘lgandan so‘ng amalga oshmog‘i ma’lum emas edi. Chora yo‘q edi, istar-istamas rozi bo‘ldim. Ulug‘ xonning qoshidan otlanib, kichik xonni ko‘rgani borayotganimda Sallox laqabi bilan mashhur Qanbar Alibek mening yonimga kelib ayttiki: “Ko‘rdingizmi, darhol qo‘lga kirgan viloyatlarni oldilar. Bular bilan ishingiz yurishmaydi. Hali ham O‘sh, Marg‘inon, O‘zgand va egallangan viloyat, el-ulus qo‘lingizdadir, darhol borib O‘shga kirib, qo‘rg‘onlarni berkitib, Sulton Ahmad Tanbalga kishi yuborib yarashib, mo‘g‘ulni urib chiqarib, viloyatlarni Tanbal bilan do‘stona bo‘lishib oling”. Men dedimki: “Buning iloji yo‘q. Xonlar tug‘ishganlarim. Bularga navkarlik qilganim Tanbalga podshohlik qilgandan ortiqroqdir”. So‘zi ta’sir qilmaganini ko‘rib, aytganidan pushaymon bo‘lib, qaytib ketdi. Men borib kichik xon dodamni ko‘rdim. Burun ko‘rishganda bexosdan yetib borgandim, kichik xon tushguncha fursat bo‘lmagan, ta’zimsiz ko‘rishib edim. Bu navbat yaqinroq kelganimda esa, u chodir tanobining uchiga yugurib chiqdi. Oyog‘imda o‘q yarasi borligi tufayli hassa tutib tashvish bilan yurardim. Yetib, ko‘rishib: “Inim, bahodir emishsiz”, deb qo‘limdan tutgancha, chodirga keltirdi. Kichikroq chodir tikishgandi. Chekka yerda ulg‘aygani uchun chodir va o‘tirar yeri ko‘rimsiz va ko‘chmanchilarga xos bo‘lib, qovun, uzum va ot abzallari ham o‘zi o‘tiradigan chodirning ichida edi. Kichik xonning huzuridan chiqib, o‘zimning o‘rdamga keldim. Yaramga qarashga Atika baxshi ismli mo‘g‘ul jarrohini yuboribdilar. Mo‘g‘ul xalqi jarrohni ham baxshi deydi. U jarrohlikda juda mohir edi. Kishining miyasi zarb yesa, dori berardi. Har turli yaralarni ildizdan qilingan malham bilan oson muolaja qilardi. Ba’zi jarohatga malhamdek dori qo‘yar, ba’zisiga yegani dori berardi. Mening sonim yarasiga jun kuydirib bosishni buyurdi, pilta qo‘ymadi. Ildizdek narsani ham bir marta yedirdi. O‘zi der edikim: “Birovning ingichka poychasi sinib bir tutamcha yeri mayda-mayda bo‘lib edi. Etini yorib suyaklarini batamom olib, suyak o‘rniga dorini un qilib soldim. U dori suyak o‘rnida suyakdek bitdi”. Bunday ajoyib va g‘aroyib hodisalardan anchagina aytib berdiki, viloyat tabiblari bunday davolashdan ojizdirlar.

* * *

Uch-to‘rt kundan keyin Qanbar Ali aytgan so‘zlaridan o‘zi xavfsirab, vahimaga tushib, qochib Andijonga kirdi. Bir necha kundan so‘ng xonlar ittifoq qilib, Ayyub Bekchikni tu-

[1] **Shayboqxon** – shayboniylar sulolasi asoschisi Shayboniyxon.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

mani bilan, Jon Hasan borinni Borin tumani bilan Sarig‘bosh mirzoni lashkarbegi qilib, ming-ikki mingcha kishini menga qo‘shib, Axsi tarafga yubordilar. Axsida Tanbalning inisi Shayx Boyazid bosh edi. Koson dorug‘asi Shahboz qorluq edi. U paytda Shahboz Navkand qo‘rg‘onining oldida o‘tirgandi. Xo‘jand daryosini Bichrota ro‘parasida kechib o‘tib, Navkandga Shahboz ustiga yurdik. Tongdan burunroq Navkandga yaqin yetgan paytda beklar xabar yetkazdilarki, bu Shahboz hamma narsani aniq sezgan. Jangovar safni buzmay yorug‘dayoq yetib borsak durust bo‘ladi. Astaroq yurildi. Shahboz esa bexabar ekan. Biz Navkand yaqiniga yetgan paytda xabardor bo‘lib, tashqaridan qochib ichkari kiribdi. Bunday hodisalar ko‘p sodir bo‘lgandir: g‘animni payqagan, deb osongina inkor qilib, ish vaqti zoye bo‘ladi. Tajriba ana shunday holatlarni o‘rgatadi. Bundan maqsad shuki, fursat yetgan paytda tezlik va g‘ayratni qo‘ldan bermaslik kerak. So‘ngra pushaymon bo‘lish befoydadir. Tong otganda qo‘rg‘on atrofida oz-moz urush bo‘ldi. Tezkorlik bilan urushga kirishmadik. Navkanddan tog‘ sari – Bishxoron tarafiga hujum qilib, talashga kelishdik. Shahboz qorluq fursatni g‘animat bilib, Navkandni tashlab, qochib Kosonga bordi. Biz qaytib kelib, Navkandda joylashdik. Bu vaqtlarda atrof-tevarakni bizning lashkarimiz bir necha marotaba borib taladi. Bir navbat Axsining kentlarini talon-toroj qildi. Yana bir marotaba borib, Kosonga hujum qildik. Shahboz bilan Uzun Hasanning Mirim ismli asrandi o‘g‘li urushga chiqdi. Urushib, yengildilar. Mirim o‘shanda o‘ldi. Axsining mustahkam qo‘rg‘onlaridan biri Pop qo‘rg‘onidir. Popliklar Pop qo‘rg‘onini mustahkamlab, bizga kishi yuboribdilar. Sayyid Qosimni bir necha yigitlar bilan jo‘natdik. Axsining ustki kentlari to‘g‘risidagi daryodan o‘tib, Pop qo‘rg‘oniga kirdilar. Bir necha kundan keyin g‘aroyib ish sodir bo‘ldi. U paytda Ibrohim Chopuq tag‘oyi, Ahmad Qosim ko‘hbur[1], Qosim Xatika arg‘un[2] Shayx Boyazid bilan Axsida edilar. Ushbu zikr etilganlarga ikki yuztacha zo‘r yigitni qo‘shib, dabdurustdan bir kecha Pop qo‘rg‘onining ustiga yuboradi. Sayyid Qosim ehtiyot choralarini ko‘rmay g‘ofil yotgan ekan. Qo‘rg‘onga yetib, narvon qo‘yib chiqib, darvozani olib, ko‘tarma ko‘prik qo‘yib yetmish-sakson zo‘r yaroqlik yigitlar kirganida, Sayyid Qosimga xabar beradilar. Uyqulik, ko‘ylakchan turib besh-olti kishi bilan solishib, ura-ura bularni quvib chiqaradi. Bir necha boshni kesib menga yubordi. Garchi bunday g‘aflatda yotmoqligi sardorlikka xos bo‘lmasa-da, oz kishi bilan bunday yaroqlik zo‘r yigitlarni dadil zarbalar bilan urib chiqarmog‘i xiyla mardona ish edi. Bu muddatda xonlar Andijon qo‘rg‘onining qamali bilan mashg‘ul edilar. Qo‘rg‘on eli yovni qo‘rg‘onning yaqiniga kelgani qo‘ymasdi. Yigitlar otliq chiqib, tashqarida olishardilar. Axsidan Shayx Boyazid tarafdorlik izhor qilib kishi yubora boshladi. Bizdan tezlik bilan borishimizni so‘radi. Bundan maqsadi turli hiyla bilan meni xonlardan ayirish edi. Men xonlardan ayrilsam, xonlar Andijonda tura olishmasdi. Bu iltimosi akasi Tanbalning maslahati bilan ekan. Xonlardan ayrilib, bular bilan ittifoq tuzmoqlikni o‘zimizga munosib deb bilmadik. Uning tilaganini xonlarga bildirdik. Xonlar: “Borsin. Har ne qilib bo‘lsa-da, Shayx Boyazidni tutsin”, deyishibdi. Bu makr-u firib bizning odat va usulimiz emas edi. Alalxusus, orada ahd bor edi. Bunday ahdni buzish yaxshi bo‘lmas. Ko‘nglimga keldiki, bir iloj qilib Axsiga kirib olsak: yo Shayx Boyazid Tanbaldan

[1] **Ko‘hbur** – tosh kesuvchi, toshtarosh usta.
[2] **Arg‘un** – Markaziy Osiyoda qadimdan yashab kelgan urug‘ nomi. “Devonu lug‘otit turk”da arg‘u shaklida uchraydi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

kechib biz tomon bo‘ladi, yo biz uchun foydali bo‘lgan biror xayrli o‘zgarish sodir bo‘ladi. Biz ham kishi yubordik. Ahd va shart qilib bizni Axsiga taklif qildi, bordik. Istiqbolimizga chiqib, inim Nosir mirzoni ham keltirib, bizni Axsi qo‘rg‘oniga olib bordi. Tashqi qo‘rg‘onda otamning imoratlarida menga joy tayin qilibdi. Borib o‘sha yerga tushdim. Tanbal Shayboq-xonga akasi Bek Telbani yuborib, unga itoat izhori qilib, yo-niga chaqirgan edi. Bu fursatda Shayboqxonning maktublari keldi: “Boryapman”, deb bitibdi. Bu xabar xonlarga yetgach, tipirchilab, o‘tirolmay, Andijon ustidan turib jo‘nadilar. Kichik xonning adolat va musulmonlik bilan shuhrati bor edi. O‘sh, Marg‘inon va u kirgan qo‘rg‘onlarga qo‘yilgan mo‘g‘ullar el kutganining xilofi – zulm va yomon munosabat qila boshladi-lar. Xonlar Andijondan ketgach, O‘sh va Marg‘inon eli hu-jum qilib, qo‘rg‘ondagi mo‘g‘ullarni tutib, talab, urib-quvlab chiqardilar. Xonlar Xo‘jand daryosini kechmay, Marg‘inon va Kandibodom orqali qaytib, Xo‘jandda daryodan kechdi-lar. Tanbal xonlarning keyinicha Marg‘inonga keldi. Biz bu holatda taraddudda edik: to‘xtab turaylik desak, xonlarga uncha ishonch yo‘q. Sababsiz-nesiz tashlab chiqmoq ham noqulay edi. Bir kuni ertalab Marg‘inondan Jahongir mirzo keldi, ko‘rishdim. Shu paytda Shayx Boyazid ham bezovta bo‘lib keldi, esankirab qolgan. Mirzo va Ibrohimbek dedilar-ki: “Shayx Boyazidni tutmoq kerak. Arkni qo‘lga olmoq kerak”. Darhaqiqat, to‘g‘ri ishning hisobi shu edi. Men dedimki: “Ahd qilishganmiz. Biz nechuk ahdga xilof ish qilamiz?”



Boburning dasht janglari.
Miniatyura.
Rassom: Sangar Kujarotiy.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Bobur shaxs yoki joylarning tasvirida qaysi xususiyatlarga ko‘proq e’tibor qaratadi? Bu holat muallifning dunyoqarashi va maqsadi haqida nimalarni anglatadi?
2. Kichik xon bilan uchrashuv marosimi tafsilotlari (ta’zim, quchoqlashuv, kiyim-kechak)ning batafsil tasviri qanday tarixiy va madaniy ma’noni ifodalaydi? Matnga tayanib, fikringizni ayting.
3. Qanbar Alibekning Tanbal bilan sulh tuzish haqidagi taklifiga Boburning munosabatini tahlil qiling. Ushbu epizod Bobur shaxsining qaysi fazilatlarini ochib beradi?
4. Boburning *“Xonlarga uncha ishonch yo‘q”* degan mulohazasi qanday sabablar bilan bog‘liq? Bu fikr orqali XV–XVI asrlardagi siyosiy munosabatlarga qanday baho berish mumkin?
5. Shayx Boyazidni qo‘lga olish mumkin bo‘lgan vaziyatda Bobur tutgan yo‘l, sizningcha, undagi qaysi xislatlarni namoyon qiladi? Fikringizni asoslang.
6. Bobur asarda mag‘lubiyat va muvaffaqiyatsizliklarni qanday ruhda bayon etadi? Siz o‘z hayotingizdagi xato va kamchiliklarni tahlil qilishda qanday yondashuvlarni to‘g‘ri deb bilasiz?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ijodiy ish

Bobur Pop qo‘rg‘oni sardori Sayyid Qosimning jangga tayyorgarliksiz, g‘aflatda qolganini tanqid qiladi. Bu holat Boburning sergaklik va mas’uliyatni yetakchilikning muhim belgisi deb bilganini ko‘rsatadi. Sizningcha, zamonaviy yetakchi qanday muhim ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak?

Savolga javob sifatida kichik taqdimot yoki esse tayyorlang.

Mutolaa

Quyida berilgan “**1506–1507-yil voqealari**”ni mustaqil mutolaa qiling hamda navbatdagi darsda savol va topshiriqlar ustida ishlang.

1506–1507-YIL VOQEALARI

Yigirma kundan beri Hirotda edim, har kuni otlanib, ko‘rmagan yerlarni sayr qilardim. Bu sayrlarda boshlovchimiz Yusuf Ali ko‘kaldosh edi. Har qaysi sayrgohga tushilganda, Yusuf Ali ko‘kaldosh bir nav osh tortardi. Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardan birgina Sulton Husayn mirzoning xonaqohidan o‘zga ko‘rilmagan yer qolmadi, shekilli. Gozurgoh, Alisherbekning bog‘chasi va Juvozi Kog‘az va Taxti Ostona, Pulikoh, Kahdiston, … va Shayx Bahovuddin Umar, Shayx Zayniddin, Mavlono Abdurahmon Jomiyning mozorot va maqbarasini, …Gavharshodbegimning madrasa va maqbarasini, …Badiuzzamon mirzoning Injil daryosi yoqasidagi madrasasi, Alisherbekning “Unsiya”[1] atalmish yashaydigan uylarini, “Qudsiya”[2] nomli maqbara va masjidi jomeni, “Xalosiya” va “Ixlosiya” nomli hammomlarini, madrasa va xonaqohni, “Safoiya” va “Shifoiya” atalmish shifoxonalarini oz fursatda aylanib chiqdim…

Menga shu yerda *(Hirot nazarda tutilmoqda)* qishlang deb, Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek astoydil harakat qilar, lekin qishlov yeri va qishlamoq asbobini yaxshi ta’minlab bermas edilar. Qish bo‘ldi va oradagi tog‘larga qor yog‘di. Kobul tarafidan hanuz xavotirlik ko‘proq bo‘ldi. Bular na qishlovlik yerni muhayyo qildilar, na bir epaqadagi qishlov yerni ko‘rsata oldilar. Oxiri zarurat bo‘ldi, ochiq ayta olmadik. Qishlov bahonasi bilan Hirotdan sha’bon oyining yettinchisida chiqib, Bodg‘is yerlarida, toki viloyatlarga narsa yig‘ish va ish-kuch to‘plash uchun ketganlar kelib qo‘shilsinlar deb, har yurtda bir kun-ikki kun to‘xtab ko‘char edik… Langardan o‘tib, G‘arjiston tuprog‘iga yetganda hammayoq qor edi. Qor borgan sari kattalashardi. Chaxcharonda ham qor otning tizzasidan yuqoriroqqa chiqardi. Chaxcharon yerlari Zunnunbekka tegishli edi. Uning o‘rnida Mirakjon Irdi ismli navkari turardi. Zunnunbekning g‘allalarini pul berib oldik. Chaxcharondan ikki-uch ko‘ch o‘tgach, qor juda ko‘paydi, uzangidan yuqoriroqqa chiqardi. Ko‘p yerda otning oyo-

[1] **“Unsiya”** – chin do‘stlik uyi ma’nosini bildiradi.
[2] **“Qudsiya”** – muqaddas, pok.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

g‘i yerga tegmasdi. Yana tinimsiz qor yog‘ardi. Charoqdondan o‘tgach ham qor ko‘p katta bo‘ldi. Yo‘limiz ham noma’lum bo‘ldi. Langari Mirg‘iyos yerida Kobulga qaysi yo‘l bilan borishimizni kengashdik. Men va aksar odamlar shunday mulohazada edikki, hozir qish, tog‘ yo‘li ko‘p xavotirli, qiyinchiliklar bo‘ladi.

Qandahor yo‘li biroz yiroq bo‘lsa-da, betashvish va bexavotir borilardi. Qosimbek u yo‘l yiroq, mana shu yo‘l bilan boramiz, deb turib oldi. Shu yo‘lga tushdik. Pir Sulton peshoyi[1] yo‘l boshlovchi edi, qariligidanmi yo gangiradimi, yo qorning kattaligidanmi, yo‘lni yo‘qotdi, boshlay olmadi. Qosimbekning harakati bilan bu yo‘lga tushgandik. Qosimbek uyalganidan o‘zi va o‘z o‘g‘illari qor tepib, yo‘l topib, oldinda yurardilar. Keyingi kun ham qor ko‘paydi. Yo‘l ham noma’lum. Har qancha harakat qildik, yurolmadik. Chora topolmay qaytib, bir o‘tinlik yerga tushib, yetmish-sakson sara yigitlarni kelgan izimiz bilan qaytib, pastroqda qishlagan hazora-mazoradan topib, yo‘l boshlovchi keltirsinlar, deb tayin qildik. U ketganlar kelguncha uch-to‘rt kun bu yurtdan ko‘chilmadi. Borganlar ham yaxshi yo‘l boshlaydigan kishi olib kelmadilar. Tavakkal qilib, Sulton peshoyini ilgari solib, yo‘l topolmay qaytgan yo‘limizga yana tushib jo‘nadik. Bir necha kun ko‘p tashvish va mashaqqatlar tortildi. Umr bo‘yi buncha mashaqqat tortmagan edik. Bu matla o‘sha fursatda aytildi:

Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu?
Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir-bir yarim shar’iy[2]dan ortiq ko‘chilmas edi. Qor tepar kishi men edim, o‘n-o‘n besh ichki yaqinlar va Qosimbek edi. Ikki o‘g‘li – Tangriberdi va Qanbar Ali bilan yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu kishilar yayov yurib, qor tepar edik. Har kishi yetti-sakkiz-o‘n qari[3] ilgari yurib qor tepardi. Har qadam qo‘yganda beligacha, ko‘ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borgandan so‘ng ilgarigi kishi holdan toyib to‘xtar, yana bir kishi oldinga o‘tardi. Bu o‘n, o‘n besh-yigirma kishi yayov borib qorni tepgach, bo‘sh otni tortish imkoni bo‘lardi. Bo‘sh ot tortilar, uzangisigacha, qornigacha bota-bota bu bo‘sh ot ham o‘n-o‘n besh qadamcha yo‘l yurib toliqar edi. Bu otni chetga tortib, boshqa bir bo‘sh ot ilgari tortilardi. Ushbu yo‘sin bilan biz o‘n, o‘n besh-yigirma kishining otlarigina ilgari tortildi. Qolgan barcha yigitlar va bek atalganlar otlaridan ham tushmay, tayyor tepilgan va bosilgan yo‘lga kirib, boshlarini quyi solib kelishardilar. Kishiga biror narsa taklif qiladigan yoki zo‘rlik qilish payti emas edi. Har kimning himmat va jur’ati bo‘lsa, bunday ishlarni o‘zi tilab qiladi. Shu usul bilan qor tepib, yo‘l qilib Injukon degan yerdan uch-to‘rt kunda Zarrin dovonining tubiga – Havoli Qutiy degan g‘orga keldik. Ana shu kuni qattiq bo‘ron bo‘lib qor yog‘ardi. Barcha o‘lim vahimasiga tushdi. U el tog‘dagi g‘or va kovaklarni havol deydi. Shu g‘orga yetganda, qor quyuni tezlashdi. Ushbu g‘or qoshida to‘xtadik. Qor – ko‘p, yo‘l – so‘qmoq, tepilgan-bosilgan yo‘l bilan ham ot zo‘rg‘a yuradi.

Kunlar g‘oyat qisqaligidan oldindagilar yorug‘ payti g‘or oldiga keldilar, namozshom, xufton namozigacha boshqalar yetib keldi. Ulardan keyingilar to‘xtagan yeridayoq tushdi. Ko‘plar ot ustida tong ottirdi, g‘or torroq ko‘rindi. Men g‘orning og‘zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko‘ksimgacha qazidim, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana bo‘ldi, o‘sha

[1] **Peshoyi** – qabila nomi.
[2] **Shar’iy** – masofa o‘lchov birligi. Bir shar’iy ikki-uch ming qadamga teng.
[3] **Qari** – o‘lchov birligi. Bir qari barmoq uchidan yelkagacha bo‘lgan uzunlikni bildirgan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

yerda o‘tirdim. Har qancha: “G‘orga kiring”, deyishsa ham kirmadim. Barcha el qorda va bo‘ronda, men issiq uyda va istirohatda o‘tiramanmi, deb o‘yladim. Munda barcha el tashvish bilan mashaqqatda, men munda uyqu bilan farog‘atda bo‘laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin. Bir forsiy maqol bor: ***“Do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim – to‘ydir”.*** O‘shanday qor quyunida o‘zim qazigan – yasagan chuqurda o‘tirdim. Xufton namozigacha qor shunday tez yog‘diki, men engashib o‘tirgan edim, orqam, boshim va quloqlarim ustiga to‘rt enlik qor yog‘di. O‘sha kecha qulog‘imga sovuq ta’sir qildi. Xufton namozi payti g‘or ichini yaxshi kuzatganlar “G‘or juda kengdir. Bunda hammaga yetarli joy bor”, deb qichqirishdi. Buni eshitishim bilan ustimdagi qor-morni silkib g‘orga kirdim. G‘or yaqinidagi yigitlarni ham taklif qildim. Qirq-ellik kishiga yetadigan farog‘atli joy bor ekan. Yeguliklar: quritilgan et, qovurdoq, kimda nima bo‘lsa, borini keltirdilar. Shunday sovuq, qor va bo‘ronda ajab issiq, bexatar va farog‘atli yerga keldik. Ertasi saharlab qor va bo‘ron turdi. Ertasiga ko‘chib o‘sha yo‘sin bilan qor tepib, yo‘l yasab, dovon ustiga chiqdik. Yo‘l ham qirlab yuqoriga chiqarkan. Zarrin dovoni der ekanlar. Biz yuqoriga chiqmay, dara ichi bilan pastga yo‘naldik. Dovonning tubiga yetgunimizcha kun kech bo‘ldi. Dara og‘zidayoq qo‘ndik. O‘sha kecha juda qattiq sovuq bo‘ldi. Ko‘p mashaqqat va uqubat bilan tunni o‘tkazdik. Ko‘p kishining qo‘l-oyog‘ini sovuq urdi. Kepakning oyog‘ini, Suyunduk turkmanning qo‘lini, yana Axiyning oyog‘ini o‘sha kecha sovuq oldi. Ertasiga dara quyisidan yurdik. Yo‘lning bu emasligini bilib, ko‘rib, tavakkal qilib, dara quyisidan yurildi. Yomon uchma, sekirtma yerlardan tushildi. Namozshom paytida daraning og‘ziga chiqdik. Bu dovonda buncha katta qor bor payti kishi undan o‘tganini, bu dovondan oshib o‘tmoq kishining ko‘ngliga kelganini bironta qari, yoshi ulug‘ eslay olmaydi. Garchi katta qordan bir necha kun anchagina tashvish ko‘rgan bo‘lsak-da, oxiri ushbu katta qor tufayli o‘zimizni manzilga yetkazdik. Chunki bunday katta qor bo‘lmasa, o‘shanday yo‘lsiz uchma va sekirtma[1]dan kim o‘ta olardi?! Ehtimol, katta qor bo‘lmasa, avvalgi uchmadayoq barchaning ot va tuyasi batamom qolib ketgan bo‘lardi.

Xufton payti Yakka O‘langga kelib tushdik. Yakka O‘lang eli biz kelib tushgandayoq xabar topdilar. Issiq uylar, semiz qo‘ylar, otga o‘t va pichan benihoya, o‘t yoqmoqqa o‘tin va tezak behad-hisobsiz edi. O‘shanday sovuq va qordan qutulib, bunday keng va issiq uylar topmoq, unday mashaqqat va balodan xalos bo‘lib, buncha ko‘p non va semiz qo‘ylar topmoq bir huzurdirkim, buni bunday mashaqqatlarni ko‘rganlar biladi, shunday bir farog‘atdirki, buni o‘shanday balolarni boshdan kechirganlar fahm qiladi…

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hirot shahridagi me’moriy obidalar, bog‘lar va muqaddas qadamjolar tasviri orqali temuriylar davridagi shaharsozlik va madaniy muhit haqida qanday xulosalar chiqarish mumkin?
2. Alisher Navoiy yashagan uyning “chin do‘stlik uyi” sifatida tilga olinishi nimani anglatadi? Bu ifoda Boburning do‘stlik, sadoqat va insoniy munosabatlarga qarashlarini qanday ochib beradi?

[1] **Sekirtma** – tog‘larda otni sakratib o‘tadigan joy.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

3. Qosimbekning xavfli, ammo qisqa yo‘ldan yurish taklifiga Bobur qat’iy qarshi chiqmaganini qanday izohlaysiz? Ushbu qaror va uning oqibatlari Boburning rahbarlik tajribasi haqida nimalarni ko‘rsatadi?
4. Boburning askarlardan oldin qor tepib yo‘l ochishi, g‘orga hammadan keyin kirishi va *“Do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim – to‘ydir”* degan qarashi uning qanday yetakchilik fazilatlarini namoyon etadi?
5. *“Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu? Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?”* matlasini bitganda Boburning ko‘nglidan qanday kechinmalar o‘tgan deb o‘ylaysiz? Asar matniga tayanib javob bering.

Topshiriq

Quyidagi vaziyatni tasavvur qiling: siz Bobur bilan birga Zarrin dovonidan o‘tyapsiz. Matnga tayangan holda safar davomida yuzaga kelgan 3 ta asosiy muammoni aniqlang. Har bir muammo yoniga Bobur tutgan yo‘lni qisqacha yozing, o‘z maslahatingizni esa jadvalning uchinchi ustunida bayon qiling.

Muammolar	Bobur tutgan yo‘l	Mening maslahatim
Birinchisi, …		
Ikkinchisi, …		
Uchinchisi, …		

Mutolaa

Quyida berilgan **“1529-yil voqealari”**ni mustaqil mutolaa qiling hamda navbatdagi darsda savol va topshiriqlar ustida ishlang.

1529-YIL VOQEALARI

…Ramazon oyining yettinchisida, payshanba kuni Bangola va Bihardan xotirjam bo‘lib, Sarvaar tarafga Biban va Boyazidni daf qilish uchun yurish boshladik. Bu g‘animlar bilan jang qilib, ularga shikast yetkazdik. Undan keyin Xariyd va Sekandarpurni sayr qilib, bu viloyatlardan xotirjam bo‘lib, ilg‘or bilan poytaxtga qarab jo‘nadik va oz fursatda u yerga kirib keldik. Muhammad Humoyun, bir yildirki, Badaxshonda, diydorimizdan ayro tushgandi. Bizni sog‘inib, Badaxshonni kuyovi Mirzo Sulaymonga topshirib, bir kunda Kobulga keldi. Mirzo Komron ham Qandahordan Kobulga kelgan ekan. Iydgoh[1]da uchrashib qolib, hayron bo‘lib, kelishi sababini so‘rabdi. Muhammad Humoyun ham bizni sog‘inganini aytib, Mirzo Hindolni Kobuldan Badaxshonga yuborib, bizning tarafga kelaveribdi. Bir necha kunda dorul xilofa – Agraga yetib keldi. Biz uning onasi bilan otini aytib, so‘zlashib o‘tirgan edik hamki, kelib qoldi. Ko‘ngillar gul yanglig‘ ochilib, ko‘zlar chirog‘dek yorish-

[1] **Iydgoh** – bayram o‘tkaziladigan joy.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

di. Har kuni ziyofat berilardi. Keyin uning o‘ziga to‘y berib, xursandchilik qildik. Ancha paytgacha bir yerda bo‘lib, bir-birimiz bilan do‘stona munosabatda bo‘ldik. Haqiqatda, suhbatda tengi yo‘q edi va agar komil inson deyish mumkin bo‘lsa, u – o‘sha edi. Muhammad Humoyun Badaxshondan kelgan vaqtlari Koshg‘ar xonlaridan va bizga qarindoshligi ham bo‘lgan Sulton Saidxon Rashidxonni Yorkentga qo‘yib, xomxayollik qilib Badaxshon tomon jo‘nabdi. U Badaxshonga yetgunicha, undan ilgariroq Mirzo Hindol borib Qal’ayi Zafarga kirgan ekan. Sulton Saidxon u yerni uch oy qamal qilib, qo‘lidan hech ish kelmay, ortiga qaytibdi. Badaxshonni koshg‘ariylar egalladilar, degan xabar bizga yetib keldi.

Biz Xoja Xalifaga Badaxshonga borib, qo‘lidan nima kelsa, qilsin, deb farmon berdik. U fahmsizlikdan qabul qilmadi. Muhammad Humoyunga: “Sen borsang qanday bo‘ladi?” deb aytdik. U: “Farmonga chora yo‘q, lekin o‘z ixtiyorim bilan diydordan ayrilmayman, deb ahd qilganman”, deya javob berdi. Shuning uchun Mirzo Sulaymonga Badaxshonga borishga ruxsat berildi. Shunday bo‘lsa-da, Sulton Saidga bizda sizning qancha haqqingiz borki, siz bunday qildingiz, juda g‘alati bo‘ldi, deb yozdik. Darhol Mirzo Hindolni chaqirib, Mirzo Sulaymonni yubordik. Agar huquqni nazarda tutib, Badaxshonni farzandimiz Sulaymon mirzoga bersangiz, yaxshi bo‘lardi, dedik. Illo, biz gunohni o‘zimizdan soqit qilib, merosni meros-xo‘rga topshirdik, bilsinlar. Mirzo Sulaymon undan ilgari Kobulga yetib boradi. Badaxshonni dushman qo‘ldan berib, u yerda omonlik bo‘lgan ekan. Mirzo Sulaymon Badaxshonga borganidan so‘ng Mirzo Hindol Badaxshonni unga topshirib, o‘zi Hindustonga yo‘l oladi.

Muhammad Humoyunga o‘zi joylashgan yer – Sanbalga ketishi uchun ruxsat berildi. Olti oygacha o‘sha yerda turdi. Ko‘rinishicha, u joyning yeri va suvi unga yoqmadi. Uni isitma tutar ekan, bora-bora uzoq cho‘ziladigan bo‘libdi. Buni eshitishim bilan Dehliga olib kelishlarini va u yerdan kemaga solib olib kelsinlar, bu yerda uni ziyrak hakimlar ko‘rib, dardiga davo qilsinlar, degan farmon berildi. Bir necha kunda uni daryo yo‘li bilan olib keldilar va tabiblar har qancha dori-darmon bermasin, yaxshi bo‘lmadi. Ulug‘ kishilardan Mir Abdulqosim, bunday dardlarga biror yaxshi narsani sadaqa qilib berish kerak, shunda Tangri taolo shifo beradi, deb aytdi. Mening ko‘nglimga keldiki, Muhammad Humoyunning mendan boshqa yaxshi narsasi yo‘q. Men o‘zim unga tasadduq bo‘layin, Xudo qabul qilsin, dedim. Xoja Xalifa va boshqa yaqinlar: Muhammad Humoyun sihat topadi, siz nega bu so‘zni tilingizga keltirasiz, deyishdi. Maqsad shuki, dunyo molidan yaxshisini sadaqa qilish kerak. Bas, o‘sha Ibrohim



Chahorbog‘da. *Miniatyura. Rassom: Sangar Kujarotiy.*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

bilan urushda qo‘lga kiritilgan olmosni Muhammad Humoyunga in’om qilgan edingiz, o‘sha olmosni sadaqa qilish kerak, deyishdi. Uning evaziga dunyo molini berish qanday bo‘ladi, men unga o‘zimni fido qilurmanki, u juda mushkul ahvolda qolibdi, degan so‘zlar tilimga keldi. Undan nima o‘tgan bo‘lsa, o‘zimga olaman, uning kuchiga kuch, bardoshiga bardosh bo‘laman. O‘sha holatga kirib, uch qatla boshidan aylanib, har qanday darding bo‘lsa, men oldim, dedim. O‘sha zamon men og‘ir bo‘ldim, u yengil tortdi. U sog‘ayib o‘rnidan turdi. Men noxush bo‘lib yiqildim. Davlat a’yonlari va mamlakat arboblarini chorlab, bay’at (ahd-paymon) qo‘llarini Humoyunning qo‘liga topshirib, u o‘rnimda qoladigan valiahd ekanini tayinladim. Taxtni unga topshirdim. Xoja Xalifa, Qanbar Alibek, Turdibek, Hindubek va boshqa kishilar ham bu nasihatlarimda bor edilar, hammasi qabul qilib, hech nima deyolmadilar.

Varaqlarini qoralovchi – kotib aytadiki, to‘qqiz yuz o‘ttiz yettinchi yili, jumod ul-avval oyining oltinchisida o‘sha podshoh o‘z qo‘li bilan obod qilgan Chahorbog‘da ahvoli o‘zgarib, vafot etdi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Bobur o‘g‘li Muhammad Humoyun bilan uchrashuvini *“ko‘ngillar gul yanglig‘ ochilib, ko‘zlar chirog‘dek yorishdi”*, deb tasvirlaydi. Ushbu ifoda orqali Boburdagi otalik muhabbatining qanday qirralari ochiladi?
2. Boburning Sulton Saidga yo‘llagan maktubida *“merosni merosxo‘rga topshirdik”*, deb ta’kidlashi uning shaxsida qaysi axloqiy va siyosiy fazilatlar ustuvor ekanini ko‘rsatadi?
3. Humoyun shifo topishi uchun Boburning sadaqa sifatida aynan o‘z jonini fido qilishga tayyorligi qanday ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi? Ushbu vaziyatda Bobur shaxsiyatining qaysi jihatlari namoyon bo‘lgan?
4. Asar voqealariga tayangan holda mulohaza yuriting: Bobur uchun qaysi fazilat ustun – shohlik mas’uliyatimi yoki otalik mehri? Javobingizni aniq epizodlar bilan asoslang.
5. Rassom Kujarotiy chizgan miniatyurada parcha mazmuniga oid qaysi g‘oya va hissiy holatlar aks ettirilgan bo‘lishi mumkin?

Topshiriq

“Boburnoma”ni ko‘chirgan kotib (ismi noma’lum) Boburning ulug‘ hukmdorlarga xos sakkiz xislati haqida quyidagilarni qayd etgan: ***“U qudratli podshohning yaxshiliklarini aytgan bilan va yozgan bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi buki, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi: biri bukim – iqboli baland edi; ikkinchisi – himmati yuksak edi; uchinchisi – viloyat olmoq; to‘rtinchisi – viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma’murlik; oltinchisi – Olloh bandalariga farovonlik niyati; yettinchisi – lashkar ko‘nglini qo‘lga olmoq; sakkizinchisi – adolat qilmoq”.***

Ushbu 8 xislatning qaysilariga asar matnida duch keldingiz? Matndan dalillar keltiring.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

NAZARIY MA’LUMOT

MEMUAR VA AVTOBIOGRAFIK XARAKTERDAGI BADIIY ASARLAR

Memuar – muallifning o‘tmishda o‘zi **bevosita ishtirok etgan yoki guvohi bo‘lgan voqealar** haqidagi **xotiralari** asosida yozilgan nasriy asar. Memuarlarda voqealar muallif xotirasi va nuqtayi nazari asosida bayon etiladi; ularning kompozitsiyasi xronologik, mavzuviy yoki muallif tanlagan boshqa tartibda qurilishi mumkin.

Memuar asarlar muayyan davrning **ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy manzarasi** muallif nigohi orqali yoritilishi bilan ahamiyatlidir.

Masalan, Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, Furqatning “Ho‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozg‘oni” kabi asarlarini memuarlarga misol qilish mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si memuar janrining eng yuksak namunasidir.

Memuarni **avtobiografik xarakterdagi badiiy asardan** farqlash zarur. Avtobiografik badiiy asarlarda muallif xotiralari badiiy to‘qima, obraz va syujet talablari asosida qayta ishlanadi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissalari bunga misoldir.

Topshiriq

O‘zingiz o‘qigan biror **avtobiografik xarakterdagi badiiy asar**ni “Boburnoma” asari bilan **uslubiy jihatdan solishtiring**. Har ikki asarda muallif:

- voqeani qanday bayon qilgani;
- shaxsiy munosabatini qanday ifodalagani;
- badiiy ifoda vositalaridan qanday foydalangani nuqtayi nazaridan farqlarni aniqlang va natijani jadval ko‘rinishida ifodalang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



“Furqat”.
Rassom Ne’mat Qo‘ziboyev.

ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O‘G‘LI FURQAT (1859–1909)

Dars davomida:

- Furqat shaxsi va ijodining umumiy yo‘nalishi hamda mavzular ko‘lami bilan tanishamiz;
- Furqat lirikasidan namunalar tahlil qilamiz.

O‘zbek ma’rifatchilik adabiyotining yirik vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat Qo‘qon shahrida savdogar oilasida dunyoga kelgan. Dastlab mahallasidagi maktabdor Muhammad Olimdan ilk ta’limni olgan Zokirjon bir yilga yetmay “Haftiyak” va “Chor kitob”ni o‘qib tugatadi. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yod oladi, ozarbayjon shoiri Fuzuliy hamda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga oshno bo‘ladi. O‘n yoshlarida esa Ashur Muhammad qoridan Qur’oni karim qiroati bo‘yicha saboq oladi.

Furqat 1889-yilda Toshkentga keladi va shaharning taniqli ziyolilari bilan tanishib, do‘stlashadi. Toshkent erlar gimnaziyasi direktori, “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri Nikolay Ostroumov uni gazetaga ishga taklif qiladi. Shundan so‘ng uning jurnalistlik, publitsistlik faoliyati ham boshlanadi.

“Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida shoirning tarjimayi holi 13 ta sonda e’lon qilingan. Keyinchalik gazeta muharriri N. P. Ostroumov “Сарты” (“Sartlar”) nomli asarida Furqatning “Toshkent shahrida bo‘lgon nag‘ma bazmi xususida”, “Bal xususida” manzumalarini hamda “Furqatnoma” asarini rus tilida chop ettiradi.

1891-yil 14-may kuni Furqat Samarqandga, undan Buxoroga, so‘ng Kogon orqali Marv, Ashxobod, Boku, Botum yo‘nalishi bo‘ylab Istanbulga safar qiladi. U keyinchalik Bombay va Kashmirda yashab, Tibet va Xo‘tan orqali Yorkentga yetib boradi. Shoir hayotining so‘nggi o‘n olti yilini ana shu shaharda o‘tkazadi.

Shoir ilmli kishilarning ko‘payishi va ilm ahlining salmog‘i ortishi haqidagi istagini “Gimnaziya” she’ri, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Vistavka xususida” kabi masnaviylarida ifodalagan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Tavsiya

Zokirjon Furqatning hayoti va ijod yo‘li haqida hikoya qiluvchi hujjatli filmni ushbu havola orqali tomosha qiling.

Manba: O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi arxivi.

8

MUTOLAADAN OLDIN

Zokirjon Furqat ijodi rang-barang va serqirra bo‘lib, unda lirika, publitsistika, tarjima va ilm-ma’rifat bilan bog‘liq qarashlar muhim o‘rin tutadi. Shoir, ayniqsa, g‘azallarida tabiat va oshiqona kechinmalarni o‘ziga xos badiiy tasvirlar orqali ifodalagan.

Uning she’rlarida ilm-ma’rifat, zamon bilan hamnafas bo‘lish, bilim olish va hunar o‘rganishga intilish tarannum etiladi. Shoir asarlari mutolaasi jarayonida siz uning qaysi g‘oyalarga ko‘proq urg‘u berganiga e’tibor qarating.

O‘ylab ko‘ring

1. Sizningcha, shoirlar nega ilm va ma’rifat mavzusiga tez-tez murojaat qiladi?
2. Ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqidagi fikringizni misollar bilan asoslang.

ILM XOSIYATI

(Masnaviydan parcha)

Deyin so‘z ilmni xosiyatidin,
Bayon aylab, aning mohiyatidin.

Bu so‘zni go‘sh[1]i bor odam eshitsun,
O‘zida hushi bor odam eshitsun!

Ko‘paydi ilm ila hikmat jahonda,
Ko‘ring o‘tgan zamondin bu zamonda.

Sikandar[2]kim jahong‘a shoh erdi,
Sipah[3] anjum[4], falak xirgoh erdi.

Nakim ofoq arodur bahr ila bar[5],
Hama o‘lmish edi anga musaxxar[6].

Yurub barcha aning hukmi yo‘lig‘a,
Nizomi mamlakat oldi qo‘lig‘a.

Aningkim, lashkari olamg‘a to‘ldi,
Nizomi zabt hikmat birla bo‘ldi.

Bor erdi to‘rt ming sohib zakovat,
Hamisha xizmatida ahli hikmat.

Alar har qaysisi monand Arastu,
Xirad[7]da balki Aflotung‘a qarshu.

Alar ichra edi lekin Falotun
Jami ilm-u hikmat birla afzun[8].

Qilib bir necha hikmat oshkoro,
Ajalga qilg‘udek bo‘ldi madoro.

Necha ilm-u necha fan, andin ijod,
O‘lub xosiyatidin olam obod.

[1] **Go‘sh** – quloq.
[2] **Sikandar** – Iskandar.
[3] **Sipah** – qo‘shin.
[4] **Anjum** – yulduz.
[5] **Bahr ila bar** – dengiz va quruqlik.
[6] **Musaxxar** – bo‘ysundirilgan, hukmi ostiga kiritilgan.
[7] **Xirad** – aql, zakovat.
[8] **Afzun** – afzal, ortiq.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Sikandar amri birla hikmat oyin[1],
Qilib oyina andog‘kim jahonbin[2].

Jahonda xoh bahr-u xoh bardur,
O‘shal oyina ichra jilvagardur.

Agar qilsa jahonbinliq tamanno,
Boqib andin qilur erdi tamosho.

Ko‘rar erdi qilib anga nazora[3],
Vale yo‘q erdi so‘zlashmoqqa chora.

Ilojin ahli hikmat qilmadi hech,
Qilurdi, lek ilmin bilmadi hech.

Erur shahlarga lozim davlatidin,
O‘lur voqif raiyat[4] holatidin.

Xabardor bo‘lsa doim mamlakatdin,
Berib noma, olib so‘z har jihatdin.

Yiroq yerlarga yozmoq bo‘lsa maktub,
Borib kelguncha o‘tmishdi zamon ko‘p.

Qolib shahlik ishi ta’xir[5] andin,
Bo‘lur erdi base dilgir[6] andin.

Taraqqiy qildi kundan kunga davlat,
Bo‘lub qonun ila rasmi hukumat.

Toparg‘a ilmni aylar jadallar,
Topib, aylab aning birla amallar.

Bo‘lub shul asr hikmat ahli hadsiz[7],
Fatonat[8], ahli donishmand adadsiz.

Ulum-u fanda Aflotundan afzal,
Kamoli aql-u donish birla akmal.

Necha ish ilm ila bunyod qildi,
Xususan telegrom ijod qildi.

Ki bir soatda ul sohib hunarlar,
Uch oylik yerdin olg‘aylar xabarlar.

Agar mag‘ribda bo‘lsa kimsa sokin,
Ani bilmoq erur bir kunda mumkin.

Nizom o‘ldi sipohlik ishig‘a,
Yetib ham manfaatlar ko‘p kishig‘a.

Bo‘lurlar telegrom ila xabardor,
Bilurlar naf’ yoinki zarar bor.

Sikandar davlatida ahli Yunon,
Falotun ham Arastu birla Luqmon.

Funun telegromin bilmadilar,
Magar ilmini hosil qilmadilar.

Kerak odamga qilg‘oy ilm hosil,
Jahondin o‘tmagay to mahz[9] johil.

Jahon bast-u kushod[10]i ilm birla,
Nadur dilni murodi ilm birla.

Ko‘ngullarni sururi ilmdandur,
Ko‘rar ko‘zlarni nuri ilmdandur.

Kerak har ilmdin bo‘lmoq xabardor,
Bo‘lar har qaysi o‘z vaqtida darkor.

Darig‘o[11], Furqatiy, beilm qoldim,
O‘zimni jahl[12] zindonig‘a soldim.

---

[1] **Oyin** – odat.
[2] **Jahonbin** – jahonni ko‘rsatuvchi.
[3] **Nazora** – nazar solmoq.
[4] **Raiyat** – xalq, fuqaro.
[5] **Ta’xir** – kechiktirish, kechikish.
[6] **Dilgir** – ranjigan.
[7] **Hadsiz** – behisob.
[8] **Fatonat** – o‘tkir zehn.
[9] **Mahz** – xolis, sof.
[10] **Bast-u kushod** – bog‘lash va ochish.
[11] **Darig‘o** – afsus.
[12] **Jahl** – jaholat.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Masnaviyda Furqat o‘tmish va zamona ilmlarini qiyoslaydi. Shoir fikricha, zamonaviy ilmning o‘tmish davrlardagidan ustun jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi? Javobingizni matndan misollar bilan asoslang.
2. Asarda o‘tmish hukmdorlaridan aynan Iskandar nomining tilga olinishi nimani anglatadi? Furqat Iskandar zafarlari sababini qanday omillar bilan izohlaydi va bu qarash ilm g‘oyasi bilan qanday bog‘lanadi?
3. *“Jahonda xoh bahr-u xoh bardur,*
   O‘shal oyina ichra jilvagardur” misralarini sharhlang. Sizningcha, bu misralarda Furqat o‘z davridagi qaysi ilmiy yoki texnik yangiliklarga ishora qilmoqda?
4. Furqat masnaviyda ilmning ahamiyatini ko‘proq nazariy bilim sifatida baholaydimi yoki amaliy foyda nuqtayi nazaridan yoritadimi? Fikringizni asar mazmuniga tayangan holda izohlang.

Guruhda ishlash

To‘rt guruhga bo‘lining. Uchta guruh o‘ziga tegishli topshiriqni guruh ichida muhokama qilib, taqdimot tayyorlaydi va navbatdagi darsda “fikr himoyasi”ni o‘tkazadi. To‘rtinchi guruh esa har bir guruhning “fikr himoyasi”ni baholab beradi.

1-guruh: *Ilm va shaxs kamoloti*	• Masnaviydan ilmning inson tafakkuri, dunyoqarashi va axloqiy yetukligiga ta’siri aks etgan fikr yoki misralarni aniqlang. • Ilm shaxsni o‘zgartirishi va yuksaltirishi Furqat qarashlarida qanday ifodalanganini qisqacha izohlang.
2-guruh: *Ilm va jamiyat taraqqiyoti*	• Masnaviydan ilmning savdo-sotiq, texnika, aloqa yoki ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga oid fikrlarni toping. • Furqat ilmni jamiyat rivojining asosiy omili sifatida qanday asoslaydi? Misollar bilan tushuntiring.
3-guruh: *Ilm va davlat qudrati*	• Masnaviyda ilmning davlat kuch-qudrati, siyosiy ustunlik va taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlarini aniqlang. • Shoirning Iskandar timsoli orqali ilgari surgan g‘oyalarini ilm mavzusi bilan bog‘lab izohlang.
4-guruhning vazifalari	• 1–3-guruhlar ishini adolatli va shaffof baholash mezonlarini ishlab chiqish; • har bir mezon uchun muayyan ball belgilash; • baholash natijalarini asoslab, dars yakunida guruhlar oldida e’lon qilish. ***Eslatma:*** *baholashda fikrning asoslangani, dalillarning aniqligi, taqdimotning sifati, mazmuni va jamoaviy ishtirok kabi jihatlarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



“FASLI NAVBAHOR O‘LDI...”

(G‘azal)

Fasli navbahor o‘ldi ketibon zimistonlar,
Do‘stlar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam[1], bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar[2].

Nastaran[3] yuvib yuzni, yosuman[4] tuzib o‘zni,
Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutoshti olamg‘a,
Tog‘lar chekib larza, titradi biyobon[5]lar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg‘onlar.

Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,
G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribon[6]lar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan[7],
Kiydi ko‘k qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog‘imkim,
Ranj[8]-u g‘ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Topshiriq

Ushbu havola orqali O‘zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov ijrosidagi “Fasli navbahor o‘ldi…” qo‘shig‘ini tinglang. Kuy bilan g‘azal matni uyg‘unligiga diqqat qiling. O‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga urinib ko‘ring.

Manba: O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi arxivi.

9

[1] **Shabnam** – shudring.
[2] **Abri nayson** – ko‘klam buluti.
[3] **Nastaran** – gul turi.
[4] **Yosuman** (jasmin) – gul turi.
[5] **Biyobon** – dasht, cho‘l.
[6] **Giribon** – yoqa.
[7] **Savsan** – gulsafsar, qo‘g‘agul.
[8] **Ranj** – azob, qayg‘u.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. G‘azal matnini o‘qib, qo‘shiqni tinglagach, sizda qanday hissiyotlar uyg‘ondi? Ushbu kechinmalar g‘azaldagi qaysi obraz yoki tasvirlar bilan bog‘liq deb o‘ylaysiz?
2. Shoir g‘azal matlasida *“zimiston”* so‘zini qo‘llaydi. Sizningcha, bu so‘z faqat fasllar almashinuvi bilan bog‘liqmi yoki unda ramziy ma’no ham mujassammi? Fikringizni matndan misollar keltirib, asoslang.
3. *“Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutoshti olamg‘a…”* baytida tasvirlangan tabiat hodisasi g‘azalning umumiy kayfiyati va shoirning ruhiy holatini qanday ifodalaydi? Ushbu tasvirning ramziy qatlamini izohlab bering.
4. Bahor manzarasi bilan boshlangan g‘azal *“vafo ahli”, ranj va g‘ussa* haqidagi mulohazalar bilan yakunlanadi. Sizningcha, shoir tabiat tasviridan foydalanib, qanday ijtimoiy yoki falsafiy xulosaga yetaklamoqchi?

Topshiriqlar

1. G‘azaldan olingan so‘zlarni majoziy ma’nolari bilan moslashtiring. Javobingizni asoslang.

Zimiston	*oshiq qalb, nozik hisli inson, ijodkor*
Navbahor	*ayriliq, yo‘qotish, fano, hayot sinovlari*
Bulbul	*sadoqatli, pok niyatli insonlar*
Gul / g‘uncha	*g‘am, zulmat, umidsizlik, jaholat*
Xazon fasli	*so‘nish, qadrsizlanish, e’tiborsizlik*
Vafo ahli	*yangilanish, umid, hayotga qaytish, ruhiy uyg‘onish*
Savsan	*mahbuba, orzu, pok tuyg‘u, nozik qalb*
Sunbul (ko‘k libosi, parishon zulfi)	*hayotdagi adolatsizlik, aql va baxt o‘rtasidagi ziddiyat*
Ranj-u g‘ussadagi dono / shod nodon	*parokandalik, iztirob, ichki tartibsizlik*

2. She’rda tabiatning uyg‘onishi tashxis (jonlantirish) san’ati vositasida ifodalangan. Ushbu san’at qo‘llangan baytlarni toping va quyidagi jadvalni namuna asosida to‘ldiring:

Sabzalar	*xurram*	**Nastaran**	*yuvib yuzni*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



Haykaltarosh:
Bahrom Norboyev.

ABDULLA QODIRIY (1894–1938)

Dars davomida:

- Abdulla Qodiriyning ijodi va murakkab hayot yo‘li bilan tanishamiz;
- adib asarlari mavzusi va g‘oyasi orqali davrning ijtimoiy-siyosiy muammolarini tahlil qilamiz.

Abdulla Qodiriy Toshkent shahrida Qodir bobo va Josiyat bibi xonadonida tug‘ilgan. U dastlab rus-tuzem maktabida tahsil olib, rus tili orqali jahon adabiyoti bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Keyinchalik Abulqosim madrasasida shariat ilmi, islom falsafasi, arab va fors tillarini puxta o‘rgandi hamda Sharq adabiyoti bilan yaqindan tanishdi.

Abdulla Qodiriy bilan bevosita ko‘rishib, suhbatdosh bo‘lgan adabiyotshunos Yunus Maqsudiy quyidagicha xotirlaydi:

“Abdulla Qodiriy har yili, yozning ayni pishiqchilik pallasida diniy arbob, arabshunos Zahriddin A’lam, bedilshunos Alovuddin maxsum, navoiyshunos Nodirxon maxsum va keksa avlodga mansub shoirlardan Tavallo, Xislat, Miskin, Toshqin kabi yaqin birodarlarini mehmonga chaqirib, tarix, tibbiyot, mantiqqa oid masalalar haqida suhbatlashardi. Zahriddin A’lam Muhammad payg‘ambar hadislarini, Buxoriy va Termiziy asarlarini muhokama qilar, Alovuddin maxsum va Nodirxon maxsum Bedil-u Alisher Navoiy asarlarini, ulardagi islom diniga taalluqli joylarni o‘qib, tafsir qilishardi[1]. Xalqimiz tarixini puxta bilgan adib diniy urf-odatlarga hurmat bilan yondashardi. Ammo bid’at-u xurofot bilan aslo chiqisha olmasdi. Adibning bu fazilati asarlari qahramonlari tabiatiga ham ko‘chgan”.

[1] **Tafsir qilmoq** – Qur’on oyatlarining ma’nosi va mazmunini sharhlash, izohlash.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Adibning adabiy faoliyati 1914-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasida e’lon qilingan “Yangi masjid va maktab” nomli xabari bilan boshlandi. Shundan so‘ng uning “Millatimga”, “Ahvolimiz” she’rlari, “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz”, “Uloqda” hikoyalari jadid matbuotida chop etildi. Uning asarlarida xalqni ilm-ma’rifatga, ilg‘or fikrlashga da’vat etuvchi jadidchilik g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi.



Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani orqali o‘zbek adabiyotida **milliy romanchilik maktabiga asos soldi**. Roman 1926-yilda alohida kitob holida nashr etildi. 1929-yilda yozuvchining ikkinchi romani – “Mehrobdan chayon” chop etildi. Ushbu asarlar o‘zbek romanchiligining badiiy va g‘oyaviy yuksalishida muhim bosqichdir.

Adib nasriy ijod bilan bir qatorda matbuotda ham faol ishtirok etdi. U ko‘plab hajviy va tanqidiy maqola (felyeton)lari bilan jamiyatdagi illatlarni fosh etib, haqiqatparvar adib sifatida tanildi. Shu bois Abdulla Qodiriy sovet tuzumining tazyiqlariga uchradi. 1926-yilda tanqidiy maqolasi sababli qamoqqa olinadi, biroq keyinchalik ozodlikka chiqariladi.

1937-yilgi siyosiy qatag‘on davrida adib yana hibsga olinib, 1938-yil 4-oktyabrda otib tashlandi. Abdulla Qodiriyning fojiali taqdiri XX asr birinchi yarmida o‘zbek ziyolilari boshdan kechirgan og‘ir sinovlarni yaqqol aks ettiradi.

Bilib oling

Felyeton – ijtimoiy hayotdagi muammolarni satira va yumor orqali yoritib, jamiyatdagi illatlarni fosh etishga xizmat qiladigan badiiy-publitsistik janr.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, jamiyat hayotida eski an’analar bilan yangi qarashlar to‘qnash kelishi shaxs taqdiriga va muhabbat, oila, vijdon kabi qadriyatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘TKAN KUNLAR

(Romandan parcha)

...Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “xon zamonlari”dan belguladim.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy)

Birinchi bo‘lim

OTABEK YUSUFBEK HOJI O‘G‘LI

1264-hijriy[1], dalv[2] oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilg‘an bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek.

Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, utta[3]larda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasig‘anda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan[4] bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a’yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan biravi darboza yonidag‘i kimdandir so‘radi:

– Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko‘rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig‘ina davlatmand bo‘lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, “Homid xotinboz” deb shuhratlangan, kishilar

---

[1] **Hijriy yil** – musulmon xalqlarining oy hisobiga asoslangan taqvim tizimi bo‘lib, Muhammad alayhissalom Makkadan Madinaga hijrat qilgan, ya’ni ko‘chgan yil (milodiy 622-yil)dan boshlab hisoblanadi.

[2] **Dalv** – oy nomi (21-yanvar – 21-fevral).

[3] **Utta** – u yerda.

[4] **Murti sabz urgan** – mo‘ylovi endi chiqa boshlagan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otig‘a taqilg‘an laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz “Homidboy” deyish ila uni tanita olmaydirlar. Homidning Otabek bilan tanishlig‘i bo‘lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh – Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog‘asi.

Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi.

– Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.

Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimliq bir vaziyatda:

– Tinchsizlamadingizlar, bil’aks quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga birinchi marotaba kelishim bo‘lg‘ani uchun tanishsizliq, yolg‘izliq meni juda zeriktirgan edi.

Shu orada hujraga bir chol kirib, ul ham mehmonlar bilan so‘rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo‘lib, oltmish yoshlar chamasida, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi.

Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan so‘radi:

– Tuzukmisiz, ota?

– Xudoga shukr, – dedi Hasanali, – boyag‘idan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

– Ba’zi yumushlar buyursam...

– Buyuringiz, o‘g‘lim.

– Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

– Xo‘b, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashqandan keyin so‘radi:

– Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib, so‘ngra javob berdi:

– Qulimiz.

Bu so‘zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

– Qulingiz?

– Shundog‘.

Hasanalini bolaliq vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman qo‘lidan Otabekning bobosi o‘n besh tillo barobariga sotib olgan edi. Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda bo‘lg‘anig‘a elli yillar chamasi zamon o‘tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a’zosi bo‘lib ketkan. Xo‘jasi Yusufbek hojiga, ayniqsa, xo‘jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo‘lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko‘rar edi. Hasanali o‘ttuz yoshliq vaqtida sotib olg‘an bir cho‘riga uylantirilgan bo‘lsa ham, ammo o‘g‘il-qizlari bo‘lmag‘an, bo‘lsalar ham yoshliqda o‘lib ketkanlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Otabekka ixlos qo‘yib, unga o‘z bolasi kabi qarar: “O‘lganimdan keyin ruhimga bir kalima Qur’on o‘qusa, bir vaqtlar Hasanali ota ham bor edi, deb yodlasa, menga shunisi kifoya”, deb qaror bergan va hozirdan boshlab Otabekka bu to‘g‘rida siporish[1]lar berib, undan samimiy va’dalar olib yurg‘uchi oqko‘ngil bir qul edi.

[1] **Siporish** – topshiriq.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Hasanali ustida bo‘lg‘an haligi gapdan keyin Rahmat so‘radi:

– Toshkanddan nimalar keltirdingiz, bek aka?

– Arzimagan narsalar: gazmol[1], qalapoy afzali[2] va biroz qozon.

– Marg‘ilonda gazmol bilan qalapoy afzalining bozori chaqqon, – dedi Homid...

Hasanali dasturxon yozib, qumg‘on[3] kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg‘ar ekan, so‘radi:

– Yoshingiz nechada, bek?

Otabekning labi qimirlamasdan, choy quyib o‘tirgan Hasanali javob berdi:

– Bekka Xudo umr bersa, bu yil hamduna[4] bo‘lsa, to‘ppa-to‘g‘ri yigirma to‘rt yoshga qadam qo‘yadilar.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdimmi, ota? – dedi bek. – Chindan ham necha yoshga kirganimni o‘zim bilmayman.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdingiz, bek.

Homid tag‘in so‘radi.

– Uylanganmisiz?

– Yo‘q.

Hasanali Otabekning yolg‘iz “yo‘q” bilan to‘xtashiga qanoatlanmadi va bu to‘g‘rida o‘z tomonidan izohlar berishni lozim ko‘rdi:

– Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalingan bo‘lsa ham, – dedi, – avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo‘lg‘an qarshiliqlaridan bu kungacha to‘y qilolmay kelamiz. Ulug‘ xo‘jamizning qat’iy niyatlari bu safardan qaytg‘ach, bekni uylandirishdir.

– Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo‘qdir, – dedi Rahmat va Otabekka yuz o‘girdi. – Uylangach, xotining tab’ingga muvofiq kelsa, bu juda yaxshi; yo‘qsa, munchalik og‘ir gap dunyoda bo‘lmas.

Otabek Rahmatning bu so‘zini samimiyat bilan qarshiladi.

– So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, – dedi, – ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladirg‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab’[5] bo‘lsin.

– Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqning uncha keragi yo‘q, – dedi Homid e’tirozlanib, – xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo‘lsa, bas.

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko‘z qirini tashladi.

– Uylanishdagi ixtiyorimiz, – dedi Rahmat, – ota-onalarimizda bo‘lg‘anliqdan, oladirg‘an kelinlari o‘g‘illarig‘a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o‘zlariga yoqsa, bas. Bu to‘g‘rida uylanguchi yigit bilan er qilg‘uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari

---

[1] **Gazmol** – mato.

[2] **Qalapoy afzali** – shaharcha poyafzal.

[3] **Qumg‘on** – suv, choy qaynatiladigan katta idish.

[4] **Hamduna** – maymun muchal yili.

[5] **Muvofiquttab’** – ta’bga mos, munosib.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

bo‘lmay, bu odatimiz ma’qul va mashru’ ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... Ammo xotinim ota-onamga muvofiq bo‘lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol men ham xotinimg‘a muvofiq emasdirman... So‘zingiz juda to‘g‘ri, bek aka.

Otabek Rahmatning so‘zini ixlos bilan eshitdi va “sen nima deysan?” degandek qilib Homidga qaradi.

– Jiyan, – dedi Homid Rahmatka qarab, – boshlab uylanishing albatta ota-onang uchun bo‘lib, ulardan ranjib yurishingning o‘rni yo‘q. Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa, uchinchisini ol. Xotinim muvofiq emas, deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.

Rahmat Otabekka kulumsirab qaradi-da, tog‘asig‘a javob berdi.

– Xotin ko‘paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo‘lsin? – dedi. – Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma’qul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig‘ingiz yo‘q.

…Uchovlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko‘rinar edilar. Bir necha vaqt shu holda qolishib, Rahmat tog‘asidan so‘radi:

– Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?

Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi:

– Bundan xabarim bo‘lmadi. Gumonimcha, bermagandir.

Rahmat so‘zdan chetda qoldirmaslik uchun Otabekni ham orag‘a oldi:

– Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor, – dedi, – shundog‘ ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o‘xshashi bo‘lmas, deb o‘ylayman.

Homid bir turlik vaziyatda yer ostidan jiyaniga qaradi. Tog‘asining holidan xabarsiz Rahmat so‘zida davom etti:

– Shahrimizda Mirzakarimboy otlig‘ bir savdogar kishi bor, bu shuning qizidir. Balki siz Mirzakarim akani tanirsiz, u bir necha vaqt Toshkandda qutidor[1]liq qilib turg‘an ekan?

– Yo‘q... Tanimayman.

Homidning yuzidagi boyag‘i holat yana ham kuchlanib, go‘yo toqatsizlang‘andek ko‘rinar edi, Rahmat davom etti:

– Uning havlisi poyafzal rastasining burchagidagi imoratdir. O‘zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashrof[2]larining ko‘blari bilan aloqador bo‘lg‘anliqdan balki otangiz bilan tanish chiqar.

– Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayriixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o‘zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi. Undagi bu o‘zgarishdan Rahmat xabarsiz bo‘lsa ham, ammo Homid uni yer ostidan ta’qib etar edi. Bu ta’qib Otabekdagi haligi o‘zgarishni payqabmi yoki tasodifiymi edi, bu to‘g‘rida bir mulohaza aytish, albatta, mumkin emas. Yana bir necha vaqt jim qoldilar.

…Oshdan so‘ng mehmonlar bilan xayrlashib chiqdilar.

---

[1] **Qutidor** – Qo‘qon xonligida oliq-soliqlardan to‘plangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori.

[2] **Ashrof** – sharafli, hurmatli kishilar.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Abdulla Qodiriy nima uchun xonliklar davrini *“tariximizning eng kirlik, qora kunlari”*, deb ta’riflaganini asoslang. Bunda mustaqil o‘qigan asarlaringiz hamda tarixiy ma’lumotlarga murojaat qilishingiz mumkin.
2. Otabekning Hasanaliga hurmat va yuksak odob bilan munosabati, Homidning esa bunga ajablanishi orqali muallif qanday qarama-qarshi xarakterlarni ochib beradi? Ushbu epizod Homid tabiatidagi qanday jihatlarga ishora qiladi?
3. Otabek – Hasanali – Rahmat munosabatlari misolida o‘zbek xalqiga xos qanday fazilat va qadriyatlar aks etgan? Ushbu munosabatlardan bugungi yoshlar qanday ibrat olishlari mumkin? Shaxsiy kuzatuvlaringiz asosida fikringizni asoslang.
4. Otabekning *“turmushda erkak ham, ayol ham o‘z juftiga munosib bo‘lishi kerak”* degan qarashi bilan romanning boshidanoq oila, nikoh va qo‘shxotinlik kabi masalalarning yoritilishi o‘rtasida qanday g‘oyaviy bog‘liqlik bor? Muallif bu orqali qanday ijtimoiy muammoni ko‘targan deb o‘ylaysiz?

Mutolaa

Romanning **“Xon qizig‘a loyiq bir yigit”, “Kutilmagan baxt”** boblarini mustaqil mutolaa qiling.

XON QIZIG‘A LOYIQ BIR YIGIT

Otabek o‘zi bilan ko‘rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko‘z ostidan kechirdi. Buni payqag‘an Ziyo shohichi Otabekka tanitdi:

– Amakilaringizni siz tanimag‘andirsiz, albatta, – dedi. – Bu kishi otangizning yaqin do‘stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdogarlaridan Akram hoji.

Mirzakarim ismlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan bir kishi bo‘lib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidag‘i bir keksa edi. Otabek qaytadan Mirzakarim qutidorni ko‘zdan kechirdi.

– Ota qadrdonlari bilan tanishdirg‘aningiz uchun rahmat, amak, – dedi va Akram hoji bilan Mirzakarim akaga tavozu’landi. – Otam sizlardek yaqin do‘stlariga salom aytishni menga amonat topshirg‘an edilar.

– Rahmat, sog‘ bo‘lsinlar.

Majlis Ziyo shohichining uyida Otabekning mehmondorchilig‘i uchun yig‘ilg‘an, yuqorida ismlari o‘tkan zotlardan boshqa Homid, Rahmat ham Hasanali bor edilar…

Qutidor tag‘in nimadir aytmoqchi bo‘lg‘an edi, Akram hoji unga yo‘l bermadi.

– Hoji akamiz bu kunda qanday ish bilan mashg‘ullar?

Otabek:

– Toshkand begi yonida mushovir[1] sifati bilan turadilar.

[1] **Mushovir** – maslahatchi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Azizbek bu kunda ham Toshkandga hokimdir?

– Shundog‘.

– Hokimingiz juda zolim emish, bu to‘g‘ri so‘zmi?

– To‘g‘ri so‘z, – dedi bek. – Azizbek zulmidan aholi juda to‘yg‘an.

Otabekning bu javobidan yolg‘iz Akram hojigina emas, balki majlisning boshqa a’zolari ham ajablandilar. Otasining valine’mati bo‘lg‘an bir bekning zulmini iqror etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi. Azizbekning Turkiston xonlig‘ining eng zolim va mustabid sanalg‘an beklarining biri va uning o‘z qaramog‘ida bo‘lg‘an Toshkand aholisiga qilg‘an zulmlari Farg‘onada doston, ammo Akram hojining bu savoli Azizbekning eng yaqini bo‘lg‘an bir kishining o‘g‘lini sinab ko‘rishlik uchun edi. Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi:

– Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, – dedi Akram hoji, – nima uchun uni biroz bo‘lsa ham yo‘lg‘a solmaydir?

– Kechiringiz, amak, – deb Otabek kulumsiradi, – siz otamning mushovirlig‘ini boshqacharoq onglag‘ang‘a o‘xshadingiz... Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohibi sanalsa ham va lekin bu juz’iy ishlardaginadir, buning uchun sizga bir misol keltiray, bu ish shu yaqin oralardag‘ina bo‘ldi: Toshkanddagi jum’alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar va bu maxtovg‘a qarshi ikkinchisi “nega munchalik maxtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da”, der. Ularning bu muzokaralarini chetda eshitib turgan xufya[1]lardan biri bu so‘zni Azizbekning qulog‘iga yetkazur. Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o‘z huzuriga oldirib, maxtovchig‘a ulug‘ mansab ato qilar va ikkinchisini o‘limga buyurar... Bu hukm majlisida hozir turgan otam mahkumning gunohini so‘raganida Azizbek jallodga baqirar: “Tezroq olib chiq!” Otam tag‘in qulliq qilg‘anida jallodg‘a buyurar: “Qo‘lingdag‘ini bo‘shatib, o‘rniga hojini olib chiq!” Mana, ko‘rdingizmi, otamning qadr-u qiymatini.

– Bo‘lmasa aholi xong‘a shikoyatnoma yozmaydirmi?

– Nechanchi shikoyatnomani so‘raysiz, – dedi Otabek, – Azizbekdan zulm, jafo ko‘rganlar bilan birgalikda endi o‘ninchi shikoyatnomamizni yuborg‘andirmiz... Lekin xonning yo‘lboshchisi bo‘lg‘an kishining o‘zi zulmda Azizbekdan bir necha zina baland o‘rinni ishg‘ol etkuchi kimsa bo‘lsa, biz qandog‘ qilayliq. Ammo shunisi ham borki, shu keyingi vaqtlarda Azizbek Qo‘qonning yorlig‘ va farmonlarini iltifotsiz qoldira boshladi. “Itoatdan bosh tortmasin...” degan mulohazada yozg‘an shikoyatlarimizdan markazning ko‘z yumishi ham ehtimoldir. Harholda Toshkand aholisi Azizbek istibdodidan ortiq to‘yindi, kimdan ko‘mak so‘rashni ham bilmaydir…

– Amiri Umarxondek odil poshsho bo‘lsa, – dedi qutidor, – biz ham o‘risdan oshib ketar edik.

Ziyo shohichi:

– Bizning bu holga tushishimiz o‘z fe’li-xo‘yimizdan.

[1] **Xufya** – josus.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Manimcha, o‘risning bizdan yuqoridalig‘i uning ittifoqidan bo‘lsa kerak, – dedi Otabek, – ammo bizning kundan kunga orqag‘a ketishimizga o‘z ora nizomiz sabab bo‘lmoqda, deb o‘ylayman, boshqa xil aytkanda Ziyo amakining fikrlari qisman to‘g‘ri. Oramizda bu qo‘rqunch holatka bahaqqi tushunadirg‘an yaxshi odamlar yo‘q, bil’aks buzg‘uchi va nizochi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuqurig‘a qarab tortadilar. Bu kungi qorachopon va qipchoq nizolarini sizga bir timsol o‘rnida ko‘rsatayin: o‘ylab ko‘rilsin, bu nizolardan bizga qanchalik foyda va qipchoq og‘aynilarg‘a nima manfaat hosil bo‘lmoqda? Faqat bundan foydalang‘uchilar ikki xalq orasig‘a adovat urug‘ini sochib yurg‘uchi bir necha ig‘vogar boshluqlarg‘inadir. Masalan, Musulmonqulni kim xolis odam, deb o‘ylaydir? Uning yurt uchun qon to‘kishdan boshqa nimaga foydasi tegdi? Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyavi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o‘zini mingboshi deb e’lon qilib, aqlsiz bir go‘dakni (Xudoyorni) xon ko‘tarib, el yelkasiga mindi. Tuzuk, agar Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg‘anda, zolimlarni o‘rtadan ko‘tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi? Holbuki, Toshkand tarixida misli ko‘rilmagan Azizbek kabi vahshiyni faqat shu Musulmonqul qo‘lidan oldi. Basharti, Musulmonqul chin inson bo‘lsa, insondan vahshiy tug‘ilganini hech kim eshitkan chiqmas. Modomiki, o‘z g‘arazi yo‘lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo‘lg‘unchilar yo‘qotilmas ekanlar, bizga najot yo‘qdir, magar shunday g‘arazchilarni ular kim bo‘lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o‘rniga yaxshi, xolis odamlarni o‘tquzish najotimizning yagona yo‘lidir.

Otabek majliska tamoman yangi va eshitilmagan fikrlarni so‘zlab ketdi, ular bekning og‘zig‘a anqayishib qolgan edilar. Darhaqiqat, o‘z ora bitmas nizolarning asli mansha’ini ul yaxshi onglab tahlil qilar va durust qiymat berar edi. Uning shu yo‘sun mulohaza va fikrlari majliska chuvalg‘an ipning uchini topib bergandek bo‘lib, lafzan bo‘lmasa ham ma’nan ularning tahsin va olqishlarini oldi. Otabek xufton namozi uchun tahorat olishg‘a mehmonxonadan chiqg‘an edi, uning keticha:

– Otaning bolasi-da, – deb Ziyo shohichi mehmonlarga qarab qo‘ydi.

– Umri uzoq bo‘lsin, – dedi Akram hoji, – yigitlarimiz ichida eng aqllig‘i ekan... Agarda xon ko‘tarish manim qo‘limda bo‘lsa edi, xon qilib Otabekni ko‘tarar edim... O‘zi o‘qug‘anmi?

Bu maxtovlar bilan terisiga sig‘may ketkan Hasanali javob berdi:

– Toshkand Beklarbegi madrasasining peshqadam mullabachchalaridan edi, lekin uch yilcha bo‘ldi, xo‘jamiz madrasadan olib savdo ishiga qo‘ydilar.

– Xudo har narsadan ham bergan yigit ekan, – dedi qutidor. – Otabek xon qizig‘a loyiq bir yigit ekan.



Beklarbegi madrasasi. Toshkent.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

KUTILMAGAN BAXT

Otabek Marg‘ilonga kelganining ikkinchi kunida tasodifan Kumushni ko‘rib qoladi. Uning go‘zalligi, nazokati va odobidan ta’sirlangan Otabek yuragida muhabbat uyg‘onadi. U endi Kumushni o‘ylamasdan tura olmaydi, har lahza uning siymosini ko‘z oldiga keltiradi. Otabekning bu holatini, ya’ni hijron va beqarorlik alomatlarini sezgan Hasanali u bilan samimiy suhbatlashadi va masalaning mohiyatiga yetadi.

Shundan so‘ng Hasanali va Ziyo shohichi sovchilikka boradilar. Mirzakarim qutidor Toshkentga yubormaslik sharti bilan Kumushning taqdirini Otabekka topshirishga rozi bo‘ladi.

Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo‘ldi. Domlaning: “Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, nafsingizni toshkandlik musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lig‘a bag‘ishlamoqning... “Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, nafsingizni topshirdingizmi?” degan so‘rog‘i olti, yetti qaytarilg‘andan keyin, shunda ham yangalar qistog‘i ostida arang uning rizolig‘i olindi.

Kechki soat beshlarda qutidorning hovlisi to‘rt ko‘z bilan kuyav kelishini kutadir. Kuyav uchun palovlar, quyuq-suyuq oshlar, necha turlik ne’matlar hozirlanib, bular ham kuyavning intizorlarida turardilar. Nihoyat soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o‘ttiz chog‘liq yosh yigitlar orasida Otabek – kuyav ko‘rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po‘stin, ichida o‘zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog‘ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo‘li bilan tikilgan shohi qiyig‘i... Yuzlar qizil, og‘iz irpaygan, ko‘zlar o‘ynab allakimni qidiradir. Domla xutba boshlaydir. Forsiycha o‘qulg‘an hamd, salovat va boshqalardan so‘ng xutba eng nozik bir o‘ring‘a kelib to‘xtaydir: “Sizkim Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li Kumushbibi Mirzakarim qizini o‘zingizga shar’iy xotinliqqa qabul qilasizmi?” Fors tilida so‘ralg‘an bu savol Otabekning kulgusini qistatib ko‘nglidan kechiradir:

– Qabul qilasizmi-ya?

Ul birinchi so‘roqdayoq: “Uchib, qo‘nib qabul qilamiz”, deb javob bermakchi bo‘lsa ham biroq xalqning: “O‘lib turg‘an ekan”, deb qiladirg‘an ta’nasidan cho‘chib, javob bermaydir. Yana bir qayta yuqoridag‘i: “Sizkim falonchi...” jumlasi domla tarafidan takrorlanadir. Kuyavlarga uchinchi so‘roqda javob berish odat hukmida bo‘lsa ham Otabek bu takallufka chidamaydir. Go‘yo uchinchi so‘roq o‘rnig‘a “Endi olmas ekansiz Kumushbibini...”, deb majlis buziladirg‘andek sezilar-da, hamma tovushini qo‘yib, barchag‘a eshittirib: “Qabul qildiq!” deb yuboradir.

Domla “alhamdulilloh, alhamdulilloh…” bilan nikohni tugatib, majlis tomonidan kelin bilan kuyavning haqlarig‘a duo boshlanadir, hamma duog‘a qo‘l ko‘tarib, hatto tomdag‘i tomoshachi xotinlarg‘acha “omin”ga ko‘maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir. Yigitlar kuyavni mehmonxonag‘a olib kiradirlar, ziyofat boshlanadir.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha, allaqancha yil hisoblang‘an bir fursat o‘tib, nihoyat yangalar kuyav so‘radilar. Ikki yoshg‘a muhabbatlik umr so‘rab fotiha o‘qilg‘andan so‘ng Otabek ichkariga uzatildi.

Hasanali mehmonxona ayvonida bekni kutib turar edi:

– Endi kuyavlik muborak bo‘lsin, begim!

– Qutlug‘ bo‘lsin.

Hasanali boshdan oyoq bekni kuzatdi. Otaliq muhabbati bilan bekning orqasini siladi va yoshlik ko‘zlari bilan duo qilib, unga ruxsat berdi. Otabek yangalar kutib turg‘an tarafka yurdi. Ul hozir qiziq holatda edi: bu nima gap, tushimi, o‘ngimi, nima gaplar o‘tib, nimalar bo‘lmoqda, bo‘lib turg‘an ish haqiqatmi?

Biz ichkariga kiramiz: havlining ikki tomoni to Kumushbibining uyigacha qator kuyav kutgan xotinlar, bola-chaqalar bilan to‘lg‘an. Ba’zan kutkuvchi xotinlarning qo‘lida yonib turg‘an sham’. Kuyav tushadirgan uy to‘y mollari bilan juda ham bejalgan. Burchakda oq kiyimlar bilan Kumushbibi turadir... Uning husni bejalgan uyning oqlari, ko‘klari, sariqlari va qizillari bilan tovlanib, xayoliy bir siymoda... Ko‘z yoshlarini oquzib, yangasining so‘ziga quloq osmaydir. Tashqaridan eshitilgan “Kuyav! Kuyav!” so‘zi bilan tag‘in ham uning ko‘z yoshi ko‘payib, tusi ham o‘zgardi. Yangasi Kumushni shu holda qoldirib, o‘zi yugurganicha eshikka chiqdi. Kuyav kelar edi: ikki tomonni sirib olg‘an xotin-qizlar o‘rtasidan Otabek kelar edi. Uning ketidan Oftob oyimning egachisi isiriq tutatar edi. Xotinlar qo‘llarida sham bilan unga qarar va uzatib qolur edilar. Kuyav uyning yonig‘a yetdi. Uning yuzi uyatdan juda qizarg‘an, qochqali joy topolmas edi. Shu kezda uyning eshigi ochildi-da, yanga tomonidan qarshilandi.

– Kiringiz, bek.

Otabekning yurak urishi ehtimol yangasiga ham eshitilardi. Otabek uyga kirgandan keyin yangasi tashqari chiqib, eshikni o‘zi ko‘rarlik qiya qilib yopdi...

Uyning to‘rida yonini Otabekka berib ro‘ymolining uchini tugibmi, yirtibmi Kumushbibi turadir va kim keldi, deb yonig‘a qaramaydir. Ro‘ymol tugish bilan mashg‘ul qo‘llarni chet qo‘l kelib siqdi:

– Jonim.

Kumushbibi begona qo‘ldan seskandi va qo‘llarini qutqazmoqqa tirishib:

– Ushlamangiz, – dedi ham siquvchi qo‘ldan qutulish uchun orqag‘a tislandi.

Titrag‘an va qovjirag‘an bir tovushda:

– Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? – dedi bek.

Kumushbibi shu choqg‘acha qaramag‘an va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda birmuncha vaqt qotib qoldi.



“O‘tkan kunlar” filmidan lavha. *1969-yil.*

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Shundan keyin bir necha qadam bosib, Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi:

– Siz o‘shami?

– Men o‘sha, – dedi bek.

Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar.

Kumushbibi og‘ir tin olib:

– Ko‘zlarimga ishonmayman, – dedi.

Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:

– Men ham, – dedi.

...Kumushbibi Otabekning yuziga uzoq tikilib turdi-da:

– Kutilmagan bir baxt, – dedi va o‘zining otidek bir narsaning tovushi kabi qilib kulib yubordi. Bu kulish havlilargacha eshitildi. Qiya ochilib turg‘an uy eshigi ham qattiqqina beklandi. Kumushbibi Otabekning qo‘lidan ushlab, quyida yozib qo‘yilg‘an dasturxon yonig‘a boshladi:

– Siz bo‘lg‘onlig‘ingizni ilgaridan bilganimda boshqacha qarshilar edim, – dedi.

– Boshqa deb o‘yladingizmi?

– O‘ylash qayerda, siz bo‘lursiz, deb ko‘nglimga ham kelmagan edi, – dedi-da, tag‘in kulib yubordi.

Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solur ekan, ul yerga qarag‘an holda edi.

– Men sizga hech narsa ham hozirlamag‘an edim...

– Hozirlamag‘aningiz uchun o‘kinasizmi[1]? O‘kinmangiz, – dedi bek, – sizdan bir narsani so‘rasam ayamassiz?

– Ayamayman.

Otabek Kumushbibining lablari ustidagi qora xolig‘a ishorat qilib:

– Shu yerdan bir o‘pish bersangiz siz ham katta estalik hozirlag‘an bo‘lurdingiz, – dedi.

Kumushbibi qizarindi.

* * *

Otabek Marg‘ilong‘a kelganining ikkinchi kuni poyafzal bozorida bo‘lg‘an edi. Asr namozining vaqti o‘tib borg‘anliqdan ul shundagi do‘kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so‘radi. Ko‘chadagi suv ariqning tegidan – soy oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do‘kondor unga suvning qulay o‘rnini ko‘rsatdi: “Mana shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib, tahorat olursiz”, dedi. Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha qutidorning tashqarisig‘a kirdi. Shu vaqt tasodufan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib kelguvchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig‘a kelib to‘xtag‘an chingilin[2] yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayriixtiyoriy, ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko‘z ololmadilar.

[1] **O‘kinmoq** – afsus chekmoq.

[2] **Chingilin** – kelishgan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Oxirida Kumush nimadandir cho‘chig‘andek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomong‘a burdi. Bu burilishdan uning orqa-o‘ngini titib yotqan qirq kokillari to‘lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo‘l ustidan ariq bo‘yida qotib turg‘an yigitga yana bir qarab qo‘ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko‘zini katta ochib, o‘tgan daqiqada uchrashkani xayoliy go‘zalni istab xayollandi. Biroq haqiqat boshqacha edi.

Tahorat olmoq uchun ariq bo‘yiga o‘ltirdi. Ammo ko‘zi xayol yashiring‘an yo‘lakda edi.

Tahoratlanib bo‘ldi, yana ko‘zini o‘sha tarafdan uzolmadi. Artinib olg‘ondan keyin yana oyog‘ ustida to‘xtab qoldi. Yashiring‘an go‘zal ikkinchi qayta ko‘rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog‘lab, o‘zi qaysi burchakdan bo‘lsa ham asirini tamosho qilar edi.

Ko‘b kutdi, asr namozini qazo qilib, kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug‘ilg‘an edikim, bu yog‘i o‘qug‘uchimizga ma’lumdir. Kumushbibining yuqorida: “Siz o‘shami?” deb so‘rashi shunga binoan bo‘lib, ammo unga masalaning onglashilmay qolishi va chin baxtning bil’aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovushish bilan natijalandi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Ziyo shohichi uyidagi majlisda Otabek Azizbekning zolimligini yashirmay aytadi. Bu holat sizda qanday taassurot qoldirdi? Siz buni uning jasorati va adolatparvarligi bilan izohlaysizmi yoki zamonasidan ilgarilab ketgan tafakkur belgisi deb bilasizmi?
2. Akram hojining *“Hokimingiz juda zolim emish, bu to‘g‘rimi?”* degan savolini siz qanday tushundingiz? Sizningcha, u bu savol orqali Otabekning qaysi jihatini sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan?
3. Otabekning *“bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz”* degan fikri va bunga keltirgan misoli o‘sha davr boshqaruv tizimi haqida sizda qanday tasavvur uyg‘otdi?
4. Otabek taraqqiyotning asosi sifatida *“ittifoq”*, tanazzul sababi sifatida esa *“nizo”*ni ko‘rsatadi. Bu fikrlarni bugungi jamiyat bilan qiyoslab ko‘ring: sizningcha, bu qarashlar hozir ham dolzarbmi? Nima uchun?
5. *“Xon qizig‘a loyiq bir yigit”* bobida Otabek jamiyat muammolari haqida dadil gapirsa, *“Kutilmagan baxt”* bobida uning ichki kechinmalari va muhabbati oldinga chiqadi. Bu ikki holat Otabek obrazini qanday shaxs sifatida ochib beradi?
6. Roman voqealarida Hasanali muhim ahamiyatga ega shaxs. Sizningcha, yozuvchi Hasanali obrazi orqali qaysi insoniy va milliy fazilatlarni ulug‘laydi?
7. Otabek va Kumushning muhabbati tasodifiy uchrashuvdan boshlanib, nikoh bilan yakunlanadi. Nikoh va to‘y marosimi, shuningdek, visolning nozik va sirli tarzda tasvirlanishi orqali yozuvchi qanday milliy qadriyatlar va hayotiy g‘oyalarni ilgari surmoqda?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ijodiy ish

1. *“Ziyo shohichi uyidagi majlis orqali yozuvchi xonliklar davridagi siyosiy inqirozni qanday ko‘rsatadi?”* Ushbu yo‘naltiruvchi savol asosida kichik tahliliy matn tayyorlang. Unda Ziyo shohichi uyidagi majlisni oddiy suhbat emas, balki **davr siyosiy manzarasini ochib beruvchi badiiy vosita** sifatida tahlil qiling.

Matnga **mazmunni ochib beruvchi sarlavha** qo‘ying. Fikrlaringizni asar mazmuniga va tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayangan holda asoslang.

2. Navbatdagi darsda sinfdoshlaringiz bilan matnlarni almashib o‘qing va *fikrning asoslangani, dalillarning ishonchliligi, xulosaning aniqligi* bo‘yicha **qisqa munosabat** bildiring.

Mutolaa

Romanning **“Ota-ona orzusi”** va **“Dushanba kun kechasi”** boblarini mustaqil mutolaa qiling.

OTA-ONA ORZUSI

O‘zbek oyim ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi. Uning o‘tkirligi yolg‘iz erigagina emas, Toshkand xotinlarig‘a ham om edi. O‘zga xotinlar uning soyasig‘a salom berib, to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig‘inlarida uylarining to‘rini O‘zbek oyimg‘a atag‘an edilar.

O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y-u azalarga “Kavshim ko‘chada qolg‘an emas”, deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o‘z to‘ylarini O‘zbek oyim ishtiroki bilan o‘tkazib olsalar, o‘zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab, “maning to‘yimni bek oyim o‘z qo‘llari bilan o‘tkazdilar” degan jumlani majlislarda iftixor o‘rnida so‘zlab yurar edilar. O‘zbek oyimning obro‘si yolg‘iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o‘rda xonimlari ham ehtirom qilib o‘zlarining “onaxonlari” deb bilar edilar. Shunga ko‘ra qaysi bir vaqtlarda o‘rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko‘ndalang qilib, “o‘rda begi oyim buyurdilar”, deb O‘zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O‘zbek oyim xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: “Kecha o‘rda bekoyimdan menga arava kelgan ekan, fe’lim aynab turg‘an edi, bormay aravani bo‘sh qaytardim... Bo Xudo, o‘rda bekachi bo‘lsa o‘ziga, dedim”, der edi. Ikkinchi vaqtda “O‘tkan kun o‘rdaga borg‘an edim; xonimlar yotib qolasiz deb qo‘ymadilar, noiloj bir kecha yotib keldim”, deb so‘z orasig‘a qistirib ketar edi. Bu so‘zlarni eshitkuchi xotinlar o‘zlarining qandog‘ bir xotinning suhbatiga noil bo‘lg‘anlarini o‘ylab, O‘zbek oyimning ehtiromini tag‘in ham kuchaytirar edilar.

Ul o‘z uyida o‘lturg‘anida ham ustidagi atlas ko‘ynak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan kahrabo tasbehni qo‘ymay, qish kunlari tanchada par yostiqqa suyalib, yoz kunlari ayvonning to‘riga yoslanib, Hasanalining xotini bo‘lg‘an Oybodoqqa, cho‘ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmasliqni tanbihlabkina o‘lturar edi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Otabekning Marg‘ilondan uylanib qo‘yishi otasi uchun uncha rizosizlik mujibi[1] bo‘lmasa ham, ammo uning o‘g‘ul to‘yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-ust qilib, “Buning qizi yaxshi bo‘lsa ham, uy-joylari yaramas ekan, buning uy-joylari tuzik bo‘lsa ham, qizi ko‘rksiz ekan; buning qizi-da, uy-joylari-da tuzik, biroq zoti past ekan”, deb qiz, quda, uy, joy, nasl va nasab tekshirib yurg‘uchi O‘zbek oyimning Otabekni uylandirib, buning orqasidan ko‘raturgan orzu-havas, to‘y-u tomoshalarini shartta kesib qo‘yg‘an bu uylanishka nima deyishi va qanday qarashi, albatta, ma’lum edi.

Bu xabarni Hasanalidan eshitkan kunlari ul bul ishka chidab turolmadi: “Endi menga mundog‘ o‘g‘il kerak emas... Oq sutimni oqqa, ko‘k sutimni ko‘kka sog‘dim... Endi Toshkandga kelmasin ul o‘zboshimcha betiyiq!” deb baqirib-chaqirib, yig‘lab-sixtab, dard-u hasratni boshiga kiyib oldi. Oradan o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas, Marg‘ilondan Otabek keldi. Uch oylab ko‘rmagan o‘g‘lini quchog‘iga olib ko‘rishmak o‘rniga undan yuzini o‘gurib, “san kimsan, keldingmi?” deb so‘ramadi va salomiga alik ham olmadi. Go‘yo uxlamoqchi bo‘lgan tovuqdek hurpayib oldi. Otabek onasining araziga allaqachon tushungan, ham shu holni Marg‘ilondayoq kutkan edi.

Bir-ikki qayta uzr aytib ko‘rgandan so‘ng O‘zbek oyimning epaqag‘a kelishiga ishonmay qoldi va shuning uchun ul ham go‘yo bilmagan, tushunmagan kishidek yura berdi.

Turg‘an gap, Otabekning Marg‘ilong‘a uzoq bormay turishi mumkin emas edi. O‘rtadan ikki hafta o‘tar-o‘tmas otasig‘a allaqanday bahona ko‘rsatib, Marg‘ilon jo‘naydir. O‘zbek oyim o‘g‘lining “o‘lganning ustiga chiqib tepish” qabilida bo‘lg‘an bu harakatidan tutuni ko‘kka chiqib, borliq qahr-u g‘azabini eri ustiga to‘kadir: “Siz qarib esingizni yeb qolibsiz, o‘g‘lingizni marg‘ilonliqqa topshirib qo‘yib, yana el ichida boshingizni ko‘tarib yurmakchi bo‘lasizmi?” deydir.

Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa-bo‘lsin, uzoq so‘zlashib o‘lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so‘zlari va yo kengashlari bo‘lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so‘zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so‘ng sekingina ko‘tarilib, uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uchini o‘z og‘zig‘a tikiltirib o‘lturg‘andan so‘ng, agar ma’qul tushsa, “xo‘b” deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa, “xo‘sh” deydir, noma’qul bo‘lsa, “durust emas”, deydir va juda ham o‘ziga noma’qul gap bo‘lsa, bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe’liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko‘pincha bir og‘iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to‘g‘rida so‘zlashmakchi bo‘lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir. O‘zbek oyim yuqoridag‘i o‘zining itob va xitobiga eridan bir iljayib qo‘yish javobini olib dami ichiga tushadir va chor-nochor o‘ttuz kunlab bir zamonni o‘zicha marg‘ilonliqni qarg‘ash bilan kechiradir. Otabek Toshkandga qaytib kelib, “endi araz bitkandir” degan o‘yda onasig‘a salom beradir. Araz bitish qayerda, O‘zbek oyimning o‘g‘lig‘a qarshi kinasi tag‘in bir necha qat ortqan, ammo bu gal salom berguchiga bir qaraydir-da, “O‘g‘lim, menga salom berib nima qilasan, marg‘ilonliq onangning duosini ol!” deb yuzini chetka o‘guradir. Ul onasining bu kinoyasini kulgulik bilan kechirib, yana es-

[1] **Mujibi** – sababi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

kicha arazda qolaberadirlar. Otabek yana o‘n besh kunni o‘tkazib, tag‘in bir nozik sababni o‘rtag‘a tashlab, onasining ruxsatisiz Marg‘ilong‘a jo‘nab soladir. Tag‘in O‘zbek oyimning rangi o‘chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho‘michni piyolaga urib, dod-u faryod qiladi: “Siz otamisiz, nimasiz axir, o‘g‘lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? O‘g‘lingizning bu ishi bejiz emas: marg‘ilonliq sehr qildimi, jodu qildimi, haytovur siz shu yo‘sunda yuriy bersangiz, erta-indin o‘g‘uldan ajralasiz. Bu kalvak o‘g‘lingiz marg‘ilonliqning eshigida qul bo‘lib yotib oladir...” Ammo Yusufbek hoji xotinining so‘zini bu gal ham elamaydir, faqat: “Qo‘yaber, xotin, o‘zi sog‘ bo‘lsa, bir kun esini topar”, deb qo‘yadir. Bir yarim oylar vaqtni Marg‘ilonda o‘tkazib, tag‘in Otabek Toshkandga keladir. Tag‘in ona-bola oralarida kina-kudurat... Tag‘in araz... O‘n besh kun o‘tmasdan yana Andijon safari, yana O‘zbek oyimning fig‘oni falakka...

...Bir oylab kechikkandan so‘ng Otabek qaytib keldi va bu kelishining vijdon azobi va tilamagan bir taklifni eshitish uchungina emas, balki qabul qilish uchun bo‘lg‘anlig‘ini payqadi. Ul bu gapni onasining ilgarigi achimsiq so‘zlari va arazlari tugaganidan va o‘rniga chuchuk so‘zlar, silliq muomalalar bitib, “eson-sog‘ keldingmi, bolam”laridanoq sezgan edi. Bunday bo‘lmag‘ur taklifni eshitmaslik uchun o‘zini chetka olib, otasi, ayniqsa, onasig‘a yo‘liqishdan qochib yurishka majbur bo‘ldi. Ikki oradag‘i bu qochish-quvish ishi uzoqqa cho‘zilmay, bir kech mehmonxonada ota-o‘g‘ul so‘zlashib o‘turganining ustiga O‘zbek oyim kelib kiradi va o‘lturmasdanoq hojiga imlab qo‘ydi. Bu imqo‘qni Otabek payqamag‘an bo‘lsa ham, lekin anuv gapning aniq shu majlisda ochilishig‘a ko‘zi yetib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi. O‘zbek oyim kelib kirgandan so‘ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi. O‘zbek oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagina so‘zsiz o‘lturg‘andan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi.

– O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek, ma’lumki, ularning “qilib qo‘yg‘an yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini”, albatta, bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari, albatta, noma’qul bo‘lmas, – dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinig‘a qarab oldi. Yana orag‘a jimjitlik kirdi. Bu so‘zsizlik ma’nosig‘a O‘zbek oyim tushuna olmag‘an edi. Biroz qarab o‘lturg‘ach, yuragi qaynab ketkandek bo‘ldi:

– Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig‘a unashib qo‘ydiq... Endi san bilan to‘y maslahatini qilishmoqchi edik...

Otabek onasig‘a bir og‘iz so‘z demay, ma’nolik qilib otasig‘a qarab oldi. Hoji uyatliksumon “shundog‘” deb qo‘ydi.

– Sizlarni ranjitib bo‘lsa ham bir marotaba uylangan edim-ku? Endi...

– San uylansang, biz ranjirmidik? – dedi kulib hoji.

– Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o‘lturib oldi:

– Bu ranjishdan emas, hojatdan, o‘g‘lim.

– Nima hojat?

– Hasanalining so‘ziga qarag‘anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan. O‘g‘il o‘sdirib katta qilg‘an onangning bo‘lsa oldig‘a kelin qayg‘usi keladir...

Otabek onasig‘a qaradi:

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo‘lardi-ku, – dedi.

O‘zbek oyim marg‘ilonliq tomonidan sehrlangan o‘g‘lig‘a qarshi qizishib ketdi. Bir yillardan beri ichiga yig‘ib kelgan kinasini to‘kib berdi:

– Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag‘an edim. San bizning naslimizni ko‘tarish o‘rniga yerga urib, bulg‘ading. Biz sani Marg‘ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o‘ylamag‘an edik, adabsiz... o‘zingga qolsa shu marg‘ilonliqni xoting‘a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek ham qizishdi:

– Xotin bo‘lmasa, nima axir?!

– Qoshliq, ko‘zlik bir andi!

– Andi deganingiz nima o‘zi?

Yusufbek hoji o‘g‘lini bosish o‘rniga javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotiniga qaradi. O‘zbek oyim “andi” ma’nosini bildirib, andilarning sehrini rad qilish uchun biroz tutilib qiynaldi:

– Andi... andi... o‘zi xitoymi, nima balo... o‘zi qalmoqdan tarqag‘an bo‘ladir. Tushunmagan bo‘lsang, lo‘lilarning bir toyifasi...

Bu javobga Yusufbek hoji o‘zini xoxolab kulishdan to‘xtata olmag‘anidek, Otabek ham kulib yubordi. Xotinining tirnoq ostidan kir izlab va da’vosining isboti uchun g‘o‘ldirashidan ortiqcha kulib kayflangan Yusufbek hoji ko‘ziga chiqg‘an yoshlarni artar ekan, jiddiyat bilan o‘g‘lig‘a dedi:

– O‘g‘lim, san onangning gapiga achchig‘lanma. Ul har narsa desa, faqat Marg‘ilondan uylanganingga qarshilig‘idan aytadir. Ammo mendan so‘rasang, Marg‘ilondag‘i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajh bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo‘lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli, o‘g‘lim, deyman. Ammo bizning hozirgi ba’zi bir ra’ylarimiz sanga yotishib kelmas ekan, bunga haqqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdan bizni ham haqsiz tashlab qo‘yma. O‘g‘lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo‘q. Dunyoda ko‘rib o‘taturg‘an barcha orzumiz, havasimiz faqat sangagina qarab qolg‘an. Biz xudoyi taolog‘a minglab shukr aytamizkim, san boshqalarning farzandidek eslik-hushlik bo‘lding; kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat chekmasimizga ishondik. Ayniqsa, onangning saning tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib bordi. Bu kun onang saning oldingg‘a tiz cho‘kib va onang ko‘ngli uchun men ham orag‘a tushib sandan so‘raymiz: san o‘z xohishing yo‘lida uylangan ekansan, rafiqang sanga muborak bo‘lsin. Eslilik da’vosida yurgan ota-onang tilagi, albatta, shundan boshqa bo‘lmas. Shu bilan birga saning sababi vujuding bo‘lg‘an bir kishi o‘z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi... Uning bu orzusig‘a haq berasanmi-yo‘qmi, yana ixtiyor o‘zingda...

Hojining bu so‘zi O‘zbek oyimg‘a nechog‘liq yoqqan bo‘lsa, Otabekni shu qadar yerga qaratqan edi. Hoji o‘zidan oshirib so‘zlag‘an bu so‘zlarini shu gap bilan tamomladi:

– Bilgan topib so‘zlar, bilmagan qopib, deganlaridek, onangning aytmakchi bo‘lg‘an so‘zi faqat shu edi. Boyag‘i gaplari bo‘lsa o‘z haqqini himoya qilish yo‘lida uning po‘pisalarigina bo‘lib, mendan ham ko‘ra onangning fe’lini o‘zing yaxshi bilasan...

Otabek mag‘lub bir boqish bilan bu so‘zni aytkuchi otasig‘a qaradi va yalinchoq bir ohangda javob berdi:

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Men sizlarding orzularingizni bajarishka – agar xursandchilig‘ingiz shu bilan bo‘lsa – har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat...

Hoji o‘g‘lining maqsadig‘a darrov tushuna olmadi va so‘radi:

– Kimga, xotiningg‘ami?

– Yo‘q, sizning oladirg‘an kelinigizga. O‘g‘lingizning vujudi bilan orzungizni qondirish oson bo‘lsa ham kelinigiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o‘rnida tasavvur qilingiz.

Yusufbek hoji yalt etib xotinig‘a qaradi. O‘zbek oyimning bo‘lsa oladirg‘an keliniga e’timodi[1] yuqorilig‘idan o‘ylab-netib turmadi:

– Mayli, bolam, buyoqni hozir san o‘ylamay qo‘y, – dedi.

Otabek bir og‘iz so‘z aytmay sukut qildi. Yusufbek hojining esa o‘g‘lining o‘zini to‘g‘rilig‘ig‘a, keyindan yuz ko‘rsataturg‘an ko‘ngilsiz ishlarga aqli yetsa ham, ammo bir mulohaza yuzasidan istiqbolning qorong‘i ishlarini hozir uncha mulohaza qilib ko‘rmadi:

– Juda to‘g‘ri aytasan, o‘g‘lim, biroq onangning bir mulohazasizligiga boshdayoq men labimni tishlab qolg‘an edim. Hozirda ham shu holda qolmoqqa majburman, – dedi va: – Biz hozir andishaning bandasi, men emas, onang biravni ishondirib qo‘yg‘an, bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma’qul ko‘rinmaydir.

Otabek ota-ona orzusig‘a o‘z ta’biricha jonsiz haykal bo‘lib rizoliq berdi. Ammo o‘z rizolig‘ining sharti qilib to‘ydan ilgari Marg‘ilon borib kelishni va bir daraja ularga aytib o‘tishni, shundan so‘ng to‘y boshlashni ahd qildi. Ishning yengil ko‘chishiga suyingan ona Otabekning bu shartiga lom-mim demasdan ko‘ndi va orzuliq to‘yni tez boshlash uchun o‘g‘lini Marg‘ilon ketmakka qistay boshladi...

DUSHANBA KUN KECHASI

Kumushga har qanday yo‘l bilan erishishni istagan Homid Otabek nomidan soxta taloq xati yozdirib, uni Mirzakarim qutidorga yetkazdiradi. Shu tufayli qutidor uni “...boringiz, eshigim yonida to‘xtamangiz... uyatsiz!” deya haqoratlab, quvadi. Ayni voqeadan so‘ng Otabekning ikki yillik sarson-sargardonlik davri boshlanadi. Kumushga shariatga zid taloq xati kelganidan olti oy o‘tib, Homiddan sovchilar keladi, biroq Kumushning ota-onasi endi u boshqa turmush qurmaydi, deya javob berishadi. Ko‘p marta kelgan sovchilar rad javobini olib ketadi.

Keyin Kumushni Marg‘ilon boylaridan Salim sharbatdorning o‘g‘li Komilbekka uzatish rejalari tuziladi. Otabek esa qaynotasining nohaq munosabatidan iztirobga tushadi.

Otabek sargardonlik vaqtida yettinchi marotaba Marg‘ilonga borganida yo‘lda ikki kishi Kumushning turmushga chiqayotgani haqida gaplashayotganini eshitib, hayratda qoladi.

Shu voqeadan so‘ng Otabek usta Alim uyida taloq xati voqeasini Homid tashkil etgani, bo‘lg‘usi kuyov Komilbekning qotili ham u bo‘lishi mumkinligi hamda dushanba kuni kechasi Malikboy maydoni orqali qutidor hovlisining orqa tomonini kavlab, Kumushni olib qochmoqchi ekani haqida xabar topadi.

[1] **E’timod** – ishonch.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o‘zining qora quchog‘iga olg‘an qorong‘i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so‘ng soatlari yetkanligi shu qorong‘i tun kabi qorong‘i edi. Otabek bu ikki holdan tabiiy birisini bu soat o‘zining ko‘z o‘ngida ko‘rar va shunga hozirlanar edi esa-da, ammo Homidning xayoli faqat gulgina iskar, gul sayriga oshiqinar edi...

...Maydon ikki tanob kenglikda bo‘lib, janubi qutidor va qo‘shnisining imoratlari orqasidan va boshqa uch jihati ham shunga o‘xshash binolardan iborat edi. Maydonga yozda nimadir ekilgan, chuqur-chuqur jo‘yaklar tortilg‘an va yer yomg‘ur bilan ivib, bo‘kib oyoq ko‘tarib bosishga imkon bermas, har bir oyoq uzg‘anda uch chorak loy barobar ko‘tarilur edi. Qiynala-qiynala maydonning janubiga o‘tdi. Uning chap qo‘li tomonida bir uyning orqa devori bir bo‘yra eni kesib tushirilgan bo‘lib qorayib ko‘rinar edi. Ul bu kesilgan o‘rinni o‘tkan kun kechasi kelib ko‘rib ketkani uchun qaytadan qarab turmadi esa-da, lekin uning bu binog‘a iltifotsiz qarashi mumkin emas edi. Bu tegi kesilgan bino Kumushning o‘z uyi bo‘lib, bu uy ichida Otabekning saodatlik kunlarining shirin xotiralari saqlanar va shu daqiqada ham uning hayot tiragi bo‘lg‘an Kumushbibi o‘lturar edi. Otabek ko‘zini to‘ldirib binog‘a qaradi, go‘yo bu qarashda ul dunyo malaki bilan vidolashar edi.

...Tun yarim bo‘lib, olding‘i uxlag‘anlar endi bir uyquni olg‘an edilar. Maydon eshigi ochildi. Biri orqasidan biri yurib, ikki ko‘laga maydonga kirdi. Buni payqag‘an Otabek xanjarini qinidan chiqarib qo‘lig‘a ushlag‘ach, yuztuban yerga uzandi... Ikki ko‘laga so‘zsizgina osti kesilgan bino yonig‘a kelib to‘xtadilar. Kelguchilarning biri Sodiq va ikkinchisi Mutal edi. Tumshug‘ini yerga tirab yotqan mushukdek bo‘lib Otabek ularni kuzatar edi.

To‘xtag‘ach, shivirlab Sodiq so‘radi:

– Teshilayozg‘anmikan?

– Ozg‘ina qolg‘andir, deb o‘ylayman, negaki, paxsaning enidan bir gaz chamasi joy ochilg‘an!

Mutal tovshini baralla qo‘yib so‘zlar edi, shuning uchun Sodiq dedi:

– Tovshingni sekinroq chiqarsang-chi!

Mutal belidan teshasini olar ekan, unga javob berdi:

– Hali shundan ham qo‘rqasanmi, balki hali ashulamni ham aytib yuborarman!

– Jinnilig‘ingni qo‘y, Mutal aka! Men ham yoningda turaymi?

– Turasanmi-yo‘qmi, ixtiyor o‘zingda!

Mutal kovakka kirib kovlashka tutindi.

– Teshani qattig‘ solma, – dedi Sodiq.

– Menga o‘rgatma, o‘zim bilaman.

Sodiq Mutalning ehtiyotsizligidan qo‘rqdi, shekillik, biroz Mutalning ishiga qarab turg‘ach dedi:

− Bo‘lmasa, men eshik yonig‘a borib turay, teshildi deguncha hushtak ber.

− Tuzik, hali Homid kuyaving qayog‘da qoldi?

− Ko‘chaning boshida poylab o‘lturgandir. Hushtagingni eshitkach, uni ham chaqiraymi?

− Chaqir, – dedi Mutal va shitir-shitir kesak tushira berdi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Sodiq eshikdan chiqg‘an ham edi, Otabek sekingina boshini ko‘tardi-da, Mutal sari shuviy boshladi. Mutal esa yemirilib tushkan kesaklarni tashqarig‘a surish bilan ovora edi... Shu vaqt uning qo‘ltug‘i ostidan uzatilg‘an qo‘l hiqildog‘idan ombir kabi siqib oldi... Mutal kuchlik edi, ammo Otabek undan ham kuchlik edi. Sapchib hiqildog‘ini ajratish uchun bo‘lg‘an Mutalning birinchi harakati bo‘shka ketdi-da, chap biqinig‘a o‘tkir xanjar g‘archcha botirildi... Ammo ul hamon bo‘shalishg‘a kuchlanar edi va kuchlik qo‘l battarroq uni siqar edi. Uch daqiqaliq kurashdan so‘ng Mutal bo‘shashdi, ilgarigi kuchlanishlardan qoldi va bir-ikki daf’a to‘lg‘anib jimgina jon berdi.

...Sodiq yaqin yetkan edi, kesmadan uzoqroqda turib shivirladi:

– Teshdingmi, Mutal?

– Teshdim, beri kel.

Sodiq kesma yonig‘a kelib engashdi. Engashgani hamono qo‘l hiqildoqqa to‘g‘ri kelgan edi va xanjar qornig‘a botirilg‘an edi... Sodiq qo‘lidag‘i xanjarini bir-ikki qayta solib ko‘rsa ham tegdirish uchun kesmaning tubanlig‘i xalal berdi, lekin o‘zi tetuk edi. Otabek sapchib kesmadan chiqdi va bor kuchi bilan Sodiqni bosib tushdi... Bosib tushishi hamono allaqaysi yeri achishkandek sezildi... So‘l qo‘li Sodiqning hiqildog‘ida, xanjarlik qo‘li Sodiqning xanjarlik qo‘lida edi... Biroz kuchini yig‘ib olg‘ach, hiqildoqni bor kuchi bilan siqa boshladi. Sodiq xirillar, shunday bo‘lsa ham qo‘lidag‘i xanjarni bo‘shatmas edi. Eshik tomondan Homid ham ko‘rinib qoldi... Vaqt tang kelgan edi... Sodiqdan ko‘kragini qochirib xanjarlik qo‘lini bo‘shatdi va Sodiqning xanjari bir-ikki qayta uning orqasig‘a kuchsiz-kuchsiz kelib tekkan edi. Xanjarini ikkinchi urishda Sodiq bo‘shashdi va qo‘lidan xanjari tushdi.

– Homid akangga juda ham mehribon ekansan, Sodiq! – dedi bosib yotqan joyidan Otabek. – Joningni ham unga qurbon qilding!

Sodiq ingranib qo‘ydi.

– Kim xirillaydir? – dedi yaqinlashib kelgan Homid.

– Tezroq keling, Homid aka, Otabekni o‘ldirdik! – dedi shoshib Otabek.

– Ah! – deb yurib keldi Homid.

Otabek Sodiqni qoldirib, Homidning xanjarlik qo‘lini ushlab oldi.

– Mutal o‘ldi. Sodiq ham o‘lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldiq!

Homid qo‘lini bo‘shatishqa tirishar ekan, Otabek salmoqqina qilib dedi:

– Ortiqcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarlik qo‘lingizni bo‘shataman hozir, ammo shungacha ikki og‘iz so‘zim bor!

Homid hanuz qo‘lini bo‘shatishg‘a kuchanar edi.

– Kuchanmangiz, Homidboy!

– Mard yigit bo‘lsang, qo‘limni qo‘y!

– Oshiqma, qo‘yaman, – dedi Otabek.

Shu choqda oyoq ostida yotgan Sodiq ko‘tarilib-ko‘tarilib o‘zini otmoqda edi. Otabek Sodiqdan nariroqqa Homidni boshladi. Homid tig‘izlik bilan surildi. Xanjarlik qo‘li bilan tuynukka ishorat qilib, Otabek so‘z boshladi:

– Siz mendan ham yaxshi bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarg‘a solg‘an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va hisobsiz tillalar to‘kdirgan, nihoyat shu daqiqag‘a

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

keltirib to‘xtatqan birav uxlaydir. Agarda sizning manim tilimdan yozib bergan taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlag‘uchi manim halol rafiqam bo‘lib, ikki yildan beri man ham uning ko‘yida sargardonman. Demak, siz bilan manim oramizda shu birav uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha manim ustimdan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qorachopon[1]chi, deb dor ostilarig‘acha olib bordingiz, Musulmonqul qo‘lig‘a topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqg‘ach, ismimdan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishka muvaffaq bo‘ldingiz, bu orada gunohsiz bir yigitni ham o‘ldirdingiz. Nihoyat o‘g‘riliq yo‘lig‘a tushib, ikki yigitingizni manim qo‘limda halok qildingiz... Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliqlaringizda haqlimi edingiz?

– Haqli edim! – dedi Homid va siltab xanjarlik qo‘lini bo‘shatib, chalqancha yiqildi...

* * *

Shaxsiy hayoti yo‘lga tushmagan Otabek yurtning notinchligi, elning abgorligini ko‘rib, yana azob chekadi. Shunday kunlarning birida Toshkentda qipchoqlar ayovsiz qirg‘in qilinganini ko‘radi va bu ishda o‘rdaga yaqin kishilardan bo‘lmish Yusufbek hoji ham qatnashgan deb o‘ylab otasidan ranjiydi. Buni sezgan donishmand ota mamlakatning ayanchli buguni va tahlikali ertasi to‘g‘risida o‘g‘li bilan fikrlashadi...

...Yusufbek hoji ertalab choyni Otabek bilan birga ichish uchun mehmonxonag‘a chiqdi. Otabek tersaygancha kelib choyg‘a o‘lturdi, otasig‘a salom bermadi. Chunki ul o‘z otasini qipchoq qirg‘inining bosh omillaridan deb qaror qo‘yg‘an edi. Choy yarimlayozdi. Oradan churq etkan so‘z chiqmadi.

Nihoyat, o‘g‘lig‘a yengillik berish niyatida hoji tilga keldi:

– Xafa bo‘lma, o‘g‘lim.

– Sizlarga o‘xshab, – dedi istehzolanib, – quvonaymi?

Hoji o‘g‘lining qandog‘ fikrda va nima uchun tersayganini bildi.

– Yanglishasan, o‘g‘lim.

– Rajabbeknikidagi majlisda, – dedi zaharxanda bilan, – bu yirtqichlarning rejachisi kim edi?

Hoji entikdi va:

– Rajabbeknikida bo‘lg‘an majlisni sen bilasanmi? – deb so‘radi.

– Bilaman.

– Bilsang, – dedi hoji, – manim ustimga mundog‘ tuhmat orttirishdan uyal, bola!

– Rajabbeknikida bu kengash bo‘lmag‘anmidi?

– Bo‘lg‘an edi.

– Bo‘lg‘an bo‘lsa, tag‘in nega o‘zingizni quruqqa olasiz?

Yusufbek hoji boladan kulgandek qilib iljaydi.

– Ba’zi yengil muhokamalaring onangnikidan qolishmaydir, Otabek! – dedi. – Majlisdan xabaring bo‘lg‘an bo‘lsa, kim qaysi fikrda qolg‘anini ham bilarsan?

– Yo‘q.

[1] **Qorachopon** – o‘zbeklar nazarda tutilmoqda.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Majlisda nimadan bahs qiling‘anini-chi?

– Majlisda nima muzokarasi bo‘lg‘anini ham bilmayman va lekin o‘sha majlis faqat qipchoqlarga qatli om[1] uchun yig‘ilgan ekan, deb kecha ishondim. Majlisingiz a’zolarining sizdan boshqasi nega yigit to‘plab, Qo‘qong‘a ketdilar va ular Qo‘qong‘a yetmaslaridanoq nega bu vahshat boshlandi?

– Bu muhokamang to‘g‘ri, ammo otangni ham shu jonivorlar orasig‘a qo‘shib o‘ltirishing qisqalig‘ingdir, – dedi. Ko‘ziga yosh oldi. – O‘zing o‘ylab ko‘r, o‘g‘lim, o‘z qo‘limiz bilan o‘zimiznikini kesishimizdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirok qilg‘an bo‘lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo‘shilishqan bo‘laman? Agarda manim yurt so‘ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo‘lsa, boshqalardan ham ko‘ra o‘z o‘g‘limg‘a – senga ma’lum bo‘lmasmidi? Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolg‘anda oqsaydir? Nega yong‘an yurakimga yana sen ham zahar sochasan?!

Titralib va to‘lqunlanib aytilgan bu so‘zlar Otabekni o‘kintirdi, o‘lganning ustiga chiqib tepish qabilidan bo‘lg‘an o‘z hujumining haqsiz ekaniga tushundi.

Yusufbek hoji bitta-bitta yotig‘i bilan majlis haqida bayon qilib, o‘zining qarshi tushkanini va ularga uqdira olmag‘andan keyin majlisni tashlab chiqib ketkanini so‘zladi...

...Otabek o‘zining o‘rinsiz gapidan uyalg‘annamo yerga qaradi va birmuncha vaqt fikrga ketib o‘lturg‘andan so‘ng so‘radi:

– Yirtqichlarning bu qirg‘indan qanday muddaolari hosil bo‘larkan?

– Maqsadlari juda ochiq, – dedi hoji, – bittasi mingboshi bo‘lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o‘rnig‘a minmakchi, uchinchisi yana bir shaharni o‘ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmonqulg‘a bo‘lg‘an adovatini qipchoqni qirib alamdan chiqmoqchi. Menga qolsa, o‘rtada shundan boshqa hech gap yo‘q, o‘g‘lim, – dedi va biroz to‘xtab davom etdi: – Men ko‘b umrimni shu yurtning tinchlig‘i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o‘zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyasi yo‘lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizg‘a aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq, yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘lig‘a tutqin qilib topshirg‘uvchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarg‘a Xudoning la’nati albatta tushar, o‘g‘lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to‘ng‘uzxona qilishg‘a hozirlang‘an biz itlar Yaratg‘uvchining qahriga albatta yo‘liqarmiz! Temur ko‘ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug‘bek va Ali Sino kabi olimlarning o‘sib-ungan va nash’-u namo qilg‘onlari bir o‘lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi albatta Tangrining qahriga sazovordir, o‘g‘lim! Gunohsiz bechoralarni bo‘g‘izlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilguvchi zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o‘sib chiqg‘an giyohlar qarg‘ishiga nishonadir, o‘g‘lim!...

[1] **Qatli om** – ommaviy qatl.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. O‘zbek oyim obrazi nega yozuvchi tomonidan *“chala-dumbul tabiatliq”,* deb ta’riflanadi? Sizningcha, bu ta’rif qahramon xarakterini qay darajada ochgan?
2. Otabekning: *“Bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat”* degan gapi uning ikkinchi marta uylanish masalasiga munosabatini qanday ifodalaydi? Bu fikr asarning keyingi voqealariga ham ishora bo‘lishi mumkinmi?
3. Yusufbek hoji ikkinchi nikoh oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz holatlarni anglab turgan bo‘lsa-da, nega O‘zbek oyimni qat’iy to‘xtatmaydi? Mulohazalaringizni dalillang.
4. “Dushanba kun kechasi” bobidagi to‘qnashuv sahnasi faqat shaxsiy adovat natijasimi yoki yozuvchi bu orqali jamiyatdagi zulm, hirs va ma’naviy tanazzulni ramziy tarzda ko‘rsatmoqdami? Fikringizni asoslang.
5. Qipchoq qirg‘ini voqeasidan keyin otasiga ters munosabatda bo‘lishi Otabekning qaysi jihatini ko‘rsatadi: adolatparvarliknimi, shoshqaloqliknimi yoki haqiqatni izlash yo‘lidagi iztirobni?

Guruhda ishlash

Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh Otabek, ikkinchi guruh esa Yusufbek hoji obrazi misolida ota va o‘g‘ilning Vatan va millat taqdiri haqidagi fikrlarini tahlil qilsin hamda yozuvchi o‘quvchini qanday tarixiy va ma’naviy fojialar haqida ogohlantirayotganini yozsin. Shuningdek, guruhlar “og‘zaki taqdimot”da bu fikrlar **bugun uchun ham qanday ahamiyatga ega** ekanini asosli izohlasin.

Mutolaa

Romanning **“Oy etak bilan yopilmas”, “Maktub”, “Oy-kuni yaqin edi”** boblarini mutolaa qiling.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

OY ETAK BILAN YOPILMAS

Choy tugalgan edi. Otabek fotiha o‘qub, o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi.

– Turma!

Yusufbek hoji tarafidan berilgan amirona bu buyruq Otabekni qaytadan o‘lturub qolishg‘a majbur etdi va otasig‘a “nima xizmatingiz bor?” degandek qilib qaradi. Yusufbek hoji bir so‘z demasdan sallasini olib tizzasiga qo‘ydi, bosh qashinib yana sallasini kiydi. Dadasining salla olib, bosh qashinishi keyinidan ko‘pincha o‘zini bir tergav ostida ko‘rar edi. Shuning uchun yana bir martaba dadasiga qarab qo‘ydi.

Chini bilan ham hojining tusidagi boyag‘i hasrat va qayg‘u alomatlari yo‘qolib, ularning joyini sharq otalig‘i vaziyati oldi.

– Marg‘ilonda nima ishlar qilding?

Kutilmagan bu savolga Otabek nima deb aytishni bilmay qoldi. Javob o‘rnig‘a havli tomong‘a qarandi.

– Sendan so‘rayapman, Otabek.

– Sizga xabar berguvchi nima ishlar qilg‘animni ham aytkandir...

– Jo‘n odamlar qatorida odam o‘ldirib yurdim, degin?

Otabekning yuzida kulimsirash bilindi.

– Jo‘n odamlar qatorida emas, – dedi, – majburlar qatorida, zo‘rlang‘anlar qatorida...

– Kishining boshig‘a bir ish tushkanda, darrav biravdan kengash va yordam so‘raydir. Hatto ota-onasidan ham sir saqlag‘an bir yigitning o‘z o‘g‘lim bo‘lib chiqg‘ani menga qiziq ko‘rinadir. Qayin otang menga bir xat yozibdir, o‘qib-o‘qib mazmunig‘a tushunolmay hayron bo‘laman. Oy sayin Marg‘ilon borib turar edi-ku, deb o‘ylayman. Xatni ikki-uch qayta o‘qib chiqg‘andan keyin bilsam haqiqat shul emish... Mirzakarimning yozg‘anig‘a qarag‘anda birmuncha yang‘lishliq undan ham o‘tkan ko‘rinadir va lekin sening bolalig‘ing oldida uniki holvadir... Yaxshiki, bu aqlsizlig‘ing boshqalarning boshig‘a ko‘ringan... O‘zing ayt, agar menga shu kasalingni bir og‘iz bildirsang, men qayin otangg‘a xat yozmasmi edim, Hasanalini yuborib, haqiqatni ochmasmidim va bu taqdirda odam o‘ldirib yurishlarg‘a qanday hojat qolar edi?

Otabekning boshig‘a bu gaplarning bir harfi bo‘lsin o‘rnashmas va o‘zi kutkan natijaga borib yetish uchungina qiynalar edi.

– Shuncha ishlarni qilib, nega oxirda qayin otangg‘a yo‘liqmay kelding?

– Shunga majbur edim.

– Marg‘ilong‘a endi qachon borasan?

Otabek o‘ylanib qoldi. Chunki bu “qachon borish” masalasini yaxshilab yeshmak kerak edi va uni yeshmak ham qiyin edi. Uzoq o‘ylag‘andan keyin:

– Ma’lum emas, – dedi.

Garchi bekning yuragi hozir bo‘lsa ham Marg‘ilonga qarab uchishka tayyor edi. Biroq uning yuragidan ham kuchlik bo‘lg‘an yana bir narsa bu “borish” masalasini chuvaltirib “ma’lum emas” bir holg‘a qo‘yg‘an edi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Qayin otang kelin bolani olib, shu hafta ichi yo‘lg‘a chiqmoqchi ekan, – dedi hoji, – tarixiga qaraganda xatning yozilg‘anig‘a o‘n kunlab bor, ehtimolki, erta-indin kelib qolsalar. To‘rdagi uyni bo‘shatdirib, polos yozish kerak edi...

Ul bu gapni eshitar ekan, borliq-yo‘qliq – ishqilib, allaqandog‘ qiziq bir holat kechirdi. Issig‘ bir narsa badaniga tegib ketgandek, hurkinib qo‘ydi va “nihoyat endimi?” degandek entikdi. Ko‘z o‘ngidan biravning surati o‘tib sarxushlandi va til bilan onglatib bo‘lmasliq bir sog‘inish chidamsizligi ichida bu ivir-jivir holatdan gangib ko‘z ochdi. Ko‘z ochdi, biroq o‘ziga “nima deysan?” deb qarab turg‘uchi otasig‘a muvofiq bir javob berishni bilmadi. Yusufbek hoji esa o‘g‘lining bu sustlikka o‘xshab ko‘ringan holini yomong‘a yo‘ydi. Marg‘ilon degan shahardan katta o‘zini kichik olib qizi ila kelayotg‘an Mirzakarim akaga o‘g‘lining xo‘rliq keltirishidan cho‘chidi. Shunga binoan Otabekni epaqag‘a olish uchun unga kulki tuyulgan bir qancha nasihatlarni chizdi:

– O‘g‘lim, – dedi, – siylag‘anni siylash kerak, endi senga qadrsizlang‘an bo‘lsalar, ammo bizning qoshimizda ularning qadr-qiymatlari yuqori, qutidor bo‘lsa – ko‘z ochib ko‘rgan qudamiz, xotining bo‘lsa – bosh kelinimiz. Agar sen meni otam deydirgan bo‘lsang, shularning ko‘nglini olmoqqa tirish. Qayin otangdan meni quvladi, deb ko‘ngling olinmasin, chunki u bechora ham bir shaytonning vasvasasi bilan bu xatoga tushgan. Harholda hurmatlarini bajo keltir, Marg‘ilon degan shahardan sening yuzingni, deb keladirlar.

Otasining bu so‘zlari uning istiqboli uchun yaxshi ta’minotlar berar, go‘yo majburiyat ostida ota nasihatini quloqg‘a oladirg‘andek bo‘yin egib o‘lturar edi.

– Agar ularning kelish kunlarini aniq bilsak, – dedi hoji, – sen yo‘ldan qarshilab kirar eding.

Otabek javob bermadi.

– Harholda o‘ttasi kun mo‘ljal, sen chiqmasang ham Hasanali chiqsin yo‘lg‘a.

– Mayli, chiqsin, – dedi Otabek.

MAKTUB

Hoji shu javobdan keyin o‘g‘lidan bir daraja qanoatlandi va choyga fotiha o‘qub, o‘rnidan turar chog‘ida yonidan bir xat chiqarib uzatdi:

– Xatning ichidan chiqdi. Kelindan senga bo‘lsa kerak, – dedi.

Otabek maktubni olib, otasining ketishini kutib qoldi. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg‘an va Otabekka atalg‘an edi. Otasining uzoqlashishini kutar ekan, yuragi yomonlag‘an otdek tipirchilar edi. Tikilgan ipaklarni so‘kdi va maktubni ochib och ko‘zini ishka qo‘ydi:

“Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidin, Majnun ishqida yig‘lag‘an Layli otidan sizga boshimdag‘i sochlarimning tuklaricha behad salom. Mendan hadd-u hisobsiz gunoh, sizdan – kechirish. O‘tgan ishga salovot. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni eska olish manim uchun o‘sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so‘zimni o‘zimning oxirgi, ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Siz – qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo‘lib qochqansiz, ikki yil bo‘yi Marg‘ilon kelib yurishlaringizni men o‘zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lg‘onini ongladim. Yo‘qsa, meni ko‘rar edingiz, ko‘rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko‘rar edilar, to‘yar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g‘ovg‘asi ko‘b sizni zeriktirib, jondan to‘ydirg‘an bo‘lsa, ajab emaski, qocha boshlag‘ansiz. Qochsangiz qochib ko‘ringiz, ammo men bu kundan boshlab birovlarni quvishqa bel bog‘ladim: otam bilan onam rafoqatlarida xizmatingizg‘a-cho‘rilig‘ingizg‘a erta-indin yuraman, suyganingiz kundashim oldida qadr-u qiymatimning nima bo‘lishini ham bilaman... Siz oliyjanobsiz: eski qadrdonliq hurmatiga ko‘ngil uchun kulib boqarsiz... Loaqal shugina bilan ham baxtsizni mas’uda qilarsiz, ammo... suyganingiz – kenjangizning jerkishlaridan, qarg‘anishlaridan behad qo‘rqaman, o‘zimda yo‘q qo‘rqaman. Shu yaqin oradag‘i uning bilan bo‘ladirg‘an mas’ud daqiqalaringizda Xudo yo‘liga va’da olingiz – meni og‘ritmasin, raqibam keldi, deb o‘ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do‘stka bir cho‘rilik va shu munosabat bilan birovlarni ko‘rib yurish...

Xatim oxirida shuni ham aytib qo‘yay: o‘ch qaytib, men ham ko‘chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko‘nglimda. Agar Xudo yarlaqab eshikingizda o‘rinlashib olsam, uyog‘ini o‘zim bilar edim...

Erta-indin ko‘zimga yo‘l ko‘rinur,
Yo‘l bosishliq ko‘ngilga bir umr ko‘rinur...
3-nchi hamal, Marg‘ilon, Kumushingiz yozdim”.

* * *

Yusufbek hoji xat yo‘llab, Mirzakarim qutidor oilasini Toshkentga taklif qiladi. Ularni izzat-hurmat bilan kutib olishadi.

OY-KUNI YAQIN EDI

Kumushning oy-kuni yaqin edi. Nabiralik bo‘ladirg‘an O‘zbek oyimning ishi boshidan oshqan, Kumushning oyi tug‘masdanoq ul beshik yasatish bilan mashg‘ul edi. Doyacha kim, aqiqaga nechta qo‘y kerak, nechanchi kunda to‘y o‘tkaziladir, nechta erkak, nechta xotin aytiladir va kimlar? Mana shuningdek masalalar bilan O‘zbek oyimning miyasi juda shishkan edi. Kumushda ko‘rilgan ba’zi nishonalarga binoan nabirasining o‘g‘ul bo‘lishida shubha qilmas – “O‘g‘ul tug‘asan, Kumush, men ham Otabekni senga o‘xshash yengil ko‘targan edim”, der edi. Kumushning xizmatdan bo‘shatilib, ba’zi o‘choqboshi yumishlarini Zaynab idorasiga topshirilg‘anig‘a endi bir oylab bor.

...Yusufbek hoji ma’lum aldanishdan so‘ng yurt ishidan qo‘l yuvg‘an, ko‘b vaqtini mehmonxonada Qur’on va “Daloyil” o‘qub kechirar, kundash orasi buzilib, o‘rtadan so‘z chiqg‘anini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldig‘a chaqirtirib, ularni qator o‘tqazar edi. Avvalo, Kumushdan o‘pka qilib: “Oyim, har nima siz kattasiz, Zaynab yosh, kattadan kichikka shafqat lozim, mundog‘ yaxshi emas!” va Zaynabka qarab: “Bolam Zaynab otin! Sizdan hali yoshlik g‘ururi ketmagan, lekin manim bolam bo‘lg‘anlig‘ingizni siz ham unutmang!” der va shuning singari yumshoq gaplardan keyin ikkisini duo qilib bir-birisiga salom berdirar – “ana, shundog‘ bo‘lsin, opoq qizlarim!” deb ketishka ruxsat berar edi. Ular ketkandan

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

keyin albatta O‘zbek oyim eri yonig‘a kirar, hoji bo‘lsa, xotinig‘a sizsirab: “Siz ikki kelin ushlashni bilmabsiz, Zaynabka jabr qilg‘an ko‘rinasiz, ayniqsa, Zaynabning ko‘ngliga qarashingiz kerak, Otabekka ham nasihatingiz lozim!” der edi. O‘zbek oyim shunday kezlarda Kumushning yonini olib, “Zaynabni Xudoy ko‘tarsin, ayb o‘zida...”, deya boshlasa, hoji uning og‘zini arang to‘xtatur: “Sekin-sekin, uyat! Qayin ona deganning adl turishi lozim. Zaynab siz bilan manim orzu-havasimiz emasmidi?” Ammo nabira masalasidagi O‘zbek oyimning ba’zi bir quyushqondan tashqari harakatlarini ham bosquchi yana hoji edi: “Zaynab bor, Zaynabni unutdingizmi? O‘z kelinigiz Zaynabni!”...

Oy tug‘ib, mo‘ljal yaqin yetdi... Oradan ko‘b fursat o‘tmadi, ichkaridan Oybodoq yugurib chiqdi va darichadan turib “so‘yinchi!” dedi. Hoji yonchig‘ini kavlay berib “alhamdulilloh”, deb qo‘ydi. Hasanali ham iljayib, yonchiq kavlashka tutindi va:

– O‘g‘ulmi, holva? – deb so‘radi xotinidan.

– O‘g‘ul!

– Barakalla.

Hoji kulumsirab qo‘lidag‘i uch-to‘rtta oq tanga bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi: “Tangalarni o‘zing ol, tillani doyachaga ber”, dedi. Hasanali so‘yinchisini topshirg‘andan so‘ng duog‘a qo‘l ochdi: “Olloh taolo umri bilan bergan bo‘lsin”.

...Tushlikdan keyin Otabek mehmonxonada kitob mutolaa qilur, dahlizda Hasanali uzilgan ot asboblarini ulab tikar, hoji masjidgami, boshqag‘ami ketkan edi. Shu vaqt ichkaridan Oybodoq chiqib, Otabek yonig‘a keldi:

– Bek, siz uyga kirib chiqar emishsiz, – dedi. Otabek kitobni belguluk qilib yopdi:

– Tinchlikmi?

– Tinchlik... darrav kiring-chi!

Otabek Oybodoq bilan ketma-ket ichkariga kirdi. Zaynab rangi o‘chkan holda Kumushning uyidan chiqib kelar edi.

– Nima gap? – deb undan so‘radi Otabek.

– Bilmadim, – dedi, – opam ko‘ngillari aynab qusyaptilar...

Otabek eshik yonig‘a kelgandan so‘ng uydan bir necha xotin paranji yopinib chiqdilarda, ul uyga kirdi. O‘zbek oyim jom ushlag‘an, Kumush jomga o‘qchib qusar edi.

– Nima bo‘ldi?

Kumush javob beralmadi.

– Bilmadim... boyatdan beri to‘xtovsiz qusyapti, – dedi O‘zbek oyim. Qusib charchag‘an Kumush holsizlanib boshini yostiqqa tashladi. O‘qchib yoshlang‘an ko‘zlari bilan eriga qarab oldi.

– Yoqmaydirg‘an xo‘rak bergansiz.

– Yoqmaydirg‘an hech narsa yegani yo‘q, – dedi onasi, – o‘sha ataladan boshqa xo‘rak qilmadi. Undan ham yarim kosagina ichdi. Qolg‘ani ana tokchada.

...Tabib keldi xabarini eshitib, Otabek jonlang‘andek bo‘ldi. ...Tabib Otabekdan voqi’ani so‘rab bilgandan so‘ng Kumushning tomirini ko‘rib, labini tishlab qoldi va tovoqdag‘i qusuqni hidlab qaradi:

– Bu kun nima xo‘rak qilg‘an ekan?

– Atala.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– O‘sha taomdan biroz qolg‘ani bormikan?

– Bor! – dedi Otabek va boya onasi ko‘rsatkan joydan kosani olib, tabib qo‘lig‘a berdi. Tabib kosadan barmog‘ig‘a biroz elashdirib yaladi va darrav tuflab tashladi.

– Zahar ichibti!

– Bekor gap!

Tabib Otabekning hozirgi holatidan dahshatka keldi...

– Men hozir daf’i uchun doru yuboraman, – dedi va qo‘zg‘aldi. Otabek ham uning bilan birgalashib o‘rnidan turdi:

– Zaharni kim beradi?

Nima deyishka ham hayron tabib:

– Man... man... o‘zingiz o‘ylab ko‘ring-chi... Man darrav doru yuboray, darrav ichiring, tuzikmi? – dedi.

– Bildim, bildim! – dedi bechora Otabek. – Zaynab, Zaynab, Zaynab...

Tabib ketdi, Otabek telbalarcha yugurib Kumushning boshig‘a keldi, yuzini ochib, manglayini bosdi va o‘pdi... Kumush ko‘zini ochib, kuch bilan so‘l qo‘lini erining yelkasiga tashladi... Qo‘lida chaqaloq bilan O‘zbek oyim kirdi.

– Zaynabni chaqir, Zaynabni!

O‘zbek oyim tabib so‘zidan xabardor edi:

– Zaynab! Zaynab!

Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqarg‘an edi.

...Hoji Kumushning boshig‘a kelib o‘lturdi. Otabek va onasi oyog‘ ustida edilar, Kumushning ko‘zi yumiq, sochlari yuzi ustida parishon edi. Hoji o‘z qo‘li bilan sochlarni tuzatib, Kumushning ko‘kimtil tovlang‘an yuzini ko‘rdi va manglayini bosdi...



Kumushning vafoti.
“O‘tkan kunlar” filmidan lavha. 1969-yil.

– Oyim... Oyim!.. – dedi hoji. Kumush ko‘zini ochib, besaranjom unga nazar tashladi va tanib... qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi.

– Qo‘zg‘almang, oyim... qo‘zg‘almang!

Kumushning ko‘z yoshisi chakkasidan oqib tushdi... Hoji ham o‘zini to‘xtatolmay, Kumushning yoshini artib, boshini siladi:

– Xudo shifo berar, bolam!

Kumush jomga qo‘zg‘aldi, Otabek kelib qo‘ltiqladi, hoji ham uning boshini tutdi... Bu gal qusuq qong‘a aylangan edi, burnidan ham bir necha tomchi qon oqdi... Qusub yotg‘ach, ko‘zi yarqillab ochilib ketdi va tevaragiga betoqat qarandi:

– Oyi... dada... – so‘ngra, – begim, – deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo‘ydi, uyalg‘ansumon ko‘zini yumdi...

* * *

Ertasi kun dafn marosimi bo‘ldi. Janozag‘a Toshkandning har bir mahallasidan deyarlik kishilar ishtirok qildi. Faqat maqtulaning eng yaqinlarig‘ina bu tantanaga yetib kelalmadilar. Bechora ona, bechora ota!.. Uchunchi kun ular ham kelib yetdilar... Ularning hozirgi holini tasvir etish mumkinmi?! Yettinchi kun xatmi Qur’on qilinib, xalqg‘a osh berildi va shu munosabat bilan chaqaloqqa Yodgorbek deb ism qo‘yildi...

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Kumushning yaqinlarig‘ina emas, balki foji’adan xabardor bo‘lg‘an shaharning katta-kichigi Zaynabka beriladirgan jazoni erta-kech kutmakda edilar. Biroq foji’aning o‘ninchi kunlarida Zaynabning jinni bo‘lib, ochiq ko‘yi ko‘chada yurgan xabari va og‘asi tomonidan ushlanib, kishanga soling‘an mojarosi eshitildi. Zaynabning jununi qozilar va tabiblar tarafidan ham tasdiq etilgach, uning ustidagi jazo ko‘tarildi. Darhaqiqat, aqldan ozib, ko‘chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o‘zi ham Zaynab uchun kichkina jazo hisoblanmas edi...

* * *

...Otabek usta Alim bilan birga Marg‘ilong‘a jo‘nadi. Bundan so‘ng Otabek Toshkandga qaytib kelmadi, bir necha qayta O‘zbek oyimning o‘zi Marg‘ilon borib keldi.

1277-nchi yilning kuz kezlarida bo‘lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatsho[1]dan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo ota[2]dan yozar edi. “O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qnashmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo‘ldi. Men o‘z qo‘lim bilan ikkisini dafn etdim...”

Yusufbek hoji xatmi Qur’on qilib, yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib, ta’ziya ochdi.

* * *

Yozg‘uchidan:

Keyingi Marg‘ilon borishimda yaqin o‘rtoqlardan Yodgorbek to‘g‘risida surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o‘n to‘qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o‘g‘ul qolibdir. O‘g‘ullaridan bittasi bu kunda Marg‘ilonning mas’ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nom-u nishonsiz, o‘luk-tirigi ma’lum emas, deydilar.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Otabekning otasining kutilmagan savoliga javob berishdan qochishi nimadan dalolat beradi? Otabekni qotillik qilishga undagan, *“majburlar qatori”*ga qo‘shgan omillar qaysilar edi?
2. Kumushning maktubini o‘qib, qanday ruhiy holatga tushdingiz? Nima uchun? Shuningdek, maktubda Yusuf, Majnun, Zulayho, Layli kabi ismlarning keltirilishi orqali ishqning qaysi jihatlariga urg‘u berilgan deb o‘ylaysiz?
3. Kumush hali kundoshi Zaynabni ko‘rmasdan turib *“jerkishlaridan, qarg‘anishlaridan behad qo‘rqaman, o‘zimda yo‘q qo‘rqaman”*, deya xavotir olishi zamirida jamiyatning qanday ijtimoiy-maishiy manzarasi gavdalantirilgan?
4. Kelinlar masalasida adolatni saqlashga intilishi va O‘zbek oyimni tiyib turishidan Yusufbek hojining qanday hayotiy qarashlari namoyon bo‘ladi?
5. Qaynotasi kelganda zaharlangan holida ham joyidan qo‘zg‘alishga uringan Kumush timsolida xalqimizning qanday urf-odatlari, qadriyatlari namoyon bo‘ladi? Bu sizga qanday ta’sir qildi? Nima uchun?

[1] **Qanoatsho** – Qo‘qon xonlari qo‘l ostida amiri lashkar lavozimida, shuningdek, Turkiston shahrining hokimi lavozimida faoliyat yuritgan. Ruslarga qarshi kurashganlardan. Buxoroga elchi bo‘lib borganda amir Muzaffarxon tomonidan 1862-yilda qatl etilgan.

[2] **Avliyo ota shahri** – Qozog‘iston Respublikasining hozirgi Taroz shahri.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Guruhlarda ishlash

Olti guruhga bo‘lining. Guruh a’zolari bilan savol yuzasidan fikr almashib, dalillar keltirgan holda umumiy xulosaga keling. Muhokama yakunida har bir guruh nomidan **bitta vakil** chiqib, **fikrlar taqdimotida** guruhning qarashlarini ifodalab beradi.

1-guruh	• Romanning boshlanishi *(“qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni” eshitilishi)* va yakunidagi *(“O‘zbek oyim qora kiyib, ta’ziya ochdi”)* jumlalarni qiyosiy tahlil qiling. Bundan qandaydir ramziylikni angladingizmi? Yozuvchi tutgan yo‘lni asar g‘oyasi bilan bog‘lab tahlil qiling.
2-guruh	• “O‘tkan kunlar” romanining asosiy mavzusi Otabek va Kumush muhabbati hamda ularning fojiasi degan qarash, sizningcha, qanchalik to‘g‘ri? Mulohazalaringizni asoslang.
3-guruh	• Kumushning maktubini Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi maktublar bilan qiyoslab, tahlil qiling. Oshiq-ma’shuq siyratini ochishda nega mualliflar ko‘pincha maktubga murojaat qilgan deb o‘ylaysiz? Siz ham maktub yozganmisiz? Nima maqsadda?
4-guruh	• “O‘tkan kunlar”ni ingliz tiliga o‘girgan amerikalik tarjimon Mark Riz: *“O‘tkan kunlar” romani bosh qahramoni Otabek jadid edi. Abdulla Qodiriy o‘z romani orqali jadid sifatida o‘z zamonasida “kelajak avlodni yaqinlashib kelayotgan xavf-xatardan ogohlantiradi ham”*, deya ta’kidlaydi. Nega u shunday xulosaga kelgan bo‘lishi mumkin? Siz qanday fikrdasiz? Nima uchun?
5-guruh	• Quyidagi obrazlarni qiyosiy tahlil qiling: [Otabek – Homid], [Zaynab – Kumush], [O‘zbek oyim – Yusufbek hoji], [Otabek – O‘zbek oyim – Yusufbek hoji – Hasanali].
6-guruh	• Yozuvchining o‘ziga xos uslubini roman matni misolida ko‘rsatib bering. Siz o‘qigan boshqa asarlarning uslubi bilan qiyoslang. Bunda quyidagilarga e’tibor bering: *– syujeti;* *– obrazlar tanlanishi va ularga xos jihatlar;* *– matn uslubi (so‘z qo‘llash mahorati).*

Ijodiy ish

Asar asosida **“Asar mutolaasidan oldingi va keyingi men”** mavzusida tavsifiy insho (yoki esse) yozing yoki aynan shu yo‘nalishda taqdimot tayyorlang.

Tavsiya

1. “O‘tkan kunlar” filmini turli mediaplatformalar orqali topib, tomosha qiling. Asar matni va kinotalqinini solishtiring. Topgan farqlaringizni qayd qilib boring.

2. “O‘tkan kunlar” – o‘zbek xalqining tarixi va siyosati haqidagi roman” mavzusidagi suhbatni ushbu havola orqali tomosha qiling. Suhbatdagi mulohazalardan o‘zingizga yangilik bo‘lganlarini yozib oling. Siz ham sinfdoshlaringiz bilan shunday **podkast (suhbat)** uyushtiring.

10

Manba: “Qurultoy” (YouTube).

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

ADABIY LABORATORIYA

Mashg‘ulot mavzusi: “O‘tkan kunlar” romanidagi ba’zi qahramonlarga psixologik tashxis qo‘yish: mizoj (temperament)ni aniqlash.

Mashg‘ulotdan maqsad: qahramonlarga asardagi o‘rni, xatti-harakati va nutqiga qarab psixologik baho berish.

Topshiriq

1. Xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik mizoj (temperament) turlari haqida **ishonchli manbalar** (darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar, internet resurslari) orqali ma’lumot to‘plang. Har bir temperamentga xos asosiy belgilarni aniqlang.
2. Jadvaldagi xususiyatlarning asar qahramonlariga xos (+) yoki xos emas (-)ligini aniqlang.

Mizoj turi	Asosiy xususiyatlar	Asar qahramonlari					
		Otabek	Homid	Zaynab	Kumush	Yusufbek hoji	O‘zbek oyim
Xolerik	Harakatchan, shiddatli						
	Kamchilik va nuqsonlarga beshafqat						
	Tez qaror qabul qiluvchi						
	Tavakkalchi, tajovuzkor						
	To‘g‘riso‘z, keskin						
	Yetakchilikka moyil						
	Kayfiyati tez o‘zgaruvchan						
	Nutqi tez, ehtirosli						
	Jami xoslik (+)lar soni						
Flegmatik	Sokin, sovuqqon						
	Sabrli, chidamli						
	Boshlagan ishini oxiriga yetkazuvchi						
	Tartibli, intizomli						
	Nutqi sekin, ravon						
	Murosachi						
	Kechirimli						

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Jami xoslik (+)lar soni							
Sangvinik	Xushchaqchaq						
	Ochiqko‘ngil, moslashuvchan						
	Oqil, mulohazakor						
	Qiziquvchan						
	Takabbur, manman						
	Nutqi jonli, imo-ishorali						
	Omadsizlikni yengil qabul qiluvchi						
	Ba’zan shoshqaloq						
Jami xoslik (+)lar soni							
Melanxolik	Juda ta’sirchan						
	Tez xafa bo‘luvchi						
	O‘ziga ishonchi past						
	Yolg‘izlikni yoqtiruvchi						
	Tortinchoq, uyatchan						
	Nutqi sekin, past						
	Ichki iztiroblari chuqur						
Jami xoslik (+)lar soni							

Topshiriq

1. Har bir qahramon uchun qo‘yilgan **“+”** belgilari sonini sanang.
2. Qaysi temperament belgilari ustun kelganini aniqlang.
3. Natijalaringizni **sinfdoshlaringizniki bilan taqqoslang** va xulosalaringizni o‘rtoqlashing.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



ABDULHAMID SULAYMON O‘G‘LI CHO‘LPON (1897–1938)

Dars davomida:

- Cho‘lponning hayotiy maslagi haqida fikr almashamiz;
- “Kecha va kunduz” romani mavzusi, g‘oyaviy yo‘nalishi va unda ko‘tarilgan muammolarni tahlil qilamiz.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon butun turkiy olamda taniqli ijodkorlardan edi. Otasi Sulaymon bazzoz ba’zan Rasvo taxallusi bilan hajviy g‘azallar ham bitib turgan. U o‘g‘lining madrasada o‘qib, mudarris bo‘lishini istagan esa-da, Abdulhamid ijod yo‘lini tanlaydi.

Cho‘lpon adabiyotning turli janrlarida barakali ijod qildi. ***“Uning hayotdagi amallari ham, ijoddagi izlanishlari ham millatning ertasi haqidagi tashvish, millat taraqqiysi, millat ozodligi kabi ulug‘ niyatlar bilan chambarchas bog‘liq edi”***[1]. Ana shu maslaklari tufayli o‘sha davrning siyosiy-mafkuraviy tazyiqlari ostida qoladi. “Go‘zal Turkiston” she’rida Vatan taqdiriga achinib, quyidagicha yozgan edi:

Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?
Sahar vaqtida gullaring so‘ldi.
Chamanlar barbod, qushlar hamfaryod,
Hammasi mahzun. Bo‘lmasmi dil shod?
Bilmam ne uchun qushlar uchmas bog‘chalaringda?..

[1] Dilmurod Quronov, adabiyotshunos.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

MUTOLAADAN OLDIN

“Kecha va kunduz” romani ilk bor kitob holida 1936-yilda nashr qilingan. Romanning asosiy qahramoni – Zebi.

Roman “Kecha va kunduz” deb nomlangan bo‘lsa-da, bizgacha uning faqat “Kecha” qismi yetib kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha, asarning “Kunduz” nomli ikkinchi qismi rejalashtirilgan yoki yozilgan bo‘lishi mumkin. Biroq hozircha bu qism topilmagan yoki muallif uni yozishga ulgurmagan bo‘lishi ehtimoli ham mavjud.



“Kecha va kunduz” romanining ilk nashri muqovasi, 1936-yil.

O‘ylab ko‘ring

Nima deb o‘ylaysiz: Cho‘lpon bir qancha dramalarida (“Yorqinoy”, “Zamona xotini” kabi) va “Kecha va kunduz” romanida asosiy qahramon sifatida nega aynan ayol-qizlarni tanlagan bo‘lishi mumkin? Fikringizni asoslang.

KECHA VA KUNDUZ

(Romandan parcha)

KECHA

Hamal[1] *keldi – amal keldi.*
Xalq maqoli

I

Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan taniga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalar-da, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash’asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi... Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat! Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada... ko‘klam nash’asi bilan sho‘xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go‘zal va shirin bo‘ladi bahorda?

O‘ylab ko‘ring

Asardagi bahor tasviriga va shaxsiy kuzatuvlaringizga tayanib ayting-chi: *“Hayot nega bu qadar go‘zal va shirin bo‘ladi bahorda?”*

[1] **Hamal** – shamsiy yil hisobida yilning birinchi oyi (22-mart – 21-aprel).

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

* * *

Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan to‘xtaganlar, endi tashqari eshikning “g‘iyt” etishi – bir-ikki ayolning astagina bosib, paranjisini sudrab kirib kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o‘n beshga qadam qo‘ygan bu yosh qizning go‘dak ko‘nglini uncha cho‘chitmas edi.

Ko‘k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng hovlilarga, shahar ichida bo‘lsa ham-ki, dala-tuzlarga chiqib kelganidan beri ko‘ngli qirlarni, dalalarni, ishqilib olis-olis joylarni yana ko‘proq tusay boshlagan edi.

Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog‘ish bilan ovora, o‘zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko‘nglini bir qur seskantirib oldi. Bir qo‘lida supurgisi, bir qo‘li tizzasida – yerga egilgan ko‘yi eshik tomon tikilib qoldi. Otasining odatdagi tomoq qirish va yo‘talishlar bilan, katta eshikning og‘ir zanjirini sharaq-shuruq qilib tushirib, namozga chiqib ketganiga hali ko‘p o‘tmagan edi. Halol-haromni ko‘p ham farq qilmayturgan bu odamning avrod[1]da o‘tirish odatlari, hatto hammadan keyin qolib, machit shamlarini puflab chiqish rasmlari bo‘lardi.

Aytgandek, eshikdan shoshilib kirib kelgan – yoshgina, o‘zi tengi bir qizcha bo‘ldi. Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo‘ltig‘ini to‘lg‘azardi...

O‘rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini irg‘itdi va o‘zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi. Ikkalasi quvona-quvona ko‘rishdilar. Supurgi yetgan joyidan nariga o‘tmasdan yerga yonboshladi... Ikkala yosh – yuzlari kulgan, ko‘ngillari yozilgan – qo‘ltiqlashib ayvonga bordilar va Zebining otasi turib ketgan so‘rining chekkasiga o‘tirishdilar.

Salti (Saltanat) erta saharda munaqa halloslab kelishining sababini hali aytgani yo‘q edi, ular ko‘rishgan hamon, yosh qizlarning o‘z oralarida o‘taturgan mahram gaplarini gaplashib, tikayotgan kashtalari, piltaga kirgan do‘ppilari to‘g‘risida bir-birlariga kalta-kalta ma’lumot berishgan edilar. Salti endi gap ochdi:

– Erta saharlab chopganim bekorga emas...

– Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...

– Nimaga, o‘rtoqjon?

– O‘zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.

– Menam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib kelsammikan, deb edim...

– Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.

Zebining yuzini, shu tobda, butun qish ichi to‘planib qolgan horg‘inlikning asari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko‘rpaning katta-katta qavig‘iga tikilgan andishalik ko‘zlari hovur bosgan oynakning betiga o‘xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqla-

[1] **Avrod** – bomdod namozidan so‘ng o‘qiladigan duolar.

RESPUBLIKA TALIM MARKAZI

gan yulduzday, sernash'a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo'lib, ko'nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to'lqinlarini aks ettirardi. Shu uchun u Zebining so'ng so'zlaridagi og'ir ma'yuslikni payqay olmadi. Uning ko'zlari Zebida bo'lsa ham, nazari boshqa yoqlarda edi.

– Enaxonni bilasiz-a? Yoyilma soydagi o'rtog'im bor-ku?

Zebi boshini ko'tarib, o'rtog'iga qaradi, shu qarash uning nechikdir Enaxonni eslolmay turganini ko'rsatardi. So'ngra Salti ta'rif qildi:

– O'tgan kuz biznikiga mehmon bo'lib kelishdi-ku – kelinbibisi bilan birga? O'shanda necha marta kishi yuborib chaqirtirdim, bormadingiz, otangiz javob bermadi...

Zebi bosh tebratdi:

– Ha, ha... bildim, bildim. O'zini ko'rganim yo'q-ku, eshitib bilaman.

– Ana o'sha qiz o'sha safar kelganida meni aytib ketib edi. Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim. Yaqinda yana aytib yuboribdi. Shunga teng-to'shlarim bilan bir borib kelmoqchiman. Sizni ham olib boraman...

– Qachon?

Zebining bu kalta savolidan Salti ko'p narsani angladi. Bu savol Zebining iloji bo'lsa shu kun paranjisini qo'liga olib (yopinib ham o'tirmasdan!), shu yerdan uzoqlashmoq uchun talpinganini ko'rsatardi. Shu uchun Salti:

– Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! – dedi.

Va ikki yosh bola nihoyasiz quvonchlar ichida yana bir-birlariga chirmashdilar...

* * *

Saltining taklifi Zebining onasiga ham ma'qul bo'lgach, endi otasidan ruxsat olish qolgan edi. Qizlar uning bomdoddan qaytishini kuta boshlashadi. Hovlini supurish ishi sho'x o'yinga aylanib, qizlar Razzoq so'fining kelganini ham sezmay qolishadi.

Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko'nglida o'ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so'fining "Nima bu qiyomat?!" degan qiyomatidan qo'rqinchliroq edi. Sovuq bir so'fining nazdida bu qadar vahimali bo'lib ko'ringan oddiy va tabiiy bir bolalik o'yini qafas darichasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganini ko'rgan bir qushning iztirobidan kam bo'larmidi?

Ikkala qizning, ayniqsa, Zebining ko'nglidagi iztirob, zotan, so'fi kirgandan so'ng avj olishi kerak edi. Chunki qizlar sho'xlik va o'yinga berilib ketib, hamma narsani esdan chiqargan emasmidilar? Qorong'i qish kunlaridan qolgan dog'lar, to'rt devor orasida yashashdan kelgan chiqindilar, otalardan o'tgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham yemaganmidi? Yoshlikning quvvatli to'lqinlari ularning barchasini bir bahor yomg'iri kabi yuvib ketmaganmidi? Shunday o'rtoqning shunday shirin muomalalari oldida shunday teskari, shunday o'jar va qaysar otaning borligi ham unutilgan emasmidi? Uyidan "Bir zumda borib kelaman", deb chiqqan Salti ham bergan va'dasini, uyini va ota-onasini unutib, qo'lida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmidi?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

...So‘fi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo‘zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurvonbibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg‘itdi…

– Yosh narsalar o‘ynashsa, nima bo‘libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? – dedi Qurvonbibi.

– Gapirma, eshak!

Qurvonbibi jim bo‘ldi. So‘fi kart tomon qarab yurdi. Kart ustiga dasturxon yozilib, bir mistovoq non bilan piyolada qiyom qo‘yilgan edi. So‘fi kartga chiqib o‘tirgandan keyin Qurvonbibi o‘choqdan choyni olib keldi.

So‘fining bu avzoyini ko‘rgandan keyin ikki qizning borqadar umidi ham uzilib bo‘ldi. Zebi bu umidsizlikni yashirolmadi:

– O‘ynashmay o‘laylik, endi otam hech qayerga chiqarmaydi...

Salti ham o‘z tashvishini anglatdi:

– Nima qilamiz endi? Siz bormasangiz, men ham bormayman... Enaxon toza koyiydi-da.

– Tek o‘tirgan bo‘lsak, ko‘ngli yumsharmidikan? – dedi Zebi.

Salti indamadi. Birozdan so‘ng yana o‘zi ilova qildi:

– Ko‘ngli o‘lsin, yumshagan vaqtini ko‘rganim yo‘q! Katta-katta xarsangtoshlarni soy bo‘yiga devlar tashlashgan, deydi... Eng kattasini otamning ko‘kragiga tashlab qo‘yib, “mana shu sening ko‘ngling!” deganmikan, yashshamagurlar!

Bu gap Saltiga ta’sir qildi shekilli, “pixx” etib kulib yubordi.

Zebining munga chinakam achchig‘i kelgan edi, qo‘lini uzatib, o‘rtog‘ining og‘zini to‘sdi.

– Voy, anovi qizni! Yana beshbattar qilasiz ishni! – dedi.

Salti zo‘r bilan o‘zini bosib oldi. Ikkalasi yana – ko‘zlarini miltillatib – chol bilan kampirga tikildilar.

Boyadan beri eriga qarab jim o‘tirgan kampirning endi astagina kulumsirashi bularga jon kirgizdi. “Ko‘rdingizmi?” degandek qilib ikkalasi bir-biriga qarab olishdi.

Chinakam, Qurvonbibi so‘figa yoqadigan bir so‘z topganday, dadillik va bemalollik bilan kulib turib gap boshladi:

– Men Zebini bir joyga jo‘natib yotirman...

So‘fi bu safar baqirmasa hamki, dag‘al bir ovoz bilan so‘radi:

– Qayerga? Nega?

– Oydinko‘ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o‘rtog‘ini “Bahorlashib ketinglar”, deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o‘rtog‘i Saltanatxon ekan. Saltanatxon aravani qo‘shtirib qo‘yib, o‘zi Zebini aytgali kelibdi. “Yo‘q”, desak qanday bo‘ladi?

Xotini nima desa, “yo‘q” deydigan so‘fi bu safar birdaniga “yo‘q” demasdan, xayolga ketdi. Qizlar Qurvonbibining bu tadbiridan xursand bo‘lib, yana umidlana boshlagan edilar.

– Qurvon xolam bopladi! – dedi Salti.

– Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko‘ring. “Eshon”, desangiz, otam o‘lganini ham bilmaydi... Xudo muni eshonlar uchun yaratgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Salti Zebining bu gaplarini eshitgandan keyin so‘fining “xo‘p” deb javob berishiga ishonib ketdi. Bir qo‘lini o‘rtog‘ining bo‘yniga tashlab, uni quchoqlar ekan:

– Bo‘ldi, o‘rtoq, endi! Jo‘naymiz! – dedi.

– Sanamasdan sakkiz demay turing hali! Otam osonlik bilan ma’qul gapga ko‘nadigan odam emas. Jim turib qolishini ko‘ring: hali ham churq etmaydi.

Sukut uzoq cho‘zilgandan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

– Nimaga indamaysiz? Xo‘p, deng! Katta odam, uyat bo‘ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki... O‘zlarini bo‘lsa, o‘zingiz bilasiz, – dedi.

So‘fi negadir:

– Bilaman, Fitna, bilaman! – deb qo‘yib, yana jim bo‘ldi.

Endi Qurvonbibi yana ham jiddiylashdi:

– Bo‘lmasa, “yo‘q”, deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi.

Shundan keyin so‘fining tili aylandi:

– Shoshma, Fitna, “yo‘q”, dema, mayli, bora qolsin... Qachon keladi?

– Indin erta bilan yo kechqurun.

– Eshon oyimning ra’ylariga qarasin.

So‘fi o‘rnidan turdi. Kartdan tushib, kavshini kiyarkan:

– Ovozim bor, deb ashulaga zo‘r bermasin, – dedi. – Nomahramlarga ovozini eshittirsa, rozi emasman.

Bu safar odamga o‘xshash gapirib, Qurvonbibini quvontirgan Razzoq so‘fi shu so‘zlardan so‘ng yana o‘z jimligiga qaytdi. Biroz so‘ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo‘liga olgach:

– Xurjunni ber, Fitna! Bo‘lmasa, ikkita qop ber! – deb qoldi.

Qurvonbibi qopni uzatarkan, erining qo‘liga shu tobda biroz pul tushganini, endi kattaroq xarid qilish uchun bozorga ketayotganini va haligi zo‘r iltifotning ham pulning kuchi bilan bo‘lganini angladi...

So‘fi tomoq qirib eshikdan chiqarkan, uydagi ikki sho‘x qiz yana bir-biriga chirmashgan edi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Nima uchun asarga *“Hamal keldi – amal keldi”* epigrafi tanlangan bo‘lishi mumkin?
2. Zebilar oilasidagi muhit haqida sizda qanday tasavvur uyg‘ondi? Nima uchun? Asarning davomini o‘qish jarayonida bu tasavvurlaringiz qanchalik o‘zgarishini kuzatib boring.
3. Matndagi tasvirlarga tayanib Saltanat, Zebi, Razzoq so‘fi va Qurvonbibining xarakterlari hamda xatti-harakatlari haqida dastlabki tavsif bering. Asarning qolgan qismlarini o‘qish davomida tavsifingiz qanchalik o‘zgarishini kuzating. Fikringizni tasdiqlovchi misollar to‘plab boring.
4. Hayotingizda murakkab damlarda ruhiy madad bo‘la oladigan, ichki dunyongizni tushunadigan do‘stning o‘rni qanchalik muhim?
5. Asar davomida Zebining taqdiri qanday kechishini tasavvur qilib ko‘ring va taxminlaringizni ayting.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Topshiriq

1. Bahor tasvirida qo‘llangan badiiy tasvir vositalariga matndan misol keltiring.

Metafora	
O‘xshatish	
Jonlantirish	
Epitet	
...	

Mutolaa

Asarning davomini (2) o‘qing.



2

Saltilarnikida kechgacha safarga tayyorlanib, birozgina patir bilan somsa yopib, ko‘cha eshigining chap biqinidagi katta kundadan aravaga hatlagan vaqtlarida kun botib borardi. Arava shahar ichidan chiqib, dala yo‘liga kirganda, kechaning qora pardasi yer betini o‘ragan edi. Qor ostidan chiqqan yerlar, bahorning salqin havosi va yoqimli shabadasi ostida mudrashib yotardilar. Oy hali chiqmagan; faqat kechaning qorong‘isiga o‘chakishgan sanoqsiz yulduzlar tepada turib mash’allarini yondirganlar, xuddi peshona oldida ko‘ringan eng yorug‘ bir yulduz piyoz to‘g‘rab yotgan kelinchakning ko‘zlariday pirpirab yonardi.

Qizlar jim edilar. Aravakash zerikdi shekilli, astagina ashula boshladi. Uning ashulasi ham xirgoyidan nariga o‘tmaganidan keyin Salti ko‘tarildi:

– O‘lmasxon, bormisiz? Durustroq aytsangiz-chi!

Saltining yana bir o‘rtog‘i – Qumri uning so‘zini quvvatladi:

– Ha, rost, shunday yaxshi ovozingiz bor ekan, sho‘x-sho‘x aytmaysizmi? Keng dalada qancha cho‘zsangiz, shuncha ketadi varanglab...

Yigitcha kuldi. U qorong‘ida sekingina orqasiga qayrilgan edi. Orqa safdagi qizlar chimmatini ko‘tarib o‘tirganlaridan ularning yuzlarini sal-pal ko‘rsa bo‘lardi. Kulumsirab turib, qizlarga biroz qaragach:

– Orangizda dong‘i ketgan ashulachingiz bor turib, menga osilganlaring qiziq! – dedi. – Biz “suv bo‘lmasa tayammum”ga yaraydigan ashulachilardan...

Qizlar hammasi Zebiga qarashdi. Har tomondan har xil ovozlar chiqdi:

– Ha, rost!

– Chinakam, indamay o‘tirganimizni qaranglar-a!

– Ashulachi oramizda-ku.

Zebi “churq” etmasdan o‘tirardi. Uning munday qilishi ham shu xil taklifdan qo‘rqqanidan edi. Albatta, yosh narsaning ko‘nglida o‘ynash, kulish va xushvaqtlik qilish mayllari boshqa har narsadan ko‘ra kuchlik keladi. Lekin Zebi shunday bir otaning qizikim,

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

uning qo‘lida har qanday kuchli maylini ham yuganlab tutmoqqa, ko‘ngilning har bir havas va tilagini ko‘ringan joyida bo‘g‘ib tashlamoqqa to‘g‘ri keladi ham.

...Aravakash u yoqdan turib:

– Ha, barakalla, bor ekansizlar-ku! O‘rtaga olinglar ashulachini! – degandan keyingina Zebining tili qaldiradi:

– Gaplashib ketaylik. Shunday qorong‘ida!..

– Jin urarmidi? – dedi bittasi.

– Yaxshi emas, shunday zim-ziyo qorong‘ida... Gaplashib ketaylik... Shirin-shirin gaplardan...

Aravakash uning so‘zini ilib oldi:

– Shirin-shirin gap o‘rniga shirin-shirin ashuladan bo‘lsin, opa. Ta’rifingizni eshitib, jigarlarimiz laxta-laxta qon bo‘lib ketgan...

Salti tegishdi:

– Voy, tovba-ye! Laxta-laxta qon bo‘lganmi? Jabr bo‘lgan ekan...

Aravakash ham bo‘sh kelmadi:

– Qon bo‘lgan yuraklarni bir nafasda yozish sizlarning qo‘lingizda, opalar! Biz ham dunyoga kelib bir yayraylik-da!

Yana indamasdan o‘tirgan Zebiga endi bu safar Salti yalindi:

– O‘rtoqjon, bir narsa desangiz-chi. Hamma baravar tashna ekan...

Zebi o‘rtog‘ini astoydil koyib berdi:

– Sizdan kelgan gap shumi hali? Otamning aytganlarini o‘z qulog‘ingiz bilan eshitib edingiz-ku! Eshitib-netib qolsa, nima bo‘ladi? Bilib turib...

Salti o‘rtog‘ini to‘xtatdi:

– Bilaman, o‘rtoqjon, bilaman! Otangizning gaplarini bir emas, ikki qulog‘im bilan eshitdim. Odamlar ichida, ko‘pchilik orasida qistasam, mendan xafa bo‘ling. Bu yer dala joy bo‘lsa, odam asari bo‘lmasa, kechasi – qorong‘i bo‘lsa, bir-ikki juft aytib bermaysizmi?

– Nomahramga eshittirib-a?

Zebi bu so‘zni chin ko‘ngildan chiqarib va jerkib turib aytgan bo‘lsa ham qizlar hammasi birdan kulishib yubordi. Yana har xil ovozlar ko‘tarildi.

– Shu ham nomahram bo‘libdimi?

– Shu O‘lmasjon-a?

– Nomahram o‘la qolsin...

Zebi chinakam ranjigan edi. Yig‘lamsirashga yaqin bir ovoz bilan Saltiga:

– Munaqa qilishingizni bilsam, kelmas edim... – dedi.

Qizlar ishning bu tomonga aylanganiga hayron bo‘lishib jim qoldilar. Aravakash:

– Ey, tavba! Ey, tavba! – deb o‘z-o‘ziga so‘zlanib, otni qattiq-qattiq besh-olti qamchiladi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ot qadamini ildamlatib, aravani guldur-guldur g‘ildirata boshladi. Hamma jim bo‘ldi. Faqat Salti bilan Zebi ikkovi bir-birlari bilan pichirlashib so‘zlashardilar. Bu pichirlash natijasida Salti o‘rtog‘ini tinchlatishga muvaffaq bo‘lgan, buning ustiga yana, qizlar “yor-yor” boshlaganda, uning qo‘shilajagi to‘g‘risida so‘z olgan edi. Bir marta boshlangandan keyin undan narisi o‘zi keta beradi, deb o‘ylardi Salti.

Darrov qizlar tomon burildi:

– Qani, qizlar, o‘zimiz “yor-yor” boshlaymiz!

– Ha, balli! – dedi aravakash.

Qizlardan javob kutib o‘tirmasdanoq Salti o‘zi boshlab yubordi:

“Uzun-uzun arg‘amchi-yo...

Qizlar qo‘shilishdi:

...Halinchakka,
Chakan ko‘ynak yarashar
Kelinchakka.
Chakan ko‘ynak yengiga
Tut qoqaylik...”

Bir-ikki bayt o‘tgandan keyin Zebining tiniq, g‘uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o‘tkir ovozi qo‘shildi. Bu ovoz, peshona ustida pilpillagan eng yorug‘ yulduz singari boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi. Shu choqqacha “yor-yor”ga quloq berib, indamasdan, asta-asta otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan og‘ir bir “uh” tortdi, qo‘lidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq singari zo‘rg‘a-zo‘rg‘a barmoqlariga osilib qoldi...

Saltining didi to‘g‘ri chiqqan edi; endi Zebi “yor-yor”ni o‘zi yolg‘iz aytardi. Aravakash bilan birga, qolgan qizlar – hammasi bir quloqqa aylangan edilar. Ot bu go‘zal ovozning shirin kuylari ostida boshini quyi solib, bo‘ynini asta-asta likillatib bitta-bitta qadam bosardi... “Yor-yor”lar bitib, boshqa har xil kuylarga o‘tildi, endi Zebini to‘xtatmoq mumkin emasdi. Zotan, uning to‘xtashini kim istar edi, deysiz? Dalalarning keng quchoqlaridan uchib kelgan mayin shabada qiz og‘zidan chiqqan unlarni o‘z qanotlariga mindirib, allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar. Hov... yiroqlarda lipillab ko‘ringan qishloq chiroqlari ham, tepadagi yulduzlar singari shabada qanotlari bilan kelgan chiroylik unlarning zavqi bilan mast bo‘lib yonardilar...

Zebi yuragida tugilib yotgan zo‘r tugunni yechib yuborgan edi. Razzoq so‘fining sovuq yuzlari uning ko‘zlaridan yiroqlashgan; nasihat yo‘li bilan minglarcha marta aytilgan va ta’kidlangan so‘zlar unutilgan; sovuq so‘filarning “harom” degan da’volari sinib, parcha-parcha bo‘lgan; “nomahramlik” safsatalari ot oyoqlari ostida yanchilgan; to‘rt devorning bu tutqun qizi o‘ziga o‘xshagan tutqunlardan boshqa hech bir guvoh va tilchi bo‘lmagan shu keng dalaning quloch yetmas bag‘rida yillardan beri tugilib kelgan alamlarini kuyga aylantirib, cheksiz bo‘shliqlarga yoyib yuborgan edi.

Arava yakka qanotli kichkinagina bir eshik oldida to‘xtab, aravakash bola qamchi sopi bilan eshikni qoqqanda va ichkaridan bir kampirning ingichka va jonsiz ovozi “Kim u?” deb so‘raganda, odamlar bir uyquni urgan edilar...

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

* * *

Akbarali mingboshining kichik xotini Sultonxon kundoshi Xadichaxonning qizi Fazilat bilan apoq-chapoq bo‘lib, mehmonlarni uyiga chaqirmoqni istaydi. Chunki Zebining qo‘shiqlari butun shaharga ovoza bo‘lib ulgurgan edi. Lekin qo‘shnisi Umrinisabibi bu ishi bilan u o‘ziga kundosh balosini orttirishini aytgach, fikridan qaytadi. Shu orada mingboshining katta xotini Xadichaxon va ikkinchi xotini Poshshaxon aynan shu masalada reja tuzib ulgurishgandi.

Ashulachi qizning o‘zlarinikiga mehmon bo‘lib kelajagini eshitgandan beri mingboshining o‘rtanchi xotini Poshshaxon juda xursand edi. Faqat erining shaharga ketib, bedarak yo‘qolganiga achinardi. Shaharda bo‘lmasdan shu yerda bo‘lsa, bir ish qilib, shaharlik qizning ovozini unga eshittirish va shu yo‘l bilan kundoshning ustiga kundosh keltirish qiyin emasligini yaxshi bilardi. Erining xotinbozligi esa bir unga emas, butun dunyoga ma’lum edi. Zebini bir ish qilib mingboshiga olib berish ustida o‘zining burungi dushmani, ya’ni katta kundoshi Xadichaxon bilan ittifoq boshlashdan ham tortinmasdi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bugungi nonushtani uning uyida qildi, eng mahram sirlarini aytgan bo‘lib, uni o‘ziga moyil qildirishga urindi.

– Eringizdan shu choqqacha darak yo‘q-a? – dedi u kulib turib.

– Ha, eringiz shaharda qolib ketdi. Bilmadim, yana bitta-yarimtaga nazari tushdimikan?

– Nazarlari qursin u kishining? Hadeb tusha berar ekan-da...

– Siz-biz “tushmasin”, deganimiz bilan tushmay qolarmidi? Xudo o‘zi tushadigan qilib yaratgan ekan-da.

– Xudovandi karim bu erkaklarni muncha yaxshi ko‘rar ekan-a?...

– O‘zimizdan qiyos-da... Oramizda erkakni yaxshi ko‘rmaydigan kim bor? Nondan oling! Qiyomga qarab o‘tirsangiz-chi...

– Non bilan qiyom har kuni bor. Boshqa dardlardan gapirishaylik.

– Non bilan qiyom har kimnikida yo‘q. Bu ham bornikida bor. Shukr qilsak bo‘ladi...

– Ming qatla shukrku-ya... O‘z boshingizdan o‘tgan, bilasiz, ko‘ngilni timtalagan bir narsa bor...

– Mening ko‘nglim timtalanib-timtalanib, ado bo‘lgan, aylanay... Ko‘nglimdagi olovning quruq kuli qolgan xolos. Endi Xudoning taqdiri bilan mening kunlarim sizning boshingizga tushibdi. Insof qilganda, aylanay, bu kunni Xudo hech bir bandasining boshiga keltirmasin. Nondan olib o‘tiring...

Poshshaxon o‘z kundoshining bu gaplaridagi achchiq kesatmalarni to‘ppa-to‘g‘ri o‘z bag‘riga borib sanchiladigan nayzalar bilib va sezib o‘tirardi. Chinakam, bir zamon o‘zi shu bechora xotinning ustiga kundosh bo‘lib kelib, uning yuragini timtalagan, uni rashk va ko‘rolmaslik olovlarida yondirgan edi. U vaqtda o‘zi kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi... Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o‘rtandi, xo‘rlanib-xo‘rlanib achchiq-achchiq yig‘ladi. Faqat hali bo‘yida bo‘lmay turib, o‘zining peshonasiga ham kundosh bitdi. Butun g‘ururi sindi, gerdayishi poymol bo‘ldi, sevinchi so‘ndi, yuzi so‘ldi, lablari xazon rangiga bo‘yaldi, umidlari uzildi, oyoqlari zo‘rg‘a-zo‘rg‘a sudralib jiladigan

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

holga keldi. Sultonxon kelgandan beri uning lablari ikki tishi orasidan chiqmas, ko‘zlari sal narsaga yosh olib yuborar, ko‘kragidagi devlar irg‘itgan og‘ir toshlardan biri ko‘ndalang kelib yotardi... Durust, qorni to‘q, ust-boshi joyida, qavat-qavat sarpo, og‘ir mehnat yo‘q... Lekin yonginasida boshqa bir yulduz charaqlab, ko‘zlarini qamashtirib turgandan keyin bu davlatlardan nima foyda?

…– Aytganingiz rost, – dedi Poshshaxon, – aytgan gaplaringiz achchiq bo‘lsa hamki rost. Bu to‘g‘rida men sizga hech narsa deyolmayman, ayniqsa, men kelganda bolali edingiz siz... Bilaman.

Kundoshining qo‘lidan sovibroq qolgan bir piyola choyni oldi-da, birin-ketin ikki-uch ho‘plab, bo‘shagan piyolani yana qaytardi. So‘ngra davom etdi:

– U yog‘ini o‘ylaganda, na sizda ayb bor, na menda. Qaysi birimiz bu odamga o‘zimiz xohlab tegibmiz? Hammamizni ota-onamiz bizdan so‘ramay-netmay uzatgan. Bizning ko‘z yoshlarimizga kim qaragan, deysiz?

Shu yerda Xadichaxon e’tiroz qildi:

– Yo‘q, unday demang. Men o‘zim xohlab tegganman. U vaqtda kuyovingiz yosh edi, muncha katta amaldor emasdi, nihoyati ellikboshi edi. Birinchi xotinidan bola bo‘lmagan ekan, ikki-uch yil umr qilishganlaridan keyin xotini o‘lib ketgan. Meni olgan vaqtida: “Sen ko‘z ochib ko‘rganimsan”, derdi... Mening hech bir noliydigan yerim yo‘q edi. Toleyimdan xafa emas edim, bu orada mana bu Fazilat tug‘ildi. Bola degan ota-onani bir-biriga bog‘laydi... Fazilat tug‘ilgandan keyin men juda xursand edim. Xuddi o‘sha paytlarda onam o‘ldi. Otam hajga ketib, u yerda qoldi. Shuncha musibatlarni qiynalmasdan o‘tkazdim. Nimaga desangiz, uyimdan ko‘nglim to‘q edi... Buningiz amaldor bo‘lgandan keyin aynidi. Mingboshilik yomon hovliqtirdi. O‘z qishlog‘ini tashlab, bu yerga ko‘chdi. Bu katta hovlini sotib oldi. Mana bu katta imoratlarni soldirdi. Bog‘-rog‘ qildi, yer-suv ko‘paytirdi. Ko‘ngli boshqa savdolarga, o‘zga ko‘ylarga tushdi... Bola ham ko‘ziga ko‘rinmadi, xotin ham. Yoniga “haybarakallachilar” kirishdi. Xotin topadigan, maslahat beradiganlar ko‘payishdi. Bir haftaning ichida to‘y qilib, mening ustimga sizni keltirib qo‘ydi...

Shu yerga kelganda, Poshshaxon chiday olmadi:

– Men xohlab kelgan bo‘lsam ekan... Oyog‘imdan bog‘lab, bir cho‘riday olib keldilar. Tug‘ilganimga, yoshligimda kasal bo‘lib o‘lib ketmaganimga o‘kina-o‘kina kelganman.

– Bilaman, aylanay, bilaman... U yog‘ini so‘rasangiz, bu ayol toifasining ko‘pi ota-onaning zo‘ri bilan erga tegadi. Shunday bo‘lsa ham siz menga kundosh bo‘lib kelgansiz-da...

– Kelmay o‘la qolay men! Sizga kundosh bo‘lib necha yil, necha oyim rohatda o‘tdi? Siz-ku besh-olti yil rohat ko‘ribsiz, armoningiz yo‘q... Men sho‘rlik bir yil ham yayraganim yo‘q... Bir kechaning ichida to‘y ovozi chiqdi-yu, ertasi kuni namozshomda Sultonxon kirib keldi... O‘lganim yaxshi emasmi bu kunimdan? Otam o‘lgur muning yer-suviga, davlatiga qiziqdi, “yax” deb turib oldi.[1] Bu davlatlardan unga nima foyda?..

[1] **Yax deb turib olmoq** – o‘jarlik bilan turib olmoq, ko‘nmaslik.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Davlati qursin, davlati!.. Enaxonning kelinbibisiga rashkim keladi... Davlat asari yo‘q. Ro‘zg‘orlari zo‘rg‘a o‘tadi. Qo‘zichoqday ikki bolasi bor. Eri hamisha yonida... Kundosh alami yo‘q...

– Nimasini aytasiz...

Ikkovi ham jim bo‘ldilar. Birozdan so‘ng gapni yana Poshshaxon boshladi:

– Men chidolmayman aslo, men chidolmayman! Men aslo chidolmayman bu alamga!

So‘ngra jalanglab tevaragiga qarab olgach, dasturxon ustidan kundoshiga egilib, dedi:

– Yana bittani olib berib, mana bu yashshamagurni qon-qora qaqshatsam... Kibr-u havolarini sindirsam... Shashtini qaytarsam... Hovliqishini bossam... Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo‘lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmatingizni qilib yotardim! Xoh ishoning, xoh ishonmang!..

– Shu tobda siz alamzadasiz, yolg‘on aytmaysiz...

Kundoshlik olovlari, zotan, so‘nib bitgan bu bolalik xotinga kechagi dushmanning bu kungi xushomadlari shirin eshitildi, Sultonxonning ustiga yana biri kelsa, demak, to‘rtinchisi bo‘ladi va kundoshlik alami yana ham yiroqlashadi. Shuni o‘ylab, Xadichaxon kechagi kundoshining bugun yordam so‘rab uzatgan qo‘lini qabul qilishga yo‘q demas edi. Faqat Poshshaxonning yana ham ochiqroq va aniqroq gapirishini, to‘g‘ridan to‘g‘ri birlik taklifida bo‘lishini kutardi. Kundoshi kuttirmadi:

– Qars ikki qo‘ldan chiqar ekan! Ikkalamiz bir bo‘lsak, Sultonni tuzlaymiz. Undan keyin kundoshlik alami, sizdan ikki pog‘ona, mendan bir pog‘ona yiroqlashadi. Ikkovimiz ham xotirjam bo‘lib, opa-singil tutinamiz. Shu davlatni, qancha kerak, o‘z qo‘limizga olib, o‘rtada baham ko‘rishamiz. Yoshligimiz shamolga ketib bo‘ldi... Endi davlatdan bir narsa olib qolaylik. Qariganimizda asqatadi...

– Soz bir qizni to‘g‘ri qilsangiz, hali ham yo‘q demaydi u fosiq! O‘ylashaylik, bo‘lmasa... – dedi Xadichaxon.

...Poshshaxon irg‘ib o‘rnidan turdi, yugurib borib, eshik va derazalarga qarab keldi-da, dedi:

– O‘ylab o‘tirish nega kerak? Dunyoning eng soz qizi o‘z oyog‘i bilan qishlog‘imizga kelib o‘tiribdi... U qizning o‘zini ham mehmon qilib chaqirsak... tamom!

– Siz kimni aytayotirsiz?

– Enaxonning shaharlik mehmonlaridan Zebixon degan ashulachisini...

Xadichaxon tan berganday qilib kundoshiga qaradi-da, dedi:

– Topibsiz-a!.. Esingizga qoyilman! U qizning ta’rifini men ham eshitdim. Balo emish...

– Shunday bo‘lgandan keyin bizning ishimiz yana ham yengillashadi. U qizni eringizga maqtab eshitdiradiganlar bizdan boshqa ham ko‘p topiladi. Men bilan Sultonni maqtab yedirganlar shunday qizni aytmaydi, deysizmi?

Tashqaridan yo‘talgan ovoz eshitildi. So‘rida yotgan Fazilat o‘rnidan turib kelayotir edi. Ikkalasi ham bu suhbatni shu joyda uzib, mayda-chuyda ro‘zg‘or gaplariga ko‘chdilar.

Birozdan so‘ng bet-qo‘lini yuvib, Fazilat kirdi. U ostonaga qadam qo‘yar-qo‘ymas, onasi:

– Bet-ko‘zingni yuvdingmi? – deb so‘radi.

– Ha! – dedi qiz.

– Bo‘lmasa, o‘choqda kichik choynakda choy bor, ola kir. Nonushtangni qilasan.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Qiz choyni keltirib qo‘yib, dasturxonga o‘tirar-o‘tirmas, gap boshladi:

– Kechasi charchab kelib, uxlab qolibman. Bo‘lmasa, sizlarni uyg‘otib, ko‘rganlarimni gapirib berar edim.

– Nimalarni ko‘rding? – deb so‘radi onasi.

– Qani, gapirib bering-chi, – dedi Poshshaxon.

– Nimasini aytasiz! Zebixon degan bir ashulachi kelibdi, ovozini eshitsangiz, mast bo‘lasiz!

Bular ikkalasi bir-birlariga qarashib, miyig‘ida kulib qo‘ydilar…

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, *“…Zebining tiniq, g‘uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o‘tkir ovozi”*ning *“peshona ustida pilpillagan eng yorug‘ yulduz”*ga qiyoslanishi sabablari nimada? Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?
2. Zebi mehmondorchilikka bormaganida ham uni boshqacha sinovlar kutishi mumkinmidi? Bunda qizlarning suhbatiga tayanib javob bering.
3. Parchadan kelib chiqib, Zebi va O‘lmasjonning holatiga munosabat bildiring.
4. Kundoshlik mavzusi yoritilgan asarlarni eslang. Ulardagi qahramonlar taqdirini nimalar birlashtiradi yoki ajratib turadi? Sabablariga aniqlik kiriting.
5. Xadichaxon va Poshshaxonning til biriktirishini qanday baholaysiz? Ularni qoralash o‘rinlimi? Bunday vaziyatda kim aybdor? Kuzatuvlaringizga tayanib javob bering.

Ijodiy ish

Agar siz Poshshaxonga maslahat berish imkoniga ega bo‘lganingizda, unga hayotini qanday qadriyatlar asosida qurishni tavsiya qilgan bo‘lardingiz? Takliflaringizni yozing.

Mutolaa

Asarning davomini (3) o‘qing.

3

Akbarali mingboshining atrofida yuradigan bir-ikki kishi so‘fini xoli topib, Zebi haqida og‘iz ochadi. Shu bois u qishloqqa borganida qo‘shiq aytgani uchun qizidan qattiq g‘azablanadi. Xotinining “Siz nima dedingiz, siz?” degan so‘roviga “betavfiq, benamoz”ga qiz bermasligini aytib, uni tinchlantiradi. Lekin o‘rtaga eshonbuva tushganidan so‘ng rozi bo‘lmasligining iloji qolmaydi.

O‘rtaroq bir xonadonning orzu-havasli kattakon to‘yidan hashamatliroq bo‘lib o‘tgan fotiha to‘yidan keyin Qurvonbibining ko‘zlarida yig‘laydigan yosh ham qolmagan edi. Zebining ko‘z yoshlari sira tinmadi. Bu orada Saltanatxon ikki marta kelib ketdi. Qumrixon keldi,

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

boshqa o‘rtoqlari kelishdi, har yo‘l bilan Zebining ko‘nglini olishga, uni yupatishga urindilar. Bo‘lmadi! Ko‘z yoshlari ariqning suviday o‘zlari kelib, o‘zlari quyilardi. Ilgariroq kunda yuz marta qizini yupatgan, uning ko‘z yoshlarini yenglari bilan artgan ona endi u yoshlarga ko‘nikib qolgan, indamasdan o‘z ishiga mashg‘ul bo‘lar, to‘y hozirliklarini ko‘rardi.

Har haftada bir keladigan qo‘y, un-guruchni tashimoqdan Razzoq so‘fining qo‘llari qabardi... Toza guruchlar bilan bo‘rdoqi qo‘ylarning palovlarini yemoqdan quyuq yog‘lar me’dasiga urdi...

Birinchi marta qo‘y kelgan kundan beri butunlay esidan og‘ib qolgan Qurvonbibi fotiha to‘yidan keyin biroz o‘ziga kelgan edi. Bora-bora Zebining ko‘z yoshlari ham quridi. U ham xuddi suratday jonsizgina sudralib yura boshladi. Burungiday onasining hech bir so‘zini qaytarmas, nima desa, og‘zidan chiqqan hamon bajarardi. Es-hushi o‘zida bo‘lmagan bu jonsiz suratning yog‘ochday qotib qolgan qo‘llari va barmoqlari ila ro‘zg‘or ishlarini yana burungiday puxta bajarishlari onaning qurigan ko‘zlarini ham yana yosh bilan to‘lg‘azib yuborardi. Zebining og‘zidan na bir og‘iz so‘z chiqar, na bir bayt qo‘shiq, na bir oh-voh. Bu hol onaning iztirobini beshbattar oshirardi. “Bu ketishda qizim sho‘rlik to‘yga yetarmikan, yo‘qmikan?” degan xayollar onaning bag‘rini tilardi.

Eshon chaqirtirib ketgan kunning ertasiga Razzoq so‘fi uyiga qaytib kelganidan keyin “Qizingni mingboshiga berib keldim, taraddudingni qil!” degan, shundan so‘ng Qurvonbibi yig‘lashga boshlagan, uni Zebi yupatgan, shu bilan ish fotiha to‘yiga borib yetgan edi. Bu orada anchagina vaqt o‘tsa ham Qurvonbibi o‘z eridan ilgari rad qilgan mingboshiga keyincha rozilik berishining sabablarini so‘ramadi. Gapning rosti, yuragi betlab so‘rolmadi. Ilgari Zebi o‘z otasidan qanday qo‘rqib qochgan bo‘lsa, endi Qurvonbibi ham o‘z eridan shuncha o‘zini chetga tortardi. Zebining haligi ahvoli ko‘ngliga tashvish solganidan keyin chiday olmadi; bir kun Zebining yo‘q vaqtini topib turib, eriga so‘z ochdi:

– Boshim gangib, hech narsa deyolmay yotibman...

– Ha, nima demoqchisan, Fitna? – so‘fi avvalgiday quruq va sovuq gapirardi.

Qurvonbibi xo‘rsinganidan birozgacha nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, gapirolmay turdi. Keyin nafasini biroz o‘nglab, yana boyagiday xo‘rsinish ovozi bilan bo‘lib-bo‘lib so‘zladi:

– Bu nima qilganingiz? Bu...

– Ha, nima qilibman, bachchag‘ar[1]?

– Ilgari... mingboshi o‘lgurga... bermayman, deb kelib edingiz... qo‘rsayib... maqtanib gapirib edingiz... “Benamozga... qiz yo‘q!” degan edingiz... Qani u qo‘rsayishlar? Nima bo‘ldi? Tuppa-tuzuk so‘fi odam bir benamoz, bir bo‘zaxo‘rga qiz berib o‘tiribsiz?

– Bersam nima bo‘pti, bachchag‘ar? O‘z qizim...

– O‘z qizingiz-ku... Tengini topib bering-da... Eshonbuvamning man qilmaganlariga hayronman. Ha... ha...

Shu yerga kelganda, Qurvonbibi biroz dadillanib, ovozini ko‘tara tushdi. Go‘yo eshonbobo tomonida bo‘lib, Razzoq so‘figa qarshi chiqajak edi:

[1] **Bachchag‘ar** – nafrat, g‘azab bilan qattiq koyishni ifodalaydi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Ha... ha... endi bildim! Bu gapdan, vallohi a’lam, eshonbuvaning xabarlari yo‘q! Bo‘lmasa, sizning bu behuda ishingizni qildirtirmas edilar.

U yoqda so‘fi achchig‘i kelib, baqirish o‘rniga bir narsadan xursand bo‘lganday miyig‘ida kulib turardi.

Qurvonbibi davom etdi. Uning ovozi yana ham ko‘tarila tushgan edi:

– Shoshmang! Eshonbuvamga borib dod deyman! Ori rost, bir bo‘lgan ishni endi buzdirish mumkin emasku-ya, ishqilib sizdan dod deb bir ko‘nglimni bo‘shatmasam bo‘lmaydi...

– E ablah, Fitna! – dedi so‘fi kulib turib. – Esing yo‘qligi shu-da! Shu-da esipastliging! Shu-da xotinliging!

Qurvonbibining achchig‘i keldi:

– “Echkiga o‘lim, qassobga yog‘!” Men o‘lolmay garangman, siz hadeb kulasiz. Ha, eshonbuvamga aytolmaymanmi?

– Ha, ayt! Ayt borib! – dedi so‘fi yana kulib turib. – Ablahligingni pirimizga ham ko‘rsat, Fitna!

– Obbo, aqlli-yey! Shoshmang, hali! Eshonbuvam g‘azablangandan keyin esingiz kiradi. Hali yog‘liq palovlar bilan mastsiz!

So‘fi kulishdan to‘xtab, jiddiylashdi.

– Bas, deyman, ahmoq, bo‘ldi! – deb qichqirdi u. – Hech narsadan xabaring yo‘q, valaqlay berasanmi? Mingboshiga bergin, deb qistab yurib, meni ko‘ndirgan eshonbuvamning o‘zlari bo‘lsa, nima deysan?

Qurvonbibi ixtiyorsiz:

– Voy, o‘la qolay! – deb baqirdi. – Eshonbuvam o‘zlari boshmi hali? Voy, sho‘rim qursin-ey!

Bechora kampir boshiga mushtlardi.

– Mushtla boshingga, Fitna! – dedi so‘fi yana o‘sha jiddiyat bilan. – Ko‘proq mushtla, yor o‘sha esipast boshni!..

Ikkalasi ham jim bo‘ldi. So‘fi hamon o‘sha jiddiyat bilan bir nuqtaga tikilgan, Qurvonbibi endi biroz o‘zini to‘xtata boshlagan edi. U oddiy va tinch ovoz bilan so‘radi:

– Eshonbuvam qistagan bo‘lsalar, qattiq tursangiz bo‘lmasmidi?

Faqat kampirning bu so‘zlarida endi taqdirga tan berish unlari bor edi. Bu unni so‘fi ham payqadi. U bugun nechundir biroz yumshay tushgan, xotini oldida o‘zini oqlamoqqa tirishganday ko‘rinardi.

– Hovliqmay gapirsang-chi, Fitna... Dunyoni buzasan... – dedi u. – Men ko‘p olishdim. “Benamozga qiz bermayman!” dedim. “Sen-bizning ming yil ibodatimiz-u ularning bir kunlik xizmatlari – bab-barobar! Mingboshi qancha mo‘min-musulmonlarning hojatini chiqaradi, qancha alamzadaning dodiga yetadi! Qancha o‘g‘ri, kissavur, qaroqchining jazosini beradi! Qancha nohaq bo‘lgan ishlarni haqqa qaror topqizadi. Ibodat ham – ibodat, mo‘min-musulmonga xizmat ham – ibodat! Balki bu keyingisi – a’lo!” dedilar. Nima deyin? Nima deb bo‘ladi? Men omi bo‘lsam, savodim bo‘lmasa, oq-qorani tanimasam, u kishi mulla bo‘lsa, zabardast bo‘lsa, Xudoning buyrug‘ini tushunsa, shariatni, tariqatni suvday bilsa... nima deyman?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

So‘fining o‘z xotiniga astoydil kuyib-yonib o‘z qilmishlaridan buncha dur-u daroz hisob berib o‘tirishi mana shu edi. Buni Qurvonbibi tegishincha taqdir qila bildi. Eriga issiq nazar bilan qarab, uning ahvoliga endi bir daraja achina boshladi. Shu uchun ancha og‘irlik va bosinqilik bilan:

– Men-ku hech narsa demas edim, – dedi u, – mana bu qizingiz xuddi bir suratga aylanib qoldi... Qo‘rqib yotibman...

– O‘rtoqlarini chaqirtir, Fitna... O‘yin-kulgi qilishsin... U tarafdan men ham to‘yni tezlatay... Tezroq berib qutulaylik.

– Saltanatxon o‘rtog‘ini o‘zi ham chaqirmoqchi bo‘lib turib edi, – dedi kampir. – Siz uyda bo‘lganingiz uchun...

– Men xonaqo[1]ga ketaman. Chaqirtira bersin. Un-guruch bo‘lsa serob... Pul ham bor, orzu-havas qilaman, desa, mana pul. Bozordan oldirsin. Ko‘ngli xohlaganini qilsin!

Shu so‘zlarni ayta turib, yonidan bitta o‘n so‘mlik yangi qog‘oz oldi, uni barmoqlari orasida uvib, shirshiragan ovoz chiqardi, undan keyin yuzlarida shu choqqacha hech bir ko‘rilmagan bolalarcha quvonish bilan kampirga uzatdi.

Kampir umrida ko‘rmagan o‘ntalikning naqshlariga qararkan, shu naqsh singari jonsiz bo‘lib qolgan sho‘rlik qizini ko‘z oldiga keltirdi-da, ko‘zlariga ixtiyorsiz yosh olib yubordi...

* * *

Akbarali mingboshi o‘z ustidan hokimga tushgan ariza sabab noyib to‘ra bilan uchrashadi. Uning yordam berolmasligini eshitib, mahkamadan ko‘ngli buzilib chiqadi. Shundan so‘ng mayxonaga kiradi. Mast bo‘lib uyiga qaytadi.

Uydagilar allaqachon yotgan edilar. Dovdiragancha qoqilib-yiqilib Zebining uyiga kirib bordi. Miyasi hech narsa anglamasdi, shunday bo‘lsa ham erta yo indin bir ish qilib loaqal uch ming so‘m pul topishga jazm qildi. Muning uchun hech qanday tadbirdan chekinmayajak edi.

– Tur, hay! – dedi Zebiga.

Zebi yotgan joyidan turib, fonarni balandlatdi.

– Dasturxonni yoz! Yegulik narsang bormi?

– Ha, kosada osh bor.

– Ber buyoqqa.

Zebi erining mast ekanligini bilsa-da, uning ovozidagi bu g‘ayritabiiy qo‘rslik va qattiqlikka hayron bo‘ldi, boshini ko‘tarib, unga tikildi, “o‘zimi, boshqami?” deganday...

– Nimaga menga qaraysan? Yo mastmisan, sintaloq? – dedi mingboshi.

Zebi indamasdan dasturxonni yoyib, oshni qo‘ydi.

– Och muni! – mingboshi yonidan bir shisha aroq olib uzatdi.

– Men ochishni bilmayman, – dedi Zebi, ko‘z yoshlari qovog‘iga kelib tizilgan edi.

– Mening xotinim bo‘lib aroq ochishni bilmaysanmi? – dedi mingboshi va xoxolab

[1] **Xonaqo** – masjidning odatda namoz o‘qiladigan katta va keng xonasi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

kuldi. – O‘rgan! Mana, qarab tur! – shishaning tagiga yo‘g‘on shapalog‘i bilan ikki marta urdi, po‘kak sachrab chiqib, shiftga tegdi, so‘ngra u yerdan sachrab, tokchadagi katta jomga kelib tushdi, “jarrrang”... etdi jom.

– Ha-haa!.. – dedi mingboshi. – Jomlaringni jaranglatdim, sintaloq!

Birin-ketin ikki piyolani to‘latib ichdi, yengi bilan og‘zini artdi. So‘ngra bir piyolani choch qilib Zebiga uzatdi:

– Ma, ich! Odam bo‘lasan!

– Voy, o‘la qolay! Aroq ichamanmi? Qo‘ying, gapirmang!

– Odam bo‘lasan, deyman! Ol! O-ol!!!

Zebi orqasiga chekinib, yig‘lab yubordi.

– Qo‘y, mayli, ichmasang ichma, – dedi mingboshi. – O‘zim ichaman!

Bir shishani tamom qilib, yuvuqsiz qo‘li bilan oshga chang soldi. Oshning yarmi barmoqlari orasidan dasturxonga, ko‘rpa-to‘shakka, o‘zining liboslariga to‘kilardi. Zebi devorga suyanib, bu qo‘rqinch kuyovni tomosha qilardi...

Mingboshi og‘zi to‘la osh bilan: “Netayxon, aylanay, yodimga tushdi-ye...”, deb xirgoyi qildi. Oshli og‘iz bilan boshlangan xirgoyi tomoqqa tiqildi, mingboshi qalqib ketdi va og‘zidagi oshni kosaga purkab yana oshga qo‘l uzatdi. Zebining ko‘ngli aynidi, shekilli, sekingina tisarila-tisarila dahlizga chiqdi. Dahlizda bir piyola sovuq suv ichdi. Yuragi kuygani bosilmadi, shekilli, yana quymoqchi bo‘ldi. Suv yo‘q edi. Bir qanoti ochiq eshikdan uyga qaradi. Mingboshi yana bitta shishani ochib, piyolaga to‘ldirayotgan edi... Zebi tashqariga chiqib, toza qor bilan qo‘lini yuvdi, toza qorni yuzlariga surkadi, jindak yedi. Ancha shamollab va yengillab kirgan vaqtida, mingboshi dasturxon yonida ag‘nab o‘chib qolgan edi. Uni qo‘zg‘atib o‘tirmasdan, dasturxonni sekingina yig‘ishtirib oldi-da, bir chekkaga bir yostiqni tashladi, ustiga bir to‘shakchani yopindi, fonarni pastlatdi, shu bilan uyquga yotdi. Orada qancha uxlagandir, o‘zi ham bilmaydi, besaranjom bir qichqiriq bilan uyg‘ondi:

– Suv! Suv! – deb qichqirardi mingboshi.

Zebi uyqusirab kelib, yana fonarni balandlatdi. Ungacha mingboshining qo‘rqinch ovozi yana ko‘tarila tushdi:

– Sintaloqdi qizi, suv, deyman! Suv! Yuragim kuyib ketdi... Yonib ketdi!.. Suv! Suv!!!

Zebi shoshib qoldi, tez borib choynakdagi tabarruk suvni qo‘liga oldi va – hech narsa o‘ylashga fursat yo‘q – darhol mingboshiga uzatdi...

Mingboshi choynakdagi suvni bir simirishda tamom qildi. Zebi endi uning tinchib uyquga ketishini kutardi. Yoniga yumshoq bolishlardan ikkitasini qo‘ydi, ustiga kichkinagina bir to‘shakni yopdi. Mingboshi ham tinchib qolganday bo‘ldi.

Zebining kipriklari endi bir-biriga tegganda, mingboshi birdan dahshatli bir tovush chiqardi. O‘rnidan turib kamarlarini, to‘nlarini apil-tapil yecha boshladi. Zebi butun bu harakatlarni boyagi singari mastlik asarlari, deb o‘yladi.

…Mingboshining ko‘zlari chanog‘idan chiqib keta boshladi. U endi ko‘ylaklarini yirtib, ko‘ksini, tomoqlarini tintalay boshladi... Bor kuchi bilan zo‘r berib nafas olishga tirishardi. So‘ngra buzuq ovoz bilan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a:

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Bo‘g‘ma, bo‘g‘ma meni!.. – deb qichqirdi. Bir-ikkita qadam bosib, devordagi javonga suyandi, bir nafas tinch qolgach, yana bo‘g‘ziga qo‘l uzatib, etlarini cho‘zdi. Ko‘ksiga mushtladi. Undan keyin bir qo‘lini yuqori ko‘tarib, boshiga qo‘ydi. Ko‘zida ikki-uch tomchi yirik-yirik yosh ko‘ringan edi. G‘alati, yuvosh, muloyim, beozor va ayanch nazar bilan Zebiga qaradi va ikkala qo‘lini qo‘yib yuborib, boshini bir tomonga shilq etib tashladi-da, o‘zi ham devorga suykana-suykana sekingina yerga o‘tirdi, bir nafas o‘tirgandan keyin bir tarafga qiyshayib, ohistagina yonginasiga yiqildi va shu bo‘yicha qimirlamay qoldi...

Nafasi ichiga tushgani holda devorga orqasini berib butun bu fojiani kuzatayotgan Zebi bo‘lgan ishni angladimi-yo‘qmi – harholda, qish kunida, yugurganicha ko‘ylakchan tashqariga chiqdi va ixtiyorsiz faryod soldi.

Kundoshlari ham birin-birin uyg‘onib chiqdilar va mingboshining keng ichkarisida azonga yaqin to‘rt xotinning azani bildirgan yig‘i ovozi ko‘tarildi.

Ular orasida o‘q otib mo‘ljaliga tekkizolmagan Poshshaxon ham bor edi. Kim biladi, mingboshining o‘limiga yig‘laydimi u juvon, yo Miryoqubning bevafolig‘iga, yo bo‘lmasa hayf ketgan kuchala[1]ga...

Akbarali mingboshi zaharlanib o‘lganidan so‘ng chor hukumatining xos odamlari ishtirokida Zebining sudi bo‘lib o‘tadi. Podsholikka sadoqat bilan xizmat qilganlarga qarshi ish tutishning oqibati yaxshilik bilan tugamasligi saboq bo‘lishi bahonasida unga jazo tayinlaydilar.

…Voqeaning yuz berganiga bir necha kungina bo‘ldi. Bu to‘g‘ridagi dovruq hali shaharga eshitilgani yo‘q. Bitta-yarimta shahar odamlari eshitgan bo‘lsalar ham Zebining ota-onasi bu gaplardan bexabar bo‘lsalar kerak. Ular hali qizlariga mingboshi dodxohdan avlod tilab, eshonbobonning tabarruk nafaslaridan yana tabarruk suv hozirlab qo‘ygandilar... Jumani o‘tkazib, cholning o‘zi bir borib ham kelar... Umid kattadir! Basharti ular bilgan bo‘lsalar ham, zakunchi solish yoki bir joyga arz qilib bosh urishni na chol biladi va na kampir! Gapning kaltasi, ular “o‘rus mahkamalariga borib, bir narsa chiqarolmaydilar”. Juda chidamay ketsa, Razzoq so‘fi to‘ppa-to‘g‘ri eshonboboning yonlariga boradi; o‘zini ko‘tarib urib yig‘laydi... Shu!

Sud majlisi bo‘ladigan keng zalda shamollar uchib o‘ynardi. Qator-qator chizilgan Vena kursilari haftalik uyqularidan hali ham uyg‘onmagan edilar. Eng oldingi qatorda hokim, noyib, garnizon boshlig‘i, politsiya boshlig‘i, pop; uchinchi qatordagi eng chekka kursida oppoq va zo‘r sallali chol – jome masjidning ingichka ovozli imomi o‘tirardi. Bir tomonda – zakunchi, bir tomonda – tilmoch; boshqa hech kim yo‘q.

Zebi ikki konvoyning yalang‘och qilichi o‘rtasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog‘ida qora amirkon mahsi-kavush bilan sud qarshisiga kelib to‘xtadi. Bu omonsiz suddan va bu yaltiragan yalang‘och qilichlardan ko‘ra uning

[1] **Kuchala** – chayono‘t. Kuchaladoshlar oilasiga mansub, ko‘p yillik zaharli o‘t. Uning shuningdek gazanda o‘t, qichitqi o‘t, qalaqay singari nomlari ham mavjud.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

o‘sha qora qiyofasi qo‘rqinch edi: o‘rta asrlardagi Ispaniya inkvizitsiya mahkamalarining qora aboli va sirli kardinallariga o‘xshardi... Pop qaradi, boshini chayqadi; domla qaradi, “astag‘firullo” o‘qib, soqolini silkitdi.

Sud raisi, nihoyat, tilmochga yuzlandi:

– Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.

Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.

– Voy, o‘la qolay! Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi? Undan ko‘ra o‘lganim yaxshi emasmi?..

– Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz; yuzini ochmasa bo‘lmaydi. Sudning qoidasi shu. Paranji ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun biz uning yuzini ochtirishga majburmiz. Aytingiz, qarshilikdan foyda yo‘q!

Zebi xuddi o‘yinda sherigiga achchiq qilgan boladay teskari burilib oldi. U indamay turganligidan sud raisi yana so‘z oldi:

– Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa, sud majlisini olib borolmayman.

– Olib bormasa mayliga... – dedi Zebi. – Bilganini qilsin!

Tilmoch o‘zi kulib, qip-qizarib turib, tarjima qildi:

Sud raisi ovozini ko‘tara tushdi:

– Harbiy sud masxarami bu kishiga? Aytingiz, yaxshilik bilan ochsinlar. Bo‘lmasa, kuch bilan ochtiramiz!

– Voy, sho‘rim! Shuncha erkak o‘tirsa-ya! O‘lganim ming marta yaxshiroq!

So‘ngra ovozini pasaytiribroq tirkadi:

– Otamning piriday kap-katta sallalik domla o‘tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?..

Sud raisi endi bu safar muloyim gapirdi:

– Aytingiz, sud tomon qarab, domlaga orqasini o‘girib tursin!

Zebi yana indamadi. Domla o‘tirgan joyidan biroz ko‘tarila tushib:

– Hechqisi yo‘q, qizim! – dedi. – Men qaramayman!

– Mana bular-chi? – dedi Zebi. Sud hay’atini ko‘rsatdi. Endi bu safar domla o‘rnidan turib, tilmochga yuzlandi:

– Eshoni mirzo! Menga ijozat berilsa, shu ayolga ikki og‘iz nasihat qilsam.

– Marhamat, taqsir!

Domla Zebining yoniga borib, nasihat boshladi. Zebi borgan sari susayib bo‘lsa-da, domlaning har bir so‘ziga javob qaytarardi. Oxiri domla o‘z dindoshlari o‘rtasida mashhur bo‘lgan bir e’tiqod masalasini ochdi:

– Kofir bilan itning farqi yo‘q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo‘lsa, kofirdan ham qochmasangiz bo‘ladi. Bu joiz.

Domla shunday joyda bu xil gaplarni gapirishdan juda qo‘rqadi. Shuning uchun bosh-da boshqa so‘zlar bilan Zebiga ta’sir qilishga urindi. U urinishlardan tezroq bir natija chiqmagandan keyin majlis ahlini mahtal qilib qo‘ymaslik uchun bu masalani ochishga majbur bo‘ldi. Majbur!.. Shu uchun so‘nggi so‘zlarni juda past ovoz bilan aytgan edi.

Zebi unadi:

– Bo‘lmasa, siz o‘zingiz nariroqqa borib o‘tiring!

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Xo‘p, qizim, xo‘p, – dedi domla. To‘rt-besh qator orqaga borib o‘tirdi.

Hammaning ko‘zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi va sud tomon evrilgan holda bir qo‘lini yana yuziga parda qildi.

– Mana, qila qol so‘rog‘ingni!

Hozir bo‘lganlar o‘rtasida “bu sodda musulmon qizini uyaltirmaslik uchun” ko‘zini boshqa tomonga burib o‘tirganlar bilan birga ikki ko‘zini undan uzmagan va allanimalar deb o‘zicha so‘zlanib, lablarini tez-tez qimirlatganlar ham bor edi...

Aybdorning kimligi surishtirilgach, sud darhol o‘rnidan turib, aybnomani o‘qidi. Undan keyin yana kalta savol-javoblar ketdi. Bu daf’a ularning adadi orta tushdi:

– Aybnomani eshitdingizmi?

– Ha...

– Mingboshi suvni o‘zi so‘radimi?

– Ha, o‘zi so‘radi...

– Mastmidi?

– Ko‘p aroq ichib edi.

– Suvni kim berdi?

– Men berdim.

– Choynakdamidi?

– Ha...

– Mana bu choynakmi?

– Ha...

– Kimning choynagi bu?

– Meniki.

– Siznikimi?

– Ha, meniki.

– Ichida qanday suv borligini bilarmidingiz?

– Bilardim.

– Qanaqa suv edi?

– Irim suv edi.

– Kimga qilingan irim?

– Menga...

– Nima uchun irim qildirardingiz?

– Farzand bo‘lsin deb...



Pastda o‘tirganlarning domladan boshqalari, so‘ngra sud hay’atidan bir-ikki kishi, zakunchi va tilmoch yengilgina kulib qo‘ydilar.

– Nega u suvni mingboshiga berdingiz?

– Juda tashna bo‘lib so‘ragan edi, shundoqqina tokchadan olib uzatdim.

– Choynakda zahar borligini bilarmidingiz?

Zebi kuldi.

– Qiziq ekansan (o‘rusni sizlab bo‘lmaydi), men qayerdan bilay?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Demak, eringizni o‘zingiz o‘ldirdingiz?

Zebi qattiqroq va cho‘zibroq javob berdi:

– Yo‘o‘q!.. O‘libmanmi o‘z erimni o‘ldirib.

Uning bu so‘nggi javobida qiz bolaning o‘z o‘rtog‘iga o‘zini oqlab gapiradigan sodda gaplaridagi gunohsiz ohang bor edi: “Voy, o‘la qoling, men shunaqa dermidim?”

Zebi sud raisining bola emasligini qanday bilsin? Shu yerda o‘tirgan shuncha erkakning oyday ravshan bir narsani anglamasliklarini qaydan bilsin? “O‘rus-musulmon bo‘lib shuncha odam o‘tiribdi, axir. Mingboshini o‘ldirgan Zebi emasligini hammasi biladi. Bilib turib yana qaytalab so‘ray bergani qiziq! Yo o‘smoqchilab so‘rarmikan?”

Sud raisi gapirmoqchi bo‘lib o‘rnidan turgan vaqtda Zebi “Ana, so‘roq tamom bo‘ldi. Endi uyimni qandoq qilib topib boraman?” deb o‘yladi.

– O‘tiring, – dedi sud raisi Zebiga.

Sekingina va ehtiyot bilangina o‘tirdi. Sud raisi so‘z oldi:

– Voqea shu qadar ochiq, masala shu qadar ravshanki, meningcha, majlisni davom ettirishga ham hojat yo‘q. Aybdor o‘zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi. Shunday bo‘lgach, biz hukm chiqarish uchun ichkariga kira bersak, deyman.

Sud majlisida faqat aybdorga berilgan savollar, so‘ngra tergov protokoli bilan hukmnomaning eng kerak joylari tarjima qilinar; boshqa so‘zlar o‘ruscha ketardi. Shu uchun til bilmagan Zebi o‘tirgan joyida gapirgan to‘raning yuz harakatlarini tomosha qila boshladi.

Sud raisi prokurorga qaradi:

– Siz nima deysiz, zoti muhtaram?

Prokuror o‘rnidan turib, ikki qo‘lini stolga qo‘ydi-da, yarim engashib turib, dedi:

– Men bu taklifga qarshi emasman. Albatta, mening bu masalada boshqa mulohazalarim bor.

Men urush vaqtining nozik paytlarida bo‘lgan bu o‘ldirishga oddiy o‘ldirish kabi qaray olmayman. O‘ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqati bilan tanilgan odam edi. Uni “yosh sart” maxfiylari, ayniqsa, ularning dushmanimiz bo‘lgan Turkiya bilan fikran bog‘langan unsurlari yomon ko‘rardi. Men bu “sodda” va “guvohsiz” sart ayolining shunday unsurlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lmaganiga amin emasman... Biz sart xalqiga allanechuk beparvolik bilan qarab o‘rganganmiz; “qo‘yday yuvosh, ular!” deymiz. Albatta, ularning mamlakatlarini qon to‘kib olgan fotihlar sifatida bu qarashimiz bir nav to‘g‘ri ham bo‘la biladi. Faqat bizga endi bu noto‘g‘ri qarashni tashlash kerak!

…Durust, sart xalqining ko‘pchiligi muazzam davlatimizga, sevimli podshohimizga sodiq... Eslik, tajriba ko‘rgan katta savdogarlar; qishloqning obro‘li boylari; ayniqsa, ulamo toifasi “yosh sart”larning nufuzini qirqish uchun zo‘r bermoqdalar; bularni bilaman. Lekin haddan tashqari ehtiyot bilan, sergaklik bilan ish olib bormasak, bir kun emas, bir kun haligi ko‘pchilikning “yosh sartlar” bayrog‘i ostida bosh ko‘tarishi juda mumkin narsa…

Mana shu nuqtalardan qarab, men bu “soddadil”, “yuvosh” va “gunohsiz” sart qiziga eng oliy jazo talab qilmoqchi bo‘laman. Modomiki, masala o‘zi bu qadar ravshan va aybdorning o‘zi o‘z og‘zi bilan iqror qilib turibdi, mayli, muzokara ochib o‘tirmasak ham bo‘la-

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

di. Men o‘z fikrimni muhtaram sud hay’atiga arz qilib, masalaning bu tomoniga ham diqqat qilinmog‘ini so‘rayman.

Zakunchi sud raisining murojaatini kutmasdanoq o‘rnidan turgan edi:

– Men ham so‘z aytishdan voz kechaman! – dedi u, yana darhol joyiga o‘tirdi.

Sud hay’ati o‘rnidan turib, ichkariga chekildi.

“Ana, – deb o‘yladi Zebi, – o‘zim aytgan. Hamma gap oyday ravshan... Endi uyimni topib keta olarmikanman?”

Chorak soat o‘tmasdan, hukmnomani eshittirdilar. Unda bu ishning asosan siyosiy bir rangdan xoli emasligi iqror qilinmoq bilan birga, bu so‘roqqa to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi bo‘lmaganligi, ishning u jihatini alohida tekshirib, lozim ko‘rilgani taqdirda, qaytadan ish qo‘zg‘atmoq tegishli mahkamalarning vazifasi ekanligi; endi bu o‘ldirish hodisasi to‘g‘risiga kelganda, masalaning juda aniq anglashilganligi, aybdorning o‘zi tomonidan necha martalar iqror qilingani, shu uchun guvoh jalbiga va muzokaraga lozim ko‘rilmaganligi aytiladi.

Undan keyin: “Aybdorning qilgan gunohi og‘ir bo‘lib, hozirgi urush vaqtida va nozik sharoitlar ichida davlat odamiga qasd qilgani uchun falon moddalar bo‘yicha oliy jazoga hukm qilish kerak bo‘lsa-da, bovujud O‘lka harbiy sudining sayyor hay’ati aybdorning madaniyatsiz yerli xalq ayoli ekanini, o‘zining yosh va turmushda tajribasizligini va ham hamma gunohlarini nomus bilan iqror qilib bo‘yniga olganini nazarda tutib, falon, falon moddalar bo‘yicha yetti yil surgunga hukm qildi. Bu hukm ustidan tegishli joylarga shikoyat qilish mumkin”, deyiladi.

Tilmoch hukmnomani to‘rt og‘izgina qilib eshittirdi:

– Aybdor Zebinisa Razzoq so‘fi qizi Harbiy sudning hukmi bilan yetti yil Sibir qilindingiz. Norozi bo‘lib ariza bersangiz mumkin.

Hukmnoma o‘qilib bitar-bitmas, zaldagilar chiqa boshlagan edilar. O‘qilib tamom bo‘lgach, sud raisining ishorati bilan qilich yalang‘ochlagan konvoylar yana boyagi taxlitda Zebini olib chiqib ketishdi. Shundan keyin sud hay’ati ham chiqib ketdi...

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Razzoq so‘fining gap-so‘zlari va fikrlash tarzidan kelib chiqib, uning xarakteriga xos jihatlarni aniqlang hamda otalik va erlik burchini qay darajada ado etganini misollar asosida izohlang.
2. Parchadan Akbarali mingboshining ichki dunyosi va dunyoqarashini ochib beruvchi tasvirlarni topib o‘qing va bunday toifadagi shaxslarning jamiyatni boshqarishi qanday oqibatlarga olib kelishini tushuntiring.
3. Suddan keyin uyiga qanday yetib borish haqida o‘ylashi tasviri asosida Zebining ruhiy holatini tahlil qilib, ichki kechinmalarini tavsiflang.
4. Asardagi sud jarayonini bugungi huquqiy mezonlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqib, “Ishga qanday yondashilganda, Akbaralining o‘limi bilan bog‘liq haqiqiy holatlar to‘liq aniqlanar edi?” degan savolga javob bering hamda chor hukumati siyosatining asarda qanday aks etganini izohlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Guruhlarda ishlash

Besh guruhga bo‘lining. 1–4-guruhlar muhokama yakunida fikrlar himoyasini o‘tkazadi, 5-guruh esa baholaydi.

1-guruh:	Siz o‘zgalar qismatiga daxldorlik hissini qanday tushunasiz? Zebining ayanchli qismatiga eshon qanday ta’sir ko‘rsatdi? Asarda ko‘tarilgan majburiy nikoh, kundoshlik, ayol huquqi muammolarini bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qiling.
2-guruh:	Muallifning mustamlakachilarga, turli illatlarga munosabati asarning qaysi o‘rinlarida kuchliroq seziladi? Matndan aniq dalillar keltiring.
3-guruh:	Roman parchasidagi parallel voqealar (Zebining taqdiri – kundoshlar suhbati – sud jarayoni) syujet va kompozitsiyaga qanday ta’sir ko‘rsatganini baholang.
4-guruh:	Asarni sabab-oqibat nuqtayi nazaridan baholang. Bunda qaysi xatti-harakatlar fojiaga olib kelgani va natijada qanday oqibatlar yuzaga chiqqanini izohlang, shuningdek, voqealar rivoji orqali asosiy va ikkilamchi g‘oyalar qanday ochilganini tushuntiring.
5-guruh:	• 1 – 4-guruhlar ishini **adolatli va shaffof baholash** mezonlarini ishlab chiqing; • har bir mezon uchun ball belgilang; • fikrlar himoyasi yakunida guruhlar oldida baholash natijalarini **asoslab** bering.

Loyiha ishi





Quyidagi loyiha ishlaridan birini tanlab, xoh yakka, xoh guruh bo‘lib bajaring. Navbatdagi darsda taqdim qiling.

1. **“Men advokatman”.** “Agar men Zebining advokati bo‘lsam...” loyiha ishi uchun davlat va huquq asoslari faniga asoslanib, **apellyatsiya shikoyati** tayyorlang (hujjat shaklida).

2. **“Men tarixchiman”.** Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, *“mahalliy xalqning qoloq”* emasligiga oid tarixiy va zamonaviy dalillar topib, prokurorga qarshi hisobot tayyorlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

Dars davomida:

- sho‘ro davri mafkurasi va uning adabiyotga ta’siri bilan tanishamiz;
- shu davr adabiyotida mavzu va shakl yangilanishi; nasr, nazm va dramaturgiya bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tahlil qilamiz.

Ming yillar mobaynida o‘zbek adabiyoti ulkan Sharq madaniyati, jumladan, arab, fors va hind adabiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllandi. Uning ildizlari folklor, mahalliy e’tiqod, tarixiy jarayonlar, islom falsafasi va tasavvuf ta’limotidan suv ichgan. Biroq XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, o‘zbek adabiyotida muhim burilish yuz berdi: u G‘arb sivilizatsiyasi tajribalarini o‘rganish va yangi ma’naviy qiyofani shakllantirishga intildi.

Yangi o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining kirish qismida “*Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz”,* adabiy shakllarni yangilash, xalqimizni shu zamonning adabiyoti namunalari bilan tanishtirishga *“o‘zimizda majburiyat his etamiz”,* deya qayd etgani bejiz emas.

XX asrda milliy she’riyatimizda rus adabiyoti orqali Yevropadan kirib kelgan **ballada va sonet** janri ham qo‘llana boshladi.

Bilib oling

Ballada (fransuzcha “raqs qo‘shig‘i”) lirik dostondan farq qilib, unda voqealar izchil bayon etilmay, qahramon hayotidagi eng keskin dramatik holat kuchli lirik kechinmalar asosida ifodalanadi. O‘zbek adabiyotida Hamid Olimjonning “Roksananing ko‘z yoshlari”, “Jangchi Tursun” hamda Shuhratning “Mardlik afsonasi” asarlari ushbu janrning xarakterli namunalaridir.

Sonet (italyancha “jaranglamoq”) qat’iy kompozitsion qurilishi bilan ajralib turuvchi janr bo‘lib, jami o‘n to‘rt misradan tashkil topadi. Unda *ikki to‘rtlik (katren) va ikki uchlik (terset) bandlar tizimi* mavjud bo‘ladi. Usmon Nosirning *“Yana she’rimga”* asari o‘zbek sonetchiligining yuksak badiiy namunasidir.

1917-yilgi inqilob tufayli hokimiyatni Lenin rahbarligida egallab olgan bolsheviklar ***adabiyot va san’atdan*** o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urindi: adabiyot “partiyaning quroli”, yozuvchilar esa sovet mafkurasining yalovbardorlariga aylantirildi. Natijada sotsialistik realizm yo‘nalishi yuzaga keldi.

O‘ylab ko‘ring

Bolsheviklar nega aynan ***adabiyot va san’atni*** “partiyaning quroli”ga aylantirishga uringan? Fikringizni misollar bilan asoslang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bilib oling

Sotsialistik realizm (sotsrealizm) – sobiq sho‘rolar tuzumida shakllangan adabiy-badiiy yo‘nalish bo‘lib, uning bosh maqsadi kommunistik mafkurani targ‘ib qilish edi. Bu yo‘nalishga ko‘ra, asarlar xalq uchun tushunarli, sodda va ravon bo‘lishi, sovet kishilarining mehnati, jasorati va fidoyiligini ulug‘lashi kerak edi. Hayot murakkab ramzlar, mavhum fikrlar va ortiqcha badiiy bezaklardan xoli tarzda, “ijtimoiy buyurtma” asosida tasvirlangan.

> *...Har bir yo‘qsil, qashshoq, mazlum har ishchi,*
> *Har chorikor, batrak hamda har qo‘shchi,*
> *O‘z haqqini zolimlardan olishga*
> *To‘planishib, qo‘lni qo‘lga berishsin,*
> *Kommunistlar qatoriga erishsin.*
> *Kommunistlar har mazlumga yo‘lboshchi,*
> *Kommunistlar yo‘qsullarga ko‘makchi.*
>
> ***Elbekning “Kommunist” she’ridan.***

Sho‘ro yozuvchilarining I syezdida belgilangan ko‘rsatmalarga ko‘ra, adiblar zavod-fabrika va kolxozlarga borib, “yangi hayot”ni qurayotgan mehnatkashlarni madh etdi, partiyani ulug‘lovchi asarlar yaratdi. Bu jarayon ijod erkinligining cheklanishi va yuzaki asarlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Shunga qaramay, sho‘ro davrining dastlabki yillarida ham ba’zi adiblar o‘z shaxsiy tutumlarini saqlab, hayotiy haqiqatni ifodaladi. Xususan, Abdulla Qodiriy bir qancha hajviy asarlarida sho‘ro hokimiyatining ziddiyatli tomonlarini ustalik bilan fosh etdi. Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida chorizm istilosi oqibatlari, xalqning tushkun holati va jadidlar g‘oyasini ramziy va haqqoniy tasvirlagan. U “Ko‘ngil”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Yong‘in”, “Binafsha” kabi she’rlarida Vatan, xalq, ozodlik va erk tuyg‘ularini ramziy ifodaladi:

Binafsha, senmisan, binafsha – senmi,
Ko‘chada aqchaga sotilgan?!

Natijada milliy uyg‘onish davrining Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi vakillari “xalq dushmani” sifatida ayblanib, qatag‘on qilindi.

Bu davrda yozilgan G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi, Oybekning “Qutlug‘ qon” romani, Hamid Olimjonning lirik she’rlari va dostonlari yuksak badiiy ijod namunalari sifatida o‘zbek adabiyotidan munosib o‘rin oldi.

Ikkinchi jahon urushi adabiyotga jangovar ruh olib kirdi. Shoir va yozuvchilar xalqni jasorat, mardlik, fidoyilikka chorladi. G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan”, Oybekning “Yig‘i kelmaydi sira”, Uyg‘unning “Ona”, Hamid Olimjonning “Jangchi Tursun” kabi

> *O‘g‘lim, bu og‘ir kunlar*
> *Bir kun o‘tib ketadi,*
> *Lekin qo‘rqoqning sha’ni*
> *Ming yillarga o‘tadi.*
> *Shuning uchun jangda mard*
> *Bo‘lganing yaxshi menga,*
> *Qochib tirik qolgandan*
> *O‘lganing yaxshi menga.*
> *Orqangga qarama hech,*
> *Yovni burda-burda qil!*
> *Agar o‘q tegganda ham*
> *Oldinga qarab yiqil...*
>
> ***Hamid Olimjonning “Jangchi Tursun” balladasidan.***

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

she’rlari urush yillarida xalq qalbida g‘urur va sabr-toqat uyg‘otgan asarlar sifatida dovruq qozondi. Bu davr adabiyoti milliy birlik, vatanparvarlik, mehnat qahramonligi g‘oyalarini tarannum etdi. Shu bilan birga, adabiyotda insonning kechinmalari, sog‘inch va g‘am motivlari ham kuchaydi.

Stalin vafotidan so‘ng jamiyatda biroz erkinlik shabadasi esa boshladi. Ta’qib va tazyiqqa uchragan adiblar: Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat, Shukrullo, Said Ahmad va boshqa yozuvchi-shoirlar ijodga qaytdi.

1960 – 1980-yillarda yangi avlod vakillari – Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, O‘tkir Hoshimov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Rauf Parfi, O‘lmas Umarbekov, Shukur Xolmirzayev kabi ijodkorlar milliy adabiyotimizda yangi to‘lqinni boshlab berdi.

Bu davr adabiyotining muhim xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- *siyosiy tazyiqlar va qatag‘onlar tufayli millat boshiga tushgan kulfatlar ochiq ifodalana boshladi;*
- *real hayotiy muammolarni dadil kuylash tamoyili vujudga keldi;*
- *inson shaxsiga, ruhiy olamiga chuqurroq kirish, ko‘ngildagi dard-u tashvishlarga hamdardlik ohanglari paydo bo‘ldi.*

Yozuvchilar inson ruhiyati, jamiyat muammolari va axloqiy masalalarni chuqur yoritishga intildi. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” romanlari tarixiy xotira va milliy iftixorni uyg‘otsa, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” asarlarida mehr-muhabbat va oilaviy qadriyatlar tasvirlandi. Said Ahmad, Tog‘ay Murod asarlari realistik tahlilni yangi bosqichga olib chiqdi. Qahramonlarning ichki kechinmalarini chuqur tasvirlash bu davr nasriga xos xususiyatga aylandi.

> *Yerdan o‘zga joyda hayot yo‘q emish,*
> *Yo‘q emish samoda biror-bir jonzot…*
> *Men esa to hanuz umidga to‘lib*
> *Izlayman zaminda do‘sti vafodor.*
>
> ***Abdulla Oripov***

She’riyatda inson ruhiyati, milliy qadriyatlar, tarix va vatanparvarlik mavzulari yetakchi o‘ringa chiqib, falsafiylik, lirizm hamda milliy o‘zlikni anglash ohanglari kuchaydi. Adabiyot maydoniga Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon, Shavkat Rahmon kabi iste’dodli shoirlar kirib keldi. Ular inson va zamon munosabatlari, erkinlik, vijdon, sadoqat, e’tiqod singari masalalarga tobora chuqur va teran yondasha boshladi.

Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, Odil Yoqubovning “Yurak yonmog‘i kerak”, Izzat Sultonning “Imon”, Sharof Boshbekovning “Temir xotin” kabi dramatik asarlari teatr san’atini rivojlantirdi. “Imon” dramasida inson har qanday sharoitda vijdon, halollik va diyonatga tayanib yashashi g‘oyasi ilgari surildi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Tavsiya

“Imon” spektaklini tomosha qiling.
Rejissyor: M. Azimov
Manba: *Milliy teatr (YouTube).*

11

1980-yillarning o‘rtalaridan boshlab, “oshkoralik va demokratiya” harakati xalqlarning ma’naviy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Erkin A’zam, Xurshid Davron, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sultonov va boshqa yangi avlod yozuvchi-shoirlari milliy qadriyatlarni tiklash, ona tilining mavqeyini oshirish, milliy mustaqillikka hissa qo‘shish yo‘lida ijod qildi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr o‘zbek adabiyoti siyosiy bosim va mafkuraviy cheklovlarga qaramay, milliy ruh, erkparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etishda muhim o‘rin tutdi. Aynan shu davr adabiyoti mustaqillik davrining ma’naviy poydevoriga zamin hozirladi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, sotsialistik realizm adabiyotning tabiiy rivojiga to‘sqinlik qildimi yoki uni muayyan maqsad sari yo‘naltirdi? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang.
2. Ikkinchi jahon urushi yillarida yaratilgan asarlarda qahramonlik va vatanparvarlik ruhining kuchayishi adabiyotning qaysi vazifasini namoyon etadi?
3. 1960 – 1980-yillar adabiyotida inson ruhiyati va kechinmalariga e’tibor kuchaygani jamiyatdagi qanday o‘zgarishlar bilan bog‘liq, deb o‘ylaysiz?

Adabiy munozara

Sinf uch guruhga bo‘linadi.

“Adabiyot jamiyatni o‘zgartiradimi?” Ushbu savolga “Ha”, deb javob beruvchilar birinchi guruh, “Yo‘q”, deb javob berganlar ikkinchi guruh tarzida shakllantiriladi.

Har bir guruh o‘z qarashlarini asoslash uchun ichki muhokama o‘tkazadi, dalillar to‘playdi va yakunda fikrlar taqdimoti orqali qarashlarini himoya qiladi.

Uchinchi guruh esa birinchi va ikkinchi guruh chiqishlarini tahlil qilib, ularning dalillari qanchalik ishonchli va asosli ekanini baholaydi hamda umumiy xulosa chiqaradi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



ERKIN VOHIDOV (1936–2016)

Dars davomida:
- shoir shaxsiyatiga xos fazilatlarni kashf etamiz;
- ijodkor lirikasi bilan tanishamiz va tahlil qilamiz.

SHOIR O‘ZI HAQIDA

Mening sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolaligim Farg‘onaning Oltiarig‘ida o‘tgan. Men u yerda qishloq o‘qituvchilari oilasida dunyoga kelganman. Otam tarix muallimi, onam jug‘rofiya muallimi bo‘lib ishlagan... Yoshligimda ketma-ket otam, onam dunyodan o‘tib, tog‘amning qo‘lida tarbiyalanib qolganman.

Menga tengdosh bo‘lgan avlod qismati oson kechmagan, biz – urush bolalari ochlik, yupunlik mashaqqatini ham, judolik iztiroblarini ham ko‘rdik. Hayot bizni erkalatmagan.

Bizning umrimiz tarixning tirsagiga – burilish nuqtasiga to‘g‘ri keldi. Bolalikda men ko‘rgan o‘sha Toshkent manzaralari ikki ming yil avval ham ayni holda bo‘lgan esa ajabmas. O‘sha tor, yozda tuproq, qishda loy ko‘chalar, bozordagi hammollar, qalandar gadolar, somon ortgan tuyalar-u g‘irchillagan eshakaravalar bugun boshqa bir dunyoning nishonalari bo‘lib tuyuladi... Bizdan keyin yashaydigan avlod endi u manzaralarni ko‘rmas, kechalari qo‘lda fonus ko‘tarib yurmaslar, yarim tunda qorovullarning shaqildog‘ini eshitmaslar, kuyov yigitlar endi jo‘rasi bilan qo‘sh ot minib to‘yga aytmaslar, ayollar paranji yopmas, erkaklar to‘n, yaktak kiyib pichoq taqib yurmaslar. Hozirgi nasl ko‘zida biz boshqa zamon, boshqa dunyo, o‘zga sayyoradan kelgan odamlarmiz.

“O‘zbegim” haqida. *“O‘zbegim”ni 1960-yillarda hozir o‘zingiz bilgan shakl va mazmunda yozganman. O‘sha vaqtda xalqimiz ruhiyatida ana shunga ehtiyoj bor edi. ...Tili,*

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

urf-odati, tarixi kamsitilgan xalqqa faxr-iftixor tuyg‘usini qaytarish – uning qaddini ko‘tarish zarur edi. “O‘zbegim” faxriya sifatida ana shunday talab mevasi o‘laroq dunyoga keldi. Vaholanki, qasidani matbuotda e’lon ettirish oson kechmagan. Qancha-qancha tahririyatlarda “o‘zbegim”ni “xalqimiz” deb tuzatib bersangizgina bosamiz, deb oldimga shart qo‘yishgan. Tasavvur qiling, o‘sha shartga ko‘nsam nima bo‘lardi: “Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon xalqimiz”...

“Oltin devor” pyesasi haqida. *Bu komediyaning yaratilish tarixi o‘zi komediya...*

O‘sha vaqtda, 1966-yil Toshkent zilzilasidan so‘ng Toshkent yangidan barpo etilayotgan bo‘lib, ko‘p eski uylar buzilib, devorlar tagidan chiqqan tillalar haqida gazetalar har kuni bir xabar tarqatardi. Oltin vasvasasida bo‘layotgan janjal-mojaro, ur-sur, odam o‘ldirishlar to‘g‘risida gap-so‘zlar ko‘p edi. O‘sha voqealar asosida komediya paydo bo‘ldi...”[1]



“Oltin devor” spektaklidan lavha. 1970-yil

Tavsiya

“Oltin devor” spektaklini ushbu havola orqali tomosha qiling.
Rejissyor: Toshxo‘ja Xo‘jayev.
Manba: O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi arxivi. (YouTube).

12

Bilib oling

Asarlari: “Tong nafasi”, “Qo‘shiqlarim sizga”, “Yurak va aql”, “Mening yulduzim”, “Muhabbat”, “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Kelajakka maktub”, “Bedorlik”, “Kuy avjida uzilmasin tor”, “Yaxshidir achchiq haqiqat”, “Yoshlik devoni” va boshqalar.

Tarjimon sifatida I. Gyotening “Faust”, R. Hamzatovning “Mening Dog‘istonim”, S. Yeseninning “Fors taronalari” asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

1. Sizningcha, inson tabiatning bir qismimi yoki uning hukmroni?
2. “Odam bo‘lib tug‘ilish oson, lekin inson bo‘lib qolish qiyin” degan iborani qanday tushunasiz? Komil inson darajasiga yetish uchun kishi o‘z ustida qanday ishlashi kerak deb o‘ylaysiz?

[1] Erkin Vohidov. Saylanma. 6-jild. Erk saodati. Maqolalar, suhbatlar, sharhlar, xotiralar. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

INSON

(Qasidadan parcha)

Sobit[1] ul sayyorada inson o‘zing, inson o‘zing,
Mulki olam ichra bir xoqon o‘zing, sulton o‘zing.

Sobit o‘z ma’vo[2]sida, sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida karvon o‘zing, sarbon[3] o‘zing.

Shams[4] – dil taftingdadur, sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur, bog‘bon o‘zing, posbon o‘zing.

Bu yorug‘ dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur, mehmon o‘zing, mezbon o‘zing.

Bu hayot o‘rmon ekan, jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan, sirtlon o‘zing, jayron o‘zing.

Mash’ali fikrat[5] – sening, ham changali vahshat sening,
G‘ayrat-u g‘aflat sening, javlon o‘zing, uryon[6] o‘zing.

Minding ilm narvoniga, chiqding funun[7] osmoniga,
Bu jahon ayvoniga arkon[8] o‘zing, vayron o‘zing.

Zarrani ijod etib, dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib, hayron o‘zing, hayron o‘zing.

Bog‘i arz obod erur sendin agar imdod[9] erur,
Yo‘qsa u barbod erur, to‘fon o‘zing, to‘g‘on o‘zing.

Kim farangi, kim habash, irq, qon talash, imon talash,
Shulmi insondek yashash, armon o‘zing, afg‘on[10] o‘zing.

Mamlakatga mamlakat, millatga millat bo‘lsa qasd,
Qilg‘uchi so‘ng oqibat armon o‘zing, afg‘on o‘zing.

Onayizoring – zamin, tanho yo‘g‘-u boring – zamin,
Xasta bemoring – zamin, o‘g‘lon o‘zing, darmon o‘zing.

Marsga to‘p otquchi – sen, Zuhroni uyg‘otquchi – sen,
Uyquda qotquchi – sen, uyg‘on o‘zing, uyg‘on o‘zing.



[1] **Sobit** – turg‘un, harakatsiz, qo‘zg‘almas.
[2] **Ma’vo** – turarjoy, boshpana; manzil.
[3] **Sarbon** – karvonboshi; tuyakash.
[4] **Shams** – quyosh.
[5] **Fikrat** – fikr qilish, fikr yuritish, o‘ylash.
[6] **Uryon** – yalang‘och, ochiq, ochilib qolgan.
[7] **Funun** – fanlar, ilmlar.
[8] **Arkon** – ustun, tayanch.
[9] **Imdod** – madad, yordam, ko‘mak.
[10] **Afg‘on** – faryod, nola.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Kelding olamga, demak, etmas uni so‘rmak, yemak,
Yerni etmog‘ing kerak bo‘ston o‘zing, rizvon[1] o‘zing.

Bo‘lmasin subhing qaro, bor bo‘l mudom borliq aro,
O‘zni etgil doimo inson o‘zing, inson o‘zing.

Ey, sen Erkin, sen bukun yozding dilingdan bir tugun,
Sen kim-u, ne dahri dun, biyron o‘zing, nodon o‘zing.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Inson nima uchun barcha mavjudot orasida eng mukarrami qilib yaratilgan deb o‘ylaysiz? Inson o‘zining ushbu yuksak martabasiga loyiq bo‘lishi uchun shoir nimalarni orzu qiladi? Nima uchun?
2. *“Hammamiz bu dunyoga mehmonmiz”* degan naqlga tayanib, insonning bu dunyodagi asosiy burchlarini sanang. Shoir *“insondek yashash”* deganda nimalarni nazarda tutadi? Siz-chi?
3. Shoir bashariyatni qanday muammolardan ogohlantiryapti? Lirik qahramon inson ixtirolarining tabiat va jamiyatga zarar keltirishidan nega xavotirda? Odamning butun olam taqdiriga javobgarligi she’rda qanday aks etgan?
4. She’rda inson ilm-fanda yuksak cho‘qqilarga erishsa-da, nega qalban va ruhan g‘ariblashib borishi aytilgan? Bu ma’naviy qashshoqlikning asosiy sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
5. She’rning qaysi o‘rinlarida millatni uyg‘otishga qaratilgan da’vatni sezdingiz? Misollar keltirib, fikringizni dalillang.
6. She’rning yozilish uslubini tahlil qiling. Shoir nega aynan shu uslubni tanlagan bo‘lishi mumkin? Fikringizni asoslang.

Tavsiya

“Inson” qasidasi asosida yaratilgan ikki qo‘shiqni mediaplatformalar orqali topib yoki ushbu havolalar orqali tinglang. Taassurotlaringizni yozing.

13

14

1. “Inson o‘zing”. O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev.
2. “Inson” qasidasi / “Ода о человеке” / “Human”.

O‘ylab ko‘ring

1. Sirkda hayvonlar ishtirokidagi tomoshalarni kuzatganmisiz? Tomosha jarayonida qanday tuyg‘ularni his qilgansiz: hayrat, quvonch, achinish yoki ichki norozilik? Bu hislar nimadan kelib chiqadi deb o‘ylaysiz?
2. Mutelik nima?

[1] **Rizvon** – jannatmisol bog‘-bo‘ston.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

ARSLON O‘RGATUVCHI

(Vankuver[1] tomoshagohida)

Panjarada
Olov halqa yonar charsillab,
Arslon uzra –
Uzun qamchi o‘ynar qarsillab.
Yoldor yirtqich
Egasiga sovuq tikilar,
Na’rasidan
Tomoshagoh larzaga kelar:
– Ojiz odam!
Bas, boshimda qamchi o‘ynatma!
Ko‘ksimdagi
Uxlab yotgan hisni qo‘zg‘atma!
Haddan oshma!
O‘z boshingga o‘zing yetarsan,
Etlaringni
Nimta-nimta qilsam, netarsan?!
Ko‘rib qo‘y,
Bu panjalarni siynangga solsam,
Shuhratparast yuragingni
Sug‘urib olsam,
Yiltiragan badaningdan
Tirqiratsam qon,
Najot bermas –
Senga qarsak chalgan olomon.
Bor!
Olovdan sakramasman!
Bo‘lma ovora!
Bilasanmi –
Men kimman-u sen kim, bechora?!
Men – to‘qaylar shohi,
Tutqun bo‘lsam-da agar,
Sen-chi – no‘noq masxaraboz,
Pastkash bozingar[2]!
Shuhratga mast,
O‘z holini bilmagan basir!



[1] **Vankuver** – Kanadaning eng yirik shaharlaridan biri.
[2] **Bozingar** – ko‘zboylog‘ich, afsungar; ayyor, tullak odam.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Nomard taqdir
Meni qildi qo‘lingga asir!
Halol kuchga zavol bergan,
Hiylaga – qudrat,
Meni bandi qafas etgan
Dunyoga la’nat!
Ey, ivishiq[1] ko‘kragini
Zavq bilan kerib,
Sher zotini masxaraboz
Qo‘liga berib,
Mard holidan
Rohat olib qilgan xandalar,
La’nat sizga,
Tomoshabin, gumroh bandalar!
Panjarada
Olov halqa yonar charsillab.
Arslon uzra
Uzun qamchi o‘ynar qarsillab.
Yoldor yirtqich
Egasiga sovuq tikilar –
O‘rgatuvchi
Asta uning yoniga kelar.
Qulog‘iga bir so‘z aytar
Egib qomatin:
– Nodon dema,
Men bilaman arslon qudratin.
Sen to‘qaylar podshosisan,
Men – bechoraman,
Hamla qilsang,
Bir lahzada tilka-poraman.
Falak ishi –
Bizning bunday turfa sheriklik,
Menga qamchi,
Senga qafas berdi tiriklik.
Sen tantisan,
Nazdingda men quv, dog‘uli[2]man.
Asli o‘sha tiriklikning
Sendek quliman.
Menga nedir olomonning
Olqish, qarsagi,
Sening har bir o‘tli na’rang –
Menga tarsaki.
Netay, men ham egali qul,
Boshda xo‘jam bor,
G‘azab qilsa,
Ko‘zlarimga dunyo bo‘lar tor.
Menda-ku dard, iste’dod bor,
Bor andak sehr,
Hech bo‘lmasa, hayvonotga
Shafqat-u mehr.
Tomoshagoh egasi kim
Mening qoshimda!
Ammo qamchi o‘ynatar u
Doim boshimda.
Holatimni tushun,
Isyon qilma, birodar,
Charx oldida ikkimiz ham
Asli barobar.
Garchi arslon o‘ynataman,
Garchi men – Odam,
Oy so‘ngida qand kutaman
Xo‘jamdan men ham.
Goh jonimdan o‘tsa zulm,
Na’ra tortaman,
Lekin bundan
Faqat boshga balo ortaman.
Bu so‘zlarga chidolmadi,
To‘lg‘andi arslon:
– Bo‘ldi, bas qil!
Yuragimni qon qilma, inson!
O‘t olsin bu charxi falak
Rizq-u ro‘zini!..
Arslon olov chambarakka
Otdi o‘zini.

[1] **Ivishiq** – ivishib (uvushib) qolgan.
[2] **Dog‘uli** – o‘ta ayyor, makkor, mug‘ombir, aldoqchi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’rdan so‘ng sizni qanday tuyg‘ular qamrab oldi? Sababini tushuntiring.
2. Arslonning *“Ojiz odam! Bas, boshimda qamchi o‘ynatma! Ko‘ksimdagi uxlab yotgan hisni qo‘zg‘atma”* degan so‘zlariga diqqat qiling. Sizningcha, bu qanday his? Muallif arslonning kechinmalarini tasvirlash orqali asar boshida qanday maqsadni ko‘zlagan?
3. Arslon tilidan aytilgan *“Halol kuchga zavol bergan, Hiylaga – qudrat”* jumlasini tahlil qiling. Bu holatni qanday hayotiy vaziyatlarga qiyoslash mumkin?
4. Nima uchun arslon hayvon o‘ynatuvchini *“no‘noq masxaraboz, pastkash bozingar”*, tomoshabinlarni esa *“gumroh bandalar”,* deb ataydi?
5. Hayvon o‘ynatuvchining *“Holatimni tushun, Isyon qilma, birodar, Charx oldida ikkimiz ham Asli barobar”* degan so‘zlarida qanday haqiqat yashiringan? Inson va hayvon taqdiridagi bu o‘xshashlik nimadan iborat va bu vaziyatda aslida kim kuchliroq deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.
6. Arslonni oxir-oqibat olovli halqadan sakrashga nima majbur qildi? Arslon o‘ynatuvchi, tomoshagoh egasi va tomoshabin obrazlari misolida hayotdagi qanday insonlarni ko‘ryapsiz? Ularning har biriga ta’rif bering.

Tadqiq qiling

1. Usmon Nosirning “Nil va Rim” she’ridan parchani o‘qing:

Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,
Katta sirkka sig‘ishmasdan qaynar olomon:
“Odam bilan hayvon o‘yin ko‘rsatar emish...”
(Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!..)
Tishlarini irjaytirib bo‘kirgan yo‘lbars
To‘rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars.
Och ko‘zlari qonga to‘lgan, sakrab o‘ynaydi...
O, bechora, qoch! U seni tirik qo‘ymaydi!
Ana! Ana, tirnog‘ini nishlab kelar u.
Changal soldi! Xalq o‘rnidan birdan turdi duv...
Chapak chaldi. “Ey ahmoq Rim, sevinma qonga!
Bundan boshqa xo‘rlik bormi axir insonga?” –
Dedi parcha-parcha bo‘lgan gladiator.
Rim – o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr!



“Gladiator” filmidan lavha. 2000-yil. Rejissyor: Ridli Skott

2. Ikki she’rni quyidagi yo‘nalishda tadqiq qiling.

	Mavzu va g‘oyasi	Obrazlar	Ramzlar	Muallif uslubi	Badiiy tasvir vositalari	Xulosa
“Arslon o‘rgatuvchi”						
“Nil va Rim” (parcha)						

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘ylab ko‘ring

1. Agar do‘stlaringiz davrasida bir inson nohaq ayblansa, uni ko‘pchilikka qo‘shilib ayblaysizmi yoki himoya qilasizmi? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
2. Sizningcha, jaholat nima? Johil kim? Fikringizni isbotlang.

JAHOLAT TO‘G‘RISIDA RIVOYAT

(“Ruhlar isyoni” dostonidan parcha)

Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatli zamonda
Bir donishmand, ulug‘ hakim
O‘tgan ekan jahonda.
U kun bo‘yi
Giyoh terib,
Kezib tog‘-u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon.
Unga ming bir mushkul dardning
Ayon bo‘lib davosi,
Bora-bora
Odamlarning
Ortaverdi ixlosi.
Tabobatga
Qalban, ruhan
Fido qilib o‘zini,
Hatto bir kun
Nashtar bilan
Ochmish
Ko‘rning ko‘zini.
Rivoj topmish
Sohib hikmat,
Donish,
Mehnat madadkor.
Ammo
Qayda bo‘lsa shuhrat,
Yonboshida
Hasad bor.
Duoxonlar, parixonlar,
O‘quvchilar chilyosin…[1]
Xullas,
Yurtda bor nodonlar
Boshladilar ig‘vosin.
Tinmay
Kecha-yu kunduzi
Topib kitob so‘zidan,
Dedilar:
“Dard bergan –
O‘zi!
Davosi ham
O‘zidan!
Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondir.
Demak,
Hakim ishi makr-u
Uning o‘zi
shaytondir”.
Bu so‘zlarni chin deb bildi
Nodon, johil olomon.
Donishmandni sazo[2] qildi,
Kaltakladi
Beomon.
Cho‘g‘ temirda

[1] **Chilyosin** – og‘ir kasalni tuzatish yoki ahvolini yengillatish maqsadida “Yosin” surasini qirq marta o‘qib, dam solish.
[2] **Sazo** – qilmishiga yarasha olinadigan tanbeh, ta’zir, dashnom.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ko‘ksin dog‘lab,
Dorga osmoq bo‘ldilar.
So‘ng bo‘yniga xarsang bog‘lab
Suvga bosmoq bo‘ldilar.
Keyin
Suvni, arqonni ham
Hayf bildilar
“shayton”ga,
“Yoqing, – dedi
Eng bosh hakam, –
Olib chiqib maydonga!”
Keng maydonga
Ko‘mib ustun,
Bog‘ladilar hakimni.
So‘ng temirni o‘tga qo‘yib,
Dog‘ladilar hakimni.
Buyurdilar:
“Yoqing shitob,
Azozil[1]ning oshnasin.
Kerak bo‘lsa
Kimga savob,
Cho‘p keltirib tashlasin”.
Savob uchun
Birov o‘tin,
Birov tashlar dona xas.
Hakim boshin baland tutib
Johil elga qaramas.
Bir payt
Gulxan sari bir chol
Asta kela boshladi.
Quchog‘ida
Bir bog‘ poxol,
G‘aram uzra tashladi.
Dedi:
“Asli tug‘ilgandan
Basir[2] edim men o‘zim.
Sen joduning tig‘i bilan
Ochib qo‘yding ko‘r ko‘zim.
Tangri bilib
Yaratgan ko‘r,
Davo qilding ne uchun?
Oxirat men – manglayi sho‘r –
Nima deyman
So‘roq kun?
Haq yo‘lidan ozgan odam,
Ko‘zim ochib, ne berding?
Meni bir yo‘l
U dunyo ham –
Bu dunyodan ayirding.
Ko‘rligimda
Bu olamni
Tasavvurda ko‘rardim.
Dunyodagi bor odamni
Mushfiq[3] bilib yurardim.
Shafqat ila
Kim non-u, kim
Chaqa tashlab ketardi.
Men ham shunga ko‘ngan edim,
Menga shu ham yetardi.
Qornim to‘ysa –
Saodatim,
Yo‘q tuman xil tilaklar.
Hamsuhbatim,
Ham ulfatim
Jajji, shirin go‘daklar…
O‘ylar edim dunyoda bor
Musaffolik,
Soddalik.
Ko‘zim ochib
Ko‘rdim ilk bor
Berahmlik,
Soxtalik.
O‘g‘rilig-u fahshni ko‘rib
Jim yurarkan odamlar.

[1] **Azozil** – shayton, iblisning nomi.
[2] **Basir** – ko‘r, so‘qir.
[3] **Mushfiq** – shafqatli.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O‘z do‘stiga
Kulib turib,
Tig‘ urarkan odamlar.
Bir yonda aysh
Ko‘kka chirmash.
Bir yonda, boq, oh-u voh…
Bukun mening ko‘nglimda g‘ash,
Imonimda – ishtiboh[1].
Derdim:
Yurtni bir bor ko‘rsam.
Ko‘rdim.
Orzum to‘q endi.
Yo‘lda yotgan xaschalik ham
E’tiborim yo‘q endi.
Bu dunyodan to‘ydim oxir,
Ado bo‘lsam mayliga.
Yo qaytadan,
O‘sha basir,
Gado bo‘lsam mayliga!”
Bu so‘zlarni
Eshitdi-yu
Faryod qildi donishmand.
“Yoqing, – deya so‘radi u, –
Olov bo‘lsin sarbaland.
Tezroq ketay
Bu dunyodan,
Hech toqatim qolmadi.
Mendan shifo oldi odam,
Olam – shifo olmadi.
Xurofotning zahri teggan
Nodon, johil, gumroh[2]lar –
Davosiga ojiz ekan
Men kashf etgan giyohlar.
Ko‘r ko‘zlarga
Mehrigiyo[3]dek
Nur baxsh etdi nashtarim.
Qalblar ko‘zin ochmoqqa lek
Kamlik qildi
Hunarim.
Odamlarga men yaxshilik –
Qilmoq bo‘ldim,
Netayin,
Manglayda shu ekan bitik,
Yoqing,
Kuyib ketayin!”
O‘t qo‘ydilar.
Yondi gulxan.
Qaro bo‘ldi samovot.
Jaholatning hukmi bilan
Qurbon bo‘ldi
Buyuk zot.
Gulxan yondi
Ko‘kka o‘rlab.
Cho‘g‘i har yon sochildi.
Shu olovdan
Elning, ajab,
Aql ko‘zi ochildi.
O‘kindilar,
Aza tutib
Yig‘ladilar, kuydilar.
Donishmandga
Yillar o‘tib
Oltin haykal qo‘ydilar.
Evoh,
Olim ko‘zi bilan
Ko‘rsaydi bu hurmatni…
Ammo
Hakim o‘zi bilan
Olib ketdi hikmatni.
Qo‘y, ey ko‘nglim,
Sen ul zamon
Dahshatin kam o‘ylagin.
Senga nasib bo‘lgan davron
Sozin olib

[1] **Ishtiboh** – shubha, gumon.
[2] **Gumroh** – yo‘ldan ozgan, adashgan.
[3] **Mehrigiyo** – afsonaviy shifobaxsh o‘simlik.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Kuylagin.
Shukronalik mayin ichib
Yayrab qolgin bir nafas.
Bu olamdan
Bir kun kechib
Ketuvchi bir biz emas.
Kel, ey ko‘nglim,
Kel, muhabbat,
She’r zavqiga qonaylik.
O‘tda yonish bo‘lsa, faqat –
Ishq o‘tida yonaylik.
Faqat
Bizga g‘am-u kadar[1],
Qayg‘u-hasrat yot bo‘lsin.
To biz uchun jon berganlar –
Ruhi mangu shod bo‘lsin.



[1] **Kadar** – mung, mahzunlik; xafalik.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Rivoyatdan keyin o‘zingizni qanday his qilyapsiz? Fikringizni bayon eting. Shuningdek, asarda qanday g‘oya ilgari surilgani, bu g‘oyaning ifodalanishida shaxs, johillik va olomon tushunchalarining o‘rni haqida fikr yuriting.
2. Nodonlar ilgari surgan *“Dard bergan – O‘zi! Davosi ham O‘zidan! Bandasiga bermak doru Yaratganga isyondir”* degan da’volar ortida qanday yashirin maqsad bor va nega olomon o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, foyda topgan shifoga emas, aynan shu ig‘voga ko‘r-ko‘rona ishonib ketdi? Fikringizni asar matni bilan bog‘lab asoslang.
3. *“Hakim boshin baland tutib, johil elga qaramas”* satridan kelib chiqib, bu holat hakimning qanday sifatlarini namoyon etishini tushuntiring. Shuningdek, shoir nega elni “johil” deb atagani va ilgari hakimdan shifo topganlardan birortasi uni himoya qilmaganini izohlang.
4. Ko‘zi ochilgan cholning *“Meni bir yo‘l u dunyo ham – bu dunyodan ayirding”* degan e’tirozini qanday tushundingiz va uning yana basir hamda gado bo‘lish istagi qanday ruhiy holatdan dalolat beradi? Hakim barcha qiynoqqa bardosh bergan bo‘lsa-da, nega aynan cholning so‘zlaridan keyin *“Yoqing, kuyib ketayin!”* deb faryod chekdi, sizningcha?
5. *“O‘tda yonish bo‘lsa, faqat – ishq o‘tida yonaylik”* misralarini tahlil qiling va muallif uslubiga baho bering.

O‘ylab ko‘ring

1. Sizningcha, olomon qachon xalqqa aylanadi? Insonning o‘zligini anglab yetishi qanday sodir bo‘ladi?
2. Odamlarning ko‘rib-bilganlariga emas, eshitganlariga ko‘r-ko‘rona ergashishini qanday baholash mumkin? Nima uchun fidoyilar anglagan haqiqatlarni boshqalar kech anglaydi?

Sahna ishi

Ikki guruhga bo‘linib, **sahna ishi** tayyorlang. Birinchi guruh **“Arslon o‘rgatuvchi”,** ikkinchi guruh esa **“Jaholat to‘g‘risida rivoyat”** she’rini sahnalashtiradi. Sahna asariga guruh bilan kelishgan holda nom qo‘ying.

Sahna dekoratsiyasi uchun kerakli **rekvizitlar** *(sahna asari uchun zaruriy buyumlar)* **to‘plash,** muhitni tasvirlash uchun orqa fon rasmlari, **maxsus effektlar** *(shovqin, ovoz, kuy, qo‘shiq va boshqalar)*dan foydalanishga harakat qiling.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



CHINGIZ AYTMATOV (1928 – 2008)

Dars davomida:

- adib ijodining ko‘lami haqida suhbatlashamiz;
- “Asrga tatigulik kun” asari orqali yozuvchi zamonaviy dunyo uchun xavf deb bilgan ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritamiz.

Eslang

Chingiz Aytmatov haqida nimalar bilasiz? Quyi sinflarda olgan bilimlaringizni eslang. Qaysi asarlarini o‘qigansiz? Ular sizga qanday ta’sir qilgan?

Chingiz Aytmatovning deyarli barcha asari o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Adibning “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Sarvqomat dilbarim”, “Bo‘tako‘z”, “Birinchi muallim”, “Somon yo‘li”, “Alvido, Gulsari”, “Oq kema”, “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” kabi qissalari, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi” kabi romanlari dunyo adabiyoti xazinasini yanada boyitdi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

MUTOLAADAN OLDIN



Biz o‘qishga hozirlanayotgan **“Asrga tatigulik kun (Bo‘ronli bekat)”** Chingiz Aytmatovning roman janridagi dastlabki, eng mashhur va sara asarlari qatoriga kiradi. Roman 1979–1980-yillarda yozilgan. O‘zbek tilida uni ilk bor Asil Rashidov **“Asrni qaritgan kun. Bo‘ronli bekat”** nomi bilan tarjima qilgan.

Chingiz Aytmatov quyidagicha xotirlaydi: “*Esimda, bolalik paytlarim kattaroq yig‘ilish bo‘lib qolsa, oqsoqollar o‘yinqaroq bolalarning g‘ururini qo‘zg‘atish uchun:*

– Hoy shumtakalar, qani, kim to‘xtamasdan yetti ota-bobosining nomini aytib beradi? – derdi. Bolalar birpasda jiddiy tortib qolar va navbati bilan har biri ota-bobosining nomini sanay boshlar edi. Xudo ko‘rsatmasin, agar birorta boboning nomi esingdan chiqib qolsa bormi... Keyinchalik tushundimki, chollarning ilmoqli savollarida teran ma’no bor ekan. Shu yo‘sinda murg‘ak qalbimizga avlod-ajdod va qon-qardoshlik tushunchalari singdirib borilardi, bizga uzoq-yaqin qarindoshlarimizni farqlash o‘rgatilardi.

Ovul tirik mavjudot kabi o‘zining abadiy qonunlari bilan yashaydi. O‘shalardan eng muhimlari keksalarga hurmat va yetti ota-boboni bilishdir. Lekin yana bir narsani esdan chiqarmaslik lozim: kelajakda o‘zing ham yetti ota-bobo qatoridan joy olasan. Biz ana shunday xalq falsafasi ruhida tarbiyalandik. Men hozir ham “yetti otani bilish kerak” degan udumni e’zozlayman”.

O‘ylab ko‘ring

1. Cho‘l va temiryo‘l bekati atrofida kechadigan voqealar, Chingiz Aytmatov keltirgan bolalik xotiralariga tayanib ayting-chi, asar mutolaasidan nimalarni kutyapsiz?
2. Manqurtlik nima?

ASRGA TATIGULIK KUN

(Romandan parcha)

Bul kitob – jismi uryonimdir mening,
Bu kalom – jon-u jahonimdir mening.
Grigor Narekatsi.
“Musibatnoma”. X asr

1

...Yarim tunda allakim halloslab uzoq yo‘l bosib, temiryo‘lchilar uychasi tomon shoshilardi. U avvaliga shpallar ustidan yurdi, so‘ng qarshidan kelayotgan poyezd ko‘zga tashlangach, qiyalikdan pastga surilib tushib, tezyurar yuk poyezdi g‘ildiraklari ostidan ko‘tarilayotgan qorli to‘zondan yuzini qo‘li bilan to‘sib, chap bergancha ilgarilab ketdi. Hech yerda to‘xtamay, shitob bilan kelayotgan bu poyezd liter vagonlardan iborat maxsus poyezd edi. U keyin alohida temiryo‘l tarmog‘i orqali 1-Sario‘zak yopiq zonasiga burilib, to‘ppa-to‘g‘ri kosmodromga kirib ketdi. Qisqasi, bu yuklangan poyezd boshdan oxirigacha brezent bi-

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

lan berkitilgan bo‘lib, har bir vagonni harbiy soqchilar qo‘riqlab borishardi. Edigey shoshib kelayotgan ayol o‘zining xotini ekanini darhol anglab yetdi – uning shoshilishi bejiz emas, shekilli. Rostdan ham shunday bo‘lib chiqdi. Ammo Edigey hozir xizmat burchi taqozosiga ko‘ra, ochiq maydonchasida konduktor turgan oxirgi vagon o‘tib ketmaguncha joyidan jilishga haqqi yo‘q edi. Konduktorga qo‘llaridagi fonusida yo‘l xatarsiz, degan ma’noda ishora qilgach, shovqin-surondan qulog‘i bitgan Edigey terlab-pishgan xotiniga qayrilib qaradi:

– Ha, tinchlikmi?

Ayoli tashvishli boqdi va nimadir demoqchi bo‘lib lablarini juftladi. Edigey hech narsa uqmadi, ammo nima demoqchi ekanini angladi. O‘sha narsa bo‘lsa kerak.

– Shamolda turma, bu yoqqa kel, – deb uni uycha ichiga boshladi.

O‘zi gumon qilgan voqeaning sodir bo‘lganini xotinining og‘zidan eshitishdan avval Edigey shu lahzada boshqa bir narsadan hang-u mang bo‘lib qoldi. U ilgarilari ham yoshlari o‘tib borayotganini bilardi, ammo shu tobda xotinining tez yurib kelgani sababli nafasi qisilib, hansirab, ko‘kragi g‘ijirlayotganini, ayni chog‘da g‘ayritabiiy bukchayib qolganini ko‘rib, ichi achib ketdi. Devorlari top-toza qilib oqlab qo‘yilgan, kichkina uychasidagi o‘tkir chiroq nurida Ukkubolaning ko‘karib-qorayib ketgan yuzlaridagi chuqur ajinlar yaqqol ko‘zga tashlandi (ilgari qanaqa edi – qoramag‘iz yuzlari bug‘doy rangida tovlanar, qop-qora ko‘zlari chaqnab turar edi), yana buning ustiga, guruchday tishlari tushib ketibdi, har qancha oshini oshab, yoshini yashagan bo‘lsa-da, ayol kishining tishsiz qolishi yarashmas ekan (allaqachon uni bekatga olib borib, haligiday temir tish qo‘ydirish kerak edi. Hozir yosh-u qari demay, hamma shunaqa tish qo‘ydirib olgan-ku). Bular ham yetmaganday ro‘moli yelkasiga sirg‘alib tushgan boyaqishning oppoq oqarib, to‘zib ketgan o‘rama sochlari Edigeyning qalbini o‘rtab yubordi.

– ...O‘tir, nafasingni rostlab ol, – dedi Edigey ikkalasi uychaga kirishganda.

– O‘zingiz ham o‘tiring, – dedi ayol.

O‘tirishdi.

– Nima gap, tinchlikmi?

– Kazangap o‘lib qoldi.

– Qachon?

– Yaqindagina. Biron narsa zarurmikan, deb xabar olgani kirgan edim, qarasam chiroq yoqiq, u kishi o‘rnida yotibdi. Biroq soqoli hurpayib qolgan. Yaqinroq borib, Kazaka, issiq choy ichasizmi, dedim. Bilsam, boyaqishning joni uzilgan ekan, – Ukkubolaning ovozi bo‘g‘ilib, qizarib ketgan, piyoz po‘stiday yupqa qovoqlari ichida yosh halqalandi. Oxiri xo‘rsinib, sekin yig‘lay boshladi. – Shunday kunda o‘ladi, deb kim o‘ylabdi. Qanday mo‘min-qobil odam edi-ya! Ko‘zi ochiq ketdi dunyodan. Yopib qo‘yishga ham odam topilmabdi, – deya zorlanib yig‘lardi u. – Bunday bo‘lishi kimning xayoliga kelibdi! Dunyodan o‘tdi, rahmatli.

...U “itning o‘limiday”, deb so‘zini davom ettirmoqchi bo‘ldi-yu, yana jim qoldi, busiz ham ahvol ravshan edi.

Edigey Bo‘ron – urushdan qaytib kelgan o‘sha kunlardan boshlab Bo‘ronli bekatida ishlayotgani uchun atrofdagilar uni shunday atashardi – ayolining so‘zlarini tinglab, devor ostidagi kursida gurziday qo‘llarini tizzasiga qo‘ygancha, g‘amgin o‘tirardi. Boshidagi eskirib, moyga botib ketgan temiryo‘lchilar furajkasining soyaboni ko‘zini to‘sib qo‘ygan edi. Shu payt u nimani o‘ylayotgan ekan?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Endi nima qilamiz? – deb so‘radi xotini nihoyat.

Edigey boshini ko‘tarib, xayrixohlik bilan unga qaradi:

– Nima qilamiz, deysanmi? Shunday mahalda odamlar nima qilishadi? Dafn etamiz. – U bir qarorga kelganday o‘rnidan turdi. – Sen tezroq uyga yetib bor. Ha, oldin gapimga quloq sol.

– Eshityapman.

– Borishing bilan O‘spanni uyg‘ot. Boshliq deb o‘tirma, buning ahamiyati yo‘q, o‘lim oldida hamma bir. Kazangap o‘lganini ayt. Bilib qo‘ysin, qirq to‘rt yil bir joyda ishlagan odam o‘lganini. Kazangap bu yerlarda ish boshlaganda O‘span onasidan tug‘ilmagan edi. U vaqtlarda har qancha pul beraman deganing bilan Sario‘zakka hatto it ham kelmas edi. U ishlagan davrda bu yerdan o‘tib-qaytgan poyezdlarni sanasang, boshingdagi sochingning tolalari ham yetmaydi, degin... Yaxshilab o‘ylab ko‘rsin. Shunday deb ayt. Yana bunday qil...

– Eshityapman...

– Hammani birma-bir uyg‘otib chiq. Derazalarini taqillat. U yog‘i-bu yog‘i – sakkiz xonadonmiz – barmoq bilan sanarli... Hammasini uyg‘ot. Bunaqa odam o‘lganda hech kim uxlamasligi kerak. Hammani oyoqqa turg‘iz.

– Koyib berishsa-chi?

– Uyg‘otib qo‘yish – biz uchun ham qarz, ham farz. Koyishsa koyishaversin. Uyg‘ot, deb men buyurganimni ayt. Axir, vijdon bo‘lishi kerak odamda. Sabr qil!

– Yana nima?

– Avvalo, navbatchining oldiga kirib o‘t, bugun Shoymardon dispetcherlik qilyapti. Bo‘lgan voqeani ayt, nima qilish zarurligini o‘ylab ko‘rsin. Balki, bu safar o‘rnimga boshqa odamni qo‘yib turar. Rozi bo‘lsa, xabar bersin. Gapimni uqdingmi, xuddi shunday deb aytgin!

– Xo‘p, shunday deb aytaman, – dedi-da, Ukkubola yana muhim bir narsani unutganini eslab, gap boshladi. – Iye, farzandlari-chi! Ana xolos! Axir, avvalo, ularga xabar qilish kerak-ku! Otasi ko‘z yumgan bo‘lsa...

Edigey bu so‘zlarni eshitib, ko‘ngli g‘ashlandi, qosh-qovog‘i uyilib, battar jahli chiqdi. Miq etmadi.

– Nima bo‘lsayam bolalari, – deya gapida davom etdi Ukkubola o‘zini oqlaganday bo‘lib, Edigeyning xushlamay turganini sezsa ham.

Edigey qo‘l siltadi.

– Bilaman. Nima, esimni yebmanmi? Hamma gap shunda-da, farzandlarini chaqirmay bo‘larmidi? Agar ixtiyor o‘zimda bo‘lganida ularni yaqin yo‘latmasdim!

– Edigey, u yog‘i bizning ishimiz emas. Mayli, kelib otalarini o‘zlari ko‘mishsin. Agar chaqirmasak, keyin bir umr gap-so‘zdan boshimiz chiqmaydi.

– Nima, men kelmasin, deyapmanmi? Kelaverishsin.

– Shahardagi o‘g‘li yetib kelishga ulgurarmikan?

– Xohlasa, ulguradi. O‘tgan kuni katta bekatga borganimda o‘z qo‘lim bilan telegramma jo‘natganman, otangning ahvoli og‘ir, deganman. Yana nima kerak? O‘zini aqlli sanab yuradi u, agar shu rost bo‘lsa, gap nimada ekaniga tushunar...

– Unday bo‘lsa, mayli, – dedi Ukkubola Edigeyning gaplarini ma’qullaganday bo‘lib va yana o‘zini tashvishga solgan allaqanday narsalar haqida so‘zlay ketdi. – Xotini bilan birga kelsa, yaxshi bo‘lardi, harholda qaynotasi dafn etilyapti, yetti yot begona emas...

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Mayli, buni o‘zlari hal qilishsin. Yosh bola emas-ku.

– Shundayku-ya... – deb qo‘ydi arang Ukkubola hali ham shubhalanib.

Ikkalasi jimib qolishdi.

– Bo‘ldi, endi ko‘pam vaqtni o‘tkazma, bora qol, – deya eslatdi Edigey.

Xotini yana nimadir demoqchi edi:

– Aytganday, qizi-chi, haligi, o‘zidan ortmagan yuvuqsiz, aroqxo‘r bilan yashayotgan sho‘rlik Oyzoda churvaqalari bilan katta bekatdan yetib kelishga ulgurar?

Edigey beixtiyor jilmayib, xotinining yelkasiga qoqdi.

– Bo‘pti, qo‘yib bersa, har birining qayg‘usini qo‘sha tortmoqchisan... Oyzoda qo‘l cho‘zsa yetguday joyda, ertalab birortasi katta bekatga o‘tsa xabar qilar, uyam yetib keladi, albatta. Sen xotin, bir gapni tanangga singdirib ol: Oyzodasidan ham, o‘g‘li Sobitjondan ham, ming farzand bo‘lgani bilan hech bir naf yo‘q. Mana ko‘rasan, hammasi kelishadi, kelmay qayoqqa borishardi, ammo kelganda ham mehmonday bir chekkada qo‘l qovushtirib turadi. Marhumni esa o‘zimiz ko‘mamiz, hali ko‘rasan... Endi bor, nima degan bo‘lsam, shunday qilgin.

Xotini ketaturib, ikkilangancha bir to‘xtab qoldi-yu so‘ng yana yura boshladi. Ammo bu safar uni Edigeyning o‘zi chaqirib to‘xtatdi:

– Avvalo, navbatchiga – Shoymardonga uchrashishni unutma, o‘rnimga birorta odam yuborsin, boshqa kun ishlab berarman. Marhum kimsasiz uyda yotibdi, yolg‘iz qoldirib bo‘ladimi... Shunday deb aytgin...

...Bo‘ronli bekatidan to Naymandagi xesh-ajdodlar qabristoni – Ona Bayitgacha temiryo‘ldan hisoblaganda kamida o‘ttiz chaqirim keladi.

Sario‘zak dashtligi orqali to‘ppa-to‘g‘ri kesib chiqilganda ham shuncha masofa. Mabodo cho‘lda adashib qolmayin-u, yaxshisi, temiryo‘l bo‘ylab boraveray, degan odam qabristonga hali ancha uzoq yurishi kerak. Shunday qilganda, Qiyshiqsoy jarligidan o‘tib, Ona Bayitga borguncha ancha-muncha aylanishga to‘g‘ri keladi. Boshqa yo‘l yo‘q edi. Shunday qilib, eng yaqin yo‘ldan yurilganda ham borishi-yu kelishi oltmish chaqirim kelardi.

Baribir Edigey o‘z gapida turib oldi:

– Qo‘ysalaring-chi, yigitning sha’niga to‘g‘ri kelmaydigan gaplarni, – deb tinchlantirdi u yoshlarni. – Bunday odamni ajdodlari yotgan joyga, Ona Bayitga qo‘yishimiz kerak. Rahmatli o‘zi shunday vasiyat qilgan. Kelinglar, gap sotib o‘tirmay ishga o‘taylik, dafnga tayyorlanaylik. Yo‘limiz olis. Ertaga azonlab yo‘lga tushamiz...

Edigeyning aytgani aytgan, buni hamma tushunardi. Shuning uchun ham hammalari rozi bo‘lishdi. To‘g‘ri, Sobitjon biroz tixirlik qildi. U shu kuni yuk poyezdida (yo‘lovchi poyezdlari bu yerda to‘xtamay o‘tib ketadi) yetib keldi. Sobitjon bu yoqqa kelayotganida otasining tirikligini ham, o‘lganini ham bilmasdi. Shunga qaramay, dafn marosimiga yetib kelgani Edigeyning ko‘nglini yumshatib, quvontirib yubordi. Boshlariga tushgan og‘ir musibatdan ikkalasi bir lahza quchoqlashib, yig‘i-sig‘i qilib olishdi. Edigey keyinroq o‘zining nega bunday qilganiga ajablandi. Ikkalasi hovli sahnida – Kazangapning egasiz qolgan paxsa devorli kulbasi eshigi oldida uzoq yig‘lab turishdi. Edigey nimadandir qattiq ta’sirlanganday bo‘ldi. Sobitjonning yoshlik chog‘lari esiga tushdi: u mushtday bola edi, otasining suyanchig‘i edi. Temiryo‘lchilarning bolalari uchun Qumbelda ochilgan maktab-internatga

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

olib borib joylashtirganlari yodida. Qo‘llari bo‘shadi deguncha, goh yo‘lovchi poyezdida, goh tuyada ko‘rgani borishardi. Sobitjon yotoqda qanday yashayapti, birov xafa qilmadimikan, o‘zi biror nojo‘ya ish qilib qo‘ymadimikan, o‘qishlari qalay ekan, o‘qituvchilari u haqda nima derkan, deb xavotirlanib borishardi. Ta’til tugagan paytlari o‘qishga kechikib qolmasin, deb ayozli kunda necha martalab po‘stinlarga o‘rab, tuyada qalin qor bosgan Sario‘zak dashtligi orqali olib borib qo‘yishardi.

Ko‘z yoshi qilib olishgach, hol-ahvol so‘rashga o‘tishdi, ishdan gap ochishdi. Shu lahzada ma’lum bo‘lib qoldiki, arzanda, bilag‘on o‘g‘il otasini izzat-ikrom bilan ko‘ngildagidek dafn etishga emas, balki qarzdan qutulish uchun naridan beri ustiga tuproq tortib, tezroq qaytib ketishga kelgan ekan. U g‘alati-g‘alati gaplarni ayta boshladi: marhumni uzundan uzoq Ona Bayitga olib borib nima qilamiz, shunday ulkan Sario‘zak cho‘lida bir qabrga joy topilmadimi? Ostonadan boshlab dunyoning narigi chekkasigacha joy degan narsa to‘lib-toshib yotgan bo‘lsa? Qabrni shu yaqin o‘rtadan, o‘zi umr bo‘yi ishlab kelgan temiryo‘l bo‘yidagi biror do‘nglikdan qazish kerak. Marhum o‘tgan-ketgan poyezdlarning taraqa-turuqini eshitib yotadi... Sobitjon hatto shu xususda aytiladigan qadimiy maqolni ham eslab qo‘ydi: o‘ladigan odamning o‘lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi. Munchalik cho‘zib, bosh qotirib o‘tirishning kimga keragi bor? O‘lgan odamga qayerga ko‘milishining nima ahamiyati bor? Bunday mahalda ish qancha tez bitirilsa, shuncha yaxshi!

...Edigey qariganimda ham ahmoq ekanman, deb o‘zini koyiy boshladi ichida. Mana shu laqma bilan sal avval quchoqlashib, ho‘ngrab yig‘lab yuborganidan nomus qilib, afsuslandi.

– Atrofda yer ko‘p, albatta, istaganingcha topiladi. Faqat odamlar nimagadir yaqinlarini duch kelgan yerga ko‘mib ketaverishmaydi. Harholda bejiz bo‘lmasa kerak. Axir, o‘likka yer qahatmi? – U jimib qoldi, Bo‘ronli ahli ham uning gaplarini jimgina tinglashdi. – O‘zlaring hal qilinglar, o‘ylab ko‘ringlar, men u yoqda nima bo‘layotganini bilib kelayin-chi.

Edigey avzoyi buzilib, rangi-quti o‘chgancha nariga odimlab ketdi, gunohdan uzoqroq bo‘layin, deb o‘yladi, shekilli. Qoshlari chimirilib, qansharidagi ajini bo‘rtib chiqdi. Tabiatan qo‘rsroq, qiziqqonroq edi u – shuning uchun ham uni “Bo‘ron” deb atashadi-da. Mana, hozir ham odamlar bo‘lmaganida Sobitjonning hayosiz ko‘zlariga tikilib turib, aytadiganini aytib olardi-ya. Umr bo‘yi esidan chiqmaydigan qilardi...

…Bu ishlarga faqat Sobitjongina xalal berardi. Oblastda kim qaysi vazifada ishlaydi, kimni ishdan olib, kimning amalini oshirishgani to‘g‘risida gap sotib, odamlarni ishdan chalg‘itardi. Qaynotasining o‘limiga kelinbola kelmaganidan u zarracha ham xijolat tortmasdi. Ajabo, deya yoqasini ushlardi Edigey, emishki, kelin allaqanday konferensiyada qatnasharmish, ana shu yig‘inga qandaydir chet ellik mehmonlar tashrif buyurarmish. Cholning nevaralarini olib kelish to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘ladi. Ular o‘zlashtirish va davomat uchun kurashar ekanlar, institutga kirmoqchi bo‘lgan odamning attestati toza bo‘lishi kerak ekan. “Odamlarga nima bo‘lgan o‘zi? – deya xunob bo‘ldi Edigey. – Ularga o‘limdan boshqa hamma narsa muhim! – Bu fikr Edigeyning ich-etini tirnardi. – Modomiki, ularga o‘lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo‘lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?”

Qoranorga jabduq urib bo‘lgach, Edigey o‘rnidan turg‘izdi va kelbatini ko‘rib, mamnun bo‘ldi. Hatto o‘z ishidan g‘ururlanib ham qo‘ydi. Ustiga rango-rang gajimli yopiq tashlan-

RESPUBLIKA MARKAZI

gan, o‘rkachlari o‘rtasiga qoyilmaqom qilib egar urilgan Qoranor salobatli va mahobatli ko‘rinardi. Ha, yoshlar ko‘rib havas qilishsin, ayniqsa, Sobitjon ko‘rib qo‘ysin: munosib yashab o‘tgan odamning o‘limi ham hech kimga malol kelmaydi, tashvishi tushmaydi, aksincha, qayg‘uli voqea bo‘lsa-da, juda katta voqea ekanini, shu boisdan ham so‘nggi manziliga izzat-hurmat bilan kuzatilayotganini bilib qo‘yishsin. Ba’zi xalqlarda dafn marosimida musiqa chalishadi, bayroq ko‘tarib borishadi, ba’zi xalqlarda osmonga o‘q uzishadi, boshqa xalqlarda esa gulchambarlar qo‘yib, marhumni gulga burkashadi...

…Edigey Bo‘ron bo‘lsa, ertaga tongdayoq popukli yopiq tashlangan Qoranorda Kazangapni so‘nggi abadiy manziliga – Ona Bayit mozoriga olib boradi...

Poyonsiz, hayhotday Sario‘zak dashtini kesib o‘tishar ekan, u yo‘l bo‘yi faqat Kazangapni o‘ylab boradi. Xesh-ajdodlar qabristonida do‘stini tuproqqa uzatayotganida ham xayoli faqat marhumda bo‘ladi. Ha, shart shundoq bo‘lgan. Yo‘lning uzoqligi yoki yaqinligidan qat’i nazar, hech kim, hatto marhumning o‘z o‘g‘li ham uning so‘nggi xohish-irodasini bajarishdan bo‘yin tovlay olmaydi...

Edigey jabduq ishlari bilan ovora bo‘lib turgan vaqtda Edilboy daroz payt topib Sobitjonni bir chekkaga chaqirib oldi:

– Qani, bu yoqqa, soyaga kel, gaplashib olaylik.

Gap uzoqqa cho‘zilmadi. Edilboy ortiqcha tushuntirib o‘tirmay, gapning po‘stkallasini aytdi-qo‘ydi:

– Xudoga ming qatla shukr qilgin, yaxshiyamki olamda otangning Edigey Bo‘ron degan do‘sti bor ekan. Rasm-rusumini o‘rniga qo‘yib, dafn etishga sen xalal berma. Shoshilayotgan bo‘lsang, ushlab turganimiz yo‘q. Men sening o‘rningga bir hovuch tuproq tashlab qo‘ya qolaman!

– Mening otam, nima qilsam o‘zim... – deb Sobitjon chaynala boshlagan edi, Edilboy gapini shartta kesdi:

– Ota-ku seniki, biroq sen o‘zing o‘zingniki bo‘lmay qolibsan.

– Ja unchalik emas, – Sobitjon biroz yon berganday bo‘ldi. – Bo‘pti, shunday kunda janjal chiqarmaylik. Ona Bayit bo‘lsa bo‘la qolsin, menga nima, faqat uzoqlik qilarmikan, deb o‘ylagan edim...

Gapga nuqta qo‘yildi. Edigey Qoranorni hammaga ko‘z-ko‘z qilib keltirib qo‘yib, bo‘ronliliklarga qarata: “Qo‘ysanglar-chi, erkak kishining gapini qilaylik, bunday odamni Ona Bayit mozoriga qo‘yamiz”, deganida hech kim e’tiroz bildirmadi, hamma jimgina rozi bo‘ldi...

…Ona Bayit qabristoniga borish arafasidagi oqshom, bir ko‘ngilsiz voqeani hisobga olmaganda, yaxshi o‘tayotgan edi. Bu orada yo‘lovchi yuk poyezdida Kazangapning qizi Oyzoda eri bilan kelib qoldi. U kelgani hamon uvvos tortib yig‘lab yubordi. Boshqa xotin-xalajlar ham atrofini o‘rab olib, qiy-chuv ko‘tara boshlashdi. Ayniqsa, Ukkubolaning ko‘ngli yumshab, Oyzoda bilan qo‘shilib ho‘ngrab yig‘lardi. U Kazangapning yetim qolgan qiziga jon-dilidan achinardi.

Edigey yig‘i-sig‘i bilan o‘lgan odamni tiriltirib bo‘larmidi, taqdirga tan berish kerak, deb Oyzodani yupatishga urinar, u bo‘lsa baribir yig‘idan tinmasdi.

O‘zi ko‘pincha shunaqa bo‘ladi – otasining o‘limi boyaqishning to‘lib turgan yuragini bo‘shatib olish uchun bir bahona bo‘ldi. Sochlari to‘zg‘ib, qovoqlari shishib ketgan Oyzoda

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

marhum otasiga tavallo qilib, o‘zining baxtiqaroligini, endi dunyoda uni hech kim bir og‘iz shirin so‘z bilan yupatib, peshonasini silamasligini, yoshligidan yorug‘lik ko‘rmaganini, eri ichkilikka berilib, bolalar qarovsiz qolib, uzzukun bekatda sanqib yurishini, bezori bo‘lib ketganini, kim biladi, ehtimol, ertaga yo‘lto‘sar bo‘lib, poyezddagilarni ham talab yurishi mumkinligini, kattasi hozirdanoq icha boshlaganini, militsiya kelib surishtirayotganini, hademay ishi prokuraturaga tushadi, deb ogohlantirganini... aytib yig‘lardi. Bir o‘zi olti bolani qanday eplaydi? Otasi zormanda-ku, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi, deb yig‘lardi.

Shundan so‘ng Sobitjon “Xotiningni tiyib ol!” deb kuyovga baqira boshladi. U bo‘lsa, birdan xezlab kelib, Sobitjonni yiqitib olib, bo‘g‘a boshladi...

Dafn marosimi oldidan mana shunaqa ko‘ngilsiz voqea yuz berdi. Edigeyning dili ziminston bo‘ldi. Yana qovoqlari solinib, ikki qoshining o‘rtasidagi ajinlari bo‘rtib chiqdi. Jonini qaqshatgan boyagi savollar boshini qotira boshladi: bu bolalar kimga o‘xshadi ekan-a? Nima sababdan shunaqa bo‘lib ketishdiykan? Kazangap ikkalasi bu bolalarni issiqni issiq, sovuqni sovuq demay, Qumbeldagi internatga olib borib yurishganida, o‘qib odam bo‘lishsin, Sario‘zakdagi kimsasiz bekatlarda qolib ketishmasin, ota-onamiz o‘qitmadi, deb keyin nolib yurishmasin deyishganda, bunday bo‘lib chiqishini xayollariga ham keltirishmagan ekan. Endi bilsa, hammasi teskari bo‘lib chiqdi... Ko‘rganda odam jirkanmaydigan mo‘min-qobil kishilar bo‘lib yetishishlari uchun ularga nima yetishmaydi?..

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Edigeyning *“Bunaqa odam o‘lganda hech kim uxlamasligi kerak”* degan fikrida faqat marhumga hurmat bormi yoki bu jumla orqali insonning jamiyat oldidagi burchi haqidagi qarashlar ham ifodalanganmi? Matndan misollar keltirib, izohlang.
2. Sobitjonning otasi o‘limiga munosabati orqali muallif qanday ma’naviy illatlar (beparvolik, manfaatparastlik, loqaydlik va boshqalar)ni tanqid qilmoqda? Fikringizni asoslang.
3. Edigeyning *“Faqat odamlar nimagadir yaqinlarini duch kelgan yerga ko‘mib ketaverishmaydi. Harholda bejiz bo‘lmasa kerak”* degan fikriga munosabatingiz qanday? Kazangapning Ona Bayitga dafn etilish haqidagi vasiyati qaysi biri bilan ko‘proq bog‘liq, sizningcha: a) shaxsiy istak; b) ajdodlar xotirasiga sadoqat; v) milliy o‘zlikni asrash? Javobingizni asoslang.
4. Edigeyning *“Modomiki ularga o‘lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo‘lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?”* degan savoli xususida mulohaza yuriting. Unga javob berishga urinib ko‘ring. Fikringizni asoslang.
5. Bugun ham Kazangapning farzandlaridagidek ma’naviy bo‘shliqni uchratish mumkinmi? Bunga sabab bo‘layotgan omillarni sanab o‘ting.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Topshiriq

Agar siz Kazangapning o‘rnida bo‘lsangiz, farzandlaringizda qanday fazilatlarni shakllantirishga harakat qilardingiz? Farzand tarbiyasiga doir taxminiy kelajak rejalaringizni yozing va tanlagan yo‘lingizni asoslang.

Farzand tarbiyasiga doir strategiyam	Asoslarim

Mutolaa

Asarning davomini (2) mustaqil mutolaa qiling.

2

…Ona Bayit qabristonining o‘z tarixi bor. Rivoyatga ko‘ra, o‘tgan zamonlarda Sario‘zakni bosib olgan jungjanglar asir tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqatsizlik qilar ekan. Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo‘shni o‘lkalarga qul qilib sotib yuborisharkan. Bu esa tutqunning omadi kelgani hisoblanarkan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami-kechmi, bir kun o‘z vataniga qochib kelishi mumkin ekan-da. Jungjanglarning qo‘l ostida tutqun bo‘lib qolganlarning esa sho‘ri qurirkan. Ular mahkumning boshiga teriqalpoq tortish yo‘li bilan dahshatli bir tarzda qiynab, uning xotirasini yo‘qotar ekanlar. Odatda bunday jazoga jangda asir tushgan yosh yigitlar giriftor bo‘lishardi. Avvaliga jungjanglar tutqunning sochini dastlab o‘ngidan, so‘ngra teskarisidan taqir qirib tashlashadi. Sartaroshlik marosimi tugagach, jungjanglarning chapdast qassoblari kattakon bir tuyani so‘yib, terisini shila boshlaydilar. Ular birinchi navbatda, eng qalin va eng og‘ir bo‘lgan bo‘yin terisini ajratib bo‘laklarga bo‘lishar, hovuri chiqib turgan yopishqoq terini shu zahotiyoq hozir suzuvchilar kiyadigan qalpoqcha singari, tutqunning yangi qirilgan taqir boshiga kiygizib qo‘yishadi. Mana shu teri qoplash deyiladi. Bunday qiynoqqa duchor etilgan qul yo dahshatli azoblarga bardosh berolmay o‘lib ketar, yo xotirasidan umrbod mahrum etilib, o‘tmishini eslay olmaydigan qulga – manqurtga aylanib qolar edi. Bitta tuyaning bo‘yin terisi besh-oltita qalpoqqa yetadi. Qalpoq qoplangandan so‘ng halokatga mahkum etilgan har bir qul, qiynalganda boshini yerga tegiza olmasin uchun, bo‘yniga yog‘och bo‘yinturuq bog‘lashardi. Shu alpozda ularning yurakni ezuvchi, quloqni qomatga keltiruvchi behuda dod-faryodlari eshitilib qolmasin, deb odamlardan yiroqqa, suvsiz, yemishsiz, kimsasiz yaydoq dalaga, oyoq-qo‘llari bog‘liq holda jazirama oftob tig‘iga eltib tashlar edilar. Bu qiynoqlar bir necha kun davom etardi. Kerakli joylarga soqchilar qalin qo‘yilib, asirlarning qabiladoshlari ularni qutqarishga kelib qolishsa, o‘tkazmaslik uchun chora-tadbir ko‘rib qo‘yilar edi. Biroq qutqazishga urinishlar juda kam bo‘lardi, chunki ochiq dalada qilt etgan sharpa darhol sezilib qolardi. Buning ustiga, jungjanglar falonchini manqurt qilishibdi, degan xabar tarqalgan taqdirda, tutqunning eng yaqin birodarlari ham uni qutqazishga yoki pul evaziga qaytarib

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

olishga urinmayoq qo‘yardilar. Negaki bu o‘sha odamning quruq jasadinigina qaytarish degan so‘z edi. Faqat birgina nayman ayoli – rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan ayolgina o‘z o‘g‘lining bu taxlit achchiq qismati bilan murosa qila olmadi. Sario‘zak afsonasi shu haqda. Ona Bayit onayizor makoni qabristonining nomi ham shundan kelib chiqqan.

Dalaga tashlangan asirlarning ko‘pi Sario‘zak quyoshi tig‘ida dahshatli qiynoqlarga bardosh berolmay halok bo‘lgan. Besh-oltita manqurtdan bitta yoki ikkitasigina tirik qolgan. Boshqalari ochlikdan emas, hatto tashnalikdan ham emas, kallaga qoplangan terining quyosh issig‘ida qovjirab, qoq miyani chidab bo‘lmas darajada siqishi natijasida jon taslim qilar edilar. Olov purkab turgan quyosh ostida teri qalpoq shafqatsiz ravishda torayib, qulning qirilgan boshini temir chambarak singari jingirtob qilib qisadi. Oradan bir kun o‘tishi bilan jabrdiydalarning taqir boshida soch nish ura boshlaydi. Osiyoliklarga xos tikonday tik dag‘al sochlar ba’zida xom terini teshib chiqadi, ko‘p hollarda esa, chiqishga yo‘l topolmay yana qaytadan qayrilib, bosh terisiga qarab o‘sadi va avvalgidan ham battar azob beradi. So‘nggi sinov davomida tutqunlar es-hushlarini butkul yo‘qotadilar. Oradan besh kun o‘tgachgina jungjanglar kelib tutqunlardan qay biri tirik qolganini ko‘zdan kechirishadi. Aqalli bitta tutqun tirik qolgan bo‘lsa ham maqsadga erishilgan hisoblanardi. Bunday qulni qiynoqdan bo‘shatib, suv berib, asta-sekin kuchga kiritib, oyoqqa turg‘izishadi. Biroq u endi baribir odam sanog‘idan chiqadi, zo‘rlab es-hushidan judo etilgan qul – manqurtga aylanadi, xuddi shuning uchun ham bunday qullar o‘nta sog‘lom tutqundan ko‘ra qimmatroq turadi. Hatto shunday qonun-qoida ham bor ediki, o‘zaro to‘qnashuvlarda o‘ldirilgan bitta manqurt uchun boshqa erkin tutqunga nisbatan uch barobar ortiq haq undirib olinardi.

Manqurt o‘zining kim ekanini, qaysi urug‘-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezlarini, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo‘lib, o‘zining odamligini ham unutib yuboradi. O‘zining insoniy qadr-qimmatini idrok etolmagan manqurt xo‘jalik ishlari nuqtayi nazaridan bir qancha afzalliklarga ega edi. U notavon zabonsiz bir maxluq bo‘lgani uchun ham mutlaqo itoatkor va beozor. Qochaman-qo‘yaman degan xayol uning tushiga ham kirmaydi. Manqurt xuddi it kabi faqat o‘z egasini taniydi. Boshqalar bilan ishi yo‘q. Uning fikri-zikri qorin to‘yg‘azishda, shundan boshqa tashvishi yo‘q. Ammo o‘ziga topshirilgan ishni o‘ylamay-netmay, o‘lar-tirilariga qaramay, muqarrar bajo keltiradi. Manqurtlar odatda eng past, eng og‘ir ishlarni bajarishga majbur etilar yoki bo‘lmasa, ularga eng zerikarli, eng mashaqqatli, ovsarlarcha sabr-toqat talab etiladigan mashg‘ulotlar topshirilar edi. Kimsasiz Sario‘zak yaylovlaridagi tuyalar podasidan bir qadam ham nariga jilmasdan, yakka-yu yolg‘iz yashashga mahkum etilgan manqurtgina bunday azob-uqubatlarga chiday olishi mumkin edi. Birgina manqurtning o‘zi bunday olis joylarda bir qancha tuyachilarning o‘rnini bosa olar edi. Bor-yo‘g‘i niyati – qorni to‘ysa.

Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o‘lganda yana o‘zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan bir noyob fazilati – xotirasi, aql-idroki bo‘lsa-yu, uni tag-tomiri bilan yulib olsalar, axir, bu qanday yovuzlik, qanday bedodlik?! O‘zlarining mudhish tarixida xiyonatkor sifatida shuhrat qozongan ko‘chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa – insonning insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Balki shu boisdandir, manqurtga aylantirilgan o‘g‘lining g‘ami-g‘ussasi olovida qovrilgan Nayman ona bunday zikr qildi:

“Bo‘talog‘im, seni xotirangdan judo etayotganlarida, boshingga ko‘rinmas teriqalpoq o‘rnatib es-hushingdan ajratayotganlarida, yong‘oq chaqadigan qisqichdek boshingga kiydirilgan tuyateri asta-sekin qurib-qovjirab bosh chanog‘ingni jingirtob qilib siqayotganida, dahshatli qo‘rquvdan ko‘zlaring kosasidan irg‘ib chiqqanida, Sario‘zak dashtining dudsiz otashi ostida o‘lim talvasasi bilan olishib, labingni ho‘llashga ham yer-u ko‘kdan bir tomchi suv topolmay tashnalik azobida qovrilayotganingda, hatto borliqqa hayot baxsh etuvchi xurshidi olam senga so‘qir, balo-qazo bo‘lib, dunyodagi jamiki yulduzlar qaro zulmat bo‘lib ko‘ringandir?

Tulporim, qiynoqlardan mayib-majruh bo‘lgan aql-idrokingga mangu tun choyshabi yopilayotganda, xotirang rishtalari zo‘rlik bilan yulib-sitib olinib, o‘tgan umring bilan seni bog‘lab turuvchi halqalardan, jon talvasasida o‘zingni har yon urib ona nigohini, yoz kunlari qirg‘og‘ida sen o‘ynab yurgan tog‘ jilg‘asining shovullashini unutayotganingda, shuuringni parchalab, xotirangdan o‘z nomingni, otangning nomini o‘chirib tashlayotganlarida, atrofingdagi sen bilan unib-o‘sgan odamlarning chehralari so‘nayotganida va senga uyalib-iymanib tabassum qilayotgan mahbubaning jamoli qorong‘ilashayotganida, xotirasizlik jariga qular ekansan, o‘z vujudida homila paydo etishga jur’at etib va shu mudhish kun uchun seni yorug‘ dunyoga keltirgan onayizoringga la’natlar yog‘dirgandirsan?..”

Bu voqea jungjanglar Sario‘zak dashtlarini egallab olish va aholini qullikka solish maqsadida tub xalqlar bilan tinimsiz urushgan zamonlarda yuz bergan edi. O‘z yerlaridan ayrilishni istamagan mahalliy qabilalar tinimsiz kurash olib borishar, katta-kichik janglar orasida tinch damlar ham bo‘lardi. Nayman ona fojiasi ayni shunday tinch kunlarning birida boshlandi...

Osoyishta damlarning birida naymanliklarning yurtiga karvonda mol ortib kelib qolgan savdogarlar choy ichib, gurunglashib o‘tirarkan, o‘zlari ko‘rib shohidi bo‘lgan bir voqeani gapirib berishadi. Aytishlaricha, Sario‘zak dashtining jungjanglar tomonidagi quduqlar yonidan bamaylixotir o‘tib borayotganlarida yo‘lda kattakon tuyalar podasini o‘tlatib yurgan bir navqiron cho‘ponga ko‘zlari tushib qoladi. Savdogarlar u bilan gaplashmoqchi bo‘lib og‘iz ochganlarida cho‘ponning manqurt ekanini payqab qoladilar. Sirtdan qaraganda, cho‘pon sog‘lom yigitga o‘xshar, boshidan nimalar kechgani hech kimning xayoliga kelmas edi. Balki u ham qachonlardir boshqalar singari esli-hushli, so‘zamol bo‘lgandir. O‘n gulidan bir guli ochilmagan, mo‘ylabi endigina sabza ura boshlagan, kelbati kelishgan, ammo ikki og‘iz gaplashmoqchi bo‘lsang, xuddi kecha tug‘ilganga o‘xshaydi, boyaqish na o‘zining, na ota-onasining ismini biladi: jungjanglar uni qanday ko‘yga solishganini, urug‘-aymoqlari kimligini ham unutib yuborgan. Biron narsa so‘rasang, lom-mim demaydi, faqat “ha” yoki “yo‘q” degan javobni beradi, doim boshiga bostirib kiyilgan telpagidan qo‘lini tushirmaydi. Gunoh ekanini bilishsa-da, jismoniy mayib-majruhlarni ham odamlar mazax qilishadi. Shunday manqurtlar ham bo‘lar emishki, ularning boshiga kiydirilgan tuya terisi ba’zan bosh terisi bilan birga qo‘shilib o‘sar emish, xususida so‘z yuritib kulishadi. Bunday manqurtlarni, kel, boshingni bug‘lab yumshatamiz, deb qo‘rqitishsa, go‘yo bundan ortiq jazo yo‘qdek, ko‘zlari

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

qinidan chiqib ketar ekan. Asov ot singari depsinib, birovning qo‘lini boshiga yaqinlashtirmas ekan. Bu xil manqurtlar kun-u tun, hatto uxlaganda ham telpagini yechmas ekan... Ammo-lekin, suhbatni davom ettirishardi mehmonlar, manqurt g‘irt ahmoq bo‘lsa ham ishiga puxta ekan – toki biz uning tuyalaridan uzab ketmagunimizcha ko‘z-quloq bo‘lib turdi. Karvonchilardan biri o‘sha manqurtni mazax qilmoqchi bo‘lib so‘rabdi:

– Borar yerimiz olis. Sendan kimga, qaysi suluvga, qaysi yurtlarga salom aytaylik? Aytaver yashirmay. Eshityapsanmi? Balki, nomingdan ro‘mol tortiq qilaylikmi?

Manqurt yo‘lovchiga tikilgancha uzoq vaqt indamay turdi-da, so‘ng:

– Men har kuni oyga tikilaman, oy esa menga tikiladi. Ammo biz bir-birimizning ovozimizni eshitmaymiz... U yoqda kimdir o‘tiribdi... – dedi g‘o‘ldirab.

Gurung payti o‘tovda savdogarlarga choy quyib o‘tirgan bir ayol ham bor edi. Bu Nayman ona edi. Sario‘zak afsonasida u shunday nom bilan qoldi.

Nayman ona yo‘lovchi mehmonlarga sir boy bermadi. Bu xabarni eshitib, nogoh dahshatga tushganini, rangi-ro‘yi o‘zgarib ketganini hech kim sezmadi. U savdogarlardan yosh manqurt to‘g‘risida yana nimalarnidir so‘rab-surishtirgisi kelar, ammo xuddi mana shu narsa – yana ham ko‘proq narsani bilishdan vahimaga tushardi. Nayman ona tilini tiydi. Yaralangan qushning chinqirog‘i singari qalb tug‘yonini ichiga yutdi...

Savdogarlarning karvoni ko‘p o‘tmay o‘z yo‘liga ravona bo‘ldi. O‘sha kecha tong otgunga qadar turli o‘y-xayollar og‘ushiga cho‘mgan Nayman ona Sario‘zak dashtidagi o‘sha manqurt-cho‘ponni topib, uning o‘g‘limi, yo‘qmi ekaniga ishonch hosil qilmaguncha ko‘ngli tinchimasligini angladi. Ona ko‘nglini allaqachonlardan beri jang maydonida qolgan o‘g‘lining bedarak ketgani g‘ash qilib kelar edi, endi o‘sha sezgi, o‘sha gumon qayta qo‘zg‘alib, uni dahshatga sola boshladi... Bunday qiynoqlar-u azob-uqubatlardan bir umr g‘am chekib, gumonsirab, xavotirlanib yurgandan ko‘ra, albatta, o‘g‘lini bir emas, ikki bor ko‘rgani yaxshi emasmi?

Nayman onaning o‘g‘li otasi uchun o‘ch olish maqsadida jangga otlanib, Sario‘zakda jungjanglar bilan omonsiz olishuvda yarador bo‘ladi. Jang suronidan cho‘chigan ot ustidagi chalajon yigitni cho‘l ichkarisi – yov tomon sudrab ketadi. Jang qizg‘in tus olganidan hech kim buni payqamaydi... Jangdan so‘ng naymanlar uni necha kunlab izlashadi.

Gumon-shubhalarning cheki yo‘q edi. Sayyoh savdogarlar choy ichishib o‘tirishganda Sario‘zakda uchragan yosh manqurt haqida gap ochib, Nayman onaning o‘rtangan yuragini battar o‘rtab, yarasiga tuz sepishganini o‘zlari ham payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O‘sha manqurt mening o‘g‘lim bo‘lib chiqsa-ya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aql-u hushini, butun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchliroq chirmab ola boshladi. O‘sha manqurtni izlab topib, o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uning o‘z pushtikamaridan bo‘lgan o‘g‘li emasligiga ishonch hosil qilmaguncha ko‘ngli tinchimasligiga ko‘zi yetgan edi.

Nayman ona kecha oqshomdayoq safar jabduqlarini but qildi. Yegulik va ichguligini g‘amladi. Ayniqsa, suvni mo‘lroq oldi. Sario‘zakning cho‘lida quduq topilmay qolguday

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

bo‘lsa deganday, har ehtimolga qarshi, ikki meshni to‘ldirdi... Kecha oqshomdayoq urg‘ochi tuya Oqmoyani shay qilib, qoziqqa bog‘lab qo‘ygan edi. Umidi-ishonchi ham, birdan bir hamrohi ham o‘sha. Oqmoyaning kuch-quvvatiga-yu yo‘rg‘asiga ishonmaganda Sario‘zakdek soqov cho‘lga yo‘l olishga jur’at eta olarmidi?! Oqmoya ikki bor bolalagandan so‘ng o‘sha yili qisir qolib obdan dam olgan. Uning ayni avji kuchga to‘lib, minishga qo‘l kelib turgan kezlari edi. Ozg‘in, chayir oyoqlari uzundan kelgan, tovonlari yumshoqqina, qarilig-u og‘ir yukdan hali toliqmagan, qo‘sh o‘rkachli, kamondek egilib kelgan baquvvat bo‘yni-yu boshi kelishimli, kapalakning qo‘sh qanotiday dirillab, yengil yelib, yo‘l-yo‘lakay havoni sipqarib borayotgan Oqmoya bebaho tuya bo‘lib, uning bir o‘ziga butun bir uyurni alishtirsa arzir edi.

Nayman ona erta tongda o‘tovdan chiqdi. “Ashhadu anla ilaha illallohu”, deb pichirlagancha kalima qaytardi. So‘ng tuyasi tomon shaxdam odimlab borib, uni cho‘ktirdi. Oqmoya jahli chiqqanidan emas, balki shunchaki, odatga ko‘ra sekin baqirib qo‘ydi-da, bemalol ko‘kragini yerga berib cho‘kdi. Tuya u yon-bu yon qo‘zg‘alib tura boshlaganda Nayman ona go‘yo qanot bog‘lab zamindan uchib ketganday bo‘ldi. Uzoq safarga yo‘l olayotganlarini Oqmoya endi tushundi...

...Oqmoya necha kundan beri buyuk Sario‘zak dashtining qir-adirlari-yu soyliklari bo‘ylab pishqirganicha, bir maromda yo‘rtib borardi. Ular yo‘lda duch kelib qolgan birorta quduq boshida kechalardagina to‘xtashardi. Tong otishi bilan yana oyoqqa turib qat-qat yastanib ketgan Sario‘zak adirlarini kezib, katta tuyalar to‘dasini izlashardi. Haligi savdogarlarning aytishlariga qaraganda, ular tuyachi manqurtni Sario‘zak cho‘lining xuddi mana shu qismida – olis-olislarga cho‘zilib ketgan Malaqumdichop jarligi etagida ko‘rishgan. Nayman ona xuddi mana shu manqurtni izlayotgan edi. Mana ikki kundirki, ona jungjanglarga yo‘liqib qolishdan qo‘rqib, atrofga olazarak bo‘lib qarab, Malaqumdichop jarligining u yoq-bu yog‘ini aylanib yurar, ammo u qayoqqa ko‘z yugurtmasin, qayerni izlamasin, faqat cheksiz dasht-u biyobonlarga, aldoqchi saroblarga duch kelardi xolos.

Vaqt o‘tgan sari Nayman ona xavotirlana boshladi, uyurni boshqa tomonlarga haydab ketishmaganmikan yoki jungjanglar bu tuyalarni ko‘tarasiga sotish uchun Xiva yoki Buxoro bozorlariga haydab ketishmaganmikan? Agar ular shunchalik olis yerga ketishgan bo‘lsa, haligi tuyachi yana qaytib kelarmikan yoinki tuya bilan qo‘sha sotilib nom-nishonsiz ketarmikan?.. O‘g‘limni tirik ko‘rsam, manqurt bo‘lsa ham, aqldan ozib hech nimani eslay olmaydigan merov bo‘lib qolgan bo‘lsa ham mayli, o‘sha cho‘pon o‘g‘limning ishqilib joni omon bo‘lsa, bas... Shunga ham ming qatla shukr – sog‘inch-u gumonlardan joni bo‘g‘ziga kelgan onaning ovuldan chiqish oldidagi birgina umidi shu edi.

Mana shunday ming xil o‘y-xayollar va shubhalar og‘ushida borarkan, ona yassi qum tepaliklaridan oshayotib nogahon ko‘p sonli tuyalar uyurini ko‘rib qoldi: qo‘ng‘ir tusga kirib, semirib ketgan yuzlab tuyalar mayda butalar-u yantoqlarning uchini kemirib, keng maydonda bemalol o‘tlab yurishardi. Nayman ona Oqmoyasiga qamchi bosib, choptirib ketdi. Uyurni izlab topganidan quvonchi ichiga sig‘may nafasi bo‘g‘ziga tiqildi. Ammo shu zahotiyoq manqurt qilib qo‘yilgan o‘g‘lini ko‘rishni eslab, qo‘rqqanidan a’zoyi badani muzlab ketdi. So‘ng yuragi yana quvonchga to‘ldi va shu bilan ne ahvolga tushganini o‘zi ham anglamay qoldi. Mana, tuyalar o‘tlab yuribdi, ammo tuyachi qayerda ekan? Harholda shu

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

atrofda yurgandir. Shu payt yaylovning narigi chekkasida odamning qorasi ko‘rindi. Olisdan uning kimligini tanib bo‘lmasdi. Tuyachi uzun tayog‘iga suyangan holda ortidagi yuk ortilgan tuyasining tizginini ushlab, qosh ustiga bostirib kiygan telpagi ostidan onaning yaqinlashib kelayotganini bamaylixotir kuzatib turdi.

Nayman ona tuyachiga yaqin kelib uni tanidi-yu tuyasidan qanday tushganini bilmay qoldi. Yiqilib tushdimi, surilib tushdimi – shu tobda onaga buning ahamiyati yo‘q edi!

– O‘g‘ilginam, qarog‘im! Seni izlamagan joyim qolmadi! – deya o‘g‘li tomon talpindi. – Men sening onangman!

Biroq onaning kelgani unga go‘yo har doim yonida yurganday zarracha ta’sir qilmadi. U hatto onadan kimsan, nega yig‘layapsan, deb so‘ramadi ham. Ma’lum lahzalardan so‘ng tuyachi onaning qo‘lini yelkasidan surib tashlab, ustida yuk bor tuyasini yetaklagancha odimlab ketdi: u sho‘xlik qilib bir-birlari bilan o‘ynashayotgan bo‘taloqlar uyurdan uzoqlashib ajralib ketmasin, deb tuyalar to‘dasining narigi chekkasi tomon yo‘l olgan edi.

Nayman ona bukchayib o‘tirib qoldi, xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘ladi va shu o‘tirishda yuzini changallagancha bosh ko‘tarmay uzoq qolib ketdi. So‘ng bor kuchini to‘plab, o‘zini xotirjam ko‘rsatishga urinib, o‘g‘li tomon yura boshladi. Manqurt o‘g‘il hech nimani ko‘rmaganday-bilmaganday, pinagini buzmasdan, bostirib kiyib olgan telpagi ostidan ma’nosiz va loqaydlik bilan qarab turardi. Cho‘l shamolida qorayib, dag‘allashib ketgan yuzida xiyol jilmayish paydo bo‘ldi. Ammo ko‘zlari dunyoni tark etgan kishining ko‘zlariday loqayd boqardi.

– O‘tir, gaplashamiz, – dedi og‘ir xo‘rsinib Nayman ona. Ular yerga cho‘kdilar.

– Meni taniyapsanmi? – deb so‘radi ona. Manqurt yo‘q deganday bosh chayqadi.

– Oting nima?

– Manqurt, – dedi u.

– Seni hozir shunday deb atashadi. Avvalgi oting esingdami? Asli ismingni eslab ko‘r-chi.

Manqurt jim qoldi. U haqiqiy ismini eslashga harakat qilayotgani, qiynalganidan qanshari ustida munchoqdek ter tomchilari paydo bo‘lib, ko‘z o‘ngini tuman qoplaganini ona ko‘rib turdi. Ammo qarshisida qandaydir to‘siq paydo bo‘ldi-yu, uni yengib o‘tishga qurbi yetmadi...

– Otangning otini bilasanmi? O‘zing kimsan? El-yurting qayerda? Qayerda tug‘ilganingni bilarsan, axir?

Yo‘q, manqurt hech nimani tushunmasdi, hech narsani eslay olmasdi.

– Hali shunchalik ahvolga solishdimi seni?! – deya pichirladi ona.

U najotsizlikdan lablari titrab, g‘am-g‘ussa-yu qahr-g‘azabdan o‘zini tuta olmay, yana qaytadan o‘ksinib-o‘ksinib yig‘ladi, tinchlanishga behuda urinar edi xolos. Onaning oh-u fig‘oniga manqurt pinagini ham buzmadi.

– Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish ham mumkin, – derdi ona o‘z-o‘zicha gapirib, – biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o‘ylab topdi ekan, bunga kimning qo‘li bordi ekan?! Yer yuzida usiz ham yovuzlik kammidi?

Shunda Nayman ona so‘rab-surishtirishlar bilan emas, balki aqlini kovlash, qitiqlash bilan es-hushini o‘ziga keltirmoqchi bo‘ldi.

– Sening oting Jo‘lomon. Eshitdingmi? Sen Jo‘lomonsan, otangning oti – Do‘nanboy. Otangni eslay olmaysanmi? Axir, u seni bolalik chog‘ingdan kamon otishga o‘rgatgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Men sening onangman. Sen esa mening o‘g‘limsan. Sen nayman urug‘idansan, tushundingmi? Sen naymansan...

Onasining hamma gaplarini o‘g‘il avvalgiday mutlaqo loqaydlik bilan eshitdi. Ona go‘yo devorga gapirayotganday edi. Onaning so‘zlari karning qulog‘iga azon aytganday gap edi. Nayman ona manqurt o‘g‘ildan so‘radi:

– Bu yerga kelganingga qadar nimalar bo‘ldi?

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q, – dedi o‘g‘il.

– Kim bilan gaplashging keladi?

– Oy bilan. Biroq bir-birimizning gapimizni eshitmaymiz. U yerda kimdir o‘tiribdi.

– Yana nimani istaging keladi?

– Xo‘jayinimning boshidagi singari kokil qo‘yishni.

– Qani, beri kel-chi, boshingni bir ko‘rib qo‘yay, ular nima qilib qo‘yishganini, – deb ona u tomon talpindi.

Manqurt shartta tisarilib, o‘zini olib qochdi, boshidagi telpagini changallagan bo‘yicha qaytib onaga boqmadi. Bosh haqida hech qachon so‘z ochish mumkin emasligini ona endi tushundi.

Shu payt olisdan tuya mingan kishining qorasi ko‘rindi. U shu yoqqa tomon kelayotgan edi.

– Bu kelayotgan kim? – deb so‘radi ona.

– U menga ovqat olib kelyapti, – dedi o‘g‘il.

Nayman ona tashvishga tushdi. Bevaqt paydo bo‘lib qolgan bu jungjangning ko‘ziga chalinmaslik uchun tezroq g‘oyib bo‘lish kerak edi. U tuyasini cho‘ktirib, darhol minib oldi.

– Sen unga hech narsa aytmagin. Men tezda qaytib kelaman, – dedi Nayman ona.

O‘g‘li lom-mim demadi. Uning parvoyi palak edi. O‘tlab yurgan tuyalar orasidan qochib borayotgan Nayman ona xato ish qilib qo‘yganini tushundi. Biroq vaqt o‘tgan edi. Oq tuyaga minib borayotgan onani jungjang ko‘rib qolishi mumkin edi. Oqmoyasini yetaklab, o‘tlab yurgan tuyalar orasidan berkinib yayov jo‘nagani ma’qul edi.

Yaylovdan xiyla olislab ketgach, Nayman ona chetlarida erman-shuvoqlar o‘sib yotgan chuqur jarlikka kirib bordi-da, Oqmoyani cho‘ktirib kuzata boshladi. Gumoni to‘g‘ri chiqdi, payqab qolgan ekan.

Jungjang u yoq-bu yoqqa zir yugurib hech nimani uchratmagandan so‘ng tezda ortga, tuyalar to‘dasi tomon qaytdi.

Nayman ona bu tunni tanho o‘zi bechora manqurt o‘g‘li yaqinida – dashtda tunab o‘tkazdi. O‘g‘lining yoniga borishga cho‘chidi, haligi xavfsirab qolgan jungjang kechasi uyur oldida qolishi ham mumkin.

O‘g‘lini qullikda tashlab ketmay, bir amallab birga olib ketishga qaror qildi ona. O‘g‘li manqurt bo‘lsa ham, mayli, hech nimani tushunib, anglab yetmasa ham mayli, kimsasiz cho‘lda, jungjanglarning tuyasini boqib xor bo‘lib yurganidan ko‘ra o‘z uyida, o‘z odamlari orasida yashagani yaxshi emasmi? Ona qalbi shuni istardi. Boshqalar taqdirga tan berib ketishi mumkin bo‘lgan holga ona sira ham ko‘na olmasdi. U o‘z qoni va jonini, ko‘z qorachig‘ini qullikda qoldirib ketishni sira-sira istamasdi. Balki, bolasi o‘z yerida hushiga kelib, bolalik kezlarini eslab, barcha ko‘rgan-kechirganlarini qayta tiklab olar, deya umid qilardi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Ertasiga ertalab Nayman ona Oqmoyaga minib yana yo‘lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo‘llardan ehtiyotkorona o‘tib, uzoq yo‘l bosdi. Tuyalarni ko‘rgandan keyin ham jungjanglardan birontasi ko‘rinib qolmasin, deb uzoq vaqt kuzatib turdi. Hech kimning yo‘qligiga ko‘zi yetgach, o‘g‘lining otini aytib chaqirdi.

– Jo‘lomon! Jo‘lomon! Omonmisan?

O‘g‘li burilib qaragan edi, ona quvonchidan baqirib yubordi, ammo shu zahotiyoq o‘g‘li shunchaki, ovoz chiqqan tomonga qaraganini payqab qoldi. Nayman ona o‘g‘lining xotirasini tiklashga yana urinib ko‘rdi.

– Oting nima, eslab ko‘r-chi! – deb yalinib-yolvorib inontirishga harakat qilardi u. – Otangning oti Do‘nanboy, bilmaysanmi uni? Sening isming manqurt emas, Jo‘lomon. Naymanlarning yayloviga ko‘chib borayotganimizda yo‘lda tug‘ilgansan. Shuning uchun otingni Jo‘lomon qo‘yganmiz. Sen tug‘ilganingda biz o‘sha yerda qolib, uch kecha-kunduz to‘y-tomosha qilganmiz.

Bu gaplar manqurt o‘g‘ilga zarracha ta’sir etmayotganini bilsa ham baribir ona uning so‘ngan xotirasida nimadir yilt etib ko‘rinib qolar, degan umidda behuda urinardi. Ammo u devorga gapirayotganday edi. Shunga qaramay, o‘tgan-ketganlardan gapirib, hadeb o‘zinikini takrorlayverdi:

– Oting nima, eslab ko‘r! Otangning oti Do‘nanboy!

So‘ng ona o‘zi bilan olib kelgan taomlaridan yedirib-ichirib bo‘lgandan so‘ng alla ayta boshladi. Alla manqurtga ma’qul kelganday bo‘ldi, shekilli, quloq solib tinglab o‘tirdi. Qorayib, unniqib ketgan yuziga qandaydir iliqlik yugurganday bo‘ldi. Shunda ona o‘g‘lini bu yerdan – jungjanglarning izmidan o‘zi tug‘ilib o‘sgan qadrdon yeriga birga olib ketishga ko‘ndirishga kirishdi. Manqurt esa tuyalarni qoldirib, qayoqqadir bosh olib ketishni miyasiga singdira olmadi: yo‘q, xo‘jayinim tuyalardan bir qadam ham jilmaysan, deb buyurgan, shuning uchun uyurni tashlab biron yoqqa ketmayman...

Chiqmagan jondan umid deganlariday, Nayman ona barbod etilgan xotira eshigini ochib kirishga qayta-qayta harakat qilardi:

– Eslab ko‘r-chi, kimning o‘g‘lisan? Oting nima? Otangning oti Do‘nanboy!

O‘g‘lini hushiga keltirish uchun behuda urinayotgan ona oradan qancha vaqt o‘tganini ham payqamay qoldi, shu mahal uyur chekkasidan yana o‘sha jungjang tuya minib kelayotganini ko‘rib esi chiqib ketdi. Bu safar jungjang juda yaqin kelib qolgandi, yurishi ham juda ildam. Nayman ona tezda Oqmoyaga minasolib, qochib qoldi. Biroq yaylovning narigi tomonidan yana bir jungjang tuya yo‘rttirib onaning yo‘lini kesib chiqdi, shunda Nayman ona tuyasida ularning o‘rtasiga qarab soldi. Bedov tuya olg‘a tomon yelday uchib ketdi, ortdan ta’qib ostiga olgan jungjanglar baqirishib-qiyqirishib, nayzalarini siltab, dag‘dag‘a qilgancha uni quvlab borishardi. Biroq Oqmoyaga yetmoq qayoqda?!

G‘azablangan jungjanglar qaytib kelgandan so‘ng manqurtni rosa do‘pposlashganini ona bilmasdi. Ammo do‘pposlashgani bilan manqurt nimani ham bilardi. U hadeb bir gapni takrorlardi:

– U sening onang bo‘laman, deb aytyapti.

– Hech qanaqa onang emas u! Senda ona yo‘q! Bu yoqqa nima uchun kelganini bilasanmi? Bilasanmi?! Telpagingni sidirib olib, boshingni qaynoq suvga solgani kelgan! – deb battar qo‘rqita boshlashdi jungjanglar sho‘rlik manqurtni.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bu so‘zlarni eshitib, manqurtning qoramtir yuzlari bo‘zday oqarib-ko‘karib ketdi, qo‘llari bilan telpagini changallab, bo‘ynini yelkalari orasiga qisib, xuddi yirtqichday ola-kula atrofga qaray boshladi.

– Sen qo‘rqmagin! Mana buni ushla! – deb jungjangning kattasi manqurtga o‘q-yoy tutqazdi.

– Qani, mo‘ljalga ol-chi! – kichik jungjang qalpog‘ini osmonga otdi. O‘q qalpoqni teshib o‘tdi.

– O‘ho‘, – deb ajablandi qalpoq egasi. – Qo‘lida xotira saqlanib qolibdi!

Uyasidan cho‘chitib uchirib yuborilgan qush kabi Nayman ona Sario‘zak cho‘llarida oyog‘i kuygan tovuqday yelib-yugurardi. Endi nima qilarini, nimaga umid bog‘lashni bilmasdi. Jungjanglar endi nima qilisharkan? O‘tovdagi tuyalarni, manqurt o‘g‘lini ona yetib bora olmaydigan boshqa yerlarga, o‘zlarining katta o‘rdalariga yaqin joyga haydab ketisharmikan yoki uni qo‘lga tushirish uchun payt poylab yotisharmikan? Ming xil xayollarga g‘arq bo‘lgan ona boshi qotib, pastqam yo‘llardan o‘tib borib, yaylovni sinchkovlik bilan kuzatarkan, haligi ikkita jungjang uyurni tashlab ketib borayotganini ko‘rdi-da, quvonib ketdi. Ular o‘ng-u so‘liga qaramasdan yonma-yon ketib borishardi. Nayman ona uzoq vaqt ko‘z uzmay turdi, qachonki ularning qorasi ko‘rinmay qolgach, o‘g‘li tomon yo‘l solib qanday bo‘lmasin, uni o‘zi bilan birga olib ketmoqchi bo‘ldi. U kim bo‘lsa ham mayli, taqdir boshiga shunday qora kunlarni solib, dushmanlar shunchalik tahqir etgan ekan, bu – uning aybi emas. Mayli, ovsar bo‘lsa ham o‘g‘lini qullikda, asoratda qoldirib ketmaydi...

…Ona o‘g‘li tomon borar ekan, shu kechasiyoq bu yerdan ketish zarurligini unga qanday qilib tushuntirsam ekan, deb yo‘l-yo‘lakay o‘ylar edi. Qosh qoraya boshladi. Qanchalab o‘tgan va o‘tishi lozim bo‘lgan son-sanoqsiz tunlar singari lojuvard-qizg‘ish shu’laga chulg‘angan tag‘in bir tun soyliklar-u vodiylar uzra buyuk Sario‘zak sahrosini bosib kela boshladi. Oqmoya katta uyur tomon bekasini yeldirib borardi. Botayotgan quyosh shu’lalari qo‘sh o‘rkach o‘rtasida o‘tirib olgan ona qiyofasini baralla ko‘rsatardi. U jiddiy tusda, yuzlarining qoni qochgan holda hushyor tortib, xavotirlanib o‘tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g‘am-g‘ussali ko‘zlariga esa Sario‘zak xuftoni singari g‘am-tashvish cho‘kkan edi... Mana, u uyurga ham yetib borib, o‘tlab yurgan tuyalar orasidan o‘tib kuzata boshladi, biroq o‘g‘li ko‘rinmasdi. Tuyasi esa tizginini chuvalantirib sudraganicha bemalol o‘tlab yurardi... Nima bo‘ldi ekan unga?

– Jo‘lomon! Qulunim Jo‘lomon, qanisan? – deb chaqira boshladi Nayman ona.

Qilt etgan jon ko‘rinmadi, hech qanday ovoz eshitilmadi.

– Jo‘lomon! Qayerdasan? Bu men, onang bo‘laman! Qayerdasan?

Ona tashvish ichida atrofga olazarak boqar ekan, manqurt o‘g‘li tuyasining soyasiga berkinib, tizzalab o‘tirganicha kamonni tarang tortib mo‘ljalga olayotganini payqamay qoldi. Faqat u quyosh nuri ko‘zini qamashtirayotgani sababli qulay vaziyatni kutayotgan edi.

– Jo‘lomon! Bolaginam! – deb chaqirdi ona o‘g‘lini, biron hodisa yuz bermadimikan deb tashvishlanib. So‘ng egarda o‘tirgancha o‘girilib qaragan edi, o‘zini mo‘ljalga olib turgan o‘g‘liga ko‘zi tushib qoldi. Shu zahotiyoq Oqmoyani burib chap bermoqchi bo‘lgan ham ediki, vizillab kelgan o‘q uning chap qo‘ltig‘ining ostiga sanchildi. Ona: “Otma!” deyishga ulgurdi xolos.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bu o‘lim zarbasi edi. Nayman ona ikki bukildi va Oqmoyaning bo‘yniga yopishgancha shilq etib tushdi. Lekin undan oldinroq boshidan oq ro‘mol uchib ketib, havoda qushga aylanib chirqiray boshladi: “Kimning farzandisan, eslab ko‘r! Oting nima? Otangning oti Do‘nanboy! Do‘nanboy! Do‘nanboy!..”

O‘shandan beri Sario‘zak dashti tepasida har kuni kechasi Do‘nanboy degan qush uchib yuradi, deyishadi. O‘sha qush yo‘lovchiga duch kelib qolsa: “Kimning farzandisan, eslab ko‘r! Eslab ko‘r! Oting nima? Otangning oti Do‘nanboy, Do‘nanboy, Do‘nanboy!..” deb sado chiqarar ekan.

Shundan beri Nayman ona dafn etilgan o‘sha joy Sario‘zak muzofotida Ona Bayit qabristoni – Onayizor makoni deb ataladi...

Asil Rashidov tarjimasi

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asarda jungjanglar mahkumlarni qiynab, xotirasini yo‘qotishga urinadi. Sizningcha, “xotira” tushunchasi asarda faqat eslab qolish qobiliyati sifatidagina berilganmi yoki u insonning kimligi, ildizi va o‘zligini ham anglatadimi? Matndan misollar keltirib izohlang.
2. Nayman ona yo‘lga chiqishdan oldin: *“O‘g‘limni tirik ko‘rsam...”,* deb orzu qiladi. O‘g‘lini ko‘rgach esa bu hislar iztirob va umidsizlikka almashadi. Sizningcha, bunday keskin ruhiy o‘zgarishga nima sabab bo‘ldi? Matnga tayangan holda tushuntiring.
3. Asarda bunday satrlar bor: *“Alla manqurtga ma’qul kelganday bo‘ldi, shekilli, quloq solib tinglab o‘tirdi. Qorayib, unniqib ketgan yuziga qandaydir iliqlik yugurganday bo‘ldi”*. Bu holat, sizningcha, farzandning ichki dunyosida qanday jarayonlar borligidan darak beradi? Bu onalik tuyg‘usining kuchimi yoki xotiraning uyg‘onishi ehtimoli? Fikringizni asoslang.
4. Nayman ona o‘g‘liga doim ismi, otasining ismi va urug‘ini eslatadi. Sizningcha, bu orqali u nimani tiklamoqchi? Nega u “men onangman”, deyishdan ko‘ra o‘g‘lining ildiziga urg‘u beradi?
5. Muallif jungjanglar yovuzligi orqali zamonaviy insoniyatni qanday xavfdan ogohlantirmoqchi deb o‘ylaysiz? Bugungi dunyoda ham manqurtlashuvning boshqa shakllari mavjudmi? Misollar bilan izohlang.

O‘ylab ko‘ring

Nima deb o‘ylaysiz: siz mutolaa qilgan 1- va 2-qismlarni nima bog‘lab turibdi? Muallifning bundan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?

Baho

Asardan olingan parchalar asosida muallifning tasvirlash uslubi, asar tili hamda mavzuning dolzarbligiga baho bering. Boshqa asarlar bilan qiyoslab, fikr bildiring.

Ijodiy ish

Ba’zan inson hayotda o‘zligini yo‘qotgandek bo‘lishi mumkin. Sizni shunday paytlarda qanday qadriyatlar yoki odamlar o‘zingizga qaytaradi? O‘z tajribangizdan kelib chiqib, yozing.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

ADABIY LABORATORIYA

Quyidagi topshiriqlardan birini tanlab, bajaring:

1. Fikrlar shajarasi. “Qadriyatlar: bugun va kelajakda” mavzusida “fikrlar shajarasi” tuzing va shu asosida mazmunli, rasmli, bezakli taqdimot tayyorlang.



2. Oilaviy shajara. Oilangizdagi kattalar yordamida shajara daraxti tuzing va shu asosida taqdimot tayyorlang. Taqdimotda oilaviy suratlardan foydalaning.

Eslatma

Qaysi topshiriqni bajarsangiz ham taqdimot tayyorlaganingizda quyidagilarga o‘xshash fikrlardan maqsadli foydalaning:



Chingiz Aytmatov

“Insonni o‘zligidan, o‘ziga xoslikdan mahrum etib, bir qolipga solib qo‘yish da’vosi azal-azaldan to bizning kunlarga qadar imperiyalar, imperialistlar va gegemonchilarning maqsadi bo‘lib kelgan”.



Mahmudxo‘ja Behbudiy

“Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydiganlarni qul marquq derlar”.



RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



SHUKUR XOLMIRZAYEV (1940 – 2005)

Dars davomida:
- adibning ijodi haqida suhbatlashamiz;
- “Qora kamar” dramasini tahlil qilamiz.

Eslang

Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi hamda o‘zingiz o‘qigan asarlarini yodga oling. Bu asarlar qaysi jihatlari bilan xotirangizda qolgan?

Bilib oling

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev “Olis yulduzlar ostida”, “Hayot abadiy”, “Og‘ir tosh ko‘chsa...”, “Yo‘llar, yo‘ldoshlar”, “Bodom qishda gulladi”, “Tog‘larga qor tushdi” singari hikoyalar to‘plamlari, “Oq otli”, “To‘lqinlar”, “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” qissalari, “So‘nggi bekat”, “Qilko‘prik”, “Yo‘lovchi”, “Olabo‘ji”, “Dinozavr” kabi romanlar muallifi.

O‘ylab ko‘ring

Yozuvchining quyidagi fikriga munosabat bildiring:

“Insonning yashash qonunlari oddiy hayvonlarning yashash tarzidan uncha farq qilmaydi. Hayvonlarning ruhiyatini qancha ko‘p o‘rgansangiz, insonni shuncha kashf etar ekansiz. Nafaqat odamni, balki o‘zingizni kashf qila boshlarkansiz… Avval odamni o‘rganishdan qo‘rqqan paytlarim bo‘lgan. Chunki men qahramonim nima

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

o‘ylayotganini bilib turardim. Ammo adabiyotda ko‘rmaganman-da. Ko‘rsatilgan yo‘llar meni qanoatlantirmagan. Shuning uchun qo‘rqqanimdan asarni dialoglarga qurardim. Oradan yillar o‘tib, insonni o‘rganib olganimdan keyin qo‘rqmaydigan bo‘ldim. Bu – juda muhim narsa”.

- **Siz odamni qanday o‘rganasiz?**

MUTOLAADAN OLDIN

Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo‘lib o‘zbek xalqi tarixining **“bosmachilik harakati”** deb atab kelingan davrini o‘rgana boshladi hamda bu davr voqealarini “Qilko‘prik” romani va “Qora kamar” dramasida aks ettirdi. “Qora kamar” dramasi 1987-yili yozilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. 1920-yillar boshidagi Turkiston hududida yuz bergan siyosiy voqealar haqida nimalarni bilasiz? Bu davr jamiyat hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?
2. *“Bosmachilar harakati”* deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, bu harakat vakillari qanday maqsadlarni ko‘zlagan? Fikr bildirishda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayaning.

QORA KAMAR[1]

(Dramadan parcha)

Qahramonlar:

Abdulla Nabiyev
Xurrambek
Qoraxo‘ja eshon
Qassob
Salom qo‘rboshi
Oston
Qoraqul Bobobekov
Cho‘loq oshpaz
Bozorchilar
1-chol
2-chol
3-kishi
Bolalar:
Umid
Kenja
1-bola
2-bola
Duduq-Oftob
Ayg‘oqchi
Yigitlar
1-yigit
2-yigit va boshqalar

Voqea 1925-yil 30-dekabrda kechadi.

[1] **Kamar** – suv qirg‘og‘ida, jar chetida, tepalik yoki tog‘ yonbag‘irlarida o‘pirilish natijasida hosil bo‘lgan g‘orsimon o‘yiq joy, yo‘l.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

BIRINCHI SAHNA

1

Qora kamar. Changalzor. Tong otyapti. Unda-bunda gulxanlar yonadi. Uzoq-yaqindan bo‘rilarning uvlashi eshitiladi. Sovuq. Bosmachilar bomdod namozini o‘qishmoqda. Oldinda – Qoraxo‘ja eshon. Yonida Xurrambek.

Qoraxo‘ja. Allohu akbar… Allohu akbar… (O‘ngga va so‘lga qarab). Assalomu alaykum va rahmatulloh. Assalomu alaykum va rahmatulloh.

Otlar dupuri eshitiladi. Qarg‘alar qag‘illaydi. Jo‘raqul qassob bandi Ostonni olib kiradi. Bosmachilar to‘zib qoladilar.

Qassob (Xurrambekka). Kamarning ustidan ushlab oldim.

Xurrambek (Ostonga tikilib). E, Ostonbekmisan?

Oston. Men... Assalom alaykum.

Xurrambek. Yalmog‘iz aytganidek, gar saloming bo‘lmasa, ikki yamlab, bir yutardim... Sovqotib o‘layozibsan-ku? Chakmon! Bu mening qadrdon jo‘ram bo‘ladi.

Ostonga chakmon yopadilar. U g‘o‘laga o‘tirib, gulxanda isina boshlaydi.

Xo‘sh, Afg‘onda nima gap?

Oston. Afg‘on joyida. Faqat bizdan borgan qochoqlardan hazar qilishadi.

Xurrambek. Bizdan dema. Sen endi bizniki emassan-ku? Nima uchun hazar qilishadi?

Oston. Buxoroni kofirlarga berib qo‘ydinglar. Afg‘ongayam yo‘l ochdinglar, deyishadi.

Xurrambek (kinoya aralash). Bu gapga nima deysiz, taqsir?

Qoraxo‘ja. Haqqirost.

Xurrambek. Ana, bizning rahnamomiz eshon hazratlari ham gapingni tasdiqladilar.

Qoraxo‘ja. Bek, istehzoga o‘rin yo‘q... Bu yigit Ostonbek qo‘rboshi bo‘lsa, nechuk Afg‘onga o‘tib ketgan edi-yu, yana nechuk qaytibdi?

Oston. Taqsir, yigitlarimni boy berdim. Bu yurtda yurgiligim qolmab edi.

Xurrambek. Xo‘sh, nima uchun qaytib kelding?

Oston. Ot uchun. Tangriqashqa uchun.

Xurrambek. Tangriqashqa uchun?!

Oston. Ha. Unga o‘rganib qolgan ekanman. Usiz yasholmadim.

Xurrambek. Uni qayerdan topasan endi?

Oston. Uni mana shu yerga bog‘lab, oldiga bir-ikki oylik yemi bilan suvini qo‘yib ketib edim.

Xurrambek. Haliyam shu yerda turibdi, deb o‘yladingmi?

Oston. Birov olgan bo‘lsa, unda...

Xurrambek. Afsus-nadomatlar bo‘lsinkim, oting, boshingni ming devorga ursang ham, bermaydiganning qo‘liga tushib ketgan!

Oston. Kimning?

Xurrambek. Qassob, uni kim minib yuribdi hozir?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Qassob. Eshniyoz komandir! (Ostonga) Sen, xoin, yigitlaringni yo‘q qilganing uchun Boysun viloyati ijroqo‘mi otni Eshniyozga sovg‘a qilgan. Eshniyoz gijinglatib minib yuribdi!

Xurrambek (Ostonga). Ana, endi nima qilasan? Hoy, sendan so‘rayapman, sotqin! Nimaga ko‘zingni chaqchaytirasan? Yigitlaringni boy berib qochganing yolg‘onmi?

Oston. Ketishdan... boshqa ilojim yo‘q edi.

Xurrambek. Ilojing bor edi. Nega menga qo‘shilmading?

Oston. Men ont ichib edim.

Xurrambek. Qanday ont? Kimning oldida? Nima, yigitlarim qirilib bitgach, o‘z jonimni opqochaman, deb ont ichibmiding?

Oston. Yo‘q.

Xurrambek. Balki, yigitlaringni tezroq gumdon qilish uchun atay o‘qqa tutdirgandirsan?

Oston. Yo‘q.

Xurrambek. Gapir bo‘lmasam!

Oston. Xurrambek, ko‘rib turibman, seniyam yigitlaring terilib qopti. Xudo ko‘rsatmasin, bularniyam boy bersang, keyin nima qilasan?

Qoraxo‘ja. Hay-hay, yomon niyat qilmang, bo‘tam. Yaxshi gapgayam, yomon gapgayam farishta omin deydi. Bu badniyatlar ila kelgan bo‘lsangiz, to‘rt tarafingiz qibla.

Xurrambek. Nimalar deyapsiz, taqsir? Buning to‘rt tarafi – choh! O‘pqon, jarlik! O‘zim buni ko‘pdan ko‘rishni orzu qilar edim. O‘z oyog‘i bilan keldi.

Yuziga parda tutgan Ayg‘oqchi kiradi.

Ayg‘oqchi. Begimiz omon bo‘lsinlar! Boshimizga soyabon bo‘lsinlar!

Xurrambek. Aa, senmisan? Kel!

Ayg‘oqchi. Begim, bir noxush xabar bilan keldim.

Xurrambek. Nuqul noxushliklarni keltiraverib, o‘rgatib qo‘yding. Gapir!

Ayg‘oqchi. Sherobodga bir kimsa keldi. Poytaxtdan. Samarqanddan. Yoshkamollarning kattasi ekan. Bobobekov uni olib yuribdi, ibtidoiy maktabgayam olib kirdi. Yig‘inlar o‘tkazyapti. Bosmachilar faqat shu yerda – Surxonda qopti, deydi. Ularni yo‘qotish kerak, deydi. Xalqni qo‘zg‘amoqchi. Juda maddoh ekan.



Ibrohimbek (laqay).

Xurrambek. Mana sizga noxush xabar, taqsir!

Qoraxo‘ja. Ha, endi, sho‘rolar yurtga egalik qilgandan keyin kattasiyam, kichigiyam kelaveradi-da.

Xurrambek. Kelaveradi, ketaveradi... Yo‘q. Ketmaydi! (Ostonga) Xo‘sh, Afg‘ondan gapir, Afg‘ondan!

Oston. Aytgichimni aytib bo‘ldim.

Xurrambek. Ibrohimbek bordimi?

Oston. Kepti deb eshitdim-u, o‘zini ko‘rmadim.

Xurrambek. So‘rab ham bormading?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Oston. Xurrambek, gapingda turuming yo‘q seni. O‘zing Ibrohimbekni bu yerdan daydi itdek haydab yuborgan ekansan-ku. Payg‘ambar oroli[1]da shu oyning o‘n sakkizinchi kuni qurultoy[2]laring o‘tgan ekan. O‘shanda aytishib qolib, uni qurultoydan chiqarib yuborgan ekansan. Uyam laqay[3] navkarlarini olib, ketib qolgan ekan. Yana menga... uni so‘rab bormadingmi, deysan.

Xurrambek. Uni men haydab yuborganim uchun so‘rab bormadingmi?

Oston. Yo‘q.

Xurrambek. Xo‘sh?

Oston. Men ont ichib edim.

Xurrambek. Nima deb ont ichgansan, enag‘ar? Ont, ont! Faqat sho‘roga, sho‘roga, kofirlarga qarshi kurashmoq uchun ont ichish mumkin! Sen-chi?

Oston. Men endi qon to‘kmayman, deb ont ichib edim.

Qoraxo‘ja. Ammo-lekin ushbu vaziyatda bundoq bo‘luvi mumkin emas-ku, bo‘tam?

Oston. Menga mumkin.

Qoraxo‘ja. Axir, siz ham musulmon farzandisiz. Yo sizning alohida bir jihatingiz bormi?

Oston. Taqsir, ontni faqat ul yoki bul tomonga o‘tmoq uchun ichmaydilar-ku!

Qassob. Begim, mening fahmimcha, bu qochoq qizillar tarafga o‘tgani kelgan, yo‘g‘asam Afg‘onday joydan bitta otni deb keladimi kishi?

Oston (Qassobga). Sen faqat so‘yishni bilasan, bo‘ri. Senga odam ham, hayvon ham – baribir!

Xurrambek. Bas... Men ham sening fikringga qo‘shilaman, Qassob. (Ostonga) Xo‘sh, oting yo‘q endi. Endi nima qilasan? Yana Afg‘onga qaytib ketasanmi?

Oston. Otni Eshniyoz minib yurgan bo‘lsa, uning oldiga boraman.

Qassob. Eshniyozning?! (Kuladi) Ana, men nima deb edim hozir?

Qoraxo‘ja (Ostonga). Agar Qassobning gapi yolg‘on bo‘lsa, xayolingiz joyidamas.

Oston. Xayolim joyida, taqsir.

Qoraxo‘ja. Nahot u sizni ko‘rgan zahoti otib tashlamasa?

Oston. Men uning mardligiga ishonaman. (Sukut) Lekin otsayam peshonamdan ko‘rdim.

Xurrambek. Ey Oston, Ostonbek! Sho‘rlik jo‘raginam. Xoinim, sotqinim! Senda uyat ham, erkaklik nomusiyam qolmabdi. Sob bo‘libsan. O‘ylab ko‘r, shu gaplarimga birov ishonadi deysanmi?

Oston. Ishonmasalaring, ixtiyorlaring.

Xurrambek. Qassob! Bu to‘ng‘izni bo‘g‘izla!

Yigitlar Ostonni bosib bog‘laydilar.

Oston. Xurram, sen bu kurashda yengilding. O‘zing bilmayapsan xolos.

Xurrambek. Qassob!

Qassob nihoyat xanjarini chiqaradi.

---

[1] **Payg‘ambar oroli** – Amudaryo bo‘yida joylashgan hamda O‘zbekiston va Afg‘onistonni bir-biridan ajratib turuvchi orol. Qur’onda nomi keltirilgan Zulkifl payg‘ambar maqbarasi borligi uchun shu nom bilan ataladi.

[2] **Qurultoy** – turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida qadimdan mavjud bo‘lgan harbiy kengash yoki majlislarning umumiy nomi.

[3] **Laqay** – o‘zbek urug‘laridan birining nomi (asosan, Tojikiston Respublikasi hududi, Afg‘oniston, Eron va boshqa joylarda yashaydi; shu urug‘ga mansub kishi).

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Qoraxo‘ja. Baas! Uni bo‘shatinglar! Bo‘shat! Xurrambek, sizning tilingiz o‘rganib qolibdi: o‘ldir-o‘ldirga! Bu sho‘rlik bor gapni aytyapti-ku!

Xurrambek. Siz ishondingizmi?

Qoraxo‘ja. Men yigitlarga achinaman. Bo‘shatinglar!

Xurrambek (bo‘shatishga imo qiladi). Mayli. Baribir hech qayerga ketmaydi.

Qoraxo‘ja. Bu bechoraga: “Ibrohimbekni so‘rab bormadingmi?” dedingiz. Ha, so‘roqlab borsa, yaxshi bo‘lardi. Bormapti. Nachora... Xo‘sh, o‘zingiz-chi? O‘zingiz nima qilib edingiz?

Xurrambek. Nima qilibman?

Qoraxo‘ja. Yo Rabbim! Ibrohimbek janobi oliylari kim edi? Qanday vazifada edilar?

Xurrambek. Ha, endi...

Qoraxo‘ja. Anvar posho hazrati oliylarining o‘rnida qolgan – Anvar posho edi! Bu yog‘i Tojikiston-u bu yog‘i Qashqa vodiysiga-cha qolgan... lashkari islomning sardori edi! Ul kishini a’lo hazrat boshdayoq bu martabaga tayin etib edilar. Xo‘p, ana, Anvar posho hazratlari yurtimizga kelgach, Ibrohimbek sarkardalikni ul kishiga bir muddat berib qo‘ygan edi. Ammo Anvar afandining omadlari yurishmay shahid bo‘ldilar...



Anvar posho.

Xurrambek. Eski yaralarni ochmang. U kishi bilan birga mening ham ming-ming yigitlarim nobud bo‘ldi.

Qoraxo‘ja. Hamma narsa Ollohdan… Lekin sarkardalik tag‘in Ibrohimbekka tegdi-ku?

Xurrambek. Shu o‘rinda amirimiz andak xatoga ketdilar.

Qoraxo‘ja. Tavba deng!

Xurrambek. Bo‘lari gap shu.

Qoraxo‘ja. Xo‘p. Xo‘p, siz Ibrohimbekni navkarlari bilan Surxon tuprog‘idan haydab solib, nima topdingiz?

Xurrambek. Sarkardalikni.

Qoraxo‘ja. Mening boshqa so‘zim yo‘q.

Xurrambek. Shoshmang... Sarkarda bo‘lsa, nega u bizning qishloqlarimizni taladi? Ot-ulovlarimiz, mol-hollarimizni Afg‘onga jo‘nata boshladi?

Qoraxo‘ja. Axir, o‘zi uchun jo‘natmagandir? Anglizlar tekinga qurol beradimi sizga?

Xurrambek. Taqsir, mufti bo‘lsangiz ham ancha sodda ekansiz. Uning yetti avlodi o‘g‘ri o‘tgan-ku?

Qoraxo‘ja. Biz bas qildik.

Xurrambek. Gapiring, ichingizda qolmasin.

Qoraxo‘ja. O, gapirsam, tong-la mahshargacha ado bo‘lmaydi.

Xurrambek. Unda qiyin ekan.

Qoraxo‘ja. Siz chuqur o‘ylamaysiz, bek! Axir, Ibrohimbek bilan ayri tushuv – kuchni bo‘luv demakdir! Shu tobda Eshniyoz kamandir bir polk askar bilan sizga bosqin qilsa, holingiz nima kechadi?

Xurrambek (g‘ijinib). Haqiqatan ham gapingiz ko‘p ekan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Qoraxo‘ja. Yo Rabbano! Rahmatli og‘am Eshoni Sudur hazratlari bashorat qilgan ekanlar: “Bul turkiy xalqlarning boshi birikmaydi! – deb. – Ul biriksa, bu yorug‘ olam oyoqlarimiz ostida bo‘lurdi”. Naqadar haq gaplar! Xudo qarg‘agan xalq ekanmiz.

Xurrambek (o‘ychan). Noumid bo‘lmang, taqsir. Siz aytgan xalq yengilishi mumkin... Ha, biz yengilishimiz mumkin, ammo o‘lmaymiz. Yo‘q, ruhimiz tirik!

Qoraxo‘ja. Be, bunday yashamakdan o‘lim a’lo.

Xurrambek. Yo taqsir! Siz hali bizning istiqbolimizga ishonmay qo‘ydingizmi? Unda qanday qilib bizga yo‘l ko‘rsatuvchi, fatvo beruvchi bo‘lib yuribsiz?

Qoraxo‘ja. Bek! Men aytgan yo‘llardan yurganingizda bu gaplar bo‘lmas edi.

Xurrambek. Qanday gaplar?

Qoraxo‘ja. Samarasiz gaplar.

Xurrambek. E Tangrim! “Men aytgan yo‘ldan yurganingda edi...”, deysiz. Haliyam faqat siz aytgan yo‘llardan yurdim-ku! To‘g‘ri, murid sifatida emas, sarkarda sifatida... Anvar posho, Anvar posho, deysiz. Lekin u ruhing shod bo‘lgurning qaysi aqidasini xalq orasida yoydingiz?

Qoraxo‘ja. Qaysini yoymadim?

Xurrambek. Masalan, “Sho‘rolarni yurtdan chiqarsak, biz o‘zimiz insonlarni bir-biriga teng qilamiz!” degan gaplarini.

Qoraxo‘ja. U bo‘lmag‘ur gap edi.

Xurrambek. Axir, sho‘rolar shu gap bilan xalqning ancha-munchasini o‘ziga og‘dirib oldi-ku!

Qoraxo‘ja. Men yolg‘on so‘zdan hazar qilaman. Qaysi til bilan avomga: “Sizlar boylar ila teng bo‘lasiz. Eshonlar, xo‘jalar, saidlar bilan qoralarning farqi qolmaydi”, deyish mumkin? Egam o‘zi kechirsin, hamma narsa undan!

Xurrambek. To‘g‘ri, hazrat, bek ham bek bo‘lib qoladi. Biroq...

Qoraxo‘ja. Bas!

Xurrambek. Lekin siz bizning jonimizga tegib qolganingizni sezyapsizmi?

Qoraxo‘ja. Ha!

Xurrambek. Xo‘p, bas qildik bu gaplarni. (Xo‘rsinadi) Kemaga tushganning joni bir, taqsir. Siz bizning pirimizsiz, pirimiz bo‘lib qolasiz. Qo‘ying, ranjimang... Hali aytganingizdek, Afg‘ondan qurol-yarog‘ kelsin... Ibrohimbek ham albatta keladi. Ana unda qizillarning dodini beramiz.

Qoraxo‘ja. Inshoolloh.

Xurrambek. Ishoning. Lekin bu xalq... Meni kuydirgan narsa xalqimizning avomligi xolos.

Qoraxo‘ja. Ko‘nglingizga olmasangiz, bir gap aytaman.

Xurrambek. Ayting.

Qoraxo‘ja. Bir hikmat bor: mol egasiga o‘xshamasa, harom o‘larmish.

Xurrambek. Himm. Mayli. Chidaymiz... (Ostonga) Ha? Bizning gaplarni eshitib, maza qilyapsanmi, isqirt?

Oston. Yo‘q... Achinyapman.

Xurrambek. E it emgan.

Qoraxo‘ja. Ma’qul gap aytdi.

Xurrambek. Uff.

Ostonning qo‘lini bog‘lab, olib chiqib ketishadi…

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Parchaning boshida bo‘rilarning uvlashi va qarg‘alarning qag‘illashi tasvirlangan. Sizningcha, muallif nima uchun asarni aynan mana shunday sovuq va vahimali manzaradan boshlagan?
2. Ostonning nima uchun Afg‘onga qochgani, “*Men endi qon to‘kmayman*”, deb ont ichgani sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Uning bu yo‘lni tanlashiga sabab nima? Fikringizni asoslang.
3. Xurram qo‘rboshining Ostonga qarata aytgan: “*Faqat sho‘roga, kofirlarga qarshi kurashmoq uchun ont ichish mumkin. Sen-chi?”* kabi ta’nalari qay darajada asosli deb o‘ylaysiz? Bu o‘rinda ularning qaysi biri haq? Nima uchun?
4. Eshoni Sudurning bashorat tarzidagi *“Bul turkiy xalqlarning boshi birikmaydi! Ul biriksa, bu yorug‘ olam oyoqlarimiz ostida bo‘lurdi”* degan gapini Xurrambek va Ibrohimbek o‘rtasidagi nizo misolida tushuntiring. Mag‘lubiyatning asosiy sababi faqat qurol yetishmasligida edimi yoki?..
5. Nima deb o‘ylaysiz: Qoraxo‘ja eshon nega xalq orasida tenglik g‘oyasini yoyishga qarshi chiqdi?
6. Xurram qo‘rboshining *“Ishoning. Lekin bu xalq... Meni kuydirgan narsa xalqimizning avomligi xolos”* degan tashvishiga qo‘shilasizmi? Bu xulosa faqat o‘sha davrga tegishlimi yoki bugungi kunga ham daxldorligi bormi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

Guruhlarda ishlash

Kichik guruhlarga bo‘lining. Quyidagi tarixiy shaxslar haqida ishonchli manbalardan ma’lumot to‘plang va ularning faoliyati bo‘yicha taqdimot tayyorlang.

1-guruh	**Xurrambek**
2-guruh	**Anvar posho**
3-guruh	**Eshoni Sudur**
4-guruh	**Ibrohimbek (laqay) qo‘rboshi**
5-guruh (baholovchi)	Taqdimotni quyidagi mezonlarga tayanib baholash yoki yana qo‘shimcha mezonlar qo‘shish mumkin: • shaxs haqidagi ma’lumotlar **tarixiy faktlarga asoslangani,** uning **milliy ozodlik harakatidagi o‘rni** va **asardagi voqealar bilan bog‘liqligi** aniq ko‘rsatilgani; • shaxsning mag‘lubiyati sabablari haqida guruhning **shaxsiy xulosasi mavjudligi;** • **guruh a’zolarining hamjihatligi, nutqning ravonligi** va **tinglovchilar e’tiborini torta olish** qobiliyati.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2

Gulxan alangasi pasayadi. Sahna qorayib, qorong‘i tushganday bo‘lib qoladi. Bir payt sahna yana yorisha boshlaydi. Xurrambek cho‘chib uyg‘onib, atrofiga alanglaydi. Eshon hamon chayqalib, pichirlab, tasbeh o‘girib o‘tiribdi.

Xurrambek. Bir nimaning ovozi keldimi?

Cho‘loq oshpaz. Eshitmadim, begim. (Sukut) Lekin bolam yodimga tushdi.

Xurrambek. Itning tushiga tut kiripti... O‘g‘ling Sheroboddami?

Oshpaz. Ha. Singlimning qo‘lida... O‘tanbek yolchimasin, yorimasin! O‘risning o‘qiga uchsin! U sizdan ham qochib yuripti, begim. Soliq soladi, deb...

Xurrambek. Xotiningning daragi chiqdimi?

Oshpaz. Chiqsa, bilardingiz-da. (Sukut) Siz ham surishtirmadingiz...

Xurrambek. Qo‘y endi. Tirik bo‘lsayam senga nomahram... Vaqti kelsa, o‘zim onasi o‘pmagan qiz oberaman.

Oshpaz. Men uylanmayman endi... Kenjaginam omon bo‘lsa, bo‘ldi. (Sukut) Sizning Umidjon Boysunda-ya?

Xurrambek o‘ychan bosh irg‘ab, yonboshlaydi. Yana cho‘chib turadi.

Xurrambek (Soqchiga). Hoy Duduq, qulog‘ing ham kar bo‘p qolganmi? Qandaydir...

Bolalarning ovozi yaqinlasha boshlaydi:

Yasha, sho‘ro!

Yasha, sho‘ro!..

Qassob paydo bo‘ladi.

Qassob. Bek, qandaydir bolalar!

Xurrambek. Bolalar?!

Qassob. G‘alati ashula aytib kelishyapti. Ularni birov yuborgani aniq. Bo‘lmasa ularga nima bor bu yerda?

Xurrambek. Shoshma! Hozir bilamiz.

Xurrambek qo‘zg‘alib, “chetlaninglar” ishorasini qiladi. So‘ng o‘zi ham daraxt panasiga o‘tadi. 4-5 nafar 10 – 13 yashar bola kirib keladi. Ko‘kragida qizil band.

Bolalar:

Yasha, sho‘ro! Yasha, sho‘ro!
Sen yashaydurg‘on zamon!
Ishchi o‘g‘li, shuhratingdan...

Bolalar hayron bo‘lib to‘xtashadi.

Umid. Kenja, yetib kepmiz!

Kenja. Ana olov!

Ular qo‘llarini gulxanga toblab, tevarak-atrofga qaray boshlaydi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

1-bola. Qozon!
2-bola. Miltiq!
Umid. Kim boor!
1-bola. Bizni o‘ldirishmaydimi, Umid?

Xurrambek yashiringan joyidan oldinroqqa chiqadi.

Xurrambek (titrab). O‘g‘lim.
Umid (Xurrambekni ko‘rib qoladi). Ota!
Xurrambek. O‘g‘lim!

Umid yuguradi. Xurrambek uni bag‘riga bosadi.

Oshpaz (chetdan). Kenja! Bolam!

Kenja ham otasiga otiladi.

Xurrambek (o‘g‘liga boqib). Aa, bo‘ying ham cho‘zilib qopti. (Bolalarni ko‘rsatib) Bular kimlar?
Umid. Jo‘ralarim.
Xurrambek. Aa... Xush kelibsizlar, yigitlar. (Umidga) Qani, bu yerga o‘tir-chi. (O‘tirishadi) Qayoqdan kelyapsan? (Kulumsirab) Men hech narsaga tushunmay qoldim?
Umid. Milisa amaki: “Otang Qora kamarda”, dedi. “Seni sog‘ingan”, dedi. Yo‘lni ko‘rsatib qo‘ydi. Keyin kelaverdik-da!
Xurrambek. Haa, yaxshi qipsan... Sog‘ingan edim... Qanaqa milisa amaki aytdi?
Umid. Bor-ku? Boysungayam borgan edi... Qoraqul amaki-chi?
Xurrambek. Eha.
Umid. Biz Chuqurko‘l bo‘yida kaklik quvlab yurgan edik. Kakliklar shunday qishloqqa tushib kelgan...
Xurrambek. Ochlikdan, ochlikdan... Sen Sherobodda nima qilib yurib eding?
Umid. Boysunda – ibtidoiy maktabda bolalar: “Otang – qo‘rboshilarning boshlig‘i”, deyaverishdi. Meni yig‘latishdi...
Xurrambek. Vey, otang qo‘rboshilarning boshlig‘i ekan, bundan quvonmadingmi, o‘g‘lim?
Umid (bolalardan bir-ikkitasini ko‘rsatib). Siz mana bularniyam otalarini o‘ldirgansiz-ku? Boysundayam…
Xurrambek. He-he-he... Gap bu yoqda de? (Sukut) Keyin nima qilding?
Umid. Ammam borganda aytib edim, Sherobodga olib keldi. Keyin u yerdagi yangi maktabga qo‘ydi.
Xurrambek. Aaa? Yangi maktabga?.. Yangi maktabda nimalarni o‘rgatishyapti?
Umid. Har narsani.
1-bola. Ko‘p narsani.
Xurrambek. “Haftiyak”ni hammi?
2-bola. Yo‘q. O‘rischadan o‘zbekchaga ag‘darilgan kitobni. Tatar muallim o‘rgatadi.
Xurrambek. O‘o‘o‘! Ajoyib yigit ekansizlar... Ammo otalaringni men o‘ldirmaganman.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Umid. Yo‘q, siz o‘ldirgansiz.

Xurrambek. Endi, adashgan bo‘luvim mumkin. (Sukut.) Hali qanday ashulani aytib keldinglar?

Umid. “Yasha, sho‘ro”ni.

Xurrambek. Qani, yana bir aytib beringlar-chi... Tur o‘rningdan. Mana bu yerga chiq... Boshla! Boshlanglar! Shunday aytinglarki, bu Qora kamar jaranglab ketsin!

Bolalar (saf tortib, yurib aytadilar):

Yasha, sho‘ro, yasha, sho‘ro!
Sen yashaydurg‘on zamon,
Ishchi o‘g‘li, shuhratingdan
Balqisin ro‘yi jahon!
Yasha, sho‘ro, yasha, sho‘ro!..

Bolalar to‘xtashadi.

Xurrambek. Yana bormi?

Umid. Bor! (Yolg‘iz o‘zi aytadi).

Eski turmush bog‘larin qo‘y,
Qarg‘a-zog‘lar qishlasin!
Yangi turmush bog‘larida
Yosh ko‘ngillar yashnasin!

Xurrambek. Eski turmush bog‘larida qarg‘a-zog‘lar... Bu ashulani kim o‘rgatdi sizlarga?

Umid. Abdulla aka!

Bolalar. Abdulla Nabiyev!

Xurrambek. Aaa... Yaxshi kishi ekanmi?

Bolalar. Juda yaxshi! Yaxshi!

Umid (ko‘ksidagi bandni ko‘rsatib). Mana buniyam berdilar.

Bolalar. Bizgayam... Mana, mana...

Xurrambek. Bu nima ekan?

Umid. Bu – bilmadim. Yangi odamlar taqadi, dedilar. Keyin, sizlar kashshof[1] bo‘lasizlar, dedilar.

Xurrambek. Himm, yana nimalar dedi?

Umid (bosh egib). “Bosmachilar – xalq dushmani”, dedilar. Keyin, menga aytdilarki, “Otang uyga kelsa ayt: odam o‘ldirmasin. Yurt sho‘roniki bo‘ldi. Qurolini tashlasin”, dedilar.

Xurrambek. Buni qara, biz haligacha shu narsani bilmay yurgan ekanmiz-a! Qanday dono odam ekan!..

Umid (otasining qo‘lidan tortib). Otajon, yuring. Boysunga ketaylik. Sog‘indim...

Xurrambek. Ketamiz, o‘g‘lim, ketamiz. Men ham uyni sog‘inganman... Mening hali umidlarim ko‘p. Nasib etsa, seni Boysun madrasasiga qo‘yaman. Keyin Buxoroda o‘qiysan. Undan keyin Istanbulda...

[1] **Kashshof** – pioner; birinchi bo‘lib yangilikka qadam bosuvchi, biror harakatni boshlab beruvchi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Bolalar. Abdulla aka: “Endi Moskovda, Leningrodda o‘qiysizlar”, dedilar.

Xurrambek. Aaa? Lenin-girod. (Xavfsirab turgan eshonga) Taqsir, o‘sha Leningirodni inqilobning beshigi deyisharmidi? Mana, bolalarimiz yo‘rgaklanishga tap-tayyor bo‘lishipti.

Qoraxo‘ja. Bek, bularga javob beraylik... Maylimi, bolalar? Endi ketasizlar-a?

Xurrambek. Ketadi, ketadi... Borib, yangi maktabda o‘qishadi. Yana “Yasha, sho‘ro”, deyishadi... Uhh... (Behol nari ketadi. To‘planib qolgan navkarlarga) Eshityapsizlarmi, yigitlar! Ana... Bizning ertangi kunimiz, bular...

Qoraxo‘ja (hayajonda). Bek, bularga javobmi?

Xurrambek (picha sukut saqlab). Qassob!

Qassob. Labbay!

Xurrambek. Bularni kuzatib qo‘y.

Qassob. Xo‘p bo‘ladi.

Xurrambek. Seni bolang yo‘q-a?

Qassob bosh egadi.

Bir-birimizga teng bo‘lishimiz kerak.

Qassob. Beek...

Xurrambek. Bor.

Qassob. Axir...

Xurrambek. Nima dedim, it?!

Qassob. Hammasinimi?

Xurrambek. Hammasini!

Umid (otasining qo‘lidan ushlab). Otajon, qachon borasiz endi? Keta qolaylik hozir. Enam ko‘p yig‘laydilar...

Xurrambek (titrab). Qassob!

Qassob. Yuringlar. Yuringlar, bolalar.

Xurrambek o‘g‘lini daf’atan quchib, keyin itarvoradi.

Umid. Ota, endi odamlarni o‘ldirmaysiz-a? Ota, biz boshqa bolalargayam aytamiz. Abdulla akagayam...

Xurrambek. Qassob!

Qassob. Yuringlar-da, endi-ye!

Umid. Yuringlar. Yasha, sho‘ro!..

Bolalar (unga jo‘r bo‘lishadi). Yasha, sho‘ro!

Sen yashaydurg‘on zamon.
Ishchi o‘g‘li...

Xurrambek (Oshpazga ko‘zi tushib). Sen nimaga ushlab turibsan? Qo‘yvor bolangni!

Oshpaz. Bolam.

Kenja ham shodlanib, bolalarga yetib oladi. Ular chiqishadi.
So‘ng Oshpaz shoshib, narvon orqali qoyaga ko‘tariladi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Qoraxo‘ja. Bek! Ko‘nglim allatovur bo‘lmoqda. So‘nggi so‘zlaringizni uqolmay qoldim.
Xurrambek (bir yigitga duch kelib). Yo‘qol, hammang!
Qoraxo‘ja. Yo Rabbano!

Eshon burilib ketib, yog‘och kat[1]ga o‘tiradi. Oshpaz hovliqib, pastga tushadi.

Oshpaz. Begim, begim! Qassob ularni qishloqqa emas... to‘qayga boshlab ketdi. Begim!.. To‘qayga ketishdi... Hazrat, hazrat...
Xurrambek. Jim bo‘l, it!
Qoraxo‘ja. Bek?!
Oshpaz. Axir, axir, bolam...
Qoraxo‘ja. Beek!
Xurrambek. Nari turing.

Oshpaz yiqilib-surinib chiqadi. Eshon karaxt. Tasbeh o‘girmoqda. O‘q ovozlari eshitiladi. Changalzorda qarg‘alar qattiq qag‘illaydi. (Sukut cho‘kadi.) Hushsiz Umidni qo‘ltiqlagan Qassob kirayotib, o‘ziga yopishgan Oshpazni tepib yiqitadi. Bolani keltirib, Xurrambek yotadigan joyga tashlaydi.

Qassob. Bunga qo‘lim bormadi.

Oshpaz kelib, Qassobga yopishadi.

Oshpaz. Bolamni topib ber! Mening bolam qani? Bolam...
Qassob (uni urib ag‘dargach). Bolangni, ana, bekdan so‘ra! (Nari ketadi.)
Oshpaz. Beek, bek... voy-dod! (Chopib chiqib ketadi.)

Xurrambek o‘g‘li boshiga engashadi. Qotib qolgan eshon nihoyat o‘ziga keladi. So‘ng asta chakmonini yechadi. Qidirinib, janda[2] chopon kiyadi.

Qoraxo‘ja. Alvido, bek!
Xurrambek. Yo‘l bo‘lsin!
Qoraxo‘ja. Uzlatga!.. Xudo kechirmaydi... Oxiratim kuydi, imonim kuydi. Qonga belandim. Gunohga botdim.

Eshon sallasini yechib, bo‘yniga sirtmoq qilib soladi-da, hassaga tayanib jiladi.

Xurrambek. Taqsir! E, chini bilan-ku!.. Devona. (Baqiradi) Axir, qizillarning qo‘liga tushsangiz, nima bo‘ladi? Eng katta yov...
Qoraxo‘ja (to‘xtab). Aa, sirimni fosh etadi, deb qo‘rqdingizmi?.. Siz ham o‘zingizcha haqsiz. Nachora...

Eshon to‘pponcha chiqarib, o‘zini otadi. Bu o‘q sadosidan ham quzg‘unlar chuvvos soladi. Xurrambek titrab, o‘g‘lining boshiga tiz cho‘kadi.

[1] **Kat** – keng yog‘och karavot.
[2] **Janda** – darvish va qalandarlarning uloq-quroq to‘ni.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Qo‘rboshi o‘g‘li bilan suhbatdan keyin nega shunday qarorga keldi? Umidning o‘zini tutishi qotillik qilishga sabab bo‘la oladimi?
2. Xurrambek nega o‘g‘lining Boysunga ketish haqidagi istaklariga ko‘nmadi? Nima deb o‘ylaysiz: Umid otasini tanlagan yo‘lidan qaytara olishi mumkinmidi? Qanday qilib? Xurrambek va Umid o‘rtasidagi qarashlar to‘qnashuvini sabab – oqibat asosida tahlil qiling.
3. Xurramning begunoh bolalarni o‘ldirishga buyruq berishini qanday baholaysiz?
4. Nima deb o‘ylaysiz: nega Oshpaz va Qoraxo‘ja Qassobning qatlni ado etishiga to‘sqinlik qilmadi? Bu ish ularning qo‘llaridan kelmasmidi? Fikringizni asoslang.
5. Ayting-chi, Qoraxo‘ja eshonning o‘limiga qo‘rboshi aybdormi yoki bunga o‘zi zamin tayyorladimi? Matnga tayanib javob bering.
6. Asarning qaysi o‘rinlarida qahramonlarning ichki dunyosiga mos tabiat tasvirlari berilgan? Bu tasvirlarga qanday ma’no singdirilgan? Misollar keltiring.

Ijodiy ish

Bolalarni bosmachilar makoniga yuborish rejasidan ko‘zlangan asl maqsadni topishga harakat qiling. Sho‘ro tomoni bolalarning o‘limini kutganmi yoki bu boshqa strategiya edimi? Fikringizni asoslab, **kichik tahliliy matn** yozing (6 – 8 gapdan iborat).

IKKINCHI SAHNA

Sho‘rolar ichidagi gap-so‘zlarni Xurrambek qo‘rboshiga yetkazadigan militsioner Qoraqul Bobobekov Abdulla Nabiyevning Boysunga borish uchun shu kamar tagidan o‘tishini aytadi…

Salom qamchini olganda Duduq tepadan baqiradi.

Duduq. Ana, ana!..

Xurrambek (tepaga qarab). Opkelishyaptimi?

Bir yigit (tepadan). Ikki kishini bandi qip kelishyapti! Ikki kishini!

Xurrambek (o‘zida yo‘q shod). Nihoyat... Xudoyimga shukr. Ishqilib... (Salomga) Tegma! Qo‘y, bular ham ko‘rsin... bama’ni gap aytuvchi yigitni! Undaylarning qismati nima bo‘lishiniyam bilib qo‘yishsin! Chakmon!

Tushib kelgan Duduq Xurrambekning etagidan tortib, egnidagi chakmon ekanini bildiradi. Shunda Qassob boshliq yigitlar Abdulla Nabiyev bilan Ostonni sudrab kirishadi.

Qassob. Mana!

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Xurrambek ishonqiramay ular ustiga boradi.
Salom Abdullaning sochidan tortib, bekka qaratadi.

Salom (jo‘n quvonch bilan). Shu! Shuning o‘zi!

Xurrambek. Nari tur. (Sal tislanib, qonga belangan, gimnastyorka[1]dagi Abdullaga tikiladi) J-juda yosh ekansan-ku, a?.. Meni bilasanmi? Men – Xurrambekman. Sen Surxondan yo‘qotmoqchi bo‘lib kelgan odam – Xurrambek bo‘laman! (Ostonga ko‘zi tushib, zavqi toshib kuladi) Seni ot emas, ajal tortib kelgan, jo‘ra. (Gangib) Qassob, qayoqdan topa qolding bularni? Tag‘in ikkisiniyam-a? (Yayrab, nari-beriga qadam otadi.)

Qassob. Mana shu sho‘rochini otingizga mingashtirib opketayotgan ekan. Otni otdim...

Xurrambek. Ot – sadqayi sar... Lekin baraka top, do‘stim! Sen – bittasan! (Ostonga) Xo‘sh, ajina, sendan eshitamiz?

Oston. Shu. Rost. Muni opketayotib edim.

Xurrambek. Shumi?

Oston. Shuni.

Xurrambek. Qayoqqa?

Oston. Boysunga. …Xurram, uni bo‘shat. Qo‘lingdaman-ku? U bir g‘amzada, g‘arib...

Xurrambek (Oshpazga qarab). Bo‘shatmas edim-u, rost gapirgani uchun... (Yigitlarga “yechinglar” ishorasini qiladi. Ostonga) Xo‘sh? Qulog‘im senda! (Abdullaga) Siz zerikib qolmang, inim. Gurungimiz alohida...

Oston (Abdullaning mayna qilinishini istamay, tez). Qochganimdan keyin yo‘lda o‘yladim: bu yigitni baribir qo‘lga tushirishadi, deb!.. Keyin jarlikda poylab turdim. Bir vaqt qirg‘oqdan birov uchib tushdi-da, do‘lanaga ilinib qoldi. Qarasam, o‘sha... shu. Tushirib oldim... Qassob otni otmaganda...

Xurrambek. Gapir, gapir... He, nonko‘r! Kitob ursin seni! Qur’oni sharif bilan ont ichib, safga qo‘shilgan qo‘rboshi eding-a, nomard!

Oston. Men nomard emasman.

Xurrambek. Nomard ham gapmi? Sen sayoq, daydi itsan.

Oston. Kim qanday odam ekanini ahli musulmon ko‘rib turibdi. Lekin... senga rostini aytaman. Sho‘rodan afv so‘rab bormoqchimas edim.

Xurrambek. Ey ahli musulmon! Shuning gapiga ishonib bo‘ladimi?

1-chol. Sho‘ro afv so‘raganlarni kechiradi...

2-chol. Ha, kechirib yotibti.

Oston (bo‘kiradi). Yo‘q! Men buning uchun bormoqchimas edim! Shunchaki... (Abdullaga qaraydi).

Xurrambek. Sen hozir o‘lishing kerak.

Oston. Xurram! Ayt... meni bo‘shatsin!

Xurrambek. Nima qilasan?

Oston. Qo‘rqma.

Xurram uni bo‘shatishga imo qiladi. Oston bo‘shalib, bilaklarini uqalaydi.

[1] **Gimnastyorka** – tik yoki qaytarma yoqali, ustidan kamar bog‘lanadigan ustki ko‘ylak (rasmiy harbiy kiyim).

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Ikki og‘iz gapim bor.

Xurrambek. Faqat kalta qil.

Oston (bozorchilarga). Yurtdoshlar! Men nomard emasman. Men... “qon to‘kmayman!” deb ont ichib edim xolos. Shuning uchun Afg‘onga o‘tib ketib edim. Ammo... bu yurt meni tortdi. U Tangriqashqa bo‘lib kishnadi menga! Men ming bir o‘limga chap berib, bu yoqqa o‘tib keldim. Lekin bildimki, bu tuproqda yo qon to‘kishing kerak, yo qoning to‘kilishi kerak ekan... (Bozorchilarga) Ikki og‘iz gapim bor, eshitinglar!

Xurrambek. To‘rt og‘iz bo‘p ketdi-ku!

Oston. Xurrambekka ishonmanglar! Bu – bor bisotidan ayrilib, alamzada bo‘lgan kimsa! Vatanda bevatan bo‘lgan zot! Odamgarchilikdan asar ham qolmagan yirtqich! (Shoshib kuladi.) Kechadan beri eshitdim: turkiy xalqlar, turkiy xalqlar... deydi. Boshi birikmadi, deb oh tortadi! (Xurrambekka) Ey nodon bek, bu gaplar Anvar poshoga yarashar edi! U kishi... osmon qadar keng odam edi! Sen... sen o‘zbekning boshini qovushtirishga yaramaysan-u, o‘zingni kim-nima chog‘laysan! Ibrohimbek o‘zbek emasmi?.. Safsata sotasan! Bilaman, sen qaysar, o‘r[1] odamsan. Lekin hozir... (Bozorchilarga) yirtqichga aylangan bu! Yigitlar! Sizlarniyam boshlaringga yetadi bu! Yana bir gap: buning izidan Afg‘onga o‘tmanglar! Afg‘on bizdan yuz o‘girgan... Buning ustiga, Afg‘oniston poshshosi Omonullaxon O‘rusiya sho‘rolari bilan maxfiy aloqa o‘rnatayotir! Uning maqsadi – vaqti kelganda, biznikilarni ushlab berish, sotish! Chunki... Chunki Ibrohimbek ularning ham joniga tegdi! U sho‘rlik bo‘lsa, qaroqchilik qilib, karillab yuribdi! Anglizga ishonib... (Xurrambekka) Amirdan qurol-yarog‘ kutyapsan-a? Xomtama bo‘lma!.. Ibrohimbek ont ichgan emish: Xurram kelib, oyog‘imga yiqilmagunicha qurol-yarog‘ o‘tkazmayman, deb...

Xurrambek (titrab). Yolg‘on!.. (Boshini ushlaydi) Qassob!

Oston. Shoshilma, Qassob! Bir kun kelib seniyam bahringdan o‘tadi bu...

Xurrambek. Qassob!

Oston. Diydor qiyomatga qoldi. Faqat bir narsaga achinaman: bir suyganim bor edi, shuni ko‘rolmadim...

Oston yaqin kelib qolgan Qassobning pichog‘ini sug‘urib ko‘targanda, Duduq otilib chiqadi.

Duduq-Oftob. Shoshmang! (Boshidan telpagini olib tashlaydi. Sochi kalta qirqilgan qiz) O‘sha suyganingiz menman!

Hamma hang-mang bo‘lib qoladi.

Oston. Oftob?!

Oftob. Men. O‘xshaymanmi?

Oston. E Tangrim!

Ostonning qo‘lidan pichoq tushadi. U tiz cho‘kib, manglayini yerga urib, ko‘taradi.

Oftob!

Oftob. Men.

[1] **O‘r** – o‘jar; johil.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Oftob mardona, jodu tabassum bilan uning qarshisida cho‘k tushadi.

Oston. Yo tavba!

Oftob (Xurramga qarab). Xurrambek, hayron bo‘lmang! Dudug‘ingiz qiz bola edi. Omondurdiboyning qizi! Uyimizda mehmon ham bo‘lgandingiz...

Yigitlar orasida shivir-shivir.

Aldab edim sizni. Sizlarniyam, o‘g‘lonlar! (Ostonga dilkashlik bilan) Nima qilay? O‘zga ilojim yo‘q edi... Qizillar otamni o‘ldirishdi. Eshitgan bo‘lsangiz kerak?

Oston (shivirlab). Yo‘q.

Oftob. Onamni bulg‘ashdi.

Bozorchilar orasidayam g‘ovur-g‘uvur. Oston kaftlari bilan yuzini yopadi.

Men… mening paranjimdan ham tortishardi. (Xurrambekka) Bek, bilarsiz, bizning qishloqda paranji yopinishadi.

Xurrambek og‘ir bosh irg‘aydi. Nabiyev diqqat bilan tinglamoqda.

1-chol. Boysunning markazidayam paranji yopinishadi.

Oftob (Ostonga). Ana shunday qilib, qo‘rboshi og‘a, biz uydan ketdik. Sizni izladik, qo‘rboshi og‘a… Otangiz so‘pi bobo: “Yigitlari ado bo‘lgach, Afg‘onga o‘tib ketyapti”, dedilar. Men izingizdan Afg‘ongacha o‘tmoqchi bo‘ldim. Lekin ilgarigi tulporlarimiz qayda?.. Biz gado bo‘lib qolgan edik...

Oston. Oftob...

Oftob. O‘o‘, men sizni, sizni... ko‘rgim kelgani uchunmas, “Nega qochdingiz?” deb bormoqchi edim!

Xurrambek (o‘zicha). Balli.

Oftob. Mana bu (Abdullaga qaraydi) sochi uzun, xotinchalishlardan nega o‘chimizni olmaysiz, deb so‘ramoqchi edim. Bular – begimiz rost aytdilar – xoin!

Jimlik.

Xurrambek. Gapir, qizim, gapir.

Oftob (yig‘lamsirab). Bultur Sherobodda katta yig‘in bo‘ldi. Yo‘ldosh ota Oxunboboyev degan bir chuvak[1] yuzli kishi kelib ekan. (Birdan Abdullani ko‘rsatib) Aa, mana buning yurtdoshi ekan... Aytib berdi. (Mungli) O‘zi yaxshigina odam-u, “Xotin-qizlarimiz paranjini tashlasin!” deydi. Dalaga chiqib ishlasin, deydi... Biz dalaga chiqib, ketmon chopar emishmiz, qarolga o‘xshab... (Bozorchilarga) Sizlar eshitmadinglarmi? Ee gadolar... (Ostonga siniq-kinoyali jilmayib) Buxoro qo‘ldan ketgan kunning qaysidir yilini bayram qilishdi-da, mana bu mehmonga o‘xshaganlar bosh bo‘lib... “Bu-xo-ro inqilobini nishonlaymiz!” deb. Xalq inqilobi, deb atashdi... Amirni xalq ag‘dargan emish...

Xurrambek. Balli, qizim, balli.

Oftob (Ostonga). Siz bu gaplardan bexabarsiz, qo‘rboshi og‘a.

Xurrambek. Qo‘rboshi edi!

[1] **Chuvak** – qotmadan kelgan, oriq.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Oftob. Hozir...
Xurrambek. Navkar ham emas.
Oftob (Ostonga). Shundaymi?

Oston bosh irg‘ab, tasdiqlaydi.

Yo‘q! Siz navkarsiz! Siz yana yuzboshi bo‘lasiz!.. Menga qarang, boshingizni ko‘taring!.. Qanday yigit edingiz! Mana, nima ahvolga tushib qopsiz... (Xayol ichra.) Men sizga chakmon tikib beraman. O‘rmak[1] quraman, urchuq[2] yigiraman... O‘zim mato to‘qib, o‘zim tikib beraman. Bu kiyimlarni tashlang!

Oston shikasta jilmayib, Xurrambek tomon qaraydi.
Oftob birdan bekka o‘rmalab, iltijo qiladi.

Begim! Buni o‘ldirmang! (Yerga bosh urib, ko‘taradi.) Bir qoshiq qonidan kechingl.. Bu aybini yuvadi! Bu – mard yigit...
Xurrambek (Ostonga). Shundaymi? Mardmisan?

Oston bosh egadi.

Oftob. Mard, mard... (Ostonning qoshiga keladi.) Ayting, men sizga sodiq bo‘laman, deng! Elimga, oyoqosti bo‘lgan yurtimga sodiqman, deng! Kurashaman, deng... Mana bulardan o‘ch olaman, deng! Mening uchun ham!

Oston jim.

(Xurrambekka) Siz bir narsa deng. Bu ishonmayapti... Tuzimiz haqqi, xizmatlarim haqqi! O‘lgunimcha qulingiz bo‘lay!
Xurrambek. O‘zi nima der ekan?
Oftob. O‘zi rozi. (Ostonga) Og‘a!
Oston (yig‘lab). Yo‘q.
Oftob (shivirlab). Nimaga?
Oston. Oftob! (O‘rnidan turadi.) Ey Tangrim! Nega meni buncha ezasan?
Oftob. Undan ham afv so‘rang!
Oston. Nimaga?
Oftob. Biz... haq yo‘ldamiz! (Bozorchilarga ishora qilib) Mana bu isqirtlarni qo‘ying! Bular uchun non – payg‘ambar, osh – Xudo! Kecha bizning qarolimiz edi bular. Erta boshqaniki bo‘lib ketaveradi. (Kuladi) Yoki mana bunga o‘xshab sho‘roga yugurdak bo‘ladi. Buyam qashshoqdan chiqqan! E, siz-e! Shuni qutqaraman, deb yuribsiz-a?..
Xurrambek. Qizim, yalinma bu itga. O‘z qadringni bil. Sen yovqur turkmanning qizisan. Bu mening qavmimdan bo‘lsa ham qo‘rqoq xoin.
Oftob (Ostonga). Shundaymi?
Oston (hech narsani ko‘rmay). Men qon to‘kmayman. Ont ichganman.
Oftob. Men uchun ham-a?

Oston yerda qolgan pichoqqa qaraydi. Engashganida qiz oladi.

[1] **O‘rmak** – sholcha yoki gilam to‘qiydigan mahalliy dastgoh.
[2] **Urchuq** – tolalardan qo‘lda yoki mashinada ip yigirish, pishitish uchun ishlatiladigan moslama yoki qurilma.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Oston. Oftob...

Oftob o‘rnidan turib, Xurrambek tomon chekinadi.
Va yonidan to‘pponchasini oladi, Ostonning ko‘ksini ko‘zlab otadi-da, chiqib ketadi.

Oston (ko‘ksini ushlab). Rahmat.

Oston yiqiladi. Bozorchilar orasida g‘ovur. Murdani sudrab ketishadi.
Xurrambek nari-beri yurib, Abdullaning qoshida to‘xtaydi.

Xurrambek (Abdullaga). Ko‘ryapsanmi nima ishlar bo‘lyapti? Musulmon farzandlari bir-birini o‘ldiryapti... (birdan) Sen tufayli. Sen uchun! (Abdulla rad ma’nosida bosh chayqaydi.) Bo‘lmasa kim uchun? Nima uchun? (Abdulla bekning o‘ziga ishora qiladi.) Men? Men aybdormanmi? (Abdulla bosh irg‘ab tasdiqlaydi.) Haa... Haa... Sen boshqa nimayam deyishing mumkin? Salom!

Salom. Labbay!

Xurrambek. Nega buning tilini kesding? (O‘kirib yuboradi.) Men bu bilan gaplashishim kerak edi-ku? Buni qancha kutdim!.. Buning yo‘lida kimlar qurbon bo‘lmadi?! Boysunga yetmay turiboq!.. (Ingranadi. Abdullaga) Xo‘sh, bu yurtga... o‘z ixtiyoring bilan keldingmi? Yoki sho‘rolar buyurdimi? (Abdulla to‘lg‘anadi. Iyagini ko‘ksiga tekkizadi.) Aaa, o‘z ixtiyoring bilan? Bay-bay-bay!.. Qo‘rqmadingmi? (Abdulla rad ma’nosida bosh chayqaydi.) O‘o‘o‘! Botir ekan. O‘risning tarbiyasini olgan-da?.. (Yana tutaqib ketib) Bu yer – Surxon-ku! Toshkent allaqachon sho‘roniki bo‘ldi! Xorazm ham o‘risga qo‘l ko‘tardi! Junayid ham ado bo‘ldi! Sening... Farg‘onang ham... senga o‘xshagan maraz-sotqinlarning orqasida o‘ris mulkiga aylandi! Faqat shu yer, shu yurt qolgan edi... (Sukut) Shu yerda tiriklar qolgan edi! Fidoyilar qolgandi... (Abdullaga) Ni-mang-ga ishonib kelding?

Abdulla bozorchilarga qaraydi.

1-chol (ko‘z yoshini artib). Bizga ishonib kelgan ekan.

3-kishi (alamda). Ha, bizga o‘xshagan gadolarga...

2-chol. Qarollarga...

Xurrambek (Abdullaga). Mollarga, de? (Abdulla bosh chayqaydi.) Odammi bular? O‘zingga o‘xshagan-a? (Abdulla bosh irg‘aydi.) Uh! Biz bir-birimizni tushunolmayapmiz! (Alamdan) Salom, nega tilini kesding?

1-chol. Tili bo‘lmasayam gapiryapti, begim.

Xurrambek. Hammangni yotqizib, qo‘yday bo‘g‘izlayman... Abdulla, uka, sizlar o‘ylaysizlarmi? Ertaga nima bo‘ladi, a? A?.. Anvar posho aytgan edilar: “Yo hozir, yo hech qachon!” deb! O‘shanda ellik ming navkarimiz bor edi... (Abdulla jilmayadi.) Nega iljayasan? Qo‘shinimiz barbod bo‘lganigami? Hee, go‘dak... Senga... senga o‘xshaganlarning tashviqotiyam boshimizga yetdi!.. Lekin biz o‘lmaymiz! Ana, ko‘rasan! (Abdullaning harakatini tushunmaydi.) Nima-nima? Ishonmaysanmi? (Abdulla tasdiqlaydi.) Xo‘sh, xo‘sh... Sizlar, sho‘rochilar shu xalqqa... (O‘rtanib ketib) Vatanga, mana bu osmonday keng o‘lkaga ozodlik bera olasizlarmi? (Abdulla bosh irg‘aydi.) O‘rislar yurtdan chiqib ketadimi? (Abdulla jilmayib bosh irg‘aydi.) O‘ sho‘rlik bola!.. Qachon inson ko‘ribdiki, bosqinchi bosib

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

olgan o‘lkasidan chiqib ketgan? Axir, uyam qon to‘kyapti! O‘z qonini... Tushunyapsanmi? (Abdulla bosh irg‘aydi.) Bekorgami? A, nima uchun? (Abdulla iyagini ko‘ksiga tekkizib, osmonga qaraydi.) Bu nima deganing? Salom, Salom...

1-chol. Biz uchun... elning ozodligi uchun emish.

Xurrambek (tek qolib, qahqahlab kuladi). Kimdan? Kimlardan ozod etish uchun?

Salom. E, begim, gap tamom bo‘ldi.

Xurrambek. Ha. Sening tilingni kesishim qoldi xolos.

Salom. Sizni so‘kkandi, toqat qilolmadim-da.

Xurrambek (kulumsiragan Abdullaga). Kulyapsanmi? Uh, sening safdoshlaring bir kun kelib yig‘lamasa, rozimasman! O‘ris sizlarni yig‘latadi... (Abdulla tag‘in rad ma’nosida bosh chayqaydi). Ee, sho‘rlik jigarim...

Salom. Unga achinyapsizmi?

Xurrambek. Ha. Buyam bir umidli musulmonning farzandi axir... Yomon aldashgan bularni... (Abdulla tag‘in bosh chayqaydi.) Nima? Nima demoqchisan? Bir og‘iz... (Yig‘lam-sirab.) Qassob!

Qassob. Shu yerdaman**!**

Qassob. Abdullaning boshiga keladi. Xurrambek Salomni ko‘rsatadi.

Xurrambek. Uni...

Qassob. Beek?

Xurrambek (nochor). Xo‘sh, nima qil deysan?

Qassob. Men... men... (Pichog‘ini olmoqchi, pichoq yo‘q.) Ana, buyam karomat. Men endi odam so‘ymayman! Mol ham so‘ymayman! Ha! Bilganingizni qiling.

Salom. Qassob, jo‘ra, bo‘lgan ish bo‘ldi. Lekin... mendan oldin mana bu o‘lishi kerak!

Salom pichog‘ini sug‘urib, Abdullaga intiladi. Uning ko‘ksiga uradi.
Bozorchilar uvvos solib yuboradi.

1-chol. Jallodlar...

2-chol. Bu yer kush...kushxona ekan...

Ular alpang-talpang kelib, Abdullani ushlaydi.
Shunda kamar ustida qarsillab o‘q uziladi.

Xurrambek (cho‘chib tushib). Nima gap?

Bir yigit (tepadan). Duduq... o‘zini otdi!

Shunda Umid uyg‘onadi. Gangib-alanglab qarab, Abdullani ko‘radi-da, unga o‘rmalaydi.

Umid. Abdulla aka? Abdulla aka!.. (Tortqilaydi. Keyin qondan qo‘rqib, otasiga qaraydi) Bu kishiniyam o‘ldirdingizmi?

1-chol. Ha, bo‘tam. O‘ldirishdi.

Umid. Negaa? Ota! Otajoon, negaa? (Yig‘laydi.) Abdulla aka...

1-chol. Bezovta qilma, bo‘tam... Bek, bizga murdani bering, janoza o‘qib, ko‘maylik.

2-chol. Xo‘p, deng, bek.

3-kishi. Sizga endi kerak emas-ku!

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

1-chol. Umidni turtadi. Umid otasining qoshiga boradi.

Umid. Ota, bering... (Birdan uning yengiga yopishadi.) Bering, qonxo‘o‘r!

Xurrambek o‘tirgan yerida uni tepib yuboradi.

Xurrambek. Yo‘qol! Itvachcha...

Umid hayratda qotib va qo‘rqib, chollar tomon siljib boradi.

(G‘amnok) Musulmonlar... men o‘lsam, meniyam o‘ligimni so‘rab olib, janoza o‘qib ko‘masizlarmi?

Chollar sukutda.

Bilardim...

Shunda Umid tomoshabinga qarab tiz cho‘kadi. Qo‘lini fotihaga ochadi.

Umid. Men itvachchaman... shuning uchun sizday... otam yo‘q. Allohu akbar.

Xurrambek ingrab turib ketadi. Havo yetishmay uzoqlashadi. Sahna qoraya borib, yiroqdan xalq qo‘shig‘i eshitiladi.

Qo‘shiq.

O‘tdi, o‘tdi, o‘tdimi?
Xurrambeklar o‘tdimi?
Nabiyevni o‘ldirib,
Murodiga yetdimi?

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Xurrambek va Abdulla Nabiyev timsollarini qiyoslang. Har ikki qahramon ham millat ozodligini istaydi, biroq ular tanlagan yo‘l va e’tiqod orasidagi asosiy tafovut nimalarda ko‘rinadi?
2. Xurrambekning Abdulla Nabiyevga qarata: *“...Sening safdoshlaring bir kun kelib yig‘lamasa, rozimasman! O‘ris sizlarni yig‘latadi...”* degan so‘zlarida qanday tarixiy haqiqat yashiringan? Bu “bashorat” keyinchalik ziyolilarimiz taqdirida qanday namoyon bo‘ldi?
3. Oftob obrazining keskinligi va uning jamiyatga nafrati nima bilan bog‘liq? Ostonning fojiasi va uning Xurrambekka munosabati orqali muallif nima demoqchi?
4. Qo‘rboshining: *“Qachon inson ko‘ribdiki, bosqinchi bosib olgan o‘lkasidan chiqib ketgan?”* degan gaplarini bugun qanday baholash mumkin? Muallif bu orqali sho‘ro hukumatining asl maqsadini qay darajada ochib bergan?
5. Asar yakunida Qassob kabi ikkinchi darajali qahramonlar ruhiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar nimadan dalolat beradi?
6. Agar siz o‘sha davr va o‘sha vaziyatda bo‘lganingizda, qaysi qahramonning yo‘lini tanlar edingiz va nima uchun? Mulohazalaringizni asoslang.
7. Nima deb o‘ylaysiz: asar nomi nega “Qora kamar”? Drama matniga tayanib, javob bering.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Adabiy munozara

Sinfda teng ikki guruhga bo‘linib, quyidagilarni muhokama qiling:

1. Drama matnida Xurrambek anglizlar (inglizlar), ya’ni Buyuk Britaniya tomonidan yordam berilishiga umid qilgan lavhalar mavjud. Sho‘rolar mustamlakachiligidan qutulish uchun Xurrambekning yana bir ulkan mustamlakachi mamlakat qo‘lloviga tayanishi qanchalik o‘rinli?
2. Abdulla Nabiyev sho‘rolar mafkurasiga, Xurrambek esa inglizlarning yuzaki ko‘magiga tayandi. Bir-biriga qarshi bu ikki qahramonni bir xil fojia birlashtirib turishini qanday izohlaysiz? Yozuvchi ushbu holat orqali nima demoqchi?

Tadqiq qiling

Tarixiy manbalar (darslik, ilmiy maqola, hujjatli materiallar) asosida **“Bosmachilik harakati va qo‘rboshilari”** mavzusida izlanish olib boring.

Tadqiqot savollari:	1. Bosmachilik harakati qaysi tarixiy sharoitda vujudga kelgan? 2. Harakatning asosiy maqsadi va g‘oyalari nimalardan iborat bo‘lgan? 3. Eng mashhur qo‘rboshilar kimlar (kamida 2 nafar) va ularning faoliyati qanday kechgan? 4. Bosmachilik harakatining ijobiy va salbiy jihatlari nimada? 5. Ushbu harakat O‘zbekiston tarixida qanday iz qoldirgan?
Ish shakli:	Quyidagi shakllardan birini tanlab bajaring: • 2-3 betli yozma tadqiqot ishi – tahliliy matn; • tarixiy esse; • infografika yoki taqdimot. Ishda o‘z fikringizni dalillar bilan asoslang, foydalanilgan manbalarni ko‘rsating. Ish oxirida xulosa chiqaring. “Bosmachilik harakati” tushunchasini qayta nomlang.

Tavsiya

Quyidagi havola orqali **“Qora kamar”** dramasini tomosha qiling.

Rejissyor: Bahodir Yo‘ldoshev.

Manba: O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi arxivi.

15



Tomoshadan so‘ng quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

1. *Xurram qo‘rboshi rolini ijro etgan aktyor shaxsiy va ijtimoiy muammolarni qay darajada ochib bera olgan?*
2. *Oston, Qassob, Duduq rollarini ijro etgan aktyorlarning o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi?*
3. *Spektaklda davr muhiti qanday aks ettirilgan?*
4. *Rejissyor muallif maqsadining qaysi jihatlarini to‘g‘ri va aniq yetkaza olgan?*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Mustaqil o‘qish uchun

QO‘RBOSHILAR QO‘SHIG‘I

Shimoldan yog‘iy kelar,
Talab qilib Turonni.
Ming asr esh bo‘lsak ham
Bizga qo‘shilmas qoni.
O‘rningdan qo‘zg‘al endi,
Turkiy elning o‘g‘loni,
Tulporingga qamchi ur,
Selday qalqi, bovurim,
Bizlardan shon so‘rmoqqa
Vatan haqli, bovurim.

Turonning er-u qizi
To azaldan mard kelar.
Turklar dunyo so‘rar, deb,
Qadimdan bir shart kelar.
Dushmanga qul bo‘lganning
Avlodi nomard kelar.
To abad tinmasin-a
Meros charxi, bovurim.
Bizlardan or so‘rmoqqa
Vatan haqli, bovurim.

To‘tiga oshno bulbul
Chamanga arzimaydi.
Dushmandan qochib o‘lgan
Kafanga arzimaydi.
Mustabidga qul elat
Vatanga arzimaydi.
Balki, ko‘rar umrning
Keldi gashti, bovurim.
Bizlardan hol so‘rmoqqa
Vatan haqli, bovurim.

Turkiy elat boshida
Begona taxt ko‘rmasin.
Bosh egar omonlikni
O‘ziga baxt ko‘rmasin.
Kun kelib farzandini
Yovga ulfat ko‘rmasin.
O‘zliging ko‘rsatmoqning
Keldi vaqti, bovurim.
Bizlardan kor so‘rmoqqa
Vatan haqli, bovurim.

Bobomdan meros vatan
Bolamga meros o‘tsin.
Shuuriga mangulik
Uyg‘otar ovoz o‘tsin.
Yovga qahri qattiqlik
Turkiylarga xos o‘tsin.
Ko‘zlardan olov o‘tsin,
O‘tsin shaxti, bovurim.
Bizlardan yurt so‘rmoqqa,
Avlod haqli, bovurim…

Najmiddin Ermatov



RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



ABDULLA ORIPOV (1941 – 2016)

Dars davomida:

- Abdulla Oripovning o‘z ijodi haqidagi fikrlari bilan tanishamiz;
- shoir she’rlarida shaxs va jamiyat munosabatlari, lirik qahramon o‘y-xayollarining badiiy talqini bilan tanishamiz;
- berilgan she’rlarning badiiy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Eslang

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov haqida nimalarni bilasiz?

SHOIR O‘Z IJODI HAQIDA

Eng avval shuni uqtirib aytmog‘im lozimki (maxsus iltimos yoki topshiriq tufayli yozilgan ayrim she’rlardan tashqari), mening deyarli har bir she’rim hayotdagi ma’lum bir voqea, hodisa bilan bog‘liq, jo‘nroq qilib aytganda, har birining turtkisi bor. Masalan, ***“Ayol”*** *degan she’rim urushdan qaytmagan amakilarimning bevalariga bag‘ishlangan. Men ularning iztiroblarini ko‘rib, kuzatib ulg‘ayganman. Yoxud “O‘zbekiston” qasidasining yozilishichi? Buning yozilishiga nima turtki bo‘lgan, deyilishi mumkin. Gap shundaki, Vataning butun Sovet Ittifoqi deb uqtirib turilgan bir paytda, O‘zbekistonga nima bo‘ldi ekan, degan savol yuragimning tubida paydo bo‘lib, hoynahoy “Vatanim – O‘zbekiston”, deb she’r yozgan bo‘lsam, tilimizning har qadamda yerga urilayotganini ko‘rib, “Ona tilimga” nomli she’rni yozganman. Ishxonamiz yonida bir sassiq hovuz bo‘lib, unda uch-to‘rtta tangabaliq og‘zini kappa-kappa ochgancha o‘lar holda kun o‘tkazardi. Boshqa shoirlar qatori o‘sha*

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

*baliqlarning holiga achinib, men ham **“Tilla baliqcha”** degan she’r yozib, baloga qolganman. Emishki, sassiq hovuz deganda sovet tuzumini nazarda tutganman. Demakki, haqiqatan ham bir gap bor ekanki, arqon ularning ko‘ziga ilon bo‘lib ko‘rinibdi...*

Dunyoda mavzu shu qadar ko‘p ekanki, uni tanlab olishda muallif goho shoshib qolishi mumkin. Masalan, xalqimizning shonli tarixini hali yuz-ikki yuz yilda yozib, ado qilish qiyin. Lekin yozuvchining oddiy tarixnavis, yilnomachidan farqi bor. U ko‘proq o‘z muayyan g‘oyalariga mos keluvchi mavzularni izlaydi. Shu ma’noda asrlar bo‘yi kamsitilgan, haqoratlangan Amir Temur bobomizning obrazi mening uchun xalqning obro‘-e’tiborini, qadrini belgilovchi obraz bo‘lib ko‘rindi. “Sohibqiron” asarimni o‘tmishga boqib, bugun uchun yozganman.

Uzoq yillik ijodiy tajribamdan xulosa shulki, ijodkor iste’dodining darajasidan qat’i nazar, iloji boricha o‘zini yolg‘on-yashiqdan olib qochsin. Iloji boricha katta va kichik haqiqatlarni bir-biridan farqlay olsin. Ya’ni har doim ham o‘zining shaxsiy kechinmalarini butun bir xalqning kechinmalari deb e’lon qilishdan o‘zini tiysin. Aksincha, xalq dardini o‘zining shaxsiyati filtridan o‘tkaza bilsin. O‘zining shaxsiy dardini xalqniki deb emas, balki xalqning dardini o‘ziniki deb bilsin.

Bilib oling

Shoirning “Mitti yulduz”, “Ko‘zlarim yo‘lingda”, “Onajon”, “Ruhim”, “O‘zbekiston”, “Xotirot”, “Yurtim shamoli”, “Yuzma-yuz”, “Hayrat”, “Najot qal’asi”, “Yillar armoni”, “Haj daftari”, “Munojot”, “Saylanma”, “Dunyo”, “Shoir yuragi”, “Everest va ummon” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. U Dantening “Ilohiy komediya” asarini, L. Ukrainka, T. Shevchenko, N. Nekrasov, Q. Quliyev, R. Hamzatov singari shoirlarning she’rlarini mahorat bilan o‘zbekchaga o‘girgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Shoir yozuvchi bilan oddiy tarixnavis o‘rtasidagi farqni qanday izohlaydi? Sizningcha, yozuvchi tarixga qanday yondashishi kerak?
2. “Ona tilimga” she’ri yaratilishiga turtki bo‘lgan holatdan qanday xulosa chiqarish mumkin? Bugun ona tiliga munosabat qanday bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?
3. Shoir ijodkorni yolg‘ondan yiroq bo‘lishga chaqiradi. Sizningcha, badiiy asarda haqiqatni saqlash nega muhim?

Tavsiya

Quyidagi havola orqali Abdulla Oripov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan filmni tomosha qiling.

Manba: Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi.

16



RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

1. Genetika nima?
2. Nima deb o‘ylaysiz: ota-onangizdan, bobo-buvingizdan o‘tgan qaysi jihatlar sizning genetikangizda mavjud? Kuzatuvlaringizga tayanib, javob bering.



GENETIKA

Men ham yashayapman o‘z zamonimda,
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.
Va lekin bilmadim, mening qonimda
Qaysi bir bobomning xislati ko‘proq.

Barchaga barobar meros bu bashar,
Otadan qosh-ko‘zni olgan o‘g‘ildek,
Bilmadim, qonimda qay ajdod yashar,
Balki, Bobo Kayfiy, balki, Ulug‘bek.

Tunlar qulog‘imga chalinar elas,
Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.
Balki, Muqanna bu – tinib-tinchimas,
Balki, Panipatda Bobur urhosi.

Balki, tanglayimni ko‘tarib ketgan
Darbadar bir oshiq va yo sarbador.
Balki, biror bobom shahanshoh o‘tgan,
Balki, vujudimda darvish qoni bor.

Men yaxshi anglayman moziy ne demak,
Tarixda har kimning bor o‘z zamoni.
Lekin tanimizda kezar-ku beshak
Olis bobolarning ming yillik qoni.

Nechog‘liq sabot bor yovqur Shiroqda,
Eryigitov[1] to‘pga ko‘ksin bosar jim.
Rahimov g‘animga tashlangan choqda
Alpomish shiddatin payqamagan kim?!

Ohu bolasi bu – ohuday boqqan,
Shervachchada esa sherning shiddati.
Avlodlar qonida ming yillab oqqan
Buyuk bobolarning turfa xislati.

Neki ezgulik bor jahonda poydor
Joylab ola bildik barchasin qonga.
Asrlar so‘ngida tole kelib yor
Farzand bo‘la bildik buyuk zamonga.

Singdi ruhimizga mangu barhayot
Alisher she’ri-yu Pushkin bayoti.
Singdi ruhimizga g‘olib hissiyot –
Jasur bobolarning tengsiz saboti.

Singdi qonimizga shu otash dunyo,
Singdi qonimizga muhabbat, g‘azab.
Yiroq avlodlarga bizlardan ammo
Qay bir xislatimiz qolarkan, ajab?

Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,
Qay his, yuraklarda topolgan kamol?
Yiroq avlodlarga bizlardan beshak
Qolar kurashlarda toblangan xayol.

[1] **To‘ychi Eryigitov** – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Shu yovqur[1] asrda yashadik ro‘y-rost,
Ranj-u balolardan hayiqmay taqir.
Biroq avlodlarga bizlardan meros
Buyuk bardoshimiz qolg‘usi axir.

Bizdan ham qolg‘usi shu qadim dunyo,
Qon bilan, ter bilan qotgan shu tuproq.
Yiroq avlodlarga bizlardan ammo
Tashnalik qolg‘usi, do‘stlarim, ko‘proq.

Yashadik shu rangin dunyoda mas’ul,
To ellar ko‘z yoshi bo‘lmasin chashma.
O‘zni bag‘ishladik kurashga butkul,
Demakki, yashadik oromga tashna.

Tashna yashadik biz mehrga mutloq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o‘tdik biz.
Goh esa quyoshdek porloq va yiroq
Haqqa, haqiqatga tashna o‘tdik biz…

To‘fon, qasirg‘a[2]lar kechar-ku hali,
Kechadi avlodlar qator, galma-gal.
Balki, orom topib bashar sayqali,
Tug‘ilar eng oliy inson, mukammal.

U o‘zin tanigay shunda daf’atan,
To‘fon, qasirg‘alar bosiriq bir tush.
Shu buyuk sayyora – yagona Vatan,
Inson o‘z baxtidan o‘zi ham sarxush.

Munis nigohini qadab quyoshga,
Turar u nurday pok, ishqday bezavol.
Kechmish kamolotin ko‘tarib boshga,
Yiroq asrlarga ko‘z tikib xushhol.

Turar u go‘dakday beg‘ubor kulib,
Balki kulgisi ham bizdan meros bu.
Rishtayi jonida bir zarra bo‘lib,
Bizning ham qonimiz gupurgay, rost bu…

Bobolar dunyodan o‘tdilar shundoq,
Biz ham yetuklikka bo‘lmadik timsol.
Lekin sen bo‘larsan bokira mutloq,
Lekin sen yasharsan farishta misol.

Kahkashon[3] sayrida hur quyosh bilan
Kezarsan to abad shodumon, xurram.
Labda tabassum-u ko‘zda yosh bilan
Senga talpinaman, buyuk nabiram…

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’rda o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday ifodalangan? Matnga tayanib, javob bering.
2. Shoirning ajdodlarimiz xislatlari bizning qonimizda yashashi haqidagi fikrlari sizda o‘zligingizga nisbatan qanday yangi qarashni shakllantirdi? Fikringizni asoslang.
3. Shoirning *“Men ham yashayapman o‘z zamonimda, Davrimdan qayga ham tushardim yiroq. Va lekin bilmadim, mening qonimda Qaysi bir bobomning xislati ko‘proq”,* deyishi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Ushbu savol sizga berilsa, nima degan bo‘lardingiz?
4. Fikringizcha, she’rda tarixiy shaxslar nomi nima uchun keltirilgan? O‘zingizning ularga qanday daxldorligingizni asoslashga urining.
5. Nima deb o‘ylaysiz: bugungi avlod ajdodlariga qay darajada munosib? Sizningcha, she’rda tilga olingan ajdodlarimizga loyiq izdoshlar yetishib chiqyaptimi? Kuzatuvlaringiz asosida javob bering.

[1] **Yovqur** – hech narsadan qo‘rqmaydigan; jasur.
[2] **Qasirg‘a** – uyurma, quyun.
[3] **Kahkashon** – Somon yo‘li.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

6. “*Yiroq avlodlarga bizlardan ammo Qay bir xislatimiz qolarkan, ajab?”* degan savolga qanday javob bera olasiz? Bizdan keyingi avlodlarga nima qolishi haqidagi o‘y sizni xavotirga soladimi yoki umidlantiradimi?
7. Sizningcha, mukammal inson darajasiga yetish uchun odamzod bugun nimalardan voz kechishi va nimalarni o‘zlashtirishi kerak deb o‘ylaysiz?
8. “Buyuk” so‘zi bilan yonma-yon qo‘llangan so‘zlarni aniqlang. Shoir nega shunday jumlalarni qo‘llaganini tahlil qiling.

Tadqiq qiling

Quyidagi asarlarni solishtiring, topshiriqni yakka holda yoki guruhlarda ***qiyosiy yozma tahlil, esse, jadval, infografika yoki taqdimot*** shaklida bajaring.

A	B	V
“Genetika” she’ri (A. Oripov)	“Genetika” she’ri (A. Oripov)	“Genetika” she’ri (A. Oripov)
“Inson” qasidasi (E. Vohidov)	“Asrga tatigulik kun” romani (Ch. Aytmatov)	...

O‘ylab ko‘ring

Vafo, sadoqat, sabr-bardosh qachon sinaladi? Bu insoniy sifatlarning hayotiy ahamiyati nimada?

Abdulla Oripovning Shermuhammad ismli amakisi bo‘lib, minglab kishilar boshiga tushgan fojia – Ikkinchi jahon urushi uni ham qonli domiga tortgan edi. Afsuski, urush uni ayab o‘tirmaydi, yigitning jismi dunyoning qaysi bir puchmoqlarida qolib ketadi. Uning turmush o‘rtog‘i, 19 yoshli kelinchak – Oybuvi qizalog‘i Rahimani bag‘riga bosgancha qolaveradi. 5-6 yildan so‘ng, yaralar biroz bitgandek bo‘lgach, Orif buva kelinini yoniga chaqirib: “Hali yoshsiz, bu dunyoga har kim umid bilan keladi. Taqdir ekan, ko‘rgilik, chidaymiz-da. Hayotingiz hali oldinda, turmush qurib, unib-ulg‘aying, biz rozimiz!” deydi. Shunda beva kelinchak: “Agar xonadoningizga sig‘mayotgan bo‘lsak, ayting, biz ketaylik. Lekin bu gapni qo‘ying, meni azoblamang, dardimni yangilamang... Men ukangizga mangu sodiq qolishga va’da berganman, u men uchun doim tirik!” deya gapni yakunlaydi.

Shundan so‘ng bu mavzuda boshqa gap ochilmaydi. Vafodor kelinchak yo‘lga intizor, ilhaq bo‘lib, umr bo‘yi shu xonadonda yashaydi. O‘n to‘qqiz yoshli ayolning bunchalik sadoqatini ko‘rib ulg‘aygan Abdulla Oripov 1965-yili Oybuvi kelinoyisi timsolida ana shunday ayollarga she’riy qasida bag‘ishlaydi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

AYOL

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu.
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.

Sevgidan yetim-u umrdan yarim,
Qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko‘mir.
Parishon sochlari yor ko‘ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o‘tdilar, hamon u yolg‘iz,
Mung‘ayib termilar botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan, vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi, ey sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O‘zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shu cho‘lpon ko‘zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so‘zi deya,
So‘ylang-chi, vafoning nadir qimmati,
Siz ham kutganmisiz biror soniya?

Ba’zida tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat?

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo‘yingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi ayol.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’rni o‘qiganda ko‘ngildan qanday kechinmalar o‘tkazdingiz?
2. Urush yillarida hayotning g‘am-anduhlarini yelkasiga ortgan matonatli ayollar obrazi yaratilgan qanday asarlarni bilasiz? She’r mazmuni ularga qaysi jihatlari bilan o‘xshashligini bayon qiling.
3. She’rdagi qaysi satrlarda beva ayolning ruhiy kechinmalari tasvirlangan? Siz uni qanday qiyofada ko‘rdingiz? Uning portretini tasvirlab bering.
4. “*Ey nomard tabiat, bormi senda his, Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmi unga?!*” satrlarida shoirning qanday holati seziladi? Nima deb o‘ylaysiz: she’r qahramoni kabi ayollar hayotini boshqatdan boshlashi mumkin edimi?
5. Sizningcha, shoir nega “sodiq beva”ga “sajdalar qilish”, “ehtirom aylash” kerakligini aytadi? Bundan qanday maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?
6. Nazaringizda qaysi so‘zlar she’rga alohida joziba baxsh etgan? She’rdagi har bir band qanday ohang bilan o‘qiladi? Izohlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ijodiy ish

Abdulla Oripov she’rlaridan birini tanlang va yod oling. Yod olingan she’r asosida **videorolik** tayyorlang. She’rning g‘oyasini ochishga xizmat qiluvchi **musiqiy fon**dan foydalaning. She’rni ifodali o‘qing.

• Ushbu havolada Abdulla Oripovning “Onajon” she’ri mohir suxandon O‘tkir Siddiqov ijrosida berilgan. Ifodali o‘qish san’atiga **namuna sifatida** tinglang.

17

Manba: Xurshid Davron kutubxonasi (YouTube).

Mustaqil o‘qish uchun

SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI?

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog‘ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o‘zingni.
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog‘lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog‘lar,
Vasling menga bo‘lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g‘arib.
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

O‘ngirlarda sakraydi ohu,
Na’matakda sa’va mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon.
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Mana, bugun Navro‘zi olam,
Do‘stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo‘limda gul, seni kutarman,
Umrim bo‘yi chorlab o‘tarman.
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?



Topshiriq

“Sen bahorni sog‘inmadingmi?” she’rini Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi...” g‘azali bilan qiyoslang. Ikki ijodkorning uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, hayotiy qarashlaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni jadvalda aks ettiring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



ANDRE MORUA (1885 – 1967)

Dars davomida:

- Andre Morua hayoti va ijodi bilan tanishamiz;
- “Qaytish” hikoyasini tahlil qilamiz.

Fransuz adabiyotining yorqin namoyandasi Andre Morua (asl ismi Emil Salomon Vilhelm Erzog) Elbyof shahrida tavallud topgan.

Birinchi jahon urushi davrida u harbiy tarjimon va aloqa xodimi bo‘lib xizmat qilgan. Ikkinchi jahon urushi boshlanganda kapitan unvoni bilan ko‘ngilli ravishda armiyaga qabul qilingan.

“Kamsuxan polkovnik Braml” va “Sergap doktor O’ Greydi” romanlarida o‘zi qatnashgan urush dahshatlarini aks ettirgan. “Bernar Kene”, “Oilaviy davra”, “Va’da qilingan zamin” romanlarida fransuz jamiyatidagi oliy tabaqa hayoti haqida hikoya qilinadi.

Morua adabiy-tanqidiy esselari, tarixiy shaxslar haqidagi kitob va xotiralari bilan mashhur. “Ariyel yoki Shelli hayoti”, “Bayron”, “Turgenev”, “Olimpio yoki Viktor Gyugo hayoti”, “Uch Dyuma”, “Prometey yoki Balzak hayoti” singari asarlari bilan XX asr biografik roman janrining rivoji va yangilanishiga katta hissa qo‘shgan.

Morua bu asarlarida mashhurlar hayoti va ijtimoiy faoliyatiga oid faktlardan chetga chiqmagan holda ular haqida badiiy **hujjatli roman** yozish mumkinligini isbotlab berdi.

Bilib oling

Hujjatli asar real voqealar va aniq faktlarga asoslanib, tarixiy hujjatlar, guvohlar esdaliklari va arxiv ma’lumotlariga tayangan holda yoziladi. Unda publitsistik uslub yetakchi bo‘lsa-da, voqealarni jonli tasvirlashda badiiy vositalardan ham foydalaniladi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

MUTOLAADAN OLDIN

Ikkinchi jahon urushida Fransiya Germaniya tomonidan bosib olingach, ko‘plab fransuz askarlari asirlikka tushib, Germaniyadagi mehnat lagerlariga yuboriladi. Urushda nemislar mag‘lub bo‘lgach, ko‘plab asirlar qatori fransuz asirlari ham ona vataniga qaytariladi. Biz quyida o‘qiydigan hikoyada asirlikdan qaytayotgan sobiq askarlarning xavotirli o‘y-xayollari, oilasiga mehr-muhabbati, ikkilanishlari-yu sarosimali holati yozuvchi tomonidan badiiy talqin qilingan.

O‘ylab ko‘ring

Asirlikdan uyiga, tinch va osoyishta kunlarga qaytayotgan sobiq askarlar qalbida orzular bilan birga qanday xavotirli o‘ylar bo‘lishi mumkin? Bunday o‘ylar nima uchun “xavotirli”?

QAYTISH

(Hikoya)

Bu voqea fransuz asirlarini Germaniyadan – tutqunlikdan olib qaytayotgan poyezdda boshlangan edi. O‘n kishilik kupeda o‘n ikki kishi tiqilgan. Ular uyi, oilasini ko‘rish imkoni tug‘ilganidan g‘oyat hayajonda. Deyarli hammasining ham fikr-u xayolini, eng avvalo, rafiqasi band etgan. Ayrimlarining ko‘nglida umid uchqunlari chaqnar, ba’zilari esa xavotirlanib o‘ylar edi: “Rafiqam avvalgiday vafodor va sodiqmikan? Uzundan uzoq tanholik yo‘llarida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi ekan? U bilan hayotni davom ettirish mumkin bo‘larmikan?”

Bola-chaqalilar, harholda, ancha xotirjam. Ularning rafiqasi bola tarbiyasi bilan kun o‘tkazgandir. Bu uchrashuv o‘ng‘aysizligi bolalar quvonchi tufayli yengil ko‘chsa, ajabmas...

Kupening bir burchagida baland bo‘yli, qotmadan kelgan, ko‘zlari chaqnoq, fransuzdan ko‘ra ko‘proq ispanga o‘xshash kishi o‘tirar edi. O‘zini Reno Leymari deb tanishtirgan bu odam shardeylik bo‘lib, Perigor[1]da yashardi. Tun og‘ushida ilgarilayotgan poyezdning bir maromdagi taraqa-turuqini parovoz gudogi bo‘lib turar, Reno esa ro‘parasidagi hamrohi bilan gaplashib borardi.

– Saturnen, uylanganmisan?

– Bo‘lmasam-chi! Urushdan ikki yil avval uylanganman, ikki bolam bor edi. Xotinimning ismi Marta. Suratini ko‘rsataymi?

Past bo‘yli, yuzi chandiq, ammo quvnoq Saturnen ichki cho‘ntagidan titilib ketgan katmonchani olib, yirtiq bir surat chiqardi-da, iftixor bilan Renoga uzatdi...

– O, juda chiroyli ekan, – dedi Leymari. – Shundoq go‘zalning oldiga hech xavotirlanmasdan qaytyapsanmi?

– Nega endi xavotirlanay?

[1] **Perigor** – Fransiyaning janubi-g‘arbiy qismidagi go‘zal tabiati va boy tarixiy merosi bilan mashhur hudud.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Chunki xotining juda chiroyli, shuncha vaqt o‘zi yolg‘iz qoldi, atrofida esa boshqa erkaklar bor, – dedi Leymari.



– Kulgimni qistatyapsan! Mening Martam shundayki... manman degan yigitga ham qaramaydi. Biz shunday baxtiyor edikki... Besh yil mobaynida menga yozgan xatlarini ko‘rganingda bormi?..

– Ee... bu xatlar! Men ham shunaqa iliq xatlardan ozmunchasini oldimmi! Ammo baribir tashvishdaman.

– Qiziq, xotiningga ishonmaysanmi?

– Ishonishga ishonamanku-ya, to‘g‘rirog‘i – ishonardim. Olti yil birga yashab, sirayam san-manga bormaganmiz.

– Xo‘sh?..

– E og‘ayni, bu – odamning tabiatiga bog‘liq... Men boqibeg‘amlikka ishonmaydigan odamlar toifasidanman. O‘z-o‘zimga doimo: “Elenning tengi emasman, u go‘zal, juda aqlli, odobli”, deb kelganman. Rostdanam xotinim juda bilimdon, qo‘lidan kelmaydigan ish yo‘q. Har qanaqa matodan shundayin ko‘ylak tikadiki, hammaning havasi keladi. Oddiy kulbani jihozlashga kirishsa bormi, naq jannat qilib yuboradi... Shularni o‘ylab turib o‘zimga-o‘zim deyman: axir yurtimizda kelgindilar qancha yil izg‘ib yurishdi. Ular orasida mendan ko‘ra istarasi issiqroqlari bo‘lgandir-ku... Qishloqning eng go‘zal ayoli – Elen shular e’tiborini o‘ziga jalb etmadimikan?..

– Nima bo‘pti? Agar u seni sevsa...

– Shundayku-ya, og‘ayni, besh yil yolg‘izlikni tasavvur qila olasanmi? Elen Shardeyda musofir. Shardey – mening yurtim, uning bu yerda hech kimi yo‘q. Shunday bo‘lgach, yo‘ldan toyishi hech gap emas-da...

– Ee, juda g‘alati ekansan-ku, esing joyidami o‘zi? Xo‘p, biror narsa yuz berdi ham deylik. Hayotda nimalar bo‘lmayapti, axir! Menga qara, agar biror kimsa: “Sening Martang...” deb og‘iz ochishi bilan men unga: “Og‘zingni yum. Xotin meniki, buni urush deydilar; u yolg‘iz edi; endi esa tinchlik. Biz hayotni qaytadan boshlaymiz”, degan bo‘lar edim.

– Men sendaqa emasman-da, – dedi Leymari. – Agar qaytganimdan keyin biror narsa sezsam bormi?..

– Unda nima qilasan, xotiningni o‘ldirasanmi?! Tentak ekansan-ku!

– Yo‘q, unga qo‘limni ham tekkizmayman. Hatto bir og‘iz gapirmayman. Ammo o‘sha zahotiyoq g‘oyib bo‘laman. Uzoqlarga ketib qolaman, nomimni o‘zgartirib yashayman. Uy-joy – hammasini unga qoldirib ketaman. Menga hech narsa kerak emas, qo‘limda hunarim bor... Hayotimni tamomila o‘zgartirib yuboraman. Bilmadim, bu, balki, telbalikdir, ammo tabiatim shunday. Menga baxt butun bo‘lsa, yoinki...

Poyezd uzoq gudok chalib, relslarni sharaqlatib vokzalga kirib keldi. Ikki suhbatdosh jim bo‘lib qoldi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Shardey oqsoqoli qishloq o‘qituvchisi edi. U juda ko‘ngilchan va ehtiyotkor odam. Reno Leymari poyezdda qaytib kelayotgani haqida u ministrlikdan xabar oldi-yu, o‘zi borib Elenga aytishga ahd qildi. Oqsoqol borganida Elen bog‘ida kuymalanib yurgan edi. Bu – qishloqning eng xushmanzara bog‘laridan bo‘lib, eshikning ikki tomonini atirgullar bezab turardi.

– Leymari xonim, sizni yaxshi bilaman, erining qaytib kelayotganidan ogoh qilib qo‘yish lozim bo‘lgan ayollardan emassiz. Ammo shuni aytishim kerakki, xatti-harakatingiz, odobingiz bilan butun qishloq ahlining hurmatiga sazovor bo‘lgansiz. Hatto og‘ziga kelganini ayamay, har qanday ayolni badnom qiladigan g‘iybatchi xotin-xalajlar ham sizni yomonlashga so‘z topolmayaptilar.

– Biror narsa topishar, oqsoqol, – dedi Elen jilmayib.

– Men ham shunday bo‘lar, deb o‘ylagan edim, ha o‘ylagan edim!.. Ammo siz ularni ham rom qilib qo‘ydingiz. Men sizning quvonchingizni o‘z ko‘zim bilan ko‘rgani keldim. Shunisi ham borki, uning kelishiga hozirlik ko‘rishingiz kerak, Leymari xonim. Turmush og‘ir, hammamizning ahvolimiz ma’lum: har kuni dasturxon tuzay olmaymiz-ku...

– Juda yaxshi qilibsiz, janobi oqsoqol. Men Renoni shundayin kutib olayki!.. Yigirmanchi avgustda dedingizmi? Poyezd soat nechalarda kelarkan? Bilmaysizmi?

– Ministrlikdan xabar qilishlaricha, soat yigirma uchda yo‘lga chiqadi. Bu poyezdlar juda imillab yuradi... Tever vokzalida poyezddan tushsa, bu yergacha Reno yana to‘rt kilometr piyoda bosadi. Menimcha, u tushda yetib kelsa kerak.

– Men uni kutib olishga shundoq hozirlik ko‘rayki, janobi oqsoqol, shohona bir dasturxon tuzayki... Shundoq xushxabarni keltirganingiz uchun mingdan ming rahmat sizga.

– Shardeyda sizni hamma hurmat qiladi, jonidan sevadi, desa ham bo‘ladi. Siz asli bu yerlik emassiz, ammo hamma sizni hamqishloq deb biladi.

Nihoyat oqsoqol xayrlashib chiqib ketdi.

Elen Leymari eri kelishidan bir kun avval butun uyni saranjom-sarishtaladi: pollarni yaraqlatib, deraza pardalarini eskirgan tasmalarigacha yangiladi. Keyin qishloq sartaroshinikiga borib, sochini jingalak qilib keldi. Tuni bilan boshiga niqob kiyib yotdi. Sal-pal uxladimi-yo‘qmi, yana azonlab turib oldi. So‘ng kiyimlarini bir-bir ko‘zdan kechirdi. Uzoq yolg‘izlik davrida bir marta ham kiyilmagan, o‘zi sevgan shohi ko‘ylagini ajratib qo‘ydi. “Qaysi ko‘ylagimni kiysam ekan, bir vaqtlar erim yoqtirgan zarhal yo‘lli havorang ko‘ylagim qalay ekan?” Ammo uni kiyib ko‘rgach, darhol yechib tashladi: o‘tgan yillar davomida shunchalik ozib ketganidan ko‘ylak halpillab, beli osilib qolgan edi. Yo‘q, o‘zi tikkan qora ko‘ylagini kiya qoladi: yoqasini bejab, beliga rangdor belbog‘ taqadi. Dasturxon tuzashga kirishishdan avval Elen eri yoqtirgan taomlarni eslashga harakat qildi. 1945-yil Fransiyada hali ahvol og‘ir edi. Birini topsang, biri yo‘q... Eri esa shokoladni yoqtirardi. Shokolad topib bo‘larmishmi? Yaxshiyamki, kichkinagina shaxsiy xo‘jaligi bor. Shu tufayli tovuqlar tuxum berib turadi. Eri doimo: “Quymoqni hech kim sendek mazali tayyorlay olmaydi”, deb maqtardi. Reno yaxna go‘shtni, qizartirib pishirilgan olmani ham xush ko‘rguvchi edi. Lekin shardeylik qassob ikki kundan beri do‘konni ochmay qo‘ydi... Elen o‘tgan kuni so‘yilgan tovug‘ini yaxshilab qovurdi. Qo‘shni qishloqdagi do‘konchi yashirincha shokolad sotar ekan, deb qo‘shnisidan eshitgan edi, borib-kelishga ahd qildi. “Soat sakkizda ketsam, to‘qqizga-

RESPUBLIKA MARKAZI



cha qaytib kelaman... Ketgunimcha dasturxon tuzab qo‘ysam, kelgandan keyin faqat oshxonada band bo‘laman”, deb o‘yladi Elen va ishga kirishib ketdi. U juda hayajonlangan, shu bilan birga, behad shod edi. Havo shunaqa ham yaxshi ediki... Nazarida hech qachon oftob bunchalar charaqlamagandek... Elen shirin xayollar bilan dasturxon tuzashga tushdi. “Qizil katakli oq dasturxonni yozaman. To‘yimizdan keyingi ilk bor yozgan dasturxonimiz shu. Pushti likopchalarning guli Renoga juda yoqardi... Bir shisha vino va gullar qo‘yaman. Axir u stolda gul bo‘lishini qanchalar yaxshi ko‘rardi: “Gullarni hammadan ham chiroyli dastalaysan”, derdi takror-takror.

Elen uch xil gul: oq moychechak, qizil lola, binafshani dastaladi, shinamgina bezatilgan xonani o‘zi uzoq tomosha qildi. Rostdanam hamma narsa joyida edi. Ne-ne baxtiqaroliklarga duchor bo‘lgan Reno shuncha judolikdan keyin uy-joyi va xotinini o‘sha-o‘shaligicha ko‘rib quvonib ketsa kerak...

Derazaning bu tomonidan turib Elen katta toshoynaga qaradi. Ozgina ozganini aytmasa, o‘zi ham deyarli o‘zgarmabdi. U baxtiyorlikdan gangib qolayotganini his qilardi...

“Yetar! – dedi o‘ziga-o‘zi, – tezroq bora qolay... Soat necha bo‘ldiykan? Voy, to‘qqizdan oshibdi-ku! Bu ishlar o‘ylaganimdan ko‘ra ko‘proq vaqtimni olibdi-da. Poyezd soat o‘n ikkilarda keladi, degan edi oqsoqol. Men undan avval qaytaman”.

So‘ng uydan shoshilinch chiqib ketdi...

Leymarilar uyi qishloq chekkasida bo‘lgani uchun ham ko‘zlari chaqnoq, oriq soldatning bog‘ tomon o‘tganini hech kim ko‘rmadi. U charaqlagan oftob-u xushbaxtlikdan, asalarining g‘o‘ng‘illashidan gullarga maftun boqib, bir muddat mastona turib qoldi. Keyin ohistagina chaqirdi:

– Elen!

Hech kim javob bermadi. U yana bir necha bor: “Elen! Elen!” deb chaqirdi. Javob bo‘lmagach, xayoli qochib, deraza yoniga bordi: ikki kishi uchun tuzalgan dasturxon, gul va vinoni ko‘rib yuragi gupillab urib ketdi. U bir muddat devorga suyanib qoldi.

“Yo Rabbim! Xotinim yolg‘iz emas ekan!” deb o‘yladi Reno.

Bir soat keyin Elen qaytib kelganida qo‘shnisi unga:

– Renoni ko‘rdim, u chopib ketayotgan ekan. Shuncha chaqirsam ham qayrilib qaramadi, – dedi.

– Chopib ketayotuvdi, deysizmi? Qaysi tomonga ketayotuvdi?

– Tever vokzali tarafga.

Elen avval oqsoqolnikiga yugurdi, u hech narsadan xabarsiz edi.

– Juda qo‘rqyapman, shunday qo‘rqyapmanki, oqsoqol janoblari. Uning fe’li tor, juda rashkchi. Ikki kishilik dasturxon tuzalganini ko‘rib... O‘zini kutayotganimni bilmagan. Ho-

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

zirning o‘zidayoq uni topish kerak, oqsoqol janoblari, topish kerak! U endi butunlay qaytib kelmasligi mumkin. Men uni shunday sevamanki!..

Oqsoqol vokzalga velosipedchi yubordi, politsiyachilarni ogohlantirdi, ammo Reno Leymari g‘oyib bo‘lgan edi. Elen issiqdan so‘ligan gullar va tuzalgan dasturxon yonida tuni bilan tuz totmay tong ottirdi. Oradan bir kun, bir hafta, bir oy ham o‘tdi. Bu baxtsiz kundan so‘ng yana qancha yillar ham o‘tdiki, eridan hamon darak yo‘q…

Reno o‘qigach, qaytib kelar, degan umidda bu hikoyani yozdim.

Fransuz tilidan Nazira Yusupova tarjimasi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asirlikdan qaytayotgan askarlar quvonchi nega xavotir va shubha bilan qorishib ketgan? Bu holat urushning inson ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatganini anglatadi?
2. Muallif Reno va Saturnen obrazlarini yonma-yon keltirish orqali qanday g‘oyani ochmoqchi bo‘lgan? Ularning sadoqat va ishonch haqidagi qarashlari o‘rtasidagi farq nimada?
3. Elenning kiyim tanlashi, shokolad qidirishi kabi tafsilotlar orqali muallif ayol obrazining qaysi jihatlarini yoritgan?
4. Nima uchun Elenning yillar davomida yozgan samimiy xatlari Renoning qalbidagi shubhani yenga olmadi? Reno uchun haqiqat qaysi tomonda: maktublardami yoki o‘z xayolida to‘qigan gumonlarida?
5. Reno dasturxonni ko‘rib, gaplashmasdan ketib qoladi. Sizningcha, bu qaror qanchalik asosli? Agar u Elen bilan suhbatlashganida, voqealar qanday kechishi mumkin edi?
6. Hikoya orqali urush insonlar hayotida moddiy va ruhiy jihatdan qanday asorat qoldirganini aniqlang. Matndan misollar keltiring.
7. Asar oxirida muallif: *“Reno o‘qigach, qaytib kelar, degan umidda bu hikoyani yozdim”,* deydi. Sizningcha, agar Reno haqiqatni bilsa, Elen huzuriga qayta olarmidi? U ketganini qanday oqlashi mumkin?

Ijodiy ish

Siz voqealarning barchasidan xabardor shaxs sifatida Reno Leymariga **15 – 20 so‘zdan iborat telegramma (qisqa xabar)** yozing. Telegrammangiz mazmuni sadoqatli turmush o‘rtog‘i Elenga nisbatan barcha shubhasini batamom aritib, uni uyga qaytishga undashi lozim.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



RAUF PARFI (1943–2005)

Dars davomida:
- shoirning o‘ziga xos tarjimayi holi bilan tanishamiz;
- shoir she’rlarini tahlil qilamiz.

Eng uzoq yozilgan tarjimayi holim...

Tavalludim: qirq uch. Mezonning yigirma yettisi.
Otam – dehqon. Savodsiz, bizningcha.
Mashrabni o‘qirdi eski yozuvda.
Onam – pillakor. Savodsiz, bizningcha.
Hazrat Navoiyga tishi o‘tardi.
Qishloq maktabi. Shahar maktabi. Kechki. So‘ngra barcha tirikchilik maktablari.
Balog‘at guvohnomasi – Toshkent dorilfunini.
Kasbim: har qanday mehnat.
Ilova: Sevaman she’rni.
She’riyat... She’r deb atash mumkin bo‘lsa, birinchisini yozgan kunim: 53-yil. 5-mart.
Dars: Alisher Navoiydan to Abdulla Orif.
Aleksandr Pushkindan to Viktor Sosnora.
Keyin men bilgan shoirlar.
Men bilgan achchiq-chuchuk besanoq saboq.
Orzum: Turkiston atalmish tarqoq vatanni tirik ekanimda bir butun ko‘rmoq.
Qo‘limdan kelmaydigan ish: she’r yozmaslik.
Niyatim: Tinish belgilari kabi sodiq bo‘lmoq – kasbimga, darslarga va orzularga.
O‘lim?.. Darvoqe... O‘lim bilan chiqisholmayman.
Ammo Alloh o‘zi bilgichdir.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Muallifning o‘ziga xos tarzda yozgan tarjimayi holiga diqqat qiling va quyidagi savollarga javob bering:

1. Shoirning ota-onasi haqidagi ma’lumotini qanday tushundingiz? U nima demoqchi?
2. *“Qishloq maktabi. Shahar maktabi. Kechki. So‘ngra barcha tirikchilik maktablari”* satrlari muallif hayot yo‘lining qaysi jihatlarini ochib beradi?
3. *“Qo‘limdan kelmaydigan ish: she’r yozmaslik”* degan fikrni qanday tushundingiz? Shoir ijodga munosabatini bu jumla orqali qanday ifodalagan deb o‘ylaysiz?
4. *“Tinish belgilari singari sodiq bo‘lmoq”* tashbehining badiiy va ma’naviy mazmunini izohlang.

Topshiriq

Agar siz tarjimayi holingizni shu uslubda yozsangiz, nimalarga alohida urg‘u bergan bo‘lardingiz? Yozib ko‘ring.

Bilib oling

Rauf Parfi 1943-yil 27-sentyabrda Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi Sho‘rali-soy qishlog‘ida Parfi Muhammad Amin va Sakina Isabek qizi xonadonida tug‘ilgan. Asli Farg‘onaning Vodilidan bo‘lgan ota-bobolari ma’rifatli, ziyoli insonlar edi. Otasi fors-tojik, usmonli turk va rus tillarida bemalol so‘zlasha olgan. Bir muddat turli mahkamalarda tilmochlik qilgan. Keyinroq bolshevizm qatag‘onidan o‘zini asrash uchun hujjatlarida o‘zini savodsiz deb yozdirgan.

Shoirning “Karvon yo‘li”, “Aks sado”, “Tasvir”, “Xotirot”, “Ko‘zlar”, “Qaytish”, “Sabr daraxti”, “Sukunat” va “Tavba” kabi o‘nlab she’riy to‘plami nashr etilgan. Vafotidan so‘ng “Sakina”, “Turkiston ruhi” singari saylanmalari chop qilindi.

Shoir K. Kaladzening “Dengiz xayoli”, Bayronning “Manfred”, A. Dyumaning “Uch sarboz”, N. Hikmatning “Inson manzaralari” kabi asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Xokku (uchlik), tanka (qisqa qo‘shiq; beshlik), rondo, rondel singari jahon she’riyati janrlarining milliy adabiyotimizga kirib kelishi bevosita Rauf Parfi ijodi bilan bog‘liq.

Rauf Parfi ijodidan xokku:

Sokin turar bir daraxt salobat to‘kib,
Bir so‘z demas... hech qachon,
Aqlli ko‘rinar balki shuning-chun.

Rauf Parfi ijodidan tanka:

Ayt-chi, meni unutdingmi,
Gullarim qonlar yutdimi?
Unutdingmi, eh, biryo‘la,
Yorug‘ dunyodan o‘tdimi
Muhabbatim ekkan gullar?!

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

Yomg‘irda ivigan holatingizni eslang. O‘shanda qanday hislarni tuygansiz?

Topshiriq

She’rni sokin, iztirobli va umidli ohanglarda xirgoyi qiling. Qaysi ohang asar ruhiyatiga mos kelishini aniqlang, matndan misollar keltirib, asoslang.

“YOMG‘IR YOG‘AR, SHIG‘ALAB YOG‘AR...”

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Tomchilar tomchilar sochimga.
Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Ham qayg‘umga, ham quvonchimga.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Men unga ochaman bag‘rimni.
Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Asta unutaman yomg‘irni.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Oxir meni asir etar ul.
Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Yog‘a boshlar qog‘ozga ko‘ngil.



KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’r mutolaasidan so‘ng nimalarni his qildingiz? Qaysi misralar lirik qahramonning holatini his qilishingizga, ko‘z oldingizga keltirishingizga yordam berdi?
2. Qaysi tovush va so‘zlar yomg‘ir yog‘ishi va undan chiqadigan sas kabi tabiiylikni ta’minlagan deb o‘ylaysiz?
3. 12 misrali she’rda “*Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar*” misrasi 6 marta takrorlanishiga sabab nima deb o‘ylaysiz? Bu qaytariq qanday maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan?
4. Sizningcha, yomg‘ir ostida qolish shoirga qanday kayfiyat baxsh etgan? Nega u: “*Men unga ochaman bag‘rimni”,* deydi?
5. Lirik qahramon nega yomg‘irni unutadi, ammo yomg‘irga singib ketayotgan ko‘ngil holatlari unutilmaydi?
6. “*Yog‘a boshlar qog‘ozga ko‘ngil”* misrasini qanday tushundingiz? Shoir nima demoqchi? Izohlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O‘ylab ko‘ring

- Siz yoshlikni nimaga o‘xshatasiz? Uni qanday ranglarda ko‘rasiz?
- Nima uchun shoir yoshlikni ***“zangor fasl”*** deb atagan bo‘lishi mumkin?

YOSHLIK – ZANGOR FASL



Yoshlik – zangor fasl. Kechdi. Sarg‘ardi.
To‘kildi u. Shafqat bilmas bargrezon[1].
Qora sovuqlarga otib yubordi,
Shamollar poyida sinmoqda xazon.
Yoshlik – zangor fasl. Kechdi. Sarg‘ardi.

Har ne o‘tdi, mendan o‘tdi, omon bo‘l,
Qancha faryod qilmay, qaytarib bo‘lmas.
Harqalay, oldinda bordir so‘nggi yo‘l,
Toki yetguningcha xotirot o‘lmas,
Harne o‘tdi, mendan o‘tdi, omon bo‘l!

Vido tabassumli olam – yoshligim,
Ko‘zlarimda qotgan jolam[2] – yoshligim,
Ko‘klarga yetmagan nolam – yoshligim,
Suvga cho‘kib ketgan bolam – yoshligim,
Vido tabassumli olam – yoshligim.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’rda qanday insonning kechinmalari aks etgan? Shuningdek, she’r mutolaasidan keyin lirik qahramon bilan tuyg‘udosh bo‘ldingizmi yoki?..
2. She’rning birinchi va ikkinchi misralarida har bir so‘z yoki birikma alohida gap shaklida berilgan. Shoir bu usul orqali qanday badiiy imkoniyatlarni namoyon etgan, deb o‘ylaysiz?
3. *“Qora sovuqlarga otib yubordi, Shamollar poyida sinmoqda xazon”* satrlaridan nimani tushundingiz? Ushbu misralar lirik ohangli she’r mohiyatiga singdirib yuborilgan ijtimoiy dardmi? Mulohazalaringizni asoslang.
4. Lirik qahramonning *“Harne o‘tdi, mendan o‘tdi, omon bo‘l!”* deyishi sizda qanday kayfiyat uyg‘otdi? U yoshligidan rozimi?

Topshiriq

She’rning so‘nggi bandida shoir yoshlikni *“vido tabassumli olam”, “ko‘zlarimda qotgan jolam”, “ko‘klarga yetmagan nolam”, “suvga cho‘kib ketgan bolam”* kabi timsollarda ifodalaydi. Har bir o‘xshatish nimani anglatadi? Ushbu tasvirlar orqali lirik qahramon yoshligini qanday tavsiflamoqda? Har birini izohlab, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

[1] **Bargrezon** – barg to‘kilishi, xazonrezgi davr; kuz.
[2] **Jola** – ko‘z yoshi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Timsollar	*Izohlar*
Vido tabassumli olam	
Ko‘zlarimda qotgan jolam	
Ko‘klarga yetmagan nolam	
Suvga cho‘kib ketgan bolam	

O‘ylab ko‘ring

1. **Til va xalq taqdiri** bir-biri bilan qanday bog‘liq?
2. Sizningcha, shoirning asosiy quroli nima: **so‘zmi, jasoratmi yoki e’tiqod?** Nega?

ABDULHAMID SULAYMON CHO‘LPON

(Sonet)

Shu ojiz holimda shoirmanmi men?
Cho‘lpon

1. Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abut turk[1] nafasi, Oltoy[2] chechagi.
Xun[3] davridan omon keldi G‘irot[4]ing,
Qutlug‘ Enasoy[5]ning ezgu ertagi.

O‘rxun bo‘ylarida toshga aylanding,
Ko‘klarga sanchilding, Turon[6] bo‘lding Sen,
Mangulik safarga qachon shaylanding?
Qachon bu alamga – kuchga to‘lding Sen?

Porloq osmoningda quzg‘unlar uchdi.
Evoh, yog‘iylaring soldi yag‘mo[7]ni.
Yog‘iylaring jigar qoningni ichdi.

Jigarqon jarangi tutdi jahonni,
Onasen. Kechirding, qonidan kechding,
Biroq kechirmading aslo yolg‘onni.

2. Dunyo oq emasdir, yo‘q, qora bardosh,
Kuyib yodimizdan kechganlar aytsin.
So‘zlarida zahar, ko‘zlarida tosh,
Elidan, tilidan kechganlar aytsin.

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati
Kunlar gizli tug‘yon, bosib kelar she’r.
Nechuk qismat erur shoir qismati?!
Tushlarimni buzar hazrat Alisher...

Yillar bahorimni uchirdi chalqib,
Muzlarga ko‘chirdi o‘tluq yozimni.
Axtardim muhitda xas kabi qalqib –

Men o‘z Yulduzimni, o‘z Quyoshimni...
Yulduz sen, Quyosh sen, sen ona xalqim,
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni.

3. Oh, shoir qismati – yarqiroq, gulgun,
Zavqlarga to‘lar u, bir so‘zni izlar.
Dunyoda hech bir zot bilmas, ne uchun,
Ayricha kular u, ayricha bo‘zlar.

Yo‘lsizlik yo‘ldoshi, toleyi nigun[8]
Hech qachon to‘yarmi axir yovuzlar?
Bu xalq dushmani, deb tutsalar bir kun,
Baribir u xalqning nomidan so‘zlar.

[1] **Abut turk** – turklar otasi. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Nuh payg‘ambarning kenja o‘g‘li Yofasga berilgan nom.
[2] **Oltoy** – Rossiya, Mo‘g‘uliston va Xitoy hududlarida joylashgan tog‘ tizimi.
[3] **Xun** – qadimgi Markaziy Osiyoda shakllangan ko‘chmanchi xalq.
[4] **G‘irot** – (G‘irko‘k) Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarda tasvirlangan afsonaviy ot obrazi.
[5] **Enasoy** – Osiyodagi daryo.
[6] **Turon** – tarixiy-geografik atama bo‘lib, turli davrlarda va manbalarda turlicha ma’nolarni anglatgan. Ba’zi manbalarda bu atama Movarounnahr, Turkiston va Markaziy Osiyo hududlari bilan bog‘lanadi.
[7] **Yag‘mo** – talon-toroj, buzg‘unlik.
[8] **Nigun** – egilgan, bukilgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Boshida qora qish, oppoq bahorlar,
Yuragi yarim-u, butun imoni,
Talotum olamni shivirlab chorlar.

Tani omonatdir, naqd erur joni,
Ko‘krak qafasida lovullab porlar
Buyuk muhabbatning qonli nishoni.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sonetning birinchi bandida shoir ona tilini *“Abut turk nafasi”, “Oltoy chechagi”, “G‘irot”* timsollariga qiyoslaydi. Bu o‘xshatishlar ortida qanday tarixiy va milliy ildizlar turadi?
2. She’r sarlavhasi va epigrafga e’tibor bering. Cho‘lpon hayoti bilan o‘zbek tili taqdiri o‘rtasida qanday o‘xshashliklarni ko‘rasiz?
3. *“Porloq osmoningda quzg‘unlar uchdi”* satrida quzg‘unlar kimni anglatadi? Bu obraz yurt va til boshiga tushgan qanday kulfatlarni ifodalaydi?
4. *“Dunyo oq emasdir, yo‘q, qora bardosh”* misrasida shoir qaysi ijtimoiy-siyosiy holatlarga ishora qilmoqda deb o‘ylaysiz?
5. *“Tushlarimni buzar hazrat Alisher...”* satrida Navoiy obraziga murojaat qilinishining ramziy ma’nosi nimada? Shoir bu orqali qanday mas’uliyatni his qilmoqda?
6. *“Men o‘z Yulduzimni, o‘z Quyoshimni… Yulduz sen, Quyosh sen, sen ona xalqim”* misralarida qanday tuyg‘ular bo‘rtib ko‘rinmoqda? Shoir xalqni nega shu timsollar bilan ta’riflagan?
7. She’rda *“Elidan, tilidan kechganlar”* degan jumla ishlatiladi. Shoir bunday kishilarni nega *“so‘zlarida zahar, ko‘zlarida tosh”,* deya tasvirlaydi?
8. Sonetda shoir qismati qanday ochib berilgan? Bu qism Cho‘lpon hayoti bilan qanday uyg‘unlashgan deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.

Topshiriq

Sonetdan quyidagi she’riy san’atlarga misollarni topib, jadvalni to‘ldiring:

She’riy san’atlar	*Misollar*
Tashbeh	
Istiora	
Tashxis	
Talmeh	
Tazod	
Mubolag‘a	

Ijodiy ish

Rauf Parfining darslikda berilgan yoki boshqa istalgan she’ri mazmunini ochib beruvchi **videosharh** tayyorlang.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



TOG‘AY MUROD (1948 – 2003)

Dars davomida:
- adib uslubiga xos xususiyatlarni o‘rganamiz;
- “Ot kishnagan oqshom” qissasida ifodalangan davr va shaxs fojiasini tahlil qilamiz.

IJODKOR O‘ZI HAQIDA

Men Surxondaryo viloyati Denov tumani Xo‘jasoat qishlog‘ida dunyoni ko‘rdim. Shu qishloqda katta bo‘ldim. Shu qishloqda o‘rta maktabni bitirdim. Maktabda hikoyalar mashq etdim...

Men faqat bir maqsadni ko‘zladim: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini o‘qish. Faqat o‘qish, o‘qish, o‘qish, qo‘l qotib qolmasin uchun mayda-mayda hikoyalar mashq etib turish.

Men shu niyat yo‘lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon-shuhrat qizg‘anmadim. …Men dunyo talashmadim! Faqat izlandim, faqat o‘qidim. G‘animlarim meni ishdan haydadilar…

Men go‘dakligimdan davralarda kurashib katta bo‘ldim. Polvonlik ajdodimda bor, polvonlik qonimda bor. Menda ana shu polvonlik qonim qo‘zg‘aldi. Men g‘animlarimdan alam olish uchun shaylandim. Men kim ekanimni bir ko‘rsatib qo‘yish uchun katta asarga qo‘l urdim.

*Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda **“Yulduzlar mangu yonadi”** nomli birinchi qissamni yaratdim.*

*Men bu qissam bilan g‘animlarimga **“Mana, men kimman!”** degan bo‘ldim. Qissa elga manzur bo‘ldi…*

G‘animlarim bir kuydi, bir kuydi-ye! Bu – tasodif, dedilar. Kesakdan olov chiqdi, dedilar. Fisq-fasod tarqatdilar…

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O‘ylab ko‘ring

- G‘animlar qissaning muvaffaqiyatini “tasodif” deb baholaydi. Sizningcha, chinakam muvaffaqiyat tasodif mahsulimi yoki uzoq mehnat natijasi? Fikringizni asoslang.
- Siz qachon va qanday holatda kimligingizni isbotlash zaruratini his qilgansiz?

Bilib oling

“Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo yer qo‘shig‘i” kabi qissalar, “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” kabi romanlar yozgan Tog‘ay Murod Jek Londonning “Boyning qizi” romani va hikoyalarini, Ernest Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” kitobini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

MUTOLAADAN OLDIN

Tog‘ay Murod “Men” nomli tarjimayi holida quyidagicha yozadi:

“…Kech kuzda yurtimizga yo‘l oldim. Sattor chavandoz degich bilan til topishdim. U menga bir ot topib berdi. Men... otlandim! Sattor chavandoz bilan qishloqma-qishloq yurdim. To‘yma-to‘y yurdim. Ko‘pkarima-ko‘pkari yurdim. Kunduzlari turli yurtlardan kelmish chavandozlar bilan ko‘pkari chopdim. Necha bor otlardan yiqildim. Kechalari to‘yxonalarda chavandozlar bilan gurung qildim. Uzun qish ko‘pkarixona ish joyim bo‘ldi, chavandozlar hamxonam bo‘ldi, otlar birodarim bo‘ldi.



*Nihoyat ko‘klamda **“Ot kishnagan oqshom”** (1979-yil) nomli ikkinchi qissamni jurnalga ko‘tarib keldim. Qissa adabiyot osmonida bir momaqaldiroq bo‘ldi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hisobot yig‘ilishida yilning eng yaxshi qissasi, deya baholandi.*

Men yelkamdan nafas oldim. Men entikdim. Men xumordan chiqdim!”

Topshiriq

“Ot kishnagan oqshom” qissasini yozish uchun adib tutgan yo‘lni muhokama qiling. Bu asarning yashovchanligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz? Shuningdek, yozuvchining “*Men yelkamdan nafas oldim. Men entikdim. Men xumordan chiqdim!*” degan fikrlarini alohida tahlil qiling.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

OT KISHNAGAN OQSHOM

(Qissadan parcha)

1

Birodarlar, ko‘rgilik, ko‘rgilik!

Bir erta uyg‘onib, kallamga qo‘l yugurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. Parvoyim falak bo‘ldi, yura berdim. Onamga-da aytmadim.

Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo‘ldi. Qo‘tir[1] bo‘lib qichidi.

Shunda qishlog‘imiz do‘xtiriga bordim. Do‘xtir fu, deya aftini burishtirdi. Yurchidagi kalxonaga olib jo‘nadi.

Yo‘lda mashinadan tashlab qochdim. Ushlab kelib, yana mashinaga bosdi.

Kalxonada... Uh, aytgiligi yo‘q. Do‘xtir degani berahm ekan. Onamni ko‘rdim, birodarlar, onamni...

Bari kalga qaytadan jingala soch bitdi. Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmadi! Do‘xtirlar ajablandi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi. Xo‘rligimdan yig‘lab-yig‘lab uyga keldim.

Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko‘rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig‘ladi.

– Kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da, – dedi.

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlarimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-da telpagimni olmadim.

Matematika muallimimiz oyog‘ini tirab talab etdi:

– Bosh kiyimingni olmasang, dars o‘tmayman! – dedi.

Old qatorda o‘tirgan sinf oqsoqolimiz muallimga bir nimalar dedi. Ammo muallim o‘z so‘zida turdi:

– O‘quvchi darsda yalangbosh o‘tirishi lozim! Qoida shunday!

Telpagimni kallamga bosib ushladim.

– O‘quvchi Qurbonov, senga aytyapman!

Miq etmadim. Muallimimiz telpagimni boshimdan yulib oldi. Derazadan tashqariga otib yubordi.

Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi. Bolalar kallamni oftobga mengzab qiyqirdi:

– Uraaa, kun chiqdi!

Kallamni qo‘llarim bilan yashirdim, ho‘ngrab yig‘ladim. Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim. Tegmadi. Keyin tashqari otildim. Maktabdan qochib ketdim.

Yana qaytib maktabga oyog‘imni bosmadim. Direktor bilan sinf rahbarimiz kelib, tavallo[2] qildi. Onamiz aldab-avradi. Baribir maktabga bormadim.

Beshinchi sinf kallam bilan qoldim.

---

[1] **Qo‘tir** – badanda pufakchalar hosil qilib, qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi.

[2] **Tavallo** – yolvorish, yalinib so‘rash, iltijo.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2

Odamlar meni kal deydigan bo‘ldi! Ziyodulla kal emish! E, tavba-ye, tavba-ye!

Avval-avval uyatdan quloqlarimgacha lovullab yondim. Ko‘nglim o‘ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo‘ldi. Kal so‘zi ko‘nglimga singdi. Quloqlarim kalga o‘rganib qoldi.

Endi, Ziyodulla kal, demaydiganlardan o‘pkaladim. Ayniqsa, pochtachidan hafsalam pir bo‘ldi. Qachon ko‘rsa, o‘rtoq Qurbonov, deydi. G‘ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi.

Bir safar jerkib tashladim:

– Nimaga meni o‘rtoq Qurbonov, deysiz? Men bir amaldormidimki yo diplomim bormidiki, o‘rtoq Qurbonov, deysiz? Bor-yo‘g‘i beshinchi sinf kallam bo‘lsa. Ko‘p mayna qilmang, sochim bo‘lmasayam tarog‘im tillodan!

– Bo‘lmasa nima deyin?

– El qatori Ziyodulla kal, deya bering. O‘z otim o‘zim bilan...

Xudoga shukur-e, endi pochtachi-da kal deydigan bo‘ldi!

Diplom so‘ramaydigan turli ishlarda ishladim. Qorovul bo‘ldim, go‘lax[1] bo‘ldim. Oxiri podachi bo‘ldim. El qo‘yini boqdim.

Adirlarda qo‘y boqib, nay chaldim. Nafasim yetmay qoldi. Shunda eski bir do‘mbira topdim. Do‘mbiramni sayratdim, bepoyon adirlar, yoyilib o‘tlayotgan qo‘ylar, cho‘qqilar uchida uzmay chug‘urlayotgan qushlar, pag‘a-pag‘a oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to‘ylar, olis yaldo kecha[2]lari bobolarimiz biri qo‘yib, biri aytar edi. Bobolarning ko‘plari rahmatli bo‘ldi. Rahmatlilarday doston aytib bo‘lmaydi. Bizniki baholi qudrat...

5

Bir suruv qo‘y sotdim. Pulini belimga o‘radim. Namoz chavandozni oldimga solib, Oboqliga jo‘nadim.

Birodarlar, bizning Surxonda mana bunday gap bor: ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg‘alidan ol!

Buning mag‘zi shuki, ot deganlari dev! Ot bepoyonlikni deydi. Ot masofa nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib o‘sadi. Ana shunda dirkillagan ot bo‘ladi! Qo‘ltiqlari cho‘ziladi, ko‘kraklari enli bo‘ladi! Uchqur keladi! Bedov ot bo‘ladi!

Oboqli ana shunday dasht!

…Men ikki kun ot sayladim. Oboqli dashti gala-gala ot! Dasht changitib chopib yuribdi! Bir yashar qulunlar, uch yashar toylar, to‘rt yashar g‘o‘nonlar, besh yashar do‘nonlar! Sag‘risiga uy tiksa bo‘ladigan baytallar! Haybatli ayg‘irlar!..

Birovini ushlab, old tuyoqlarini juftladim. Tuyoqlari orasidan musht urdim. Mushtim o‘tmadi. Bordi-yu o‘tsa, yaxshi ot bo‘ladi. Qo‘yib yubordim. Yana birovini ko‘rdim. Durustgina-yu, faqat qorni yo‘q. Bor bo‘lsa-da, juda tor. Buniyam qo‘yib yubordim, bo‘lmaydi!

Birodarlar, ot olsang, ho‘kiz qorindan ol, ho‘kiz olsang, ot qorindan ol!

Orqa kezanagi bolaning bilagiday bo‘lib turadigan ot yaxshi keladi. Shundayini izladim. Yo‘liqmadim. Qopqog‘i enli ot-da yaxshi bo‘ladi. Bundayiga-da ko‘zim tushmadi.

---

[1] **Go‘lax** – hammomga o‘t yoquvchi kishi.

[2] **Yaldo kechasi** – yilning eng uzun tuni (21-dekabr).

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



Galani aylanib yurdim. Bir bo‘zga ko‘zim tushdi. Shuni ushladim. Tishlarini ko‘rdim. Yoshi yettida bo‘lsa-da, hali oziq tishi chiqmabdi. Aslida, besh yoshida chiqadi. Demak, endi chiqmaydi. Oziq tishsiz ot xosiyatli ot bo‘ladi!

Birodarlar, shu bo‘z[1]ga dil ketdi!

Uch mingni naqd sanab berdim. Bo‘zni minib keldim.

Omborxona oldidagi ustaxonaga olib bordim. Bo‘zga burov[2] soldim: ipga tayoqcha bog‘ladim, tumshug‘idan o‘rab buradim. Burov tayoq bo‘z tumshug‘iga botdi. Bo‘zni qimirlatmay qo‘ydi.

Usta bo‘z oyoqlariga nag‘al qoqdi.

Birodarlar, asov otni taqa to‘xtatadi!

Hovli chetida oxur qildim. Bo‘zni shu oxurga bog‘ladim.

Onamiz norozi bo‘ldi. Beti burishib-burishib og‘rindi. Labini burib ming‘illadi:

– Otim nimam?.. Otdan mashina yaxshi... – dedi.

– Mashinam nimam? Oti borning – qanoti bor, – dedim.

– Otga yemish qani?..

– Yemish? Xudo har jonivorni o‘z rizqi-ro‘zi bilan yaratadi. Ot bitdi – qanot bitdi. Yemish topiladi.

Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo‘q! Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! Temirning yuragi yo‘q-da! Ot odamga el bo‘ladi. Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!

6

El menga-da burnini jiyirib qaradi, otimga-da burnini jiyirib qaradi. El og‘zini ushlab kuldi, piq-piq kuldi, qo‘li bilan ko‘rsatib kuldi, pana-panalarda kuldi.

Bildim, el, Ziyodulla kal, otangni ko‘rdim – ahmadi forig‘, onangni ko‘rdim – tovoni yoriq, ko‘rpangga qarab oyoq uzat, dedi. O‘zing bir sag‘ir[3] bo‘lsang, senga kim qo‘yibdi otni, dedi. Yana tag‘in kal bo‘lsang, kalga otim nimam, dedi. Kalga eshak ham bo‘ladi, dedi.

Birodarlar, el shunday! El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi! Odamzod shunday! Bor bo‘lsa, ko‘rolmaydi, yo‘q bo‘lsa, berolmaydi!

Shunday ekan, odam bo‘laman, desangiz, el og‘ziga e’tibor bermang! Odam bo‘laman, desangiz, el gapiga parvo qilmang! Ammo beparvo-da bo‘lmang!

Birodarlar, ot azzancha xosiyatli bo‘lsa-da, azzancha fahm-farosatli bo‘lsa-da, azzancha xushsuvrat bo‘lsa-da, baribir ot, o‘z oti o‘zi bilan ot! To‘rt oyoqli jonivor! Dumli hayvon!

Dunyoda nima mo‘l, to‘rt oyoqli jonivor mo‘l! Duch kelmish to‘rt oyoq jonivorni qanday bo‘lsa, shundayligicha el orasiga olib kirib bo‘ladimi? Bo‘lmaydi! Qanday bo‘lsa, shundayligicha el qilib bo‘ladimi? Bo‘lmaydi! Avvalambor to‘rt oyoqli jonivorni ot qilmoq lozim!

[1] **Bo‘z** – ko‘kka moyil oq rang (asosan, ot tusi haqida).
[2] **Burov** – uy hayvonlarining tumshug‘iga solinadigan sirtmoq.
[3] **Sag‘ir** – yetim.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

To‘rt oyoqli jonivorni ot qilishning o‘zi bo‘lmaydi. Dumli hayvonni odamga el qilish barchaning-da qo‘lidan kelmaydi!

To‘rt oyoqli jonivorni ot qilish uchun avvalambor ko‘ngilda bo‘lmog‘i lozim! Avvalambor badanda bo‘lmog‘i lozim!

Barakalla! Bor-da, badanda bor-da! Ko‘ngilda bor-da! Shu bois ot oldim-da! Ahay-ahay!

Dostonchi doston aytadi. Xato aytsa, shartta bas qiladi. Boshqatdan, tuzatib aytadi.

Shoir kitob bitadi. Kitobida bir joyi yoqimsiz bo‘lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o‘chiradi, yoqimli qiladi.

Rasmchi surat chizadi. Suratda odam qoshi qoshday bo‘lmadi. Ot yoli yolday bo‘lmadi. Qiyomiga kelmadi. Rasmchi darhol odam qoshini qoshday qiladi, ot yolini yolday qiladi.

Chavandoz bo‘lsa, otni tuzatolmaydi!

To‘rt oyoqli jonivor ot bo‘layotib... ha-ha, ot bo‘layotib... nima fe’l-atvor topsa, shu fe’l-atvorida qoladi. Nima qiliq topsa, shu qilig‘ida qoladi. Nima ko‘rsa, nima bilsa, nima o‘rgansa, barcha-barchasi tanasida qoladi, miyasida qoladi.

Ana shundan keyin chavandoz otni tuzataman, desa, o‘ziga javr qiladi. Otni tuzatib bo‘lmaydi!

Birodarlar, sara ot chavandoz aql-zakovatidan bino bo‘ladi! Sara ot chavandoz qalb qo‘ridan bino bo‘ladi!

Shu bois bo‘zni tarbiyalay berdim, kecha-yu kunduz tarbiyaladim. Zo‘r berib tarbiyaladim. Qanday qilib tarbiyaladim? Aytmayman, birovlar bilib qoladi, aytmayman...

7

Birodarlar, bo‘z ot qanday bo‘ladi? Surpday oppoq bo‘ladi! Bordi-yu, ajdodida bo‘lsa, to‘qqizga to‘lganda tarlon[1] bo‘ladi. To‘qqiz yoshida bo‘zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo‘ladi. Shundan boshlab u bo‘z emas, Tarlon ot bo‘ladi. Tarlon – xol-xol ot! Tarlon – otlar sarasi!

Birodarlar, to‘riq[2] otning yuzdan biri yaxshi bo‘ladi, tarlon otning yuzdan biri yomon bo‘ladi!

Birodarlar, ot tanimasang, Tarlon ol!

Bizning bo‘z to‘qqizga to‘ldi, to‘qqizda bo‘ldi. Shunda... shunda bir orzum o‘n orzu bo‘lib bolaladi. Bir quvonchim o‘n quvonch bo‘ldi!

Birodarlar, bo‘z otim Tarlon bo‘ldi! Men Tarlon otli bo‘ldim!

Otning sarasi menda, quling o‘rgilsini menda!

12

Birodarlar, ot bilmaydigan nima yo‘q!

Ot qor-yomg‘irni, dovulni oldindan biladi.

Ayniqsa, to‘y-ma’rakani darrov biladi. Boisi, to‘yda ko‘pkari[3] bo‘ladi-da!

Bizning Tarlon kechasi bilan pishqirdi.

Alag‘da bo‘ldim, choponimni yelkamga tashladim, tashqariladim.

Oy yorug‘, osmon ochiq bo‘ldi.

---

[1] **Tarlon** – ola targ‘il, chavkar; shu tusdagi ot.

[2] **To‘riq** – qora qizil, to‘q jiyron (ot tusi haqida).

[3] **Ko‘pkari** – uloq o‘yini.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Tarlon qoziqni aylanib chopdi.

Tarlonni ushladim. Yollarini siladim.

Bir yerda to‘y bor-ov, dedim.

Aytganim bo‘ldi.

Ertasi kuni shundaygina yonimizdagi Obshir qishlog‘idan to‘yxat keldi.

Omborxonadan ot abzallarini – terlik, bellik, chirgi, boz, jahannik, jul, pushton, quyush-qon, yugan, ko‘pchik, uzangili egarni qo‘ltiqlab keldim.

Tarlonni qashlab-qashlab egarladim. Og‘ziga suvliqni solib, yuganladim. Peshonasiga do‘lana shoxidan bo‘lgan ko‘ztumor ildim.

Egar qoshidan oldim. Uzangiga oyoq soldim.

14

Ertalab ta’tillanib, otlandim. Lalmi dashtga yo‘l oldim.

Dasht bir-biriga ulashib ketgan adirlar oralig‘ida bo‘ldi. Kunbotar qo‘ng‘ir tusli qirlar bo‘ldi. Dasht chetlari yo‘g‘on-yo‘g‘on tutlar bo‘ldi.

Ko‘pkari tomoshaga kelganlar shu tut shoxlarida, devorlarda chumchuqdayin tizilib o‘tirdi. Tevarakdagi adirlarda to‘da-to‘da bo‘lib yonboshlab yotdi.

Adir betlarida chavandozlar otlarini yalang‘ochladi, otlarini ko‘pkariga shayladi.

Men ham adirning bir chetini oldim. Tarlonni yalang‘ochladim, yerga yumalatdim. Ke-yin egar bosdim.

Oyog‘imga paytava o‘radim. Xurjundan ko‘pkari etigimni olib kiydim. Etik baland poshnali, takaning terisidan bo‘ladi. Teri teskarisi ichiga qaratib tikiladi. Teskarisi yaltiroq, sirpanchiq bo‘ladi. Yuzasi terining o‘ng tarafidir. Etikni mol charvisi bilan moylab turaman. Shunda suv, qor, sovuq o‘tmaydi, yirtilmaydi.

Butlari bir qarichcha yirtiq cholvor[1]imni kiydim. Cholvorimni atayin yirtib qo‘yibman. Bo‘lmasa, ko‘pkarida butimga biron nima ilashadi, cholvorimni og‘igacha ayirib yuboradi.

Telpagim qulog‘ini tushirdim. Uzangiga oyoq ilib, egar qoshidan oldim. Dashtga qarab endim.

15

Chavandozlar tevarakni aylanib chopdi. Chavandozlar otlarini pishitdi.

Odamlar qishloq tarafga qaradi.

– Ana, uloq kelyapti! – dedi.

Qishloqdan ikki otliq keldi. Birovi oldida qora uloq. O‘ngarib oldi. Otliq uloqni oldimiz-ga olib kelib tashladi.

Chavandozlar uloqni otlariga iskatdi. Uloq yon-verini, tevaragini aylantirib ko‘rsatdi.

Otlar to‘p bo‘ldi.

Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qi-zil, mo‘ylovli bir odam uloq boshiga keldi.



Ko‘pkari

[1] **Cholvor** – asosan uyda kiyiladigan, shimga o‘xshash kiyim.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Ana shu mo‘ylov bakovul[1] bo‘ldi. Qamchi sopini boshi uzra ko‘tardi. Jarangdor ovozda aytdi.

– Chavandozlar-ov! Gapimni o‘ng qulog‘ing bilan-da, chap qulog‘ing bilan-da, eshitib ol! Chilvir solma – bir! Bir-birovingni yomon gap bilan so‘kma – ikki! Qamchi solma – uch! Yiqilgan chavandoz ustiga ot solma – to‘rt! Ot qochganda ushlashga yordam ber – besh! Ol, ha, ol!

Bakovul shunday dedi-da, o‘zi to‘dadan chetga chopib chiqdi. To‘dani aylanib chopib, jar soldi:

– Birinchi zotiga bir ro‘mol, o‘n so‘m puli bor! Eshitmadim, demanglar!

Chavandozlar to‘daga ot soldi. Otlarini qimtidi, otlarini tizzasi bilan niqtadi, otlarini qamchiladi, otlarini uloqqa haydadi.

Uloq sonsiz ot tuyoqlari orasida qoldi. Qo‘llar uloqqa talpindi, ammo ololmadi.

– Ha-ha-ha!

– Chu-chu-chu!

– Bos-bos-bos!

Talpinishlar samara bermadi. Uloq yerdan qo‘zg‘almadi. O‘zini uloqqa urayotganlar o‘zi-da, otlari-da g‘arq terga botdi. Chavandozlar dastlabki shashtidan qaytdi, otlar shashtidan qaytdi. Ayrim chavandozlar to‘da chetiga chiqdi, peshonalarini artdi, tomoshago‘y bo‘ldi.

Endi to‘da tevaragida yurgan chavandozlar o‘zini uloqqa urdi.

Men Tarlon boshi uzra qamchi havolatdim. Tarlonni qimtib-qimtib, to‘daga haydadim. Tarlon otlar siquvida turtinib-surtinib uloqqa yetib keldi. Uloqni bir aylanib to‘xtadi.

Men qamchini sopidan tishlab oldim. O‘zim uloqqa uzaldim. Endi ko‘tarib edim, bir ot tuyog‘i bosib qolib, uloq qo‘limdan tushib ketdi.

Tarlonni otlar to‘dasi surdi. Tarlon qalqib-qalqib, uloq nariyog‘iga gandiraklab o‘tdi. Chetga chiqib qoldi.

Tarlon shashti qaytmasin, ruhi tushmasin, deya bir chaqirimcha yerga chopib borib, chopib keldim. Go‘yo uloqni olib chiqdim…

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asar mutolaasiga kirishganingizda u haqdagi dastlabki tasavvuringiz qanday edi? Endi-chi?
2. “Ziyodulla kal” degan laqabni qahramonning o‘ziga qabul qilishi va hatto talab etishi vaziyatga ko‘nikishmi yoki?.. Fikringizni asoslang.
3. *“Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo‘q! Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! Temirning yuragi yo‘q-da! Ot odamga el bo‘ladi. Boisi, otning joni bor, yuragi borda!”* Ushbu fikr orqali qahramon qanday qadriyatlarni himoya qilmoqda? Javobingizni matndan dalillar keltirib asoslang hamda bugungi texnologik jamiyat bilan qiyoslab baholang.

[1] **Bakovul** – to‘y va bayram (hayit) munosabati bilan o‘tkaziladigan kurash, poyga, uloq (ko‘pkari) kabi musobaqalarni boshqaruvchi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

4. Ko‘pkari o‘yinidagi qoidalar faqat tartib-intizom uchun joriy qilinganmi yoki ular orqali milliy axloq me’yorlari ham ifodalanganmi? Qoidalarni tahlil qilib, xulosangizni asoslang.
5. *“El gapiga parvo qilma, ammo beparvo ham bo‘lma”* degan fikrga bugungi sharoitda qay darajada amal qilish mumkin? Hayotiy misollar bilan asoslang.
6. Ziyodulla uchun Tarlon faqat ot emas, balki taqdirini o‘zgartiruvchi ramzga aylangan edi, deyish mumkinmi? Qissadagi voqealar asosida izohlang.
7. Ziyodulla doston aytishi haqida gapirganda nega aynan *“baholi qudrat”* va *“bobolarday aytib bo‘lmaydi”,* deya istihola qiladi? Ziyodulla nutqining qaysi qismlarida baxshiyona ohangni sezdingiz? Matndan misollar keltiring.
8. Muallif *“birodarlar”* murojaatini takror-takror ishlatadi. Bu usul o‘quvchiga qanday ruhiy ta’sir ko‘rsatadi? Qissaga qanday ohang bag‘ishlaydi?

Topshiriq

Parchada keltirilgan *terlik, bellik, chirgi, boz, jahannik, jul, pushton, quyushqon, yugan, ko‘pchik, uzangili egar, suvliq* kabi ot abzallarini ifodalovchi so‘zlar haqida ma’lumot to‘plang va har birining vazifasini izohlang.

Mutolaa

Qissaning **16–52**-qismlarini mustaqil mutolaa qiling.

16

Uloq[1] yerdan qimirlamadi. Shunda bakovul zotni oshirdi.

– Chavandozlar-ov, eshitmadim demanglar, ustiga yana bir go‘sam serka qo‘yildi!

Chavandozlar chuh-chuh, deya otlarini uloqqa chorladi. Sag‘ri[2]lariga tars-tars qamchilar urdi.

Otlar pishqirdi, otlar kishnadi.

Nihoyat, uloq yerdan ko‘tarildi. To‘da asta-asta jonlandi.

Otlar qulog‘i lik-lik etdi. To‘da pastga siljidi.

Bakovul jar soldi:

– Uloq ko‘tarildi, uloq ko‘tarildi!

To‘da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi: dupur-dupur-dupur... otlar uloq tevaragida chopdi. Bor e’tibori uloqda bo‘ldi.

– Uloq ketdi! Uloq Burnoch bilan Samanda boryapti!

[1] **Uloq** – echki bolasi; ko‘pkari musobaqasida o‘rtaga so‘yib tashlangan echki yoki buzoq.
[2] **Sag‘ri** – ot, eshak, qoramol kabilarning orqa oyog‘ining ustki qismi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Nimaga burnoch ot deymiz! Boisi, burnoch otning peshonasida qashqasi, burni uchida olasi bo‘ladi. Butlarida ola bo‘ladi. Burnoch otning xili ko‘p bo‘ladi. Ko‘k burnoch, qora burnoch, to‘riq burnoch, jiyron burnoch!

Saman ot bo‘lsa, sariq, yollari, dumi qora bo‘ladi. Yol-quyrug‘i oqlari-da bo‘ladi.

Burnoch bilan Saman quloqlarini quyon quloqlari misol chimirib chopdi, zinkiyib chopdi. Uloq oralarida shalvirab bordi. Uloqning bir buti Burnochda, bir buti Samanda bo‘ldi.

Chavandozlar o‘z taraflariga chalqayib, tortishib bordi. Tevaragida o‘nlab qo‘llar uloqqa uzaldi, ammo yetolmadi. Yetganlari uloqni yulib ololmadi.

Otlar Burnoch bilan Samanni o‘rab chopdi, dupur-dupur-dupur...

– Uloq Burnoch bilan Samanda boryapti! Uloq Samanga o‘tdi, uloq Samanda! Bos!

Darhaqiqat, Saman chavandozi epchillik bilan uloqni taqimiga bosdi. O‘ng tarafiga qiyshaydi. Jilovni o‘ngga burdi. Saman yo‘lini o‘ngdan soldi.

Chavandozlar talashish foydasizligini bildi. Birin-birin orqada qoldi.

– Haloool! Samanniki halol! Tashla, Saman, tashla! E barakalla-ye! Saman, kel, haqingni ol!

Saman uloqni yerga tashladi. Bakovulga qarab yurdi.

Chavandozlar yerga tushgan uloqqa qarab yurdi. Yana uloqqa yopirildi. Uloq bu gal maydagina bir to‘riqda ketdi.

Birodarlar, to‘riq ot malla bo‘ladi. Bo‘yni xuddi ko‘zoynakli ilon misol gajak-gajak bo‘ladi!

17

Yanagi uloq menga nasib etdi.

Men uloqdan umid qilmadim, to‘da chetida turdim. Uloqni Yaratganning o‘zi yetkazdi.

Bir qizil-ko‘k uloqni yerdan sudrab chiqdi. Qizil-ko‘k shundaygina yonimizga keldi. Shunda chavandozi uloqni ot tizzasi bo‘yi ko‘tardi.

Men enkayib, uloqqa yopishdim. Qaddimni ko‘tardim, Tarlon biqiniga tizzamni nuqib ayqirdim.

– Haa!

Tarlon bir yulqinib, to‘dadan uzib chiqdi. Ketimdan chavandozlar ot soldi. Ko‘plari menga yetib keldi, uloqqa uzaldi.

Shunda Tarlonga qamchi bosdim. Ammo Tarlon jadallamadi, aksincha, tobora sekinlab chopdi.

Hayron bo‘lib, olg‘a qaradim. Ana shunda nima gapligini bildim: oldinda bir odam bo‘yi soy bo‘ldi...

Nima qilishimni bilmadim. Jilovni buraman degunimcha soy labiga kelib qoldim. Tarlon soy yoqalab chopdi. Uloq soy tarafda bo‘ldi. Shu sababli-da uloqqa birov kelolmadi.

Shunday bo‘lsa-da, qo‘li uzun chavandozlar Tarlon sag‘risi, Tarlon bo‘yni osha uloqqa uzaldi. Men uloqni bermadim. Ayniqsa, Tarlon uloqni bergisi kelmadi.

Soy yoqalab chopdim. Shunda-da bakovul ovozidan darak bo‘lmadi. Endi jilovni qo‘yib yubordim. Taqimimdagi uloqni qo‘shqo‘llab ushladim. Tarlon endi o‘z bilganicha chopdi. Soyda esa adoq bo‘lmadi...

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Chavandozlar ketimdan qolmay ta’qib etdi.

Shunda Tarlon birdan... soyga qarab zinkiydi. Old oyoqlarini ko‘tardi, o‘zini soyga tashladi.

Etlarim jimir-jimir etdi. Ko‘zlarim otilib chiqib ketayotganday bo‘ldi. Oyog‘im yerdan uzilganini tuydim. O‘zimni muallaq sezdim. Ko‘nglimdan, o‘lgan shunday o‘lar ekan-da, degan gap o‘tdi. Ko‘zlarimni chirt yumdim, uloqni qo‘yib yubordim...

Zo‘r bir zarbdan qalqib ketdim. Yuragim tovonimga tushib ketganday bo‘ldi. Hushim boshimdan uchdi. Jonholatda Tarlon bo‘yniga yopishdim. Mahkam quchoqlab oldim...

18

Ko‘zlarimni ochdim. Yo tavba, Tarlon hamon chopib boryapti. Endi soyda chopib boryapti.

Tarlon bir-bir bosib, oyoq ildi. Boshini egdi. Pishillab nafas oldi.

Men qaddimni rostladim. O‘zimga keldim. Men tag‘in ko‘zimni yumdim.

Yuqoridan bakovul ovoz berdi.

– Zot joyida! Zot joyida qoldi!

Yuqoriga o‘girildim. Otliqlar soy labida qator bo‘lib qaradi. Uzalib, jilovni oldim.

Yuqoriga chiqadigan yo‘l qidirib, soy yoqaladim. Yuqorida chavandozlar salmoqlab-salmoqlab gapirishdi.

– Odamning boshi aylanib ketadi-ya!

– Shu Tarlonda ikkita yurak bor!

– Bordi-yu, bitta bo‘lsa, o‘zining kallasiday!

– Tarlon dilovar[1] ot ekan!

Bakovul tayinladi:

– Tarlon-ov, uloqniyam olib chiq! – dedi.

Men o‘zimni eshitmaslikka oldim. Uloqqa qaytib borgim kelmadi. Bir nishabroq yerdan yuqoriladim.

Egar-abzallar oldiga bordim. Tarlonni yalang‘ochladim. Tarlonning bor vujudini qarab ko‘rdim. Oyoqlarini siladim. Xudoga shukr, lat yemadi. Yerga yumalatib-yumalatib sovitdim. Bosh-adoq qashladim. Bo‘ldi, endi Tarlonni uloqqa solmayman. Bo‘ldi, Tarlon g‘olib bo‘ldi...

* * *

Birodarlar, hamsoyamiz Qulmat polvon bozorlab keldi. Mayiz sotib keldi.

Devorimizdan avaylab bo‘yladim. Narx-navoni so‘radim.

– Qani, polvon, – dedim, – mayiz qanchadan bo‘ldi?

Polvon qo‘llarini ko‘ksi barobar qildi. Kaftlarini katta-katta ochdi. O‘nta barmog‘ini yoyib ko‘rsatdi. Og‘zini to‘ldirib:

– O‘n so‘m! – dedi.

– Yo‘g‘-e?

[1] **Dilovar** – jasur, mard.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Chinim, o‘n so‘mdan bo‘ldi. Mayizingiz bo‘lsa, armonda qolmang!

Mayiz bizda bor-da! Olti unxalta! Saratonday sariq mayiz! Qo‘chqorday-qo‘chqorday o‘g‘illarim bor! Katta bo‘lsa, otning Tarlonini minaman, deyapti! Mayizni shularning to‘yiga bosib yotibman! Bu qish kuchim yetmaydi, kelasi qishda katta to‘y beraman! Nasib bo‘lsa! Shanba oqshomi ombordan bir xalta mayiz sudrab chiqdim. Supadagi gilamga yoydim.

G‘alvirda elab-elab, changdan pokiza etdim.

Subhi sodiqda Tarlon bilan bozorladim.

Qizilsuvga doxil bo‘ldim. Daryodan kechib o‘tib, yuqoriladim.

Mol bozori oldida tevaragi sim bilan o‘ralgan yer bo‘ladi. Bozorlab keluvchilar ot-ulovlarini ana shu yerga bog‘lab qo‘yadi. Tarlonni-da shu yerga bog‘lab qo‘ydim.

Mayizimni orqalab, bozor oraladim.

Dimog‘im manti hidini tuydi.

Bukilib-bukilib yurdim.

– Po‘sht-po‘sht! – deb yurdim.

Bozorchilar qatoridan joy oldim. Mayiz xaltamni ochdim. Mayizimni maqtab-maqtab o‘tirdim. O‘n so‘mdan pastga tushmadim!

Chipor galstukli bir odam mayizimni kaftiga olib ko‘rdi. Salmoqlab-salmoqlab ko‘rdi.

– Sal tushing, dehqonsiz-ku! – dedi.

– Nima, dehqon mayizni ko‘chadan topib oladimi? – dedim.

– Tok tuggan noz-ne’matni o‘n so‘m deb o‘tiribsiz-a!

– Noz-ne’mat degani dehqonning peshona teri degani!

– Ko‘p minnat qilmang! Shusiz ham oy bitsayam, kun bitsayam, dehqonga bitib yotibdi!

– Bitadi-da! Ust-boshlaringdan tortib, yegan-ichganlaringgacha dehqonning peshona teridan kelyapti! Idorada o‘tirib qog‘oz qoralaganlaring bilan osmondan yeydigan yo kiyadigan biror nima tushmaydi! Dehqon topganining to‘qson foizini sizlarga jo‘natib, qolgan o‘n foizinigina o‘zi yeydi!..

Chipor galstukli odam unday desa, bunday dedim, bunday desa, unday dedim. Ishqilib galstuklidan qolishmadim!

Birodarlar, sochim bo‘lmasa-da, tarog‘im tillodan!

Qaradim-qaradim, savdoning ma’quli bo‘lmadi.

– Bor-e, yetti so‘mdan bo‘ldi! – deb yubordim.

Shu zahotiyoq bir mayizjallob dikonglab keldi. Ko‘tara savdo qilib olib ketdi.

Xaltamni tizzamga urib qoqdim. Buklab-buklab qo‘ltig‘imga qisdim.

Bozor oralab, bozorlik qildim. Noz-ne’matlar oldim. Jiydaga boshqorong‘i ayolimizga Xorazm jiydasi oldim. O‘g‘illarimizga xo‘rozqand, qog‘ozida kuchugi bor qand, teshikkulcha oldim. Barini xaltamga solib, choyxonaga yo‘l oldim.

51

... Shu vaqt bozor darvozasi tarafdan ovozlar keldi.

– Ushla, o‘g‘rini ushla! – dedi ovozlar.

G‘uj-g‘uj odamlar orasidan bir bola chopib chiqdi. Ketidan bir beqasam choponli odam quvib keldi. Bola ko‘chani kesib chopdi. Yuqoridan kelayotgan qizil mashinaga bel bo‘ldi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Mashina “shig‘g‘” etib, toyib kelib to‘xtadi. Bola o‘zini yo‘lning berigi betiga otdi. Qop-qora suvli ariqqa shaloplab tushdi. Loy bo‘lmagan yeri qolmadi.

Quvib kelayotgan odam mashina ketidan o‘tdi. Bolaning loy yoqasidan juftlab ushladi.

Bola tipirchiladi, ammo beqasam choponli changalidan chiqolmadi. Beqasam choponli bolaning oyoqlariga qo‘shib, qoqib, yerga yumalatdi.

– Pulni chiqar! Qani pul?! – dedi beqasam choponlik.

– Men emas! – dedi bola.

– Sen! Qo‘lingni kissamda ushladim-ku! Yaxshilikcha chiqar, bo‘lmasa enangni Uch-qo‘rg‘ondan ko‘rsataman!

– Men emas, deyapman-ku!

– Unda o‘zim topaman! Tort qo‘lingni! Manovi kissangni ko‘rsat!

Yo‘ldan o‘tkinchi-ketkinchilar oyoq ildi. Choyxonadagilar borib qaradi. Tumonat odam bo‘ldi. Men so‘rida tik turib qaradim. Beqasam choponli bolaning kissasini kovladi. Qo‘yniga qo‘lini tiqdi. Qo‘ynidan bir dasta pul oldi. Bolaning tumshug‘iga olib bordi.

– Bu nima, enangning qalinimi? – dedi.

Bola boshini yelkalari ichiga oldi. Yuzini loy kaftlari bilan pana qildi. Beqasam choponli bolaning quloq-chakkasiga qulochkashlab soldi. Bola balchiq suvga shalop etib tushdi. Beqasam choponli bolaning yoqasidan juftlab ushladi. Suvning oqishiga qarab sudradi.

– Senga kissavurlik qilishni ko‘rsatib qo‘yaman! Yur melisaga!

Bola oyoqlarini tiradi, gavdasini orqasiga tashladi. Shu vaqt olomon orasidan ikkita novcha bo‘zbola sug‘urilib keldi. Ikkovining-da sochlari yelkasida bo‘ldi. Ust-boshlari badanlariga chippa yopishib turdi. Botinkalari tovoni ot tuyog‘iday-ot tuyog‘iday qalin-qalin bo‘ldi. Bo‘zbolalar beqasam choponli ketidan keldi. Bir bo‘zbola beqasam choponli tirsagidan ushladi. Beqasam choponli bolani qo‘yib yubordi. Ketiga qayrilib qaradi. Shunda bo‘zbola beqasam choponli iyagiga qulochkashlab bir urdi. Beqasam choponli zuvalasi pishiqlardan bo‘ldi. Ketiga gandiraklab-gandiraklab bordi. Ammo yiqilmadi. Olomon haybarakallachi bo‘ldi:

– Ur! Sol, tumshug‘iga!

– Ur! Musht turganda muomala nima kerak!

Beqasam choponli bir bo‘zbolani qo‘shqo‘llab bir urdi. Bo‘zbola chalpak bo‘lib tushdi. Omon turgan bo‘zbola beqasam choponli ketidan keldi. Biqiniga sozlab bir tepdi. Beqasam choponli enkaydi. Biqinini ushlab-ushlab, enkayib qoldi. Olomon haybarakallachi bo‘ldi:

– Ur! Kalla qil, kalla!

Shunda maydagina bir qora kuchuk vangillab-vangillab chopib keldi. Keldi-yu, beqasam choponlini urayotgan bo‘zbola butiga yopishdi. Bo‘zbola kuchukka oyog‘ini sermadi. Kuchuk ketidan sermo‘ylov baliqpaz chopqillab keldi. Kuchugini urishib-urishib, oldiga solib haydab ketdi. Chalpak bo‘lib yiqilgan bo‘zbola joyidan sapchib turdi. Beqasam choponlini tepa ketdi. Loyga belangani-da qo‘shilib tepdi. Bo‘zbolalar ko‘zlariga qaramay tepdi. Beqasam choponli yuzlari burishdi. Bir ichini, bir biqinini ushladi. Keyin yerga cho‘k tushdi. Men olazarak bo‘ldim. Tevarak-atrofimga alangladim. Burchakda o‘tirgan militsionerlarga qaradim.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Ay, anavilarni oracha qilinglar-ay! – dedim.

Militsionerlar parvoyi falak bo‘ldi. Beg‘am-beg‘am choy ichdi. Boshlarini sarak-sarak etdi.

– Bizga aloqasi yo‘q! – dedi.

– Bu yer boshqa birovning uchastkasi! Bizning uchastkamiz vinzavod tarafda! – dedi.

Olomon yakun yasadi:

– Tamom, nokdaun!

Yo‘q, tamom bo‘lmadi.

Beqasam choponli cho‘kkalab o‘tirdi-o‘tirdi-da, birdan sapchib turdi. Biqiniga tepgan bo‘zbola yuziga kalla qildi. Bo‘zbola yuzlarini kaftlari bilan yopdi. Xiyol enkaydi. Barmoqlari orasidan qon sizib chiqdi. Shunda birovi kaftiga bir qora nima qo‘ydi. Shu qora nima bilan beqasam choponlining peshonasiga qulochkashlab bir urdi. Beqasam choponli:

– Voh, o‘ldim-a! – deya baqirdi. Peshonasini ushladi. Taltangladi, gandirakladi. Ana yiqilaman, mana yiqilaman dedi. Kalla yegan bo‘zbola turgan joyida sapchib, beqasam choponlining ko‘kragiga tepdi. Beqasam choponli bargday uchib tushdi. Qo‘llarini yonlariga yoyib, qimirlamay qoldi. Bo‘zbolalar beqasam choponlini o‘rtaga olib tepdi. Oyoqlari ostiga olib tepdi. Ko‘zlariga qaramay tepdi.

Birodarlar, ezilib ketdim, ich-ichimdan ezilib ketdim! Jonim halqumimga keldi!

Alam ham armon bilan burchakka qaradim. Yo‘q, militsioner yo‘q. Tevarak-atrofga alangladim. Militsionerlar oldinma-keyin bo‘lib, choyxona yonalab pisib-pisib ketyapti. Qahr bilan, nafrat bilan so‘ridan tappa tashladim. Beqasam choponli bilan bo‘zbolalarni oracha qilayin, dedim. Olomonni qulochlarim bilan yorib, o‘rtaga kirib bordim. Bir bo‘zbolani bilagidan qo‘shqo‘llab ushladim. Ketiga sermab yubordim. Bir bo‘zbolani sochlaridan g‘ijimlab ushladim. Sochlaridan chetga tortdim.

– Imoning kuygurlar! Bir mo‘min bandani o‘ldirasanmi?! – dedim. Sochlarini g‘ijimlab turgandim, yulqindi. Bo‘lmadi. Tag‘in yulqindi. Yana bo‘lmadi. Keyin chotlarim orasiga o‘xshatib bir tepdi.

Birodarlar, orachiga – olti tayoq!

Esankirab qoldim, dovdirab qoldim. Jon shirin-da! Jon achchig‘ida qo‘lim yuzasi bilan bo‘zbola ko‘zlarini oralatib bir soldim. Bo‘zbola chinqirib yubordi. Shu vaqt mashina ovozi eshitildi. Katta ko‘chadan bemorxona mashinasi keldi. Olomon o‘zini chetga oldi. Ko‘cha yuzida to‘p bo‘ldi.

Mashinada o‘tirgan oq kiyimli odam ko‘zoynagi ustidan qaradi. Sulayib yotgan beqasam choponlini ko‘rdi.

– Nima bo‘ldi bunga? – dedi.

Xo‘rligim kelib... yig‘lab yubordim...

– Bechorani qarang... Ular uchov bo‘lsa, bu bechora birov bo‘lsa! – dedim.

– Tushunarli! Dam olish kuni, deb o‘zidan ketib qolmay, kamroq ichsin!

– Buni olib keting, birodar, o‘lib qoladi...

– Bizning zakazimiz bor! Boshqa “Skoriy pomosh” chaqiringlar! Ketdik, haydang! Bemorxona mashinasi shunday oldimdan o‘tib ketdi. Ketidan qarab qoldim. Keyin qoniga belanib yotgan beqasam choponliga qaradim. Qaradim-qaradim...

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Birodarlar, o‘pkam to‘lib keldi. To‘lib-to‘lib keldi... Yenglarimga yig‘ladim, choponimning yoqalariga yig‘ladim, o‘ngirlarimga yig‘ladim... Olomonga alangladim.

– Ay, birodarlar, bir bechora inson shunday o‘lib keta bersa yaxshimi? Uyida bola-baqrasi bordir! – dedim. Birov ovoz berdi:

– Tanishingiz bo‘lsa, olib keting! – dedi.

Shunday ko‘cha yuzida turgan maydagina mashina xo‘jasiga elandim[1]. Bir amallab ko‘ndirdim. Beqasam choponlini yelkasidan sudrab keldim. Quchoqlab ko‘tarib, mashinaga soldim. Yerda shalvirab qolgan oyoqlarini ichkari oldim. O‘zim qabatida o‘tirdim. Bir qo‘lim bilan bilagidan ushlab oldim. Birov endi kelib, shu yerdagilardan so‘radi:

– Nima bo‘ldi-a, nima bo‘ldi? – dedi.

– Zo‘r tomosha bo‘ldi! Uchalasi bittasini shunaqangi soldi! Paq-paq! Nokdaun!

52

Beqasam choponlini bemorxonaga olib jo‘nadim.

Bemorxona beqasam choponlini olmadi. Oppoq kiyimli bir ayol:

– Bu sudebniy ish! – dedi.

Militsiyaga sim qoqdi.

Bir militsioner kelib, beqasam choponlini aylantirib ko‘rdi. Suratga tushirdi. Daftar to‘ldirdi. Keyin meni so‘roq qildi. Zot-makonimni so‘radi. O‘zimni aytib berdim. Militsioner yozib oldi. Undan keyin, nima bo‘ldi, deb so‘radi. Men oqizmay-tomizmay aytib turdim.

Militsioner yozib bordi.

– Hozircha bo‘shsiz, keyinchalik uchastkavoyingiz orqali chaqiramiz! – dedi.

Mashina xo‘jasiga uch so‘m uzatdim. U olmadi.

– Qulluq, qulluq! – deb ketdi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Tog‘ay Murodning otlar tabiati, burnoch, saman, to‘riq kabi xillari va ularni o‘ta aniq tasvirlashi, ya’ni detallashtirish mahorati sizda qanday taassurot qoldirdi? Matndan misollar keltirib, fikringizni bayon eting.
2. Tarlon o‘zini soyga otganda Ziyodullaning ko‘nglidan o‘tgan quyidagi gaplarga diqqat qiling: “*Etlarim jimir-jimir etdi. Ko‘zlarim otilib chiqib ketayotganday bo‘ldi. Oyog‘im yerdan uzilganini tuydim. O‘zimni muallaq sezdim. Ko‘nglimdan, o‘lgan shunday o‘lar ekan-da, degan gap o‘tdi. Ko‘zlarimni chirt yumdim, uloqni qo‘yib yubordim...*” Hayot va o‘lim masalasi oldida ko‘ndalang turgan odamning holatiga, tasvirga munosabat bildiring.
3. *“Dehqon topganining to‘qson foizini sizlarga jo‘natib, o‘n foizini o‘zi yeydi!”* degan gap orqali muallif jamiyatning qaysi qatlamlari o‘rtasidagi adolatsizlikka ishora qilmoqda?
4. Chipor galstukli shahar odami va dehqon Ziyodulla o‘rtasidagi bahsni tahlil qiling. Nimalarni his qildingiz?

[1] **Elanmoq** – yalinmoq, iltimos qilmoq.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

5. Mushtlashuv paytida militsionerlarning *“Bizning uchastkamiz vinzavod tarafda”,* deb o‘zini chetga olishi, mushtlashayotganlarni ajratgani hech kim bormay, aksincha, *“Zo‘r tomosha bo‘ldi! Nokdaun!”* deb munosabat bildirgani tasviri jamiyatdagi qanday illatlarni fosh etadi?
6. Mushtlashuv paytida odamlar emas, aynan *“maydagina bir qora kuchuk”* beqasam choponlini himoya qilishga uringani va kuchukni baliqpaz urishib olib ketgani tasviri siz-ga qanday ta’sir qildi? Yozuvchining ushbu lavhani tasvirlashdan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?
7. Ziyodulla beqasam choponlini shifoxonaga olib borayotganda yengiga, yoqasiga, o‘ngirlariga to‘lib-to‘lib yig‘lashining sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Shuningdek, ushbu tasvir orqali muallif Ziyodullaga xos qanday xususiyatni ochib bergan?

Topshiriq

1. Qissada keltirilgan bozordagi mushtlashuv lavhasi bilan Abdulla Oripovning “Olomonga” she’rini qiyoslang:

Mashrab osilganda qayoqda eding?
Cho‘lpon otilganda qayoqda eding?

Surishtirganmiding Qodiriyni yo
Qalqon bo‘lganmiding kelganda balo?

Hukmlar o‘qilur sening nomingdan,
Tarixlar to‘qilur sening nomingdan.

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?
Nechun tomoshaga bunchalar o‘chsan?

Qarshingda hasratli o‘yga tolaman,
Qachon xalq bo‘lasan, ey sen, olomon?!

2. Har ikki asarda olomon qaysi **umuminsoniy muammolarni** ifodalaydi?

Mutolaa

Qissaning 80 – 85-qismlarini mustaqil o‘qing.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

80

Bozordagi mushtlashuvdan keyin ish sudga oshiriladi. Sud esa guvoh sifatida Ziyodulla chavandozni chaqirtiradi…

Suddan qog‘oz keldi.

Oyog‘im tag‘in uzangida bo‘ldi, organ yo‘lida bo‘ldi.

Bora-borgunimcha Yaratganning o‘ziga sig‘inib bordim. Shu yurishimni bo‘ldi qil endi, meni bunchalar jonhalak qilma endi, deb bordim.

Sudda odam serob bo‘ldi.

Bir tarafda urgan bo‘zbolalar, bir tarafda Rahmon birodarimiz o‘tirdi.

Kattalar yuqorida bo‘ldi.

Bo‘ldi so‘roq, bo‘ldi javob!

Urgan bo‘zbolalar aybini bo‘yniga olmadi. Bir-birlariga to‘nkab turib oldi.

Shunda, yuqorida o‘tirgan kattalar mendan so‘radi. Da’volarini mendan ma’qullatib oldi. Men asqatib turdim.

Bir katta Rahmon birodarimizni so‘roqqa tutdi:

– Ayting-chi, nega voyaga yetmagan bolani urdingiz? – dedi.

– Urganim yo‘q, kalla qildim, – dedi Rahmon birodarimiz.

– Baribir urgan hisoblanadi. Yuzida jarohat bor. Pulingizni o‘g‘irlagan ekan, yana tag‘in ushlab olibsiz ekan, militsiyaga topshirish kerak edi!

– Kuchim yetmadi.

– Urishga yetgan kuchingiz militsiyaga yetaklab borishga yetmadimi?

– Uch birday yigitga qanday qilib kuchim yetadi?

– Unda militsiyaga telefon qiling edi. Yoki odamlarni yordamga chaqiring edi. Ana, ko‘cha to‘la odam!

– Odam? Qanday odam? Qani odam?...

Rahmon birodarimiz gapirolmadi. Dimog‘i to‘lib keldi. Ovozi ichiga tushib ketdi. Yengi bilan ko‘zlarini artib-artib oldi.

– Bir soat tanaffus! – dedi kattalar.

O‘tirib-o‘tirib, qornim ochqadi. Choyxonaga qarab yurdim.

Men choy ichib qayta berdim, odamlar suddan chiqib kela berdi.

Demak, sud sob bo‘pti, endi sud oqibatini so‘rayin, dedim. Rahmon birodarimizni qidirdim.

Shunda bir to‘da momolar bilan ayollarga ro‘para keldim. Momolar sel-sebor[1] yig‘ladi. Peshonalariga urib-urib yig‘ladi. Tizzalariga mushtlab-mushtlab yig‘ladi...

Bildim, bular ana shu bo‘zbolalar momosi bo‘ldi, ana shu bo‘zbolalar onasi bo‘ldi.

Men ana shu ko‘z yoshlar oqishi uchun o‘zimni aybdor deb bildim. Yoshlar to‘la ko‘zlarga, yoshlarga belangan yuzlarga qarab turolmadim...

Birodarlar, barmog‘imning qaysi birini tishlasam-da og‘riydi!

[1] **Sebor** – (ko‘chma ma’noda) biror-bir voqea-hodisa, jarayonning kuchli, ko‘paygan holati, oqimi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Ohista-ohista ketimga qayrildim.

Tarlonimiz oldiga bordim. Otlanib, qishloqqa qaytdim. “8-mart” kolxozidan o‘tib, Hayrondaraga doxil bo‘ldim.

Tevarak mayda-mayda adirlar bo‘ldi. Arg‘amchiday yo‘l bir yuqoriladi, bir adoqladi.

81

Oqshom vaqti bo‘ldi.

Olamga-da oqshom qo‘ndi, ko‘nglimga-da oqshom qo‘ndi. Ko‘nglim oqshomday mahzun bo‘ldi.

Beixtiyor ketimga qayrilib qaradim. Bir qizil mashinani ko‘rdim. E’tibor bermadim.

Adirga o‘rladim. Adir qoq ustida tag‘in ketimga qayrilib qaradim. Mashina qorama-qora keldi.

Adirdan enib boshladim. Adir tikkaligidan Tarlon o‘zini ketiga tashlab-tashlab yurdi. Old oyoqlarini og‘ir-og‘ir bosdi.

Adir adog‘iga tushdim. Mashina adir ustida imillab qoldi. Hayron bo‘ldim. Mashina degani tez yurar bo‘lardi, bu mashina xiyladan buyon bir otdan o‘tolmaydi. Yo biron yeri nosozmikan?

Yo‘lni kesib o‘tadigan ariqqa keldim. Ariqdan loyqa suv oqibdi. Ichi qip-qizil loy bo‘libdi. Loy ot tizzasiga keladi.

Shu bois Tarlonni ariqqa solmadim. Ariqdan hatlattirmoqchi bo‘ldim. Ammo bu niyatimdan-da qaytdim. Vaji, ariq yoqalari-da loy. Tarlon toyib ketadi.

Ariq yoqalab yuqoriladim. Sayozroq yer qidirdim.

Mashina-da quyiga endi. Ariq bo‘yida oyoq ildi. O‘tolmasligini bildi shekilli, bizning izimizdan yurdi.

Bizning Tarlon torroq bir yerdan cho‘chib o‘tdi.

Mashina Tarlon hatlagan yerda oyoq ildi.

Mashinadagilarga qamchi sopi bilan yuqorini ko‘rsatdim.

– Yana sag‘al yursalaring yuqorida yoyilma bor! O‘shandan mashina o‘tadi!

Shunday deya yo‘limga burildim.

Shunda ketimdan ovoz keldi:

– O‘, shef! Tormoz!

Ovozni tanimadim. Nima deyapti, tushunmadim. Kim bo‘lsa-da, bir inson ovoz beryapti, borayin, dedim. Ariq yoqalab bordim.

Mashinadan to‘rt odam tushdi. Ikkovi olisroqdan chopib kelib, ariqdan hatlab o‘tdi.

Tarlon hurkib, keyiniga tisarildi.

Keyin qolgan ikkovi-da keldi. Barining ko‘zida qora ko‘zoynagi bo‘ldi. Ko‘zlari ko‘rinmadi. Sochlari yelkasiga tushdi, quloqlari sochi ostida bo‘ldi. Kiyimlari ajabtovur bo‘ldi. Birovining soqoli-da bo‘ldi. O‘zimizday o‘rta yoshli odammikan, deya sinchiklab qaradim. Yo‘q, u o‘ttizlarda bo‘ldi.

– Chaqirganday bo‘ldilaringizmi, birodarlar? – dedim.

Ular miq etmadi. Soqoldori oldin yurdi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Otdan tushing-chi, shef! – dedi.
– Ayta beringlar, qulog‘im kar emas, – dedim.
– Tush, degandan keyin tush!
Ularning sensirashi ko‘nglimga tegdi. Tusha-tusha ko‘nglimni aytdim.
– Sensiramang, birodar, salkam otangiz qatoriman-a, – dedim.
– He, senday otam qatorining...
Qo‘limda jilov, serrayib qoldim. Qahrim keldi. Qamchi sopini mahkam ushladim.
– Otingni bog‘lab, buyoqqa yur!
– Nima gapingiz bor, birodar, shu yerda ayta bering.
– Yur, degandan keyin yur!
Ular ariq yoqalab yuqoriladi. Birovi-da ko‘zoynagini olmadi.

82

Jilovni egar qoshiga qistirdim.
Tarlonni bo‘sh qoldirdim.
Keyin ular oldiga bordim.
– O‘zi kimsizlar? Kimning bolasi bo‘lasizlar? O‘zlaringni tanitinglar-da axir, birodarlar, – dedim.
Ular meni o‘rab oldi. Go‘yo yovvoyi odamni tomosha qilayotganday bo‘ldi. Birovi o‘z-o‘zidan to‘ng‘illadi.
– Hali tanishib qo‘yamiz! – dedi.
Tavba, bularning menda nima ishi bor ekan? Ertaroq aytmaydimi, kech bo‘lyapti...
– Ay, birodarlar, zaril gaplaring bo‘lsa, aytinglar. Bo‘lmasa ketayin, bola-baqra alag‘da bo‘ladi, – dedim.
– Ketasan, ketasan, shoshilma. Qaytmaydigan bo‘lib ketasan...
Zardam qaynadi, ketimga burildim.
Shunda ulardan birovi yo‘limga g‘ov bo‘ldi. Birovi chapimga o‘tdi. Ikkovi oralig‘idan o‘tib ketmoqchi bo‘ldim.
Shunda o‘ngimdagisi yelkamdan g‘ijimlab ushlab oldi.
Men qo‘lini shartillatib urib tashladim.
– Qo‘lingizni oling, birodar! – dedim.
Shunda u iyagim ostiga o‘xshatib bir urdi!
Ketimga gandiraklab-gandiraklab borib o‘tirib qoldim. Nogiron qo‘lim zirqirab og‘ridi.
Qamchi o‘rimini qo‘limga o‘rab-o‘rab joyimdan qo‘zg‘aldim. Shu urganning bo‘yin tomirini mo‘ljallab qulochkashladim.
Ketimdagisi qamchini ushlab qoldi.
Yana o‘tirib qoldim. Endi qamchini ushlab qolganiga qarab qo‘zg‘aldim.
Shunda birovi ketimdan keldi, belimga tepdi.
Men yuztuban yiqildim. Nogiron qo‘lim zirqirab-zirqirab og‘ridi. Turib o‘tirdim. Tevarak-ka alangladim. Rayon o‘ng yog‘imdagi adir ortida bo‘ldi. Ko‘rinmadi. Qishloq chap yog‘im-dagi adir ortida bo‘ldi. Qishloq-da ko‘rinmadi. Osmon boshimda bo‘ldi. Baribir olisda bo‘ldi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Xo‘rligim keldi: ay, yolg‘izligi qursin-a!

Ko‘nglim buzildi: ay, nogironligi qursin-a!

O‘pkam to‘lib keldi. Qo‘ynimdagi nogiron qo‘limni tashqari chiqardim.

– Birodarlar, Jo‘ra boboning otidan yiqilib, qo‘lim chiqib edi, mana... mana... – dedim.

Ular xoxolab-xoxolab kuldi. O‘zaro gapirishdi:

– Bu o‘zi unga kim bo‘ladi?

– Hech kim!

– Hech kim? Yo‘g‘-e?

– Demak, bu o‘zicha ritsarlik qilmoqchi bo‘libdi-da?

– O, ritsar! XX asr ritsari!

– Don Kixot!

– Don Kixot! XX asr Don Kixoti!

Men shundagina ular kimligini bildim. Qo‘lim nogironligini aytib, yig‘lamsiraganlarimga ming-ming pushaymon bo‘ldim...

– Birodarlar, men sizlarga nima qildim?.. – dedim.

Uni jonimning boricha quchoqlab turdim.

U ichimga ko‘rmusht urdi.

Nafasim hiqillab bo‘lindi. Ichimda bir nima ezildi. Qo‘llarim bo‘shashib, yelkasidan sidirilib tushdi.

Oyog‘imda majolim qolmadi. O‘zimni yerga chalqancha tashladim...

– Birodarlar, aybimni ayting, aybimni... – deya ingrandim.

Belimga uchli bir nima zarb bilan tegdi. Keyin biqinimga tegdi. Zarb har tegganda jonim halqumimga kelib ketdi.

– Birodarlar, men ham odam-ku... – deya ingrandim.

83

Shunda... shunda ot kishnadi.

Umrim ot bilan o‘tdi. Hay bir otlarni ko‘rdim, hay bir kishnashlarni eshitdim.

Ot suvsab kishnadi, ot ochqab kishnadi. Shunda ot ko‘nglini suv berib oldim, ot ko‘nglini yem berib oldim.

Ot avlod-ajdodlarini qo‘msab kishnadi, ot ulpi-tomirlarini yo‘qlab kishnadi. Otlar ovozini eshitib kishnadi, baytal[1]lar havosini olib kishnadi.

Shunda otni egarladim, dasht-u dalalarni aylantirdim, ot oyog‘ini yozdim. Otni sovitdim, otni yupatdim.

Ot ilon sharpasini olib kishnadi. Uydan otilib keldim. Ot yonini oldim, bo‘yinlarini uqaladim. Otga yo‘ldosh bo‘ldim.

Ot bo‘ri hidini olib kishnadi. Ha, jonivor, ha, deya ovoz berib chopdim. Ot bo‘yniga qo‘limni qo‘ydim, ot yollarini siladim. Ot oldida bo‘ldim. Otga gapirib-gapirib turdim, birodar bo‘lib-bo‘lib turdim.

[1] **Baytal** – urg‘ochi ot; biya.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Kishnash ko‘rdim, kishnashlar ko‘rdim, ammo ushbu oqshomdagidayini ko‘rmadim.

Vo darig‘o, bu qandaychikin kishnash bo‘ldi? Kishnash ko‘ngil-ko‘nglimni o‘yib yubordi, vujud-vujudimni qaqshatib yubordi. Tanamdagi og‘riqlar-da bilinmay qoldi.

Bizning Tarlonga nima bo‘ldi, birodarlar? Nima bo‘lsa-da, yomon bo‘ldi! Bizning Tarlon nima ko‘rdi, birodarlar? Nima ko‘rsa-da, yomon ko‘rdi!

Bizning Tarlon ilon ko‘rdimikan? Yo‘q, bizning Tarlon ilon ko‘rsa, bundayin kishnamaydi. Bizning Tarlon bo‘ri ko‘rdimikan? Yo‘q, bizning Tarlon bo‘ri ko‘rsa-da, bundayin kishnamaydi.

Bizning Tarlon ilondan-da yomonini ko‘rdi, bizning Tarlon bo‘ridan-da yomonini ko‘rdi!

Tarlonni yo‘qlab qarayin, dedim. Boshimni ko‘tarayin, dedim. Bo‘lmadi, bo‘lmadi!

Ko‘zim osmondaligicha qoldi. Osmon olis, yer qattiq bo‘ldi...

Ot uzib-uzib kishnadi.

Ko‘zlarim tindi. Bepoyon osmon, beg‘ubor osmon qop-qora qozon bo‘ldi!

Yuzimni chapimga burdim. Avval-avval bir nima-da ko‘rmadim. Keyin-keyin oq bilan qorani fahmladim. Ana shunda Tarlonni ko‘rdim.

Tarlon bo‘ynini gajak-gajak qildi.

Tog‘larga qaradi, zorlanib-zorlanib kishnadi. Tarlon dumlari yoyilib-yoyilib kishnadi, yollari hurpayib-hurpayib kishnadi.

Adirlarga qaradi, chorlab-chorlab kishnadi.

Tarlon quloqlari chimirilib-chimirilib kishnadi, pishqirib-pishqirib kishnadi.

Qishloqqa qaradi, yolvorib-yolvorib kishnadi, zor-zor kishnadi.

Tarlon jilovini silkib-silkib kishnadi, yulqib-yulqib kishnadi.

Keyin men sari yuzlandi. Oyoqlarini katta-katta yoydi. Bo‘ynini cho‘zdi, tumshug‘ini cho‘zdi. Quloqlarini chimirdi.

Tarlon zinkiydi!

Old tuyoqlari bilan tarsillatib-tarsillatib yer tirnadi. Kesaklab-kesaklab yer otdi. Tuyoqlari osti changidi.

Tarlon qahr ham iztirob bilan kishnadi.

Oqshom kishnashdan zir titradi.

Oqshom, Tarlon kishnashidan, Tarlon kishnashi oqshomdan-da mungli bo‘ldi, oqshomdan-da ayanchli bo‘ldi.

Uchli zarb chap tizzam ko‘ziga kelib tegdi.

Chinqirib yubordim. Ko‘zim oldi qop-qora bo‘ldi...

– Tepib o‘tirasanmi, biqiniga tiqib ol!..

– Eee, ot!

– Qoch, ot kelyapti!

Shunda tag‘in hushimga keldim. Ohista ko‘zimni ochdim.

Tarlon tumshug‘ini cho‘zib zinkiyib, ularni quvdi. Birini qo‘yib, birini quvdi.

Ular ariqdan hatlab qochdi. Birin-ketin mashinasiga kirdi.

Ammo birovi Tarlondan qochib qutulolmadi. U yoqqa burib soldi, bo‘lmadi, bu yoqqa burib soldi, bo‘lmadi. Nima qilishini bilmadi. Oxiri yerdan nimadir olib, Tarlonning boshiga bir urdi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Tarlon boshini silkib-silkib ohistaladi.

Unisi-da ariqdan hatlab o‘tdi.

Tarlon-da ariqdan o‘tdi. Mashina oldiga keldi. Old tuyoqlari bilan yer tirnab-yer tirnab kishnadi.

Mashina g‘izillab jo‘nadi.

Tarlon mashina ketidan xiyla yo‘lgacha chopib bordi. Keyin iziga qaytib keldi.

Ariqdan o‘tib, boshimga keldi. Yuzlarimga tumshug‘ini tekkizib-tekkizib ko‘rdi. Yuzlarimni iskab-iskab ko‘rdi.

Men Tarlon nafasini tuydim. Tumshug‘ini qo‘shqo‘llab quchoqladim. Jag‘lari, peshonasini siladim.

Shunda kaftim ho‘l bo‘ldi. Ter, ot teri deb o‘yladim. Kaftimni ko‘zlarimga olib kelib qaradim. Keyin Tarlonga tikilibroq qaradim.

Tarlon peshonasidan qon sizdi...

Ho‘ngrab yig‘lab yubordim. O‘pkamni bosayin, dedim, bosolmadim...

84

Qosh qoraydi.

Odam odamni tanimaydigan bo‘ldi.

Bir amallab chap yonbosh bo‘ldim. Tarlon oyog‘ini quchoqladim. Tizzasiga peshonamni qo‘ydim. Uzalib, old qopqog‘iga shapatiladim.

Tarlon yelkalarimni iskadi. Keyin old oyoqlarini asta-asta bukdi. Tarlon tizzaladi!

Men chap qo‘lim bilan egar qoshidan oldim. Egarga ko‘kragimni berdim. Timtalanib-timtalanib egarga bel bo‘lib yotdim. Nafasimni rostlab oldim. Tag‘in qimtinib, oyog‘imni egardan oshirdim. Tarlonni quchoqlab oldim. Tarlon qaddini rostladi.

Shamol boshimni yalab o‘tdi. Shunda boshyalangligimni bildim. Telpagim yerda qolibdi.

Tushayin dedim, tag‘in minishimni o‘yladim. Telpagimga qo‘l siltadim. Belbog‘imni yechib, boshimni tang‘ib bog‘lab oldim.

Katta yo‘l chetidan yurdim.

Bor bo‘yicha qorong‘i tushdi. Adirlar qop-qora soyaday bo‘ldi.

Egarda chayqalib-chayqalib, ko‘nglim shu kechaday zim-ziyo bo‘lib-bo‘lib, o‘ksib-o‘ksib bordim...

85

Tarlon-ay, nima kunlarga qolding-a?..

Tushda bo‘lyaptimi yo o‘ngda bo‘lyaptimi?

Sen farqlamasang, men farqlay olmay qoldim, Tarlon...

Haligilar qanday jonzot edi, Tarlon! Sin-simbati[1] odamga kelbat beradi. Ust-boshlarida bor. Odamga mayzab[2] gapiradi, odamga mayzab kuladi...

---

[1] **Simbat** – tashqi ko‘rinish; qad-qomat.

[2] **Mayzab** – o‘xshab.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Bilmadim, Tarlon, bilmadim. Sen bilmasang, men bilmadim. Men seni bilaman, Tarlon. Ular men uchun begona, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening ukamsan, ukam.

Bo‘ldi, men endi ularni ukam demayman. Mening ukam – sensan. Sen – mening ukamsan, Tarlon. O‘zi menga o‘xshaysan, Tarlon, menga... Ukasi akasiga o‘xshaydi-da, Tarlon...

Tarlon ukam-ov, endi nima qilamiz? Endi bola-chaqaga borib nima deymiz? El so‘rasa, nima deymiz?..

Ayo Tarlon, sen mening jiyanimsan, jiyanim.

Bo‘ldi, men endi ularni jiyanim demayman. Mening jiyanim – sensan, Tarlon. Sen menga tortding, Tarlon. Jiyan tog‘asiga tortmasa, kimga tortadi, Tarlon...

Tarlon jiyanimov, yo yo‘lda yiqildik, deymizmi? Ko‘zlaring bor edi-ku, desalar-chi? Ariq loy ekan, toyib ketdik, deymiz. Binoyimi, Tarlon jiyanim? Bo‘lmasa, elga ermak, xalqqa shaloq bo‘lamiz...

Ayo Tarlon, sen mening akamsan, akam. Bo‘ldi, men endi ularni akam demayman. Mening akam – sensan, Tarlon. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desa degulik sendayin akam bor, nima g‘amim bor, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim.

Bo‘ldi, men endi ularni birodarim demayman. Mening birodarim – sensan, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik birodarim...

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sudya jabrlanuvchi Rahmondan *“Odamlarni yordamga chaqirmadingizmi? Ana, ko‘cha to‘la odam!”* deb so‘raganda, u *“Odam? Qanday odam? Qani odam?..”* deb yig‘lab yuborishining sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.
2. Nima deb o‘ylaysiz: Tarlon aynan qishloqqa, adirlarga va tog‘larga qarab *“yolvorib-yolvorib, chorlab-chorlab”* kishnashini ramziy tarzda jamiyatning uxlab yotgan vijdonini uyg‘otishga urinish deb hisoblash mumkinmi? Javobingizni asoslang.
3. Asarda Ziyodullaning xudbin kishilarga isyoni qanday vositalar orqali ifodalangan? Matnga tayanib bunday toifadagi kimsalar bilan hayvonlarni taqqoslang. Tafovutning sabablari haqida mulohaza yuriting.
4. Tarlonning xatti-harakatlari tasviriga e’tibor qiling. Jonivor tuyg‘ularining tasviri odamlarniki kabi jonli va ishonarli chiqqani sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
5. Nima uchun Ziyodulla Tarlonni avval ***“ukam”,*** keyin ***“jiyanim”, “akam”*** va oxiri “***qiyomatlik birodarim”,*** deb atab, o‘zining qon-qarindoshlik rishtalarini unga ko‘chirmoqda? Bu uning jamiyatdan butunlay ko‘ngli qolganidan dalolatmi? Javobingizni asoslang.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Adabiy munozara

Kichik guruhlarga bo‘lining. Savollardan birini tanlab, muhokama qiling. Guruhda **himoya** va **qarshi** tomonlarni belgilang. Yakunda jadvalda ko‘rsatilgan shaklda **natijani taqdim eting**.

Guruh	Mavzu	Muhokama uchun savol	Himoyachilar yo‘nalishi	Qarshi tomon yo‘nalishi	Taqdimot shakli
1-guruh	**Ziyodulla adolat timsolimi?**	Ziyodulla obrazi milliy va jahon adabiyotidagi qaysi obrazlar bilan uyg‘un?	Ziyodulla ham adolat uchun kurashadi. Masalan, …	Uning harakati hissiy, ongli emas. Chunki…	Taqdimot / infografika
2-guruh	**Tarlon ramziy obrazmi?**	Tarlon “Alpomish”dagi Boychibor kabi milliy ramzga aylanadimi?	Tarlon – vijdon, sadoqat timsoli. Chunki...	Yo‘q, milliy ramzga aylana olmaydi. Chunki…	Tahlil (og‘zaki)
3-guruh	**Milliy qadriyatlar: bugun**	Ko‘pkari, mehmondo‘stlik, halollik, or-nomus kabilarning bugungi muammolarni hal etishdagi o‘rni qanday?	Ushbu qadriyatlar hozir ham zarur. Chunki...	Zamonaviy yechimlar muhimroq. Masalan,...	Video-sharh / taqdimot
4-guruh	**Rejissyor nigohi**	Qaysi epizod sahnada asosiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak?	Tanlangan epizodni himoya qiladi.	Boshqa epizodlarni o‘rtaga tashlaydi.	Sahna rejasi chizmasi
5-guruh	**Muallif uslubi**	Qissa nega she’rday o‘qiladi?	Poetika kuch bag‘ishlagan. Masalan, ...	Haddan ortiq poetiklik syujetga xalal bergan.	Matn tahlili (og‘zaki)
6-guruh	**Asarning bosh g‘oyasi**	Qaysi g‘oya yetakchi?	Insoniylik / jamiyat tanqidi.	Boshqa g‘oya yetakchi. Masalan, ...	Fikrlar shajarasi (yozma)

Tavsiya

“Chavandoz” filmini mediaplatformalar yoki ushbu havola orqali tomosha qiling va “Ot kishnagan oqshom” qissasi mazmuni bilan qiyoslang.

18

Manba: “O‘zbekkino”. H. Hasanov filmi, 2007-yil.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

ISTIQLOL EPKINLARI

Dars davomida:
- istiqlol davri adabiyotining ilmiy-nazariy asoslari bilan tanishamiz;
- istiqlol adabiyotiga xos asosiy xususiyatlarni tahlil qilamiz.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohasida bo‘lgani kabi adabiyotda ham tub burilish yuz berdi. **Istiqlol davri adabiyoti** deb ataluvchi yangi adabiyot paydo bo‘ldi. Bu davr adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi bo‘lish bilan birga, erkin fikr va yangilangan estetik tafakkur mahsuli sifatida shakllandi va unda inson shaxsi, ruhiy olamini tasvirlashga e’tibor keskin kuchaydi.

Istiqlol davri adabiyoti mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo‘lib, milliy o‘zlik, e’tiqod va tarixiy xotira masalalarini markazga olib chiqdi. Qur’oni karim ma’nolarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi milliy tafakkur va e’tiqodning mustahkamlanishiga jiddiy turtki berdi.

XXI asrga kelib, globallashuv va texnologik taraqqiyot ta’sirida o‘zbek adabiyotida modernizm, psixologik tahlil va falsafiy mushohada kuchaydi. Bugungi adabiyotda milliy qadriyatlar umuminsoniy g‘oyalar bilan uyg‘unlashib, inson ruhiyatini chuqur ochishga xizmat qilmoqda.

NAZM

She’riyat istiqlol davri adabiyotining eng faol va yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Bu davr shoirlari she’rni *nasihat yoki ochiq targ‘ibot vositasi* sifatida emas, balki ***inson ruhiyatining eng nozik, ko‘pincha so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan holatlarini aks ettiruvchi badiiy maydon*** sifatida talqin qildilar. Inson qalbi, odam va olam, odam va Yaratgan, yolg‘izlik, Vatan, imon kabi mavzular zamonaviy badiiy tafakkur asosida ifoda etila boshladi. Qisqa, mazmunan zich, ramziy ifodaga boy she’rlar ko‘paydi. *Erkin she’r, ramziy ifoda va kichik shakllarga* intilish kuchaydi.

Endi shoirlar o‘quvchini tayyor xulosaga olib kelishdan ko‘ra fikrlashga undaydigan badiiy vaziyatlar yaratishga harakat qildilar.

> *Va deyman:*
> *Boylig-u, mol-u dunyo deb*
> *O‘zini o‘zidan adashtirganlar,*
> *Xas tashlab vatanning ko‘ziga,*
> *G‘animning to‘riga laqqa tushganlar,*
> *Qarang, Shiroq kelyapti!*
>
> ***Halima Ahmad***

> *Yozilmagan she’rlar*
> *o‘qilmagan kitoblar*
> *ro‘y bermagan muhabbat*
> *sarflanmagan ehtiroslar*
> *gunohi.*
>
> ***Faxriyor***

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

NASR

Mustaqillik davri o‘zbek nasri an’anaviy shakllar bilan bir qatorda yangicha mazmun va uslublar bilan boyidi. Xususan, “**Shovqin”, “Momaqaldiroq ostida sayr”** (Erkin A’zam) romanlarida kinoya va xalqona samimiylik uyg‘unlashgan bo‘lsa, **“Maymun yetaklagan odam”, “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi”** (Nazar Eshonqul) asarlarida jamiyatdan uzilgan, o‘zligini izlayotgan murakkab shaxs qiyofasi namoyon bo‘ldi.



Istiqlol davri o‘zbek nasrida tarixiy mavzularga murojaat qilish an’anasi kuchaydi. Xususan, “O‘tkan kunlar” romaniga nazira sifatida yozilgan **“Yaldo kechasi”** romanida (Xayriddin Sultonov) mustamlaka davri ziddiyatlari o‘zbek nasri uchun yangilik bo‘lgan adabiy mistifikatsiya usulida yoritilgan.



“Bilga xoqon” romanida (Isajon Sulton) tarixiy turkiy qatlamga mansub so‘zlarning faol qo‘llanishi tilimizning qadimiy ruhi va milliy ohorini namoyon etdi.

“Bir necha kun yoqqan qor tingach, ko‘kka oymomo chiqdi. U yer yuziga oq sovuqlarni yubordi. Og‘ochlar-u o‘tlarni bulduruqlar bilan bezadi, yov kabi bildirmay kelib, suv betiga tabg‘achning bezaklari kabi bezaklar chizdi, ichidagi suvi to‘kilmay qolib ketgan idishlarni tars-tars yordi, qorni shunday to‘ng‘itdiki, oyoq ostida kumushday g‘irchillab sochilar bo‘ldi.

Qoraqushlar turgan yerida to‘p-to‘p o‘lib tushdi. Yishning jonliqlari bir-biriga suqilishib, dir-dir titrab jon saqlashdi. Ishbara o‘tin yoray deb boltasini og‘ochga ursa, taraqlab sapchib qaytishini ko‘rib, “Shuncha yil yashab o‘tin muzlaganini ko‘rmab edim”, dedi angrayib.

Ko‘klamoyim kelgunicha to‘qqizta yetti kun bor... O‘ylay-o‘ylay, Ishbara bilan Bulut O‘tukan yishga, Bilga xoqon qoshiga borishga chog‘landi”.

“Bilga xoqon” romanidan.

Mustaqillik davri adabiyotida janrlar ko‘lami ham kengaydi: ilk miniroman – **“Na’matak”** (Ulug‘bek Hamdam), maktub, SMS xabarlar asosiga qurilgan **“Bonu”** (Iqbol Mirzo) telegram romani e’lon qilindi.

DRAMATURGIYA

Milliy tafakkurdagi yangilanish **dramaturgiya**ga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Sahna asarlarida tarixiy xotira, inson sha’ni, ma’naviyat masalalari ko‘tarildi. Biroq bu davrda dramaturgiya she’riyat va nasrga nisbatan sust rivojlandi. Ayrim pyesalar ijtimoiy buyurtma va tarixiy sanalar bilan bog‘liq yozilgani sabab badiiy yetuklikka ko‘tarila olmadi. Shunga

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

qaramay, istiqlol davri dramaturgiyasi milliy sahna san'ati rivoji uchun muhim tajriba vazifasini bajardi.

Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida ham tarixiy mavzularga murojaat qilish an'anasi kuchaydi. Xususan, **"Alpomishning qaytishi"** (Usmon Azim), **"Abu Muin Nasafiy"** (Nafas Shodmonov), **"Jaloliddin Manguberdi"** (Nazar Eshonqul), **"Ibrat"** (Nurilla Abbosxon), **"Birinchi qaldirg'och"** (Isajon Sulton), **"Turkiston bolalari"** (Go'zaloy Matyoqubova) pyesalari shular jumlasidandir.

Eslang

Oxirgi marta kimning pyesasi asosida sahnalashtirilgan spektakl tomoshasiga tushgansiz yoki mediaplatformalar orqali ko'rgansiz? Taassurotlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Tavsiya

Qo'chqor Norqobil qalamiga mansub "Zamindan olis ketma" dramasini quyidagi havola orqali tomosha qiling.

Rejissyor: Nodira Mahmudova.

Manba: Milliy teatr (YouTube).

19

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Istiqlol davri adabiyotida inson shaxsining oliy qadriyat sifatida talqin qilinishi nimani anglatadi? Bu holat avvalgi davr adabiyotidan nimasi bilan farq qiladi?
2. Sizningcha, bu davr asarlarida qisqalikka va ramziy ifodaga intilish sabablari nimalarda?
3. Mustaqillik o'zbek adabiyotiga qanday erkinliklarni olib keldi? Bu erkinliklar ijodkor tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Tarixiy roman va dramalarning ko'payishi, sizningcha, nimadan dalolat beradi? Bu tarixiy xotirani tiklashga xizmat qiladimi?
5. Mustaqillik davrida yangi janrlar (miniroman, telegram roman) paydo bo'lishini qanday baholaysiz? Bu hodisani adabiyot taraqqiyoti va zamon talabi bilan qanday bog'lash mumkin?

Topshiriq

Kichik guruhlarga bo'linib, quyida berilgan adabiy laboratoriya mashg'ulotini bajaring.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

ADABIY LABORATORIYA

Quyidagi mashg‘ulotlardan birini tanlab bajaring.

1. Kitob olamiga sayohat: kitob treylerini yaratamiz!

Tasavvur qiling: siz juda ajoyib kitob o‘qidingiz va uni do‘stlaringiz ham o‘qishini xohlaysiz. Buning uchun ularga shunchaki “bu kitob zo‘r” deyish yetarli emas. Hozirgi vizual axborot asrida kitobni ham film kabi taqdim etish mumkin.

Bilib oling

Treyler (inglizcha “trailer”) – filmning eng qiziqarli lahzalaridan tuzilgan kichik reklama roligi. Bundan maqsad filmni ko‘rish uchun tomoshabinda qiziqish uyg‘otishdir. Bugun bunday ijodiy yondashuv kitob olamiga ham kirib keldi va nashr sohasida muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda.

Kitob treyleri – kitob haqidagi qisqa va qiziqarli videorolik. Uning asosiy vazifasi – o‘quvchini asarga qiziqtirib qo‘yish, uning yakunini oshkor etmasdan o‘quvchini kitob o‘qishga undash.

Guruhda ishlash

Kichik guruhlarga bo‘lining. Alohida ijodiy jamoa sifatida quyidagi vazifalarni taqsimlab oling:

Muharrir	Rejissyor	Montajchi	Ovoz rejissyori
Kitobning eng qiziq joylarini tanlaydi va matn yozadi.	*Kitob treylerini yaratishni tashkillashtiradi.*	*Tasvirlarni birlashtirib, effektlar qo‘shadi.*	*Musiqa tanlaydi va matnni ovozlashtiradi.*

Ko‘rsatma

1. Internetdan tayyor kitob treylarini ko‘ring. Yondashuv uslubini o‘rganing va mazmuni qiziq bo‘lgan biror asarni tanlang. Asar, albatta, istiqlol davri o‘zbek adabiyoti namunalaridan biri bo‘lishi kerak.
2. Kitob muqovasi, unga mos rasmlar, videoparcha (fragment)larni yig‘ing (tayyor video topolmasangiz, guruh bilan tanlangan epizodni sahnalashtirib, mobil telefon yordamida tasvirga olishingiz mumkin).
3. Taqdimotdan so‘ng **“Bu mashg‘ulotdan nima o‘rgandim?”** degan savolga javob bering.

2. “Mening ilk asarim” loyiha ishi.

O‘zingizni yozuvchi, shoir yoki dramaturg sifatida tasavvur qiling va yangi asar loyihasini tayyorlang.

Mavzusini aniqlang	Nom toping	Janrini belgilang	Qanday obrazlar bo‘lishini aniqlashtiring	Syujetini qisqacha yozing	G‘oyasini yozing	Kitob muqovasi dizaynini (qo‘lda yoki grafik dasturda) yarating

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



ABDUVALI QUTBIDDIN (1960 – 2019)

Dars davomida:
- shoirning adabiy qarashlari bilan tanishamiz;
- tasavvufiy ohangdagi she’rlarini tahlil qilamiz.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Abduvali Qutbiddin Qarshi shahrida tug‘ilgan.

Ilk ijodiy ishi va adabiyot muallimining turtkisi haqida quyidagicha xotirlaydi: *“Bir kuni ustozimiz to‘satdan: “Sen adabiyot fanidan yaxshi o‘qiysan, sakkizinchi mart yaqin, shu mavzuda she’r yozib kel”, dedi. Adabiyotdan boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirolmasdim.*

– She’r yozolmayman, – dedim.

– Senga uch kun muhlat, – dedi.

Hozir qanday, menga qorong‘i, lekin ustozlarning gapi gap edi. She’r yozish dardida dadamning kutubxonasiga qamalib olib, Fuzuliy, Mashrab, Navoiy, Usmon Nosir kabi shoirlarning kitoblarini o‘qiganman. Nihoyat oradan uch kun o‘tib, yozgan she’rimni adabiyot o‘qituvchimizga ko‘rsatdim. Ma’qul kelibdi chog‘i, devoriy gazetaning har soniga she’r yozib kelishimni tayinladi… Hozirgacha birinchi she’ri chiqqan yigit-qizlarni ko‘rsam, ustozlarimning maqtovi yodimga tushib, hayajonlanib ketaman”.

O‘ylab ko‘ring

1. Ayting-chi, adabiyot muallimingiz sizdagi qaysi xislatlarning shakllanishiga turtki bergan? Nega shunday deb o‘ylaysiz?
2. Ilk she’rini yozish uchun *“Fuzuliy, Mashrab, Navoiy, Usmon Nosir kabi shoirlarning kitoblarini o‘qigan”* bola Abduvalining shaxsiga baho bering. Bu xatti-harakati bilan sizga qanday “dars” berdi deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Bilib oling

Ijodkorning “Nayson”, “Humo”, “Baxtli yil”, “Sen va sen uchun”, “Uzoqdan olisga”, “Da’vat” kabi she’riy to‘plamlari, “Ozodlik”, “Izohsiz lug‘at” dostonlari, “Bor” nomli saylanmasi nashr etilgan.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

Sarlavhasiga qarab, “Gina” she’ri qanday kayfiyatda yozilgan deb o‘ylaysiz? Taxminingizni asoslang.

GINA

Negadir sen meni yo‘qlamay qo‘yding,
Es-hushing qaytadan qaytdi joyiga.
Ertalab, tush payti, oqshomda to‘yding,
Qayroq[1]lar sayramas qalbim soyida.

Negadir mensiz ham yashashing mumkin,
Ko‘zing qarmog‘ida tindi havasim.
Aslida ko‘ksingni tebratgan to‘lqin,
Fahming yetarmikan,
Rashk-u arazim.

Sen go‘yo baxtlisan, topganday nurni,
Mug‘ombir oshyonda yupanching borday.
Shunda ham yuzingda (ochay bir sirni)
Tilamchi ko‘zlarim so‘zlari borday.

Beshbattar bo‘lmaydi bundan ziyoda,
Hapriqib ketaman
Sochlaring isi
Dimoqqa urilar ifor ziyoday,
Uyilib, yurakka taqalib, to‘zib.

Sevgilim, sen meni yo‘qlamay qo‘yding.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Tasavvufiy qarashlarda ishq – sarmastlik, aql esa hushyorlikdir. She’rda yorning es-hushi joyiga qaytishi lirik qahramon uchun nega fojia bo‘lib tuyuladi?
2. Ma’shuqa ertalabdan oqshomgacha *to‘yib yashayotganini* ifodalashdan muddao nima deb o‘ylaysiz? Bu o‘rinda *to‘yish* deganda nima nazarda tutilgan?
3. Shoir nega rashkni oddiy tuyg‘u emas, balki ko‘ksini tebratgan to‘lqin deb atamoqda? U nega bunga ma’shuqaning *fahmi yetishidan* xavotirda?
4. Oshyon nimaning ramzi bo‘lishi mumkin? Uning *“mug‘ombir”* deb sifatlanishiga qanday asos bor? Mulohazalaringizni she’r mohiyatiga tayanib asoslang.
5. Birinchi misrada *“negadir”* so‘zi orqali sabab qidirish bor, nima uchun oxirgi misrada bu so‘z tushib qolib, o‘rnini *“Sevgilim”* murojaati egalladi? Bu nimadan dalolat?

Topshiriq

She’rda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlab, unga misollar keltiring.

[1] **Qayroq** – kesuvchi asboblar tig‘ini o‘tkirlash uchun ishlatiladigan silliq tosh.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, ayriliq insonni qanday o‘zgartiradi: kuchli qiladimi yoki sindiradi? Fikringizni asoslang.

“IKKIMIZ AYLANIB...”

Ikkimiz aylanib bir tomon bo‘lsak,
Sen dilgir dildor-u men yomon bo‘lsam,
Boshi tugun zamon bir tomon bo‘lsa,
Daqiqa so‘rayman yorijon bo‘lsang.
Ikkimiz aylana bir tomon bo‘lsak.

Yo‘qsil tongotarda ol karvon o‘tsa,
Ul karvon qushlari taxtravon tutsa,
Ilashsak bu baxtga, ilkis mung tutsa,
Opichlab olgali go‘zal tun o‘tsa,
Yo‘qsil tongotarda ol karvon o‘tsa.

To mahshar bazmiga yetgunga qadar,
Men shotut barglarin aylagum daftar.
Har yozgan she’rimni, oh, gulisafsar
Senga o‘qib bersa biyrona, agar
To mahshar bazmiga yetgunga qadar.

Ne imkon, bir tomon yuz tomon bo‘ldi,
Orziqib-orziqib ko‘z tamom bo‘ldi,
Ayroliq gadodin shohjahon bo‘ldi,
Puturlar g‘aznamga g‘aznabon bo‘ldi,
Ne imkon, bir tomon yuz tomon bo‘ldi.

Parishon-parishon qadam tashlarman,
Buzilib-buzilib alam boshlarman,
Uzilib-uzilib sitam boshlarman,
“Shu ikki qo‘limni toshtarosh etdim,
Bus-butun umrimni men adosh etdim”,
Parishon-parishon qadam tashlarman.



RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’rning birinchi bandida *bir tomon bo‘lish* istagi bot-bot takrorlanadi. Shoir nazarda tutgan bu birlik faqat ikki insonning jisman birlashuvini anglatadimi? Fikringizni she’r asosida izohlang.
2. *“Ilkis mung tutsa”* misrasiga ko‘ra, nega shoirning eng baxtli onlari, albatta, qayg‘u bilan yo‘g‘rilgan?
3. Nima uchun inson aynan judolik va ayriliq orqali “shohjahon” darajasiga ko‘tariladi?
4. *“Puturlar g‘aznamga g‘aznabon bo‘ldi”* misrasini tushuntiring. Shoir o‘z kamchiliklari va jarohatlarini eng katta boyligi deb bilishi, insonning xatolari va dardlari qanday qilib uning xazinasiga xazinabon bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.
5. Diniy ta’limotga ko‘ra, mahshar – oxiratda kishilar so‘roq-savolga tutiladigan maydon, qiyomat kuni. Bu kuni hech kimning boshqa bilan ishi yo‘q, hamma o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘ladi. Unda shoir nega mahshar kunini *“bazm”* deb atayapti? She’r matniga tayanib, fikringizni asoslang.
6. She’rning har bir bandi o‘ziga xos takrorlar bilan tugaydi. Ular shunchaki ohangdorlik, mazmunni ta’kidlash uchunmi yoki o‘quvchini muayyan ruhiy kayfiyatga tushirishga xizmat qiladimi? Javobingizni asoslang.

Ijodiy ish

Abduvali Qutbiddinning siz mutolaa qilgan ikki she’riga yangi sarlavha o‘ylab toping. Nega shunday nomlashni ma’qul ko‘rganingizni izohlab bering.

	Yangi nom	Izoh
Birinchi she’r		
Ikkinchi she’r		

Tavsiya

Yuqoridagi she’r matni asosida kuylangan qo‘shiqni havola orqali tinglang.

20

Nomi: “Yorijon”.

Ijrochi: Shuhrat Daryo.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



LUQMON BO‘RIXON (1965 – 2023)

Dars davomida:

- adib hayoti va ijodi bilan tanishamiz;
- “Quyosh hali botmagan” qissasidagi uch o‘spirinning ko‘ngil kechinmalarini tahlil qilamiz.

Luqmon Bo‘rixon (Luqmon Bo‘riyev) 1965-yil 15-iyulda Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumanida tavallud topgan.

U qator qissa va hikoyalar jamlangan “Yalangoyoq”, “Tun qa’ridagi shu’la”, “Quyosh hali botmagan”, “Xizr ko‘rgan yigit”, “Sirli muallim” kabi kitoblar muallifi. Shuningdek, “Jaziramadagi odamlar”, “Temiryo‘l”, “Olov tutgan odam”, “Begonalar yurmas bu yerda”, “Imom Moturidiy”, “Sokin daryo” kabi romanlar yozgan.



Taniqli olim Qozoqboy Yo‘ldoshev yozuvchining “Jaziramadagi odamlar” romani haqida bunday yozadi: *“Odamning tabiiy mayl va xohishlari inkor qilinib, kimlarningdir istagi, qandaydir siyosiy va mafkuraviy manfaatlar uchun odamlardan qahramonlar yasash, insonni o‘z tabiatiga monand, istagiga muvofiq yashashga qo‘ymaslik, uning turmush tarziga zug‘um o‘tkazish yomon oqibatlarga olib kelishi... tasvir etilgan edi. Millionlab odamlar cho‘llarning o‘zlashtirilishi insonning tabiatga qilgan marhamati, uni go‘zallashtirish, yanada yaxshilash sari qo‘yilgan qadam deb hisoblab turgan bir vaqtda yozuvchi bu asarida, qanday niyat bilan amalga oshirilmasin, cho‘lning cho‘l, ko‘lning ko‘l, tog‘ning tog‘ligiga daxl qilish zulm ekani va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini bir qator personajlar taqdiri hamda 41-sovxoz holati bilan muvoziy tarzda aks ettiradi...”*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘ylab ko‘ring

1. *“Insonni o‘z tabiatiga monand, istagiga muvofiq yashashga qo‘ymaslik, uning turmush tarziga zug‘um o‘tkazish”* qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Qarashlaringizni asoslang.

2. *“Cho‘lning cho‘l, ko‘lning ko‘l, tog‘ning tog‘ligiga daxl qilish – zulm”* degan g‘oya qanday falsafiy mazmunni anglatadi? Ushbu fikrni bugungi ekologik va ijtimoiy muammolar bilan bog‘lab izohlang.

MUTOLAADAN OLDIN



“Quyosh hali botmagan” qissasi 2012-yilda yozilgan.

Qissadagi voqealar o‘tgan asrning 80 – 90-yillarida zamona zayli tufayli tog‘dan cho‘lga ko‘chirilgan, Kengsoy qishlog‘ida otasiz ulg‘aygan Norsoat, Quvondiq raisning o‘g‘li Davronbek va “Kengsoy burgutlari” to‘dasi tevaragida sodir bo‘ladi.

O‘ylab ko‘ring

Kitob muqovasiga ishlangan surat orqali qissadagi voqealar rivojini taxmin qilib ko‘ring.

QUYOSH HALI BOTMAGAN

(Qissadan parcha)

Sahro so‘qmog‘ida boshin egib, jim,
Bir kimsa ketmoqda, bilmasman u kim?
Abdulla Oripov

1

Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ming to‘qqiz yuz sakson ikkinchi yilning bahorida, erta-indin jahon urushi boshlanar emish degan mish-mishlar xo‘b avj olgan kunlarning birida usta Abilning uyida qoramag‘iz, to‘zg‘in sochlari jingirtob[1], qoshlari qiyg‘och[2], kipriklari uzun-uzun, ko‘zlari ma’yus yetti-sakkiz yashar qizaloq paydo bo‘ldi. Jang-u jadal boshlanib, atom bombalari kasofatidan dunyoning kuli ko‘kka sovurilsa, mol-u mulkim kimga ham qolardi degan o‘yda iztirob chekib yurgan usta Abil sahar chog‘i bisotidagi bor-yo‘q ikki bosh oriq qo‘yni bir paytlar pochtachi Tog‘ay tog‘adan sotib olgan mototsikli kajavasiga yuklab, viloyat markazi biqi-nidagi bozorga yo‘l olgan va kechga yaqin ko‘rganlarni hang-u mang qoldirib, shu qizchani olib qaytgan edi. …O‘sha kuni Uldon yanga eri boshlab kelgan qizaloqni ko‘zyosh-u

[1] **Jingirtob** – jingalak.
[2] **Qiyg‘och** – nafis qiya tushgan.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

siniq tabassumlar bilan bag‘riga olgan, manglayidan o‘pib, sochlarini silagan, yuz-ko‘zida mamnunlik, minnatdorlik zohir bo‘lgan.

Qizchaning ismi Tanzila ekan!

…O‘sha kezlar men to‘rtinchi sinfda o‘qir edim. Qo‘riqdagi befayz, besarishta bu posyolkaga tog‘ etagidagi katta qishloqdan atigi bir yil avval, otamning vafotidan keyin, tirikchiligimiz xiyla tanglashib qolgach, Quvondiq akani qora tortib ko‘chib kelgan edik. Quvondiq aka otamning eski qadrdonlaridan bo‘lib, tog‘ tomonlarga yo‘li tushgan paytlari ba’zan biznikiga ham qo‘nib o‘tar, momaqaldiroqdek guldurab gurungni gurungga ular, ora-chora jo‘rasini ham cho‘lga ko‘chib borishga da’vat qilar, mehmon ketgach, u haqida qiziqsinib so‘rab-surishtirgan chog‘imiz, otam do‘stining qo‘riqdagi yirik davlat xo‘jaliklaridan biriga rahbarligi, el ichida Quvondiq qaysar nomi bilan mashhurligi, mard, dovyurak, tanti inson ekanini maroq bilan gapirar edi.

…Ko‘chib kelgan kunimiz uch-to‘rt bosh qo‘y-echkimizni o‘tlatib zovur tomon borib qoldim. Bir payt baland-baland tuproq uyumlari ortidan o‘zim tengi besh-olti bola qiyqirishgancha otilib chiqib, meni qurshovga oldi. Hammasi yarim yalang‘och, kinolardagi hindularga taqlidan aft-angoriga, badaniga turli bo‘yoqlar surkab, boshiga o‘ralgan ipga tovuq patlari qadab olgan, biri yog‘och miltiq, biri o‘q-yoy tutgan edi. Boshqalariga qaraganda bo‘ychan va baquvvat, chayir bola safdan ajralib chiqib, men tomon yurarkan, o‘ng qo‘lini musht qilib, boshi uzra baland ko‘tardi. Xuddi shuni kutib turgandek qolganlari bab-baravar qichqirib yuborishdi:

– Quyosh hali botmagan!

Men butkul dovdirab qoldim. Bolalarning bo‘yab tashlangan basharasiga qarab bir kulgim qistasa, bir ularning vajohatidan ko‘nglimga g‘ulg‘ula oralardi. Oldinga chiqqan bola yana hindular sardori kabi o‘ng kaftini avval manglayiga, labiga tekkizdi, so‘ng boshi uzra bir aylantirib ko‘ksiga bosdi.

– Biz Kengsoy burgutlarimiz! Sen kimsan, ey o‘g‘lon?

– Men... Norsoatman, – dedim o‘zimni tetik tutib, – bu yerga bugun ko‘chib keldik.

– Olishasanmi yo urishasanmi?

Biroz o‘ylanib qoldim. Urishsam, biror yerim jarohatlanishi mumkin, yaxshisi kurash tushganim ma’qul, juda zo‘r bo‘lsa, ko‘p cho‘zmay, yiqilibgina qo‘yarman.

– Nega jimsan, Norsoat, – dedi bola o‘sha tantanavor tovushda, – yo qo‘rqdingmi, o‘g‘lon?

– Qo‘rqqanim yo‘q, olishaman.

U oqsoqollarga xos tarzda bosh irg‘ab, gapimni ma’qullagan bo‘ldi-da, to‘dadagi kirchil sochlari hurpaygan, yelkasiga kamon osgan bolaga im qoqdi. Bola o‘q-yoyini chaqqonlik bilan sheriklaridan biriga tutqazdi-yu, irg‘ishlab o‘rtaga chiqdi. Men ham shalviragan yenglarimni shimarib raqibga ro‘baro‘ bo‘ldim. …Bola atrofimda irg‘ishlay turib, chap to‘pig‘imning andak yuqorisiga tepdi. Shu barobarida chap bilagimdan chaqqonlik bilan ushlab tortdi. Biroq men oyog‘imni darhol olib qochdim, bolaning zarbasi havoga ketdi. O‘zi esa muvozanatini yo‘qotib yerga chalpak bo‘lib tushdi. Vaqtni boy bermay, raqib ustiga o‘zimni tashlab, kuraklarini yerga tekkizdim.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Halol. Sen g‘olibsan, Norsoat o‘g‘lon! – dedi sardor o‘sha-o‘sha baland, tantanavor tovushda. (Bolalarning gap-so‘zlaridan uning ismi Davronligini bilib oldim).

Bu yog‘i tezlashib ketdi. Eng avval Davron, so‘ng to‘dadagi bolalar men bilan qo‘l berib ko‘rishib chiqdi. Tanishdik, haligina qiyqirib, depsinib turgan jangari to‘da, oddiy, yuvosh va sho‘x kengsoylik bolalarga aylandi-qoldi. Zovur bo‘yida o‘tirib, o‘zimizcha gurunglashgan bo‘ldik.

Davron Quvondiq akaning, otam aytganday, katta bir xo‘jalik rahbarining o‘g‘li ekan! Ertasi kuni u meni maktabga boshlab bordi. Sinfdosh bo‘ldik.

Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ko‘p o‘tmay uning, ya’ni hindular sardorining o‘ng qo‘liga aylandim. Chunki keyingi bellashuvlar ham mening shu lavozimga munosib ekanimni ko‘rsatdi. Men Davrondan boshqa barcha bolalarni kurashda yiqitdim. Hatto yoshi o‘zimdan katta ba’zi birlari ham mendan yengildi. Faqatgina Davronga kuchim yetmasdi. U chayir va baquvvat bo‘lishidan tashqari, qandaydir shiddat-shijoat va ehtiros egasi edi. Kurash payti shu qadar tez usullar qo‘llardiki, ko‘z ochib-yumguncha yulduz sanay boshlardim. Davron favqulodda dovyurak, chapani bola edi. Goho to‘p bo‘lib tuman markaziga borgan kezlarimiz, uning bir o‘zi o‘sha yerlik uch-to‘rttasi bilan birvarakayiga mushtlashib g‘olib chiqardi. Har lahzada qochib qolishga shay biz, “Kengsoy burgutlari”, uning jasoratidan ruhlanib, boshimizni mag‘rur ko‘tarardik.

> *“Kengsoy burgutlari” beg‘ubor bolalik gashtini surib yurgan vaqtda usta Abil shahardan olib kelgan Tanzila ismli qizchaning dastlabki hayajonli va sarosimali qadamlariga bexosdan guvoh bo‘ladi.*

Peshin payti Abil aka “Ural” mototsikli kajavasiga o‘tirg‘izib kelgan qizchani birinchilardan bo‘lib ko‘rdim. Bahor o‘t-o‘lanlaridan qorni to‘ygan mollarimni haydab uyimizga yetgan chog‘im qizchaga yana ko‘zim tushdi. U ustaning qiya ochiq darvozasidan tashqariga qo‘rqa-pisa mo‘ralab turardi. Bir payt u otilib tashqariga chiqdi-yu katta yo‘l tomon chopib ketdi. Ajablangan ko‘yi uning ortidan qarab qoldim. Shu chog‘ darvozadan Uldon yanga kalovlanganicha chiqib keldi.

– Soatjon, yugur anovining ortidan, – deya qizcha tomon imo qildi, – qochib ketyapti, aylanay sendan, yugur, ushlab kel!

Men yugurdim. Qizcha ancha olislab ketgan bo‘lsa-da, unga tez yaqinlashib oldim. Ammo... ayni paytda... negadir o‘zimni quvlayotgan emas, qochayotgandek his qilardim. Chunki bu yerlarga ko‘chib kelgan chog‘larimiz men ham qadrdon qishlog‘imga xuddi shunday qochib ketishni juda-juda istaganman. Hatto mashinalar serqatnov katta trassa bo‘yiga dovur yashirincha bir-ikki borib kelganman. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ayni paytda qizchaga xayrixoh edim. Unga ikki hatlab yetishim mumkin bo‘lgan paytda ham atay sekinlab, o‘zimni charchab qolganga solardim. Bir payt qizcha qator tutlar panasiga yetgach, taqqa to‘xtadi. Yuz-ko‘zlarini qoplab tushgan jingalak sochlarini ortga sidirib

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

tashladi. Men hansiragan ko‘yi uning qarshisida to‘xtadim. Qizchaning yirik-yirik ko‘zlari jiqqa yosh edi.

– Nega meni quvlab kelyapsan? – dedi u tovushi titrab.

– Seni ushlab olishim kerak.

– Tegma menga, men... qochib ketyapman.

– Qayoqqa?

Qizcha izillab yig‘lab yubordi.

– Bilmayman...

Ayni paytda... negadir unga qo‘shilib mening ham uvlagim kelardi. Bo‘g‘zimga nimadir tiqilib, qult-qult yutindim.

– Qo‘y, yig‘lama, kerakmas, – deb pichirladim arang.

– Ular meni qiz qilib olishdi.

– Ular yaxshi odamlar, – dedim qizcha aytgan gaplarning ma’nosiga ko‘p ham tushunmagan esam-da, – xafa bo‘lma.

– Uylari juda katta ekan, qo‘rqib ketdim.

– Qo‘rqma, katta uyda yashash mazza-ku.

– Mazza-ya, – dedi qizcha umid va iltijo qalqqan qaroqlari bilan menga termilib. U so‘zlarini tasdiqlashimni, bu yerlarda yashash chindan ham yaxshi ekaniga ishontirishimni juda-juda istardi.

Men har ikki bosh barmog‘imni havoga nuqib, ko‘zlarimni suzdim.

– Mazza!

Qizcha qiqirlab kuldi.

– Yana biir ayt, – dedi yalinchoq tovushda.

– Maazzaaa!

Men bu gal barmoqlarimni yalab ham qo‘ydim. Qizcha yayrab-yayrab kuldi. Kula-kula yo‘l chekkasiga bir paytlar to‘kib ketilgan shag‘al ustiga o‘tirdi.

– Oting nima? – deb so‘radim undan.

– Tanzila. Seniki-chi?

– Norsoat.

– Soat deysanmi, – deya qizcha yana yayrab kuldi, – necha bo‘lding, soat, necha bo‘lding?

Balki, boshqa joyda, boshqa bola shu tarzda, ismimni masxaralab kulsa, jahlim chiqar, boplab ta’zirini berardim. Ammo ayni paytda qishlog‘imizda dabdurustdan paydo bo‘lgan qizchaning qiliqlari, kulgilari negadir menga juda-juda yoqardi. Hatto unga qo‘shilib baralla kuldim.

– “Norsoat” qiyin ekan, – dedi qizcha menga sho‘xchan boqib, – maylimi seni “Soat” desam?

– “Aka”, deya qol.

– Xo‘p. “Akajon”, deyman.

Quyosh qoq manglayimizda tantanavor porlab turardi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

…Tanzila ikkimiz shodon kayfiyatda qishloqqa qaytdik. Men unga qarab to‘ymasdim. Tanzila goh men bilan qo‘l ushlashib olar, goh yo‘l chekkasidagi mayda toshlardan terib qator tutzor tomon otar, goho o‘rmalab yurgan hasharotlarni, uchib-qo‘nayotgan qushlarni uzoq tomosha qilib qolardi. Sen aslida kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, o‘zing qayerliksan, deb so‘ragim kelardi-yu, botina olmasdim. Nazarimda, bunday so‘rovlar Tanzilani qattiq xafa qilib qo‘yadigandek tuyulardi. Men esa uning xafa bo‘lishini, yirik-yirik ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lishini sira-sira istamasdim.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Qissaning ***“Biz hali Absal polvonni tanimas edik”*** jumlasi bilan boshlanishi asarning keyingi qanday voqealariga ishora deb o‘ylaysiz?
2. Uldon yanganing siniq tabassumi zamirida qanday taqdir sinovlari bo‘lishi mumkin? Matnga tayanib javob bering.
3. “Kengsoy burgutlari” jamoasi sizda qanday taassurot qoldirdi? Bolaligingizdagi qaysi xotiralar jonlandi? Nima uchun?
4. Kurash tushish yoki mushtlashish taklifiga bergan javobi orqali Norsoatning xarakteri haqida mulohazalaringizni bildiring.
5. Norsoat g‘alabasidan so‘ng Davronning unga munosabatini qanday baholaysiz? Nega u o‘z jamoasidagi bolaga tarafkashlik qilmadi?
6. Norsoatning Tanzilani quvish paytidagi o‘ylari sizga qanday ta’sir qildi? Uning o‘rnida bo‘lsangiz, qizaloqni qo‘yib yuborarmidingiz yoki tutib olarmidingiz? Nega?
7. “Kengsoy burgutlari” nega *“Quyosh hali botmagan”* jumlasini shior qilib olgan edi? Taxminlaringizni matnga tayanib asoslang.

O‘ylab ko‘ring

Norsoat va Tanzila o‘rtasida paydo bo‘lgan iliq munosabat asar davomida qanday rivojlanadi deb o‘ylaysiz? Taxminlaringizni asoslang.

Ijodiy ish

Tanzila va Norsoat qishloqqa qaytmoqda. Ular yo‘lda yana nimalar haqida gaplashishi mumkin? Asar syujetiga mos dialog yozing.

Mutolaa

Asarning davomini (2) o‘qing.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2

Tanzila haqida turli afsonalar va mish-mishlar tarqaladi. Norsoat qizaloqni bir marta “tutib kelgani” tufayli bolalar orasida qahramonga aylanadi va hatto uydirma gaplar bilan Tanzilani mashhur film qahramoni sifatida tanishtiradi.

Oltinchi-yettinchi sinflarda o‘qiyotgan yillarimiz Davron ikkimiz kurash bilan jiddiy shug‘ullana boshladik. Har kuni ertalab yuguramiz, maktabning sport maydonchasida har xil mashqlar bajaramiz. Bo‘sh vaqt topdik deguncha ikkimiz kurash usullarini mashq qilamiz. Jismoniy tarbiya bo‘yicha saboq beruvchi muallim goho bizni o‘zining “Moskvich” mashinasiga o‘tirg‘izib qishloq to‘ylariga olib borar, u yerdagi kurash tomoshalarida ikkimiz teng-to‘shlarimiz bilan bellashib, goh mag‘lub, goh g‘olib bo‘lib, birda bo‘shashib, birda zavq-shavq bilan uyga qaytar edik. Bir kuni galdagi mashg‘ulotga chog‘lanib turgan paytimiz Quvondiq aka daladan kelib qoldi. Oyog‘ida qo‘nji qayrilgan etik, egnida oftobdan sarg‘aygan ko‘ylak, boshida ayvoni keng shlyapa.

– Ey nonxo‘rlar, – deb bizni to‘xtatdi u, – chini bilan polvon bo‘lishni xohlasalaring, buytib saltang-saltang yurmanglar. Men yozgi ta’til payti senlarni zo‘r ustozga oborib topshiraman. Bir oy shug‘ullanib kelasizlar.

…Rais rostdanam o‘sha mavsum yozgi ta’til boshlangan kunlari ikkimizni “Niva” mashinasiga o‘tqazib, bepoyon qo‘riq xo‘jaliklariga qon tomirlaridek taralib ketgan, shag‘al qoplamali yo‘llarning biri bo‘ylab allaqayoqqa olib ketdi.

– Biz hozir Absal polvonning oldiga ketyapmiz, – dedi ulovni nopisand boshqarib borayotgan ota. – Eshitgansizlarmi shunday odamni?

– Yo‘o‘q, – dedik baravar bosh chayqab.

– Hozir ko‘rasizlar.

Biz bir yarim soatdan mo‘lroq yo‘l bosdik. Aftidan, boshqa tuman chegarasida ketib borardik. Qo‘riq hududlar bir-biriga juda o‘xshash bo‘lgani bois buni dabdurustdan payqash qiyin.

– Ana, keldik, – dedi Quvondiq aka “Niva”ni quyuq tollar panasidagi shiyponnusxa uy yonida to‘xtatar ekan. Avval bahaybat bir ko‘ppak biz tomon vovullaganicha yugurib keldi, ortidan uch-to‘rt bola-baqra chopib chiqdi.

– Ey, polvon qayerda, uydami-a? – deya gumburlagan ovozda so‘radi rais.

Bolalar javob bermay, yana uy tomon chopib ketishdi. Biz mashina ortidan xiyla semiz shirbozni tushirdik. Quvondiq aka ust-boshining chang-chungini qoqib, qoqirindi. Shu payt tollar ortidan bo‘yi ikki metrlar keladigan, sochini tap-taqir qirdirgan, yag‘rindor bir odam chiqib keldi.

– Ee, rais bova, xush kepsiz! – dedi u yo‘g‘on, do‘rillagan ovozda.

Quvondiq aka unga xush-xandon peshvoz yurdi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

– Chaqirmasangiz ham shuytib kelaberamiz-da!

Quvondiq aka sizlarni ustozga topshiraman, deganida biz – ikkovlon o‘zimizcha gavjum, sershovqin shaharni, keng-mo‘l, yorug‘ sport majmuasini, chekkalari qizil hoshiyali maxsus kiyimdagi murabbiyni tasavvur qilib, terimizga sig‘may sevinib, hayajonlanib yurgan edik. “Niva” qishloqdan chiqar-chiqmas ovloq dala-dasht yo‘lga burildi-yu, biz bir-birimizga taajjublanib tikildik. Qayoqqa ketyapmiz, degan xayolda ko‘nglimizga xavotir oralagan edi. Tollar ortidagi shiyponni, undan chiqib kelgan devqomat, biroz dehqon, biroz cho‘ponsifat kimsani ko‘rib esa butkul hafsalamiz pir bo‘ldi. …Ammo Quvondiq aka bilan quchoqlashib ko‘rishgan, o‘sha kech mehmonlar sharafiga tuzukkina dasturxon tuzagan mezbon, aftidan, biror institut nari tursin, o‘rta maktabni ham to‘la-to‘kis bitirgani, kurash ilmidan xabardorligi gumon edi.

– Shuytib, inim, sizga ikki shogird opkeldim, – dedi ziyofat chog‘i Quvondiq aka yana maqsadga ko‘chib, – bularni tarbiyalab, Kengsoyning orini ko‘taradigan polvonlar qilib berasiz.

Mezbon kulumsirab bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Bularning xiyla suyagi qotgan ko‘rinadi-ku, sal ertaroq opkemabsiz-da, rais bova.

– E, polvonjon, ana bugun-ana ertan, deb vaqtni boy berib qo‘ydik. Savil, hech qo‘l tegmaydi, deng, bilasiz, xo‘jaligimizning tashvishi ko‘p.

– To‘g‘ri, sizga qiyin. Bizga o‘xshaganlar bitta ro‘zg‘orni eplayolmaydi-yu...

Asli ismi Abdusalom bo‘lgan bu kishi el-ulus orasida Absal, Absal polvon nomi bilan mashhur ekan. Xuddi Quvondiq aka va qo‘riq tumanlariga ko‘chib kelgan aksariyat cho‘lquvar[1]lar kabi kunchiqar tarafdagi tog‘-u toshlarda tug‘ilib o‘sgan ekan.

Abdusalom hech bir ustoz ko‘rmagan, hech bir mashq-mashg‘ulotda qatnashmagan… U bo‘z bolalik payti tog‘dan o‘tin kesib, eshagiga yuklab kelayotgan mahal, jonivor noboproq yerdan yiqilib, oyog‘i sinib, o‘rnidan turolmay qolibdi. Shunda u eshagini yuk-puki bilan yelkasiga olib, qishloqqacha ko‘tarib borgan ekan. Abdusalomning bu ishini ko‘rganlar hang-u mang qotib qolgan emish. Nega menga angrayib qoldinglar, nima, sizlar eshak ko‘tarib ko‘rmagansizlarmi, deb hayron so‘ragan ekan o‘shanda. Chunki bunday ko‘tarishlar oddiy, kundalik ish, har kimning ham qo‘lidan keladi, degan xayolda ekan bu sodda va to‘pori yosh polvon.

Qancha-qancha to‘y-u hashamlarda o‘z elining orini olib, dimog‘dor, nomdor kurashchilarning kuragini yerga bosibdi. Cho‘lga ko‘chib kelgan kezlari uning dovrug‘ini eshitgan tuman, viloyat rahbarlari polvon bilan bir ko‘rishib qo‘yish uchun atay uni izlab kelishgan ekan. Absal polvon besh-olti yil avval, yoshim qirqdan qiyib o‘tdi, endi davralarni yoshlarga bo‘shatay, deb el oqsoqollaridan fotiha olib, kurash bilan xayrlashibdi. O‘shandan beri bahor chog‘i shu shiyponga ko‘chib chiqib, kech kuzgacha dehqonchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lar, hosilni yig‘ib-terib olgach, yana qishlog‘iga ko‘chib borar ekan. Ustoz deb ixlos qilib kelgan yosh-yalanglarga kurash sirlaridan saboq ham berar ekan.

[1] **Cho‘lquvar** – cho‘lni o‘zlashtiruvchi, qo‘riq yerlarni obod qiluvchi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Biz Absal polvonni tanidik.

Ammo o‘sha kech Quvondiq akaning sirli shivir-shivirlari ham baribir bizni hayratlantira olmadi. Raisning qahr-u g‘azabidan qo‘rqib, andak-andak qovog‘imizni ochib o‘tirardik xolos. Ko‘z o‘ngimizda hali-hanuz charog‘on shahar, po‘rim ust-boshli murabbiy tumanday kezib yurardi.

…Dasturxon yig‘ishtirilib, choynakdagi choy sob bo‘layotgan bir paytda Quvondiq aka yonidagi yostiqqa bag‘ir berib, oyoqlarini uzatib yubordi.

– Qani, polvon, – dedi sirli bir ohangda, – endii... chaling, bir miriqaylik.

Abdusalom avval biroz tixirlik qilib turdi, so‘ng intilib, chorpoya suyanchig‘iga tashlab qo‘ygan kamzulining cho‘ntagidan charm g‘ilofli allaneni avaylabgina chiqarib oldi.

“Rais bova, mehmonning amri vojib, chalsak chalamiz-da”, dedi u.

Absal polvon charm g‘ilofdan sug‘urib qo‘liga olgan narsaning neligini bilmay angrayib turganimizni payqagan rais:

– Bu sibizg‘a, – deb qo‘ydi kulumsirab.

Sibizg‘a deganlari polvonning kaftlari orasiga joylashadigan uzunlikdagi bir enli qamishdan yasalgan, puflab chalinadigan oddiy va jo‘n musiqa asbobi ekan. Absal polvonning uni ixlos-u e’tibor bilan qo‘lga olishini ko‘rib, g‘oyat noyob narsa bo‘lsa kerak deb o‘ylabmiz.

– Qani, inim, boshlang, – dedi rais betoqatlanib.

Absal polvon sibizg‘ani bahaybat kaftlari orasiga olib, qalin lablariga tekkizdi. Tekkizdi-yu, sibizg‘adanmi yo mehmonning ichidanmi bir nola otilib chiqdi. U bir zum havoda muallaq turib qolgach, mayin, hazin mavjlar bilan tun bag‘rini tilkalab, chor tarafga tarala boshladi. Sibizg‘adanmi yo polvonning bo‘g‘zidanmi o‘rtanib chiqayotgan bu ohanglar kuy emas, faryod edi! Faryod emas, achchiq-achchiq bo‘zlov edi!

Absal polvon taralayotgan musiqaga mos tarzda tog‘dek tebranar ekan, nazarimda, hozir u qulab tushadigandek tuyulardi.

…Nolakor kuy tobora avjlanardi!

Negadir xayolim olis tog‘lar etagida qolgan qadrdon qishlog‘im tomon uchdi. Jildirabgina oqib turuvchi sayoz soy, sertuproq yo‘llar va nogoh deraza tagidagi to‘shakda so‘nggi kunlarini o‘tkazayotgan, vassajuftli uy toqiga armon-u iztirob bilan termilgan, sertitroq, ozg‘in qo‘llari bilan boshimni silayotgan otam, otajonim ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi. So‘ng qaroqlarim qarshisida boshim uzra isiriq tutatib, ko‘zlari namlanib, duo pichirlayotgan hamisha jonsarak onam, onajonim, uning ortidan, tutzor bo‘ylab chopib borayotgan, menga umid va ishonch bilan termilib “mazza-ya”, deyayotgan Tanzila bir-bir jonlanib, go‘yo sibizg‘a bag‘ridan otilayotgan faryod, iltijo mening bo‘g‘zimga quyilayotganday tomog‘imga achchiq va qattiq nimadir tiqildi. Beixtiyor yuzimni osmonga qaratdim. Qaratdim-u hozirgina jimirlabgina turgan yulduzlar nolakor musiqadan go‘yo eriy-eriy qaroqlarimga tomayotganday, qaroqlarimdan toshib yonoqlarim tomon sizayotganday tuyuldi. Men shosha-pisha ho‘llangan yonoqlarimni artib oldim. Nihoyat kuy tindi.

– E, yashang! – dedi Quvondiq aka chuqur tin olib…

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Mezbon siniq jilmayib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

Quvondiq aka sahar payti bizni Absal polvonga, Absal polvonni Xudoga topshirib, Kengsoyga qaytdi.

Biz Absal polvonni tanidik.

Norsoat va Davron Absal polvon qo‘lida bir oy murakkab, ammo ibratli shogirdlik davrini o‘tkazadi. Bolalar issiq choyxonada yashab, sahardan jismoniy mashqlar va og‘ir dala yumushlari bilan band bo‘ladi, kunning ikkinchi yarmida esa kurash sirlarini o‘rganadi. Absal polvon o‘zining kamgapligi, shogirdlarining har bir harakatini masofadan turib ham sezishga qodir g‘oyibona sezgirligi va ***polvonlikning birinchi sharti – yurakka quloq solish*** *kerak degan qarashlari bilan ularda hayrat uyg‘otadi.*

– Rais bova sizlarni menga ishonib topshirib ketgan, shuning uchun bir-ikki og‘iz nasihat qilib qo‘yishim kerak bo‘ladi. Bu ham mashq-mashg‘ulotimizga kiradi. Eshityapsizlarmi? ...Polvon odam uch narsaga hokim, uch narsaga qul bo‘lishi kerak.

– Men bilaman, – deb dabdurustdan gapga aralashdi Davron, – polvon nafsiga, shuhratparastlikka, manmanlikka hokim bo‘lishi kerak... bir kitobda o‘qiganman. Kallamga quyilib qolgan.

– Balli, inim, balli! Xo‘sh, keyin-chi, qolganini ham ayt-da.

– Polvon uch narsaning quli bo‘lishi kerak, – dedi Davron hech bir tap tortmay, – haqiqatning, or-nomusning...

Ammo uchinchi narsaning nomini topolmay bashara burishtirib, chaynalib qoldi.

– Ha, yaxshi, – deb bosh irg‘adi Absal polvon, – shu ikkovi ham hozircha sizlarga yetadi. Uchinchisi...

– Sibizg‘aning... – beixtiyor og‘zimdan chiqib ketdi mening.

Ustoz yalt etib o‘girildi. Uning yuz-ko‘zlari qandaydir yorishib ketganday bo‘ldi.

– Topding! Sibizg‘aning quli bo‘lishi kerak!

Absal polvon shunday dedi-yu, ko‘krak cho‘ntagidan charm g‘ilofli sibizg‘asini avaylabgina qo‘liga oldi.

– Yo‘q, sibizg‘a emas, kitobda unday deyilmagan. Ustoooz, o‘zingiz ayting, iltimos, uchinchisi nima edi? – dedi Davron astoydil qiziqib.

– Uchinchisini, ukalar, hali bilib olasizlar. Uning o‘zi o‘zini bildirib qo‘yadi. Qo‘rqmanglar, ko‘p kutib qolmaysizlar. O‘sha narsa hayot yo‘llaringizda ilhaq-intizor. Erta bir kun nasib etsa, unga duch kelasizlar. U sizlarni kuldiradi, kuydiradi, u sizlarni bor qiladi, yo‘q qiladi. Ana shunda juda-juda sibizg‘a chalgilaring kep qoladi. Boya Norsoat to‘g‘ri topdi, desak ham bo‘laveradi. Polvon quli bo‘lishi kerak bo‘lgan uchinchi narsa, bu sibizg‘a! Kelinglar, hozircha uni shunday deb atab turaylik. Hayotda o‘ziga yo‘liqqanlaringizda, nima deb nom qo‘ysalaring qo‘yaverasizlar.

...Ustoz bizga e’tibor bermay, sibizg‘asini g‘ilofidan chiqardi-yu, chuqur tin olib, chalishga tutindi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Mashg‘ulotlar yakunida Absal polvon Norsoatga o‘zi yangi yasagan sibizg‘ani sovg‘a qiladi. Norsoat va Davron maktabni bitiruv yoshiga yetishadi. Davron kurash maydonlarida nom qozonadi. Vaqt o‘tib, Norsoat Tanzilaga ko‘ngil qo‘yganini, maktab yo‘lagidagi tasodifiy to‘qnashuvdan so‘ng bu tuyg‘u alanga olganini anglaydi. Maktabni bitirish kechasida do‘stlari ***“Quyosh hali botmagan!”*** *deya hayqirib, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan bir paytda Norsoat sevgisidan ayrilish va noma’lum kelajak xavotiri bilan mahzun bo‘ladi. Chunki u endi bolalik bilan birga o‘zining ilk muhabbatidan ham uzoqlashayotgan edi.*

Biz Absal polvonni unutgan edik.

…Davron aytganday, u bilan tomirimiz tutash ekan. Ikkovimizni bir kunda askarlikka olib ketishdi. …Qalin o‘rmonlar, tund qishlog‘-u kentlar osha nihoyat, Krasnoyarsk degan shaharga yetib keldik.

Men mashaqqatli mashq-mashg‘ulotlar, qat’iy, beshafqat tartiblardan ko‘ra sog‘inchdan va yana sog‘inchdan qiynaldim.

…Tanziladan, mening Tanzilamdan roppa-rosa olti oygacha hech qanday xat-xabar bo‘lmadi. Shu paytga qadar uning paykal bo‘yida, “O‘zingizni ehtiyot qiling” degan o‘sha sohir so‘zlaridan kuch-quvvat olib, bir-biridan shirin xayollar surib, o‘z-o‘zimni ruhlantirib yurdim.

…Sog‘inchdan sillam qurib, dunyo ko‘zimga qorong‘i ko‘rinib yurgan rangsiz, nursiz kunlarning birida, nihoyat, najotkor noma yetib keldi! Yo‘q, men maktub emas, bir olam quvonch, umid va ishonch oldim!

…Mohitobimning birinchi bo‘lib xat jo‘natgani, bitigi oxirida maktub javobini uylariga emas, jildda ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha, texnikum yotoqxonasiga yozishimni iltimos qilgani men ilhaq kutgan alohida alomatlar kabi tuyulib, qalbimni masrur-mag‘rur hislarga chulg‘ardi! Mustahkam qal’ani zabt etgan qo‘mondonday tevarakka g‘olibona qaray boshladim.

Xizmat oxirlagunga qadar Tanziladan roppa-rosa o‘n beshta xat oldim. Yurak qonim bilan to‘lib-toshib javoblar yozdim. Lekin qanchalar qasd qilsam-da, qanchalar o‘zimni majburlasam-da, “Seni sevaman”, degan bir juft so‘zni ochiq-oshkora bitishga hech jur’atim yetmadi. Olis-olislarda qolib ketgan paykal bo‘yidagi o‘sha pichirlashlar, o‘zi maktub yozgani, yashirin manzil tayinlagani qiz ko‘nglidan yetarli ishora deya o‘z-o‘zimni ovutdim.

Shu sevinch, shu yupanch bilan ikki yillik harbiy xizmat amal-taqal o‘tdi-ketdi.

…Ammo Davron ikkimizning tomirlarimiz tutashligi chin ekan! Voajab, askarlikka qanday birga ketgan bo‘lsak, xuddi shunday – qo‘l ushlashib, shod-u xurram qishloqqa kirib bordik.

Ikki do‘st qishloqqa qaytadi. Qishloq ahlining mehmondorchiliklarida qatnashadi. Davron kelganidan uch kun o‘tar-o‘tmas tuman markazidagi hosil bayramida uyushtirilgan kurash tomoshasida ketma-ket uch talabgorning kuragini yerga bosib, yana shon-shuhrat quchdi, askarlik maqomidan yana polvonlik maqomiga qaytdi. Norsoat esa Tanzila ishqida kuyib-yonardi…

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Davronning “Jiguli”sida tuman markazidan kelayotgan edik. Bir payt do‘stim o‘ychan bir qiyofada mashinani yo‘l bo‘yiga to‘xtatdi.

– Jo‘ra, bir maslahatli ish bor-da, – dedi u qandaydir xijolatomuz iljayib. – Bilasan-ku, sendan yashiradigan hech sirim yo‘q.

– Gapiraver, – dedim qiziqsinib.

– Uylantirib qo‘yaylik, deb uydagilar toza garang qilyapti. Bilasan, o‘zimga qolsa hali bunday niyatim yo‘q, hali o‘qimoqchiman, hali Omskka qaytib ketishim ham mumkin.

– Uydagilarga shunday deb tushuntir-da...

– Ko‘p gapirdim, baribir foydasi bo‘lmayapti. Qaridim, charchadim, menga kelin kerak, deb, ayniqsa, enam oyoq tirab turibdi.

– Qiyin bo‘pti senga, – deb o‘zimcha istehzo qilgan bo‘ldim.

– Otamning gapi menga ma’qul bo‘ldi, – dedi Davron o‘ziga o‘zi so‘zlaganday, – uylan, kelinni keltirib qo‘y, keyin to‘rt tomoning qibla, dedi. Shungaaa... o‘ylanib turibman, kimga uylansam ekan...

Do‘stim xuddi bozordan mol tanlayotganday bir-ikki qizning nomini tilga oldi. So‘ng g‘ijinib qo‘l siltadi.

– Senga shaharlik qizlar yarashadi, – deb qo‘ydim men.

Bir payt Davronning xayolchan chehrasi yorishib ketganday bo‘ldi, lablariga tabassum yugurdi.

– Aytgancha, Tanzila-chi?! Tanzilaga uylansam bo‘lmaydimi? Qaysi qizdan qayeri kam, a, sen nima deysan? Boya shaharlik qizlar deganingda shu esimga tushib ketdi, rahmat, senga, jo‘ra, rostdan ham u shaharlik go‘zallardan qolishmaydi.

Ko‘zim oldi qorong‘ilashib, boshim g‘uvullab, Davronning vaysashlari elas-elas eshitila boshladi.

– Ey, nega o‘chib qolding? – deya u yelkamga sho‘x-sha’n turtdi, – mastmisan, nima balo? Ayt, nima qilay, do‘stga o‘xshab maslahat ber-da.

– Tanzilani tilga olma, – dedim arang.

– Nima?! Nega... tilga olmay?

– U... u meniki...

– Seniki?! …Menga bir og‘iz aytmay, zimdan ish pishitib yurgan ekansan-da, a? Non sindirdilaringmi?

– Yo‘o‘q, hali...

– Yo hali ovloq-ovloqda uchrashib, ahd-u paymon qilib yuribsizlarmi?

Men “ha” deyishga botina olmadim. Yolg‘on gapirsam, Davron ertagayoq ovoza qilib yuborishi aniq, bu uydirma Tanzilaning qulog‘iga yetib borsa... qizni bepichoq so‘ygan bo‘laman-ku!

– Yo‘q, hali va’dalashmadik, – dedim ovozim qaltirab.

Davron nopisand bir tarzda mashina o‘rindig‘iga yastanib kuldi.

– Tanzila va’da bermagan, non ham sindirilmagan, bu yog‘i qiziq bo‘ldi-ku, nimaga ishonib u meniki, deyapsan?

– Tanzilani sevaman, jonimdan ham ortiq ko‘raman.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

– Mana, men ham sevaman endi, bu hali hech nimani hal qilmaydi. Soat, – dedi do‘stim tuyqus jiddiy tortib, – agar Tanzila ham senga sevaman deb aytgan bo‘lganida qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib, bemaza gaplarim uchun sendan kechirim so‘rardim, senga hech qachon xalaqit bermasdim.

– Men Tanzilani sevaman, – deb g‘udrandim men, o‘zimni oqlashga boshqa so‘z topolmay.

– Soat, meni bilasan-ku, bir aytdimmi, keyin ortimga qaytolmayman. Bo‘pti, sen uchun saal chekinaman, gap bunday, ertagayoq Tanzilaga sovchi yuboraman, agar u rad etsa, tamom, yana qo‘lim ko‘ksimda, bir chekkaga chiqaman. Keyin uni sevasanmi, pishirib yeysanmi, bu o‘zingga havola. Qalay, taklifim ma’qulmi?

Men lom-mim deyolmay, ich-ichimda ingrab qo‘ydim xolos.

Sovchilar! Davron – raisning arzanda o‘g‘li sovchi qo‘ysa, kim rad eta oladi, kim?! Mulla Mirzami, usta Abilmi, Uldon chechami? Yo‘o‘q, qaytaga, quvonishib, hali sovchilikdan gap ochilmay turib hammasi bosh egadi…

– Xo‘sh, taklifim ma’qulmi, mulla Norsoat? – dedi Davron g‘olibona iljayib. – Sovchilarni ertagayoq jo‘nataman.

– Yo‘q! Yo‘q! – deb beixtiyor bo‘kirib yubordim men.

Davronning qoshlari chimirilib, ko‘zlari qisilib, burun kataklari pir-pir ucha boshladi. Bu... bu qiyofa menga tanish, juda-juda tanish. Bu shunchaki jahldan emas, do‘stim yana ham qat’iylashganidan, ushlagan joyini uzib olishga shaylanganidan darak berardi.

– Soat, Tanzilani sevishingga men hali ishonib qolganim yo‘q. Sen shunchaki qizni mendan qizg‘anyapsan, mendan, jonajon do‘stingdan! Sen... sen yo‘limga atay to‘g‘anoq bo‘lyapsan. Men buni do‘stlikka xiyonat deb hisoblayman.

– Davron, gaplarim chin, men uni qattiq sevaman, bolalikdan beri sevaman, aytganlarimga ishon, har kuni, har daqiqa shu qizni o‘ylayman.

– O‘chir, o‘chir ovozingni! Tanzilani sevishingni menga hech qachon aytmagansan, ana, boya tan olding, uning o‘zigayam hech narsa gapirmagansan. O‘v, Tanzila tomon birinchi qadamni men tashladim, men! Demak, birinchi bo‘lib men sovchi jo‘nataman. Men birinchi bo‘lib Tanzilani tilga olganim senga yoqmayapti, shuning uchun tizinglayapsan, sevaman, deb bahona qilyapsan.

– Yo‘q, sovchi yuborishingga yo‘l qo‘ymayman!

– Men bilan urishmoqchimisan? – dedi Davron qaddini biroz kerib. Uning qaroqlarida qip-qizil shafaq akslanib turardi.

– Kerak bo‘lsa, urishaman, – dedim men ham qo‘llarimni musht qilib, – bilaman, sen zo‘rsan, otangning ham qo‘li uzun, kattakon, meni o‘ldirasizlar, lekin Tanzilani hech qachon senga berib qo‘ymayman!

Davron istehzoli tirjaydi.

– Endi shunday shattalik yo‘liga o‘tdingmi? Nega otamni o‘rtaga tiqyapsan? Ey, otamni biror yerda pesh qilganimni hech ko‘rganmisan, a, ko‘rganmisan? Nega tirriqlik qilyapsan?

– Urishaman desang, urishaman, – dedim biroz bo‘shashib.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Davron panjalarini panshaxaday kerib, yuzini bir sidirib tashladi. Odatda, u o‘zini arang bosib, jahlini pasaytirish uchun shunday harakat qilardi.

– Soat, – dedi do‘stim hanuz tovushi temirday jaranglab, – to‘yimning kurashini qizitib berasizlar, degandi domulla, esingdami? Indin to‘y, kechki payt kurash. Kel, ikkovimiz masalani boshqacha hal qilamiz.

– Qanday?

– Ota-bobolarimiz an’anasi bo‘yicha hal qilamiz. Ikkovimiz kurashamiz. G‘olib Tanzilaga egalik qiladi. Ham domullaning to‘yi qiziydi. Qalay? Bu gapga ko‘narsan endi, a?

Ha, Davron meni burchakka qisgan edi! Uning taklifiga rozi bo‘lishdan boshqa ilojim qolmadi.

– Bo‘pti, kurashamiz, – dedim qat’iy, – lekin... lekin bu kelishuv o‘rtamizda, hech kim bilmasin.

Davron asabiy bir tarzda xoxolab kuldi.

– Ey, oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich, degan maqol bor-a? Sen nimadan qo‘rqyapsan?

– Men hech narsadan qo‘rqmayapman. Tanzila gap-so‘zga qolmasin tag‘in deyapman.

– Ey, qizni qo‘y, sen o‘zingning sha’ningni o‘yla. Yigitning ori but bo‘lsa, qizlarga kiyimning keragi yo‘q, shuni unutma. Men sening taklifingga ko‘nmayman. Bunday imijimida bellashish ota-bobolar udumiga to‘g‘ri kelmaydi. Hammasi oshkora, ochiq bo‘lishi kerak.

– Bo‘pti, bilganingni qil, – dedim alam bilan qo‘l siltab.

– Demak, kelishdik. Indin, kechki payt hammasi halollik bilan hal bo‘ladi, – dedi Davron g‘olibona iljayib, – endi, jo‘ra, mashinamdan tushing. Shu lahzadan boshlab ikkovimiz bir-birimizga ashaddiy dushmanmiz. Orani ochiq qilgach, qo‘l tashlashib, to‘n yopishib, qayta do‘st tutinamiz. Qani, tush mashinadan!

Men g‘azab va nafrat ichida kalovlanib mashinadan tushib qoldim. Davron “Jiguli”ni o‘t oldirib, hanuz iljaygan ko‘yi ochiq oynadan qo‘lini chiqarib an’anaviy tarzda baland ko‘tardi:

– Quyosh hali botmagan!

– Quyosh hali botmagan! – deb takrorladim men ham havoga qo‘l sermab.

Ammo quyosh allaqachon qip-qizil qondek shafaqqa belanib, ufqqa bosh qo‘ygan edi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Absal polvon siymosi sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Nega u shon-shuhratni emas, chekkadagi hayotni tanladi? Shuningdek, sibizg‘a chalishi Absal polvonning tabiatidagi qanday kechinmalarni ochib beradi? Nima uchun?
2. Davron Norsoatga nisbatan abjir bo‘lsa-da, Absal polvon nega o‘zi yasagan sibizg‘ani Norsoatga sovg‘a qilgan bo‘lishi mumkin?
3. Tanzilani sog‘inib sillasi qurigan Norsoat maktublarida bir og‘iz ham “Seni sevaman”, deb yozishga jur’at qilmaganiga sabab nima? Sizningcha, bu holat muhabbatga xos andishami yoki?..

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4. Ikki do‘st o‘rtasidagi kelishmovchilik tasviri asosida Davron xarakteriga baho bering. U Tanzilani sevmasa-da, nega unga sovchi qo‘yishga oshiqdi?
5. *“Quyosh hali botmagan”* jumlasidan keyin yozuvchining *“quyosh allaqachon qip-qizil qondek shafaqqa belanib ufqqa bosh qo‘ygan edi”* degan ta’kidan maqsad nima bo‘lishi mumkin? Taxminlaringizni asoslang.

O‘ylab ko‘ring

Tanzila kurashda g‘olib bo‘lgan yigitni tanlaydimi yoki o‘zi sevgan yigitni? Mulohazalaringizni izohlang.

Ijodiy ish

Ushbu havola orqali **sibizg‘a** ohanglarini tinglang va kechinmalaringiz haqida qisqacha yozing.

21

Ijrochi: Qahramon Rashidov.

Mutolaa

Asarning davomini (3) o‘qing.

3

Juda ko‘p polvonning kuragini yerga tekkizgan Davronning taklifidan Norsoat biroz cho‘chiydi. Tanzilaga o‘z vaqtida ko‘ngil ochmagani va undan va’da olib qo‘ymagani uchun afsuslanadi. Davron va Norsoatning Tanzila uchun kurash tushishi haqidagi xabar butun qishloqqa yoyiladi. Odamlar orasida “Ikki polvon bir qizni talashib kurashar emish, biri boyning erkasi, biri esa yuvoshgina yetim yigit” degan gap-so‘zlar bolalaydi. Bu pichir-pichirlar Norsoatni yanada tushkunlikka tushiradi. Polvonlar To‘xtasin domlaning to‘yida kurash tushadilar.

Biz yana yuzlashdik. Bu gal men raqibimning belbog‘i-yu yaktagini mahkam siqimlab, o‘zim tomon zarb bilan tortdim-u, oyoqlari orasiga chil soldim. Biroq Davron oyoq bo‘g‘inlarini tarang rostlab, chilimni chiqarib yubordi. Shu asnoda belimdan mahkam quchib, meni azot ko‘tardi-yu, chap yelkasidan oshirib yerga tashladi. Men chalpak bo‘lib tushayotgan bir paytimda o‘zimni arang o‘nglab, yuztuban yiqildim.

Davra yana guvullab yubordi.

…Ammo g‘olibona tirjaygan sharpa quchog‘ida to‘lg‘anayotgan Tanzila xayolimda jonlanardi-yu, xuddi dimog‘iga sun’iy nafas yuborilgan behush bemorday sapchib-sapchib tushardim.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

…“Yiqilishga haqqim yo‘q, sira haqqim yo‘q, odamlar ham menga ixlosmand, – degan o‘y xayolimda charx urib aylanardi, – nima qilib bo‘lsayam yengishim kerak. Tanzilasiz hayot menga harom!”

Davron kimdir idishda uzatgan suvdan ho‘plab bir g‘arg‘ara qildi-da, og‘zidagi suvni qo‘llariga purkab, barmoqlarini namlab yana jo‘shqin o‘ynoqlaganicha maydonga qaytdi. Shu galgisi so‘nggi bellashuv bo‘lishini yuragim sezdi. Shu barobarida ko‘nglimning bir burchagida biqinib yotgan nopok, g‘irrom bir reja shilliqqurtday sudralib chiqdi.

“Konibodomlik do‘stim o‘rgatgan usulni qo‘llayman. Samboda qat’iy taqiqlangan, deb ogohlantirgandi, shekilli... – deb o‘yladim raqibning baquvvat qo‘llaridan ko‘z uzmay, – boshqa ilojim yo‘q, yo Xudoyim, o‘zing kechir, Tanzilani birovlarga berib qo‘yolmayman”.

Men payt poylay boshladim. Davron usul qo‘llash ilinjida oyoqlarimdan ko‘z uzmay irg‘ishlayotgan payt chap ilkining barmoqlari orasiga panjalarimni taroqday tiqib, ikkinchi qo‘lim bilan o‘ng tirsagi ustidan mahkam tutdim. So‘ng raqibim yaqin kelishiga atay qo‘yib berdim. Davron meni dovdirab qoldi degan o‘yda shiddat bilan usul qo‘llamoqchi bo‘ldi. Ammo men qayirib yuborgan barmog‘ining og‘rig‘idan birdan bo‘shashib ketdi.

– Ax! – dedi afti burushib.

Men shu lahzadayoq o‘ng qo‘lini bilagim bilan o‘rab bilagini tirsagidan qayirib yubordim. Davron bemisl og‘riqdan ko‘zlarini chirt yumib, yonboshga qulay boshladi.

Men yashin tezligida uni usulga oldim-u, belimdan oshirib yerga urdim.

Davra gulduros solib hayqirib yubordi.

– Haloool!

Men chalpak bo‘lib tushgan Davronning ko‘kragidan bosib turardim. Kallam karaxt, ko‘zim ko‘r, qulog‘im kar edi.

– Halol, – deya yelkamga turtdi bakovul, – qo‘yvoring endi uni.

Tomoshatalablar tobora kuchliroq qiyqirib, hayqirib, g‘olibni olqishlashar edi.

– Ey! Ey xaloyiq! – deb qichqirdi Davron o‘ng qo‘lini silagan ko‘yi o‘rnidan turarkan, – Norsoat nomardlik qildi, qo‘lchil soldi. G‘irrom bu!

Tevarak-atrofdan masxaraomuz kulgilar, istehzoli qiyqiriqlar eshitildi.

– Yiqilgan olishga to‘ymaydi, Davronboy!

– Yana qanday bahonalaring bor?

– Xarxashani otangga qilasan!

Shu orada bakovul yordamchisi kelib menga sovrin pulini uzatdi.

…– Ey! Ey yaxshilar! – deya Davron qo‘llarini qanotday yoyib javdiragan ko‘yi u yon-bu yon yugurgilay boshladi, – bu nomardlik-ku?! Qo‘limni sindirib qo‘yishiga sal qoldi! Agar aldayotgan bo‘lsam, meni polvon piri ursin!

Ergash mirob kinoyali kulumsirab uning qo‘lidan tutdi-da, tarafkashlari turgan tarafga yetakladi.

Davron adashib qolgan yosh boladay atrofga alangladi. U, aftidan, meni izlardi.

– Ey Norsoat, – deb baqirdi u alam bilan, – mard bo‘lsang, maydonga chiq! Aybingni tan ol!

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

G‘ala-g‘ovur, qahqahalarga ko‘milgan davra unga e’tibor ham bermadi.

– Qani, oqsoqollar! – dedi bakovul qariyalar to‘piga yuzlanib, – chiroyli bir duo qilib, kurashni yakunlaylik. Omiiin!

– Omiin!

Men ko‘zlarimni ko‘kka opqochdim. Miltillagan yulduzlar go‘yo hurkib, uyalib, g‘uj-g‘uj to‘planib olgandek edi. Sap-sariq to‘lin oy battar sarg‘ayib, so‘lib, behol bo‘zarib turardi.

Bir payt, bilmadim qaydan chiqdi, qizg‘ish-sarg‘ish libosi lampa chiroqlar yog‘dusida olovday lovullab turgan Tanzila qunishgan ko‘yi Davronning shundoqqina qarshisida paydo bo‘ldi.

– Oh, Tanzila! Sohibjamol farishta! – dedi u xuddi kinolardagi ritsarlar kabi qiz qarshisida tiz cho‘kib, – biz hammasini ota-bobolar udumi bo‘yicha o‘tkazishga kelishgandik, lekin Norsoat g‘irromlik qildi, qo‘limni qayirib meni yiqitdi, o‘zing izn ber, kurashni sening ko‘z oldingda qayta o‘tkazaylik.

Ammo... ammo bir payt Tanzila to‘lib-toshib hasrat qilayotgan Davronning yuziga tarsaki tortib yubordi! So‘ng nimadir dedi-yu kaftlarini yuziga bosib, to‘yxona tarafga tez-tez yurib ketdi…

Norsoat kurashdagi g‘irromligi va qadrdon do‘sti Davron bilan yuz bergan ko‘ngilsizlik tufayli qattiq vijdon azobida qoladi. Davron esa qishloqni tark etadi. Norsoat Tanzila o‘qiydigan texnikumga boradi va nihoyat unga o‘z muhabbatini izhor qiladi. Uchrashuvda qiz ham besh yil davomida aynan shu so‘zlarni intiqib kutgani ma’lum bo‘ladi. Quvondiq raisning kutilmagan aralashuvi va sa’y-harakatlari bilan Norsoat hamda Tanzilaning unashtiruvi tezlashib, ikki yoshning taqdiri birlashadi. Shunday bo‘lsa-da, vijdon qiynog‘i polvonni tark etmaydi; ruhan ezilganidan ichkilikka beriladi va to‘ydan bir yil o‘tgach, oilasini olib, Kengsoydan butunlay ko‘chib ketadi. Davron esa yurtga mashhur polvon bo‘lib taniladi. Oradan yillar o‘tib, Absal polvonning vafoti munosabati bilan o‘tkazilgan janoza marosimida Davron va Norsoat yana yuzma-yuz kelishadi. Davronning zaharxanda va kesatiqli gaplaridan ta’bi xira bo‘lgan Norsoat uning qayta kurash tushish haqidagi taklifini o‘ylanmasdan qabul qiladi. Bellashuv manzili Kengsoy etib belgilanadi.

…***Biz Absal polvonni yo‘qotib qo‘ygan edik.***

Biz yuzma-yuz keldik.

Davron bir intilib yoqamdan tutdi. Men bir qo‘lim bilan uning bilagiga, ikkinchisi bilan belbog‘iga chang soldim. Biroq bamisli ulkan qoyaning bo‘rtiq toshini ushlaganday bo‘ldim. Davron meni biroz sudraklab, so‘ng qo‘yib yubordi-da, davra aylana ketdi.

Boyagina badanimga yugurgan tetiklikdan asar ham qolmadi. Axir, ushlashgandayoq raqibimning barmoq uchlarigacha kuch-quvvatga to‘laligini, metindek mustahkamligini yaqqol his qildim!

…Men raqibim yoqasini bo‘shatib, davra aylana ketdim. Davron ham belbog‘ini qayta bog‘lay-bog‘lay izimdan ergashdi. Tomoshabinlar orasida menga hayratomuz, xayrixoh tikilgan nigohlarni ilg‘arkanman, bel-bilaklarimga yana andak tetiklik indi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Chempion shartta ortga burildi-da, ko‘zlarida allanechuk uchqunlar porlab hujumga o‘tdi. Men qo‘llarimni oldga cho‘zib, yana yoqadan tutishni mo‘ljalladim. Biroq shu payt o‘ng barmoqlarim orasidan Davron baquvvat panjalarini o‘tkazib olib, ikkinchi qo‘li bilan chap tirsagimdan tutdi. Men beixtiyor raqibning ko‘zlariga qaradim.

– Shunaqamidi usuling? – deb pichirladi u yuzlarida istehzo o‘ynab.

Muqarrar og‘riqni his qilib, aftim burishib ketdi.

– Shu bilan ko‘ngling to‘lsa, qayirib yubora qol...

Ammo Davron bir siltanib meni bo‘shatdi-yu, yana vazmin, o‘ychan alpozda davra aylana boshladi. Taqiqlangan sambo usulining boyagi tahdididan men hanuz dovdirab turardim.

“Hal qiluvchi nafas bo‘ladi hozir”, – degan o‘y xayolimdan lip o‘tdi.

Kalovlanib davra aylanarkanman, biror bahona bilan joyimga borib, pichoqni qo‘ynimga solib olish rejasini tuzardim. Ammo fursat yetmadi.

Biz yana betma-bet hujumga o‘tdik. Bu gal Davron op-oson ham yoqamdan, ham belbog‘imdan mahkam tutdi. Raqibimning yaktagini omonatgina ushlagan qo‘llarim deyarli bemajol osilib turardi. Raqib bu holatda meni bemalol belidan oshirib yerga urishi tayin edi. Ammo Davron kutilmaganda bir-ikki usullar qo‘llagan bo‘ldi-yu, xuddi mening siltovimdan silkinganday bir payt dustaman[1] quladi.

Davra yana guvullab yubordi.

Men... men... Davron atay yiqilganini yetmish ikki tomirim bilan his qilib turardim. Eshushim karaxt qotdi.

Bir payt raqibim go‘yo arang qo‘zg‘alib o‘rnidan turdi-da, qo‘llarini yoyib, bakovulga bosh chayqadi.

– Bo‘ldi. Men boshqa olisha olmayman. Tan berdim.

Davraga tuyqus jimlik indi.

– Yaxshi eshitmay qoldim, Davronboy, – deb talmovsiradi bakovul, – biroz dam olmoqchimisiz?

Ammo Davron vazmin qadamlar bilan borib, bosh hakamning qo‘lidan mikrofonni oldi.

– Hurmatli yurtdoshlar, – dedi go‘yoki hansirab, – to‘g‘risi, dunyo kezib, qancha-qancha musobaqalarda qatnashib, men hali bunday polvonni uchratmadim. Men unga tan berib, davradan chiqaman. O‘z qishlog‘imda yelkam yer iskashini xohlamayman. Bilmaganlar bilib qo‘ysin, Norsoat dunyodagi eng kuchli polvon ekan.

Davron shunday dedi-yu, bosh hakam uzatgan to‘nni yelkasiga ilib, yana to‘rt tomonga ta’zim qildi.

Davra guvullab, gulduros qarsak chalib yubordi.

Men hang-u mang, ko‘r-u kar holatda joyimda qotib qolgan edim. Pochcham chopqillab kelib, qo‘limdan yetaklab ketdi.

Davron yana mikrofonni qo‘liga oldi.

– Aziz yurtdoshlarim, sizlardan, mana bu yerda o‘tirgan ustoz Abdusalom akaning farzandlaridan, oqsoqollardan bir iltimosim bor edi. Agar meni chindanam yaxshi ko‘rsalaringiz, ustozdan yodgorlik qolgan sibizg‘ani menga bersangizlar, iltimos.

[1] **Dustaman** – yuztuban.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

Yuragim gurs-gurs urgan ko‘yi Davron ketgan tomonni tusmollab jo‘nadim. Adashmagan ekanman. Do‘stim yelkasiga og‘ir yuk ortilgan hammolday mashinalar tomon og‘ir-og‘ir odimlardi. Ortidan yugurdim.

– Davron, – dedim tovushim titrab, – do‘stim...

U ohista ortiga o‘girildi. Men uch-to‘rt qadam berida beixtiyor to‘xtab qoldim.

– Nega unday qilding, nega?

– Sen... sen rostdanam dunyodagi eng kuchli, eng dovyurak polvonsan, Norsoat.

Tomog‘imga tiqilgan quvonch-u xo‘rlik ko‘zlarimdan tirqirab chiqa boshladi.

– Kechir meni, do‘stim, iltimos, kechir.

– Yo‘q, sen kechir, – dedi Davron ham tovushi titrab, – senga ko‘p ozor berdim.

Ovozim tobora xirillab, so‘niq chiqardi:

– Sen mard, halol insonsan...

– Yo‘q, senga teng kelolmayman, – dedi Davron kaftlarini ko‘ziga tekkizib olarkan, – sen mardlarcha sevgining quli bo‘lolding, men esa hali sevgining o‘zini ham topolganim yo‘q.

Biz yuzma-yuz turib qoldik.

– Qanchadan qancha maydonga tushdim, ne bir polvonlarni yiqitdim, – dedi Davron chuqur tin olib, – lekin doim o‘zimni mag‘lubday his qildim, hech ko‘nglim ko‘tarilmadi.

– Nega, axir...

– Chunki Tanzila urgan shapaloqning achchig‘i, ko‘zlaridagi nafrat meni doim quvib yurdi.

– Iltimos, bizni kechir, Davron, – dedim ochiq-oshkora ko‘z yoshlarga qorishib.

Do‘stim og‘ir-og‘ir bosh chayqab, uzun uf tortib yubordi.

– Dunyo kezib, ikki haqiqatni angladim, Norsoat, eng birinchisi chin polvonning joyi panada ekan, shuni bildim. Ikkinchisi... har polvonning o‘z sibizg‘asi bo‘lsin ekan...

– Norsoat, – dedi do‘stim musht qilib tugilgan qo‘lini boshi uzra ko‘tararkan.

– Davron, – dedim men ham havoga qo‘l sermab.

– Quyosh hali botmagan!

Ikkimizning hayqirig‘imizdan ko‘k to‘la yulduzlar to‘zib, yelkamizga sochilganday bo‘ldi.

Biz Absal polvonni yana qayta topib olgan edik.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Norsoat va Davronning Tanzila tuyg‘ularini hisobga olmay, masalani kurash orqali hal qilishga urinishini, shuningdek, Norsoatning pichoq bilan kurashmoqchi bo‘lganini qanday baholaysiz?
2. Tanzila nega Davronning yuziga shapaloq tortdi? Bu harakat orqali u nimaga norozilik bildirdi?
3. Nega Davron Absal polvonning belbog‘i yoki to‘nini emas, aynan sibizg‘asini so‘radi? Sibizg‘a ramzi Davron anglagan haqiqat va Absal polvonning “yurakka quloq solish” haqidagi o‘giti bilan qanday bog‘lanadi?

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

4. Yozuvchi Norsoat g‘irromlik bilan g‘alaba qozongan holatni *“…yulduzlar go‘yo hurkib, uyalib, g‘uj-g‘uj to‘planib olgandek edi”,* deb ta’riflasa, yakunda *“ko‘k to‘la yulduzlar to‘zib, yelkamizga sochildi”,* deydi. Tabiat tasviridagi ushbu qarama-qarshilik orqali qahramonlar ruhidagi qanday tugunlar yechilishiga ishora qilingan?
5. Asar oxirida Absal polvon “topib olingani” nimani anglatadi? Bu qissaning asosiy g‘oyasini qanday yakunlab beradi deb o‘ylaysiz?

Adabiy munozara

Kichik guruhlarga bo‘lining. Bir guruh **baholovchi (hakamlar hay’ati)** sifatida belgilanadi. Qolgan guruhlar quyidagi muammolardan **bittasini tanlab**, ichki muhokama o‘tkazadi va mashg‘ulot yakunida fikrlar taqdimotini o‘tkazadi.

T/r	Muammolar	Yo‘naltiruvchi savollar
1	**Maqsad va vosita muammosi**	*Sevgi yo‘lida halollikdan chekinish mumkinmi?*
2	**Vijdon va g‘alaba muammosi**	*Nohaq g‘alaba baxt keltiradimi yoki halollik ustunmi?*
3	**Ustoz mas’uliyati muammosi**	*Absal polvon shogirdlarini hayot sinoviga tayyorlay oldimi?*
4	**Kurash, epigraf va matn muammosi**	*Voqealar uchun kurash foni va epigraf asarga yozuvchi tomonidan nima maqsadda kiritilgan bo‘lishi mumkin?*
5	**Do‘stlik va raqobat muammosi**	*Qachon do‘stlik raqobatga, raqobat adovatga aylanadi?*

Hakamlar hay’ati uchun baholash varaqasi

T/r	Baholash mezonlari	Ha *(2 ball)*	Qisman *(1 ball)*	Yo‘q *(0 ball)*
1.	Fikrini asar matniga tayangan holda asosladi.	☐	☐	☐
2.	Muammo mohiyatini to‘g‘ri anglab, izohladi.	☐	☐	☐
3.	Dalillar mantiqan izchil va tushunarli.	☐	☐	☐
4.	Kamida bitta ramziy obraz (sibizg‘a, quyosh yoki boshqa)ni tahlil qildi.	☐	☐	☐
5.	Qahramonlar xatti-harakatiga asosli baho berdi.	☐	☐	☐
6.	Fikrini Absal polvon g‘oyasi bilan bog‘ladi.	☐	☐	☐
7.	Qarshi fikrga hurmat bilan munosabat bildirdi.	☐	☐	☐
8.	Nutqi ravon, aniq va tushunarli.	☐	☐	☐
9.	Mustaqil va shaxsiy xulosa chiqardi.	☐	☐	☐

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI



BAXTIYOR GENJAMUROD (1959)

Dars davomida:
- ijodkor bilan tanishamiz;
- shoir she’rlarini tahlil qilamiz.

O‘zbekiston xalq shoiri Baxtiyor Genjamurod Qoraqalpog‘istonning Taxtako‘pir tumanida tug‘ilgan.

O‘zining ijod olamiga kirib kelishini u quyidagicha xotirlaydi:

“…Ustoz deganda ko‘z oldimga birdan kitoblar keladi. O‘ninchi sinfda… kasalxonada yotganimda maktabimiz kutubxonachisi Sapargul opa Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” kitobini olib keldi. Bu kitobni o‘qishga shunchalik berilib ketganimdan davolovchi shifokorlarning achchiq-chuchuk tanbehlarini eshitishimga to‘g‘ri keldi. Kasalxonadan chiqqanimdan so‘ng maktab kutubxonasining bo‘sag‘asini to‘zdirgan o‘quvchilardan biriga aylanganman. Undan keyin – tuman kutubxonasi, madaniyat uyi kutubxonalarini ham birinketin ishg‘ol etganman. Insonning turmush tarzidagi barcha hodisalarning ildizlari bolalikdagi ko‘ngil kayfiyatiga, hayratlariga borib taqaladi. Ijodkorlikni ham shunday deb o‘ylayman”.

Baxtiyor Genjamurodning “Oftobning umri”, “Saraton”, “O‘q qadalgan oy” she’riy to‘plamlari qoraqalpoq tilida, “O‘kuzdaryo bitiklari”, “Yurakning o‘tli osmoni” kabi to‘plamlari o‘zbek tilida nashr etilgan.

Jahon she’riyatidan qoraqalpoq tiliga qilgan tarjimalari **“Jahon lirikasidan”** nomi bilan nashr etilgan.

O‘ylab ko‘ring

Adibning *barcha hodisalar ildizi bolalikdagi hayrat va orzularga borib taqaladi* degan fikriga munosabat bildiring. Sizning bugungi qiziqishlaringiz va hayotiy qarashlaringiz ortida bolaligingizdagi qaysi maqsad yoki hayratlar turibdi deb o‘ylaysiz?

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

Siz baxtni qanday tasavvur qilasiz? Baxt haqida bolaligingizdagi va hozirgi tasavvurlaringiz o‘rtasida farq bormi? Javobingizni asoslang.

* * *

Men ham baxt qushidan umidvor inson.
“Noumid shaytondir”. Dilimda armon.
Baxtning oltin qushi charx urgan zamon
tanlamas kim faqir, kim esa xoqon;

tanlamas donomi va yoki telba;
tanlamas botirmi yoki qo‘rqoqmi;
tanlamas chechanmi yo shoir elga,
tortmas tarozida – nohaqmi, haqmi;

Qo‘nadi mingdan bir kishi boshiga,
Qo‘lin ko‘kka cho‘zib chuvullab uvvos
Qolgan to‘qqiz yuz-u to‘qson to‘qqizi,
Baxt qushiga zinhor ishonib bo‘lmas.

Balki, u tark etib ming kishini ham,
qo‘ngaydir kimningdir qabr toshiga.

Rustam Musurmon tarjimasi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Baxt qushi dono yoki telba, haq yoki nohaq deb odam tanlamay, istalgan kishining boshiga qo‘nsa, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi farq o‘z ma’nosini yo‘qotmaydimi? Mulohazalaringizni asoslang.
2. Nima uchun insoniyat “Noumid – shayton” degan aqidaga tayanadi? Umid inson hayotida qanday ahamiyatga ega? Javobingizni hayotiy voqea yoki hikmatlar bilan izohlang.
3. Baxt insonni tanlamasa, inson baxtni tanlay oladimi? Nima uchun?
4. She’r avvalida baxtdan umidvor lirik qahramon nega she’r yakunida *“Baxt qushiga zinhor ishonib bo‘lmas”* degan xulosaga kelyapti? Bu misra zamirida qanday ma’no yashirin?
5. She’rning yakuniy ikki misrasini tushuntirib bering. Shoir nima demoqchi? Fikringizni asoslang. Shuningdek, she’rga sarlavha toping.

Topshiriq

Turli manbalarga tayanib, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining baxt hamda unga erishish yo‘llari haqida beshtadan hikmatini to‘plang. Ular asosida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining baxt va unga yetishish borasidagi qarashlarida farqli va mushtarak jihatlarni qiyosiy jadval ko‘rinishida qayd eting. Yozganlaringizni sinf muhokamasida yoqlang.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

O‘ylab ko‘ring

Odamlar bir-birini tushunaman, deb o‘ylab, aslida tushunmasligi ham mumkinmi? Bunday holat hayotda qanchalik ko‘p uchraydi?

* * *

Yuragingda qopag‘on it yo‘q,
darvozasi doim lang ochiq.
Lekin kutib olar qonsirab,
to‘qson to‘qqiz qulluq aylagan
hech kimga ozorsiz
ajoyib tulki.

* * *

Kunchiqarga boqsam – shimol o‘ngimda,
Kunbotarga boqsam – janub o‘ngimda.
Demak, bu dunyoning ma’nisin uqmoq
o‘zimning qo‘limda!

Jumboq

Men seni tushunaman,
Biroq sen – meni?!
– Yo‘o‘q!..
– Demak, ikkimizning farqimiz bor – ko‘p.
Tushunish qalqon bo‘ldi odam zotiga,
Tushunmaslik – nogoh otilgan bir o‘q!

Rustam Musurmon tarjimasi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. *“Yuragingda qopag‘on it yo‘q…”* she’ridan nimalarni tushundingiz? Tushunganlaringizni sharhlab bering.
2. *“Hech kimga ozorsiz ajoyib tulki”* degan ifodada qanday ichki ziddiyatni sezyapsiz? Aybsiz ayyorlik bo‘lishi mumkinmi?
3. *“Kunchiqarga boqsam – shimol o‘ngimda”* deb boshlanuvchi she’rda nega shoir geografik haqiqatni buzib ko‘rsatgan?
4. Shoirning nazdida dunyoning ma’nosini tushunish kishining o‘z qo‘lida. Shu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?
5. “Jumboq” she’rida *tushunish – “qalqon”, tushunmaslik esa “o‘q”* deb tasvirlangan. Nega? Sizningcha, insonni ko‘proq nima jarohatlaydi: befarqlikmi yoki noto‘g‘ri tushunish?

Ijodiy ish

Yuqoridagi sarlavhasiz ikki she’rga nom toping, “Jumboq” she’ri sarlavhasini esa izohlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



ESHQOBIL SHUKUR (1962)

Dars davomida:
- ijodkor bilan tanishamiz;
- “Pul sanayotgan odam” hikoyasi va undagi ramziylikni tahlil qilamiz.

Eshqobil Shukur Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Bolalik davrlarini xotirlab, ijodkor bunday yozadi:

“Men uchun vatan adabiyoti ham, jahon adabiyoti ham shu qishloq etagidan boshlanadi. Men ming-ming yillik ertaklar va afsonalar ichida ulg‘ayganman. Momolarimdan eshitgan bu ertaklarni oddiy cho‘pchak deb emas, balki hayot deb tushunganman va hayotning o‘zi katta adabiyot ekanini anglab borganman.

Men dunyoning bir chekkasidagi xilvat bir qishloqda ertak va dostonlar tinglab, tilning qudrati va mo‘jizasini his etib borardim. Keyin angladimki, bu ertak va afsonalar, dostonlar mening mo‘jazgina qishlog‘imdan boshlanib, jahon adabiyotiga tutashadigan g‘aroyib yo‘llar ekan…”



Ijodkorning turli yillar davomida “Yurakni o‘rganish”, “Sochlari sumbul-sumbul”, “Tungi gullar”, “Yashil qushlar”, “Hamal ayvoni”, “Ko‘z yumib ko‘rganlarim” kabi she’riy to‘plamlari, “Oy yo‘li” she’riy saylanmasi; “Bahouddin Naqshband”, “Ibtido xatosi”, “Kelinoy” dostonlari; nasriy asarlari jamlangan “Ko‘hna bog‘ rivoyatlari”, “Asr afsonalari” kabi to‘plamlari nashr qilingan.

Adib uzoq yillik izlanishlari tufayli ona tilimizda unut bo‘lib ketayotgan 500 ga yaqin so‘zning kelib chiqish tarixi, ma’noviy qatlamlarini o‘nlab tarixiy manbalardan aniqlab, **“Boboso‘z izidan”** kitobiga jamladi. Ushbu kitob *“bevosita so‘zga, so‘zki, xalqimiz tarixiga tomir-*

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

dosh bo‘lgan, turkiy tillar oilasida xazinasi, jozibasi, rang-u harorati, qo‘yingki, sharafi baland asl o‘zbek so‘zlariga bo‘lgan katta muhabbati tufayli, ularni asrab qolishdek ezgu niyat samarasi o‘laroq maydonga keldi[1]”.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘ylab ko‘ring

1. Nimani xayol surganingizda, orzu qilganingizda o‘zingizni qudratli, kuchli his etasiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz: insonni baxtli qiladigan narsa pulmi yoki hayotdagi boshqa qadriyatlar?

PUL SANAYOTGAN ODAM

(Hikoya)

“Faqat pul, pul!”
Deya kuldim men.
Biroq bir lahza o‘tmay
Sezib qoldim
O‘zim ham pul haqida o‘ylayotganimni.

Isikava TAKUBOKU

Bugun uning tug‘ilgan kuni... Tasodifni qarangki, qizi aynan shu kuni, iyunning o‘n yettisida tug‘ilgan. U bugun yigirma yettiga, qizchasi esa yetti yoshga to‘ladi. Uyda qo‘shaloq bayram. Qancha do‘st-u yorlar ularni tabriklagani kelishadi. Ayniqsa, qizchasi rosa yayraydi. Sho‘x-shaddod, bir gapirib o‘n kuladigan bu qizaloq har gal yangi yil bayramidan so‘ng “Mening tug‘ilgan kunim qachon keladi?” deb so‘rayverib, ota-onasini bezor qilib yuboradi. Ular uchun yilda ikki katta bayram bor: o‘ttiz birinchi dekabr oqshomi va iyunning o‘n yettisi...

Xotini ertalab unga tort olib kelishni tayinlagan edi. Qiziga atalgan sovg‘alarni ular tunov kun xufiyona tayyorlab qo‘yishgan. Bu sovg‘alarni ko‘rgan qizaloq yer-u ko‘kka sig‘may qoladi. Ayni shu kuni qizini juda baxtiyor, shod-u xurram ko‘rish maqsadida u keyingi haftalar ichida tinmay yelib-yugurdi, kechani kunduzga ulab ishlab, mablag‘ to‘pladi. U metroning o‘ziyurar zinalaridan pastga tushayotganida betoqatlik bilan juda shoshilayotganini his qildi. Lekin nima uchun shoshilayotganini o‘zi tushunolmadi. Kechga dovur hali vaqt ko‘p, hammasiga bemalol ulguradi. Shunday bo‘lsa-da, ichki bir bezovtalik, ruhiy notinchlik uni g‘ayriixtiyoriy tarzda shoshiltirardi. Qayoqqa, nimaga, nima uchun? U bu savollarga o‘zidan javob topolmasdi va javob izlashga toqati ham yo‘q

[1] Oyina.uz saytidan olindi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

edi. Aksiga olib metroga tushgan zahoti u boradigan yo‘nalishdagi poyezd g‘izillab jo‘nab ketdi. Mabodo... Mabodo, u shu poyezdga ulgurib qolganida, bekatga bor-yo‘g‘i o‘n besh soniya oldinroq yetib kelganida, hademay o‘zi tushib qoladigan zalolat o‘pqonidan qutulib ketarmidi, balki...



U poyezd yo‘lining lahimga kirish joyida tepaga o‘rnatilgan elektr soatga qaradi. Ehe, keyingi poyezd kelguniga qadar hali besh-olti daqiqa kutish kerak. Xuddi shu besh-olti daqiqa unga cheksizday tuyuldi. Tablodagi soatda esa, zarhal nurlar bilan yoritilgan raqamlar imillab bir-biriga navbat berardi. Lahzalar o‘z yukini tortolmay, adashib, holdan toygan karvon kabi ivirsir edi. “Shu besh-olti daqiqa o‘tmay qolsa-ya... Vaqt xuddi shu besh-olti daqiqaning ichida tinimsiz aylanaversa-ya...”, degan gumon uning ko‘ngliga yoqimsiz xavotir solib o‘tdi. U kecha qaysidir “oldi-qochdi” gazetada vaqtning to‘xtab qolishi, vaqt jarligi haqida allambalolarni o‘qigan edi. Unda aytilishicha, vaqt jarligiga tushib qolgan odamlar vaqtning boshqa o‘lchamlarida yashashar va g‘aroyib holatlarga tushib qolishar ekan. U bahaybat marmar ustun yonidagi yog‘och o‘tirg‘ichga omonatgina o‘tirdi-da, yana nazorat soatiga qaradi; hali bir daqiqa ham o‘tmabdi. U marmar ustunga suyangan ko‘yi, uzun oyoqlarini oldinga uzatib, shimining o‘ng cho‘ntagidan bir bog‘lam pul chiqardi-da, agar pul sanab o‘tirsam vaqtning qanday o‘tganini sezmay qolaman, deb o‘yladi. Nima qipti, buyam bekorchilikdagi yana bir bekorchilik-da. Bog‘lamdagi pullar yuztaliklar edi. U sanay boshladi va pul sanayotganda ich-ichida qandaydir zavq-u shavq paydo bo‘lib kelayotganini sezdi. “Bir ming bir yuz, bir ming ikki yuz, bir ming uch yuz...” U uzatgan oyoqlarini yig‘ib, boshini kelishgan keng yelkalari orasiga tiqib, yarim engashgan holda, tirsaklari bilan tizzalariga tayanib pul sanardi. Sanash jarayonida undagi bezovtalik va betoqatlik o‘rnini allaqanday hirsiy surur egallay boshladi. “Besh ming olti yuz, besh ming yetti yuz, besh ming sakkiz yuz...”

U metro bekatida navbatdagi poyezdni kutayotgan odamlarga, bir-biriga hazil-huzul qilayotgan yigit-qizlarga, yo‘lkiraning ko‘tarilishi haqida kuyinib bidirlashayotgan ayollarga e’tibor ham qilmay qo‘ydi. “To‘qqiz ming yetti yuz, to‘qqiz ming sakkiz yuz va nihoyat, to‘qqiz ming to‘qqiz yuz so‘m!” So‘ng u pullarni tekis taxlab, bir bog‘lam qilib bog‘ladi-da, pul changallagan qo‘lini havoda ikki-uch bor silkitib qo‘ydi.

U yana soatga qaradi: uch daqiqa o‘tibdi. Poyezd yana ikki daqiqalardan so‘ng keladi. To‘qqiz ming to‘qqiz yuz!!! Qaniydi shu pullar to‘qson ming bo‘lib qolsa... U sanayversa, sanayversa, sanayversa... Hech charchamasa, axir, pul sanashdan ham odam charchar ekanmi! Chunki pul sanashning ham o‘z zavqi bo‘ladi. Pul sanayotganingda o‘zingni odatdagidan kuchliroq his qilasan. Yo yana sanasamikan?.. Bor pulini sanab bo‘ldi, boshqa sanaydigan sariq chaqasi ham yo‘q-ku. Bordi-yu, shu pulning o‘zini qaytarib sanayversa-chi?.. Kelgan joyidan, to‘qqiz ming to‘qqiz yuzning ustidan, o‘n ming-

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

dan boshlab sanab ketaversa-chi? Axir... bu o‘z-o‘zini aldash emasmi? Yo‘q narsani bor deb xomxayol qilishdan ne naf? Nima qipti, buyam bir o‘yin, buyam bir ko‘ngilxushlik. Odamlar bo‘sh vaqtini qarta o‘ynab ham o‘tkazishadi-da. U pul sanab o‘z-o‘zini xursand qilsa, buning birovga ziyoni tegarmidi? Ha, buyam bir o‘yin, vaqtni tezroq, huzur bilan o‘tkazish uchun shunchaki bir o‘yin! Qolaversa, pul sanayotganda uni qiynayotgan betoqatlik yo‘qolib, qaytanga ko‘ngli yorishib, ko‘zlari yashnab boryapti-ku. U bog‘lamdagi pullarini yana bir boshdan qayta sanay boshladi. “O‘n ming, o‘n ming bir yuz, o‘n ming ikki yuz... O‘n ming uch yuz...” Uning yoniga o‘rta yashar bir ayol kelib o‘tirdi. Ko‘rinishidan ayol shaharga mehmonga kelganga o‘xshar edi. Ayol yigitdan: “Bodomzor” bekatigacha qanday boriladi?” deb so‘radi. U ayolning savolini eshitmadi, hatto uni payqamadi ham. Ayol poyezd yo‘nalishini boshqalardan so‘rab bilish uchun o‘rnidan turib nari ketdi. “O‘n yetti ming uch yuz, o‘n yetti ming to‘rt yuz...” Shu payt poyezd guvullab kelib, bekatda to‘xtadi. Moviy rangli vagonlarning barcha eshigi baravar ochildi. Metro bekati bo‘ylab yoqimli ovoz taraldi: “Paxtakor” bekati...” Yo‘lovchilar urinib-turtinib poyezdga chiqa boshladi. U esa uzun barmoqlari orasidan ketma-ket sirg‘alib chiqayotgan pullarga qarab: “Yana ozgina qoldi, endi sanab oxiriga yetkazay”, deb sanashda davom etdi. Yoqimli ovoz yana ta’kidladi: “Eshiklar yopiladi. Keyingi bekat...” Mayli ketaversin, hali uning vaqti ko‘p. Keyingi poyezdda ketadi. “O‘n to‘qqiz ming yetti yuz, o‘n to‘qqiz ming sakkiz yuz!” Poyezd jo‘nab ketdi. U esa, o‘yinni to‘xtatishni sira istamasdi. Allaqanday noayon zavq va surur uning butun vujudini egallab, ixtiyorini irodasidan tortib olayotgan edi. U o‘zini to‘xtatolmadi, o‘sha bir bog‘lam pulini yana bir boshidan sanay ketdi. “O‘n to‘qqiz ming to‘qqiz yuz, yigirma ming...” Qaniydi, u pul sanashdan sira to‘xtamasa... Sanayversa, sanayversa... Uning pullari millionlardan, milliardlardan oshib boraversa... U sanayversa... Jonning rohati ekan-ku bu o‘yin. “Yigirma to‘rt ming uch yuz, yigirma to‘rt ming to‘rt yuz...” Poyezdlar har besh-olti daqiqada uni chorlab, har ikki yonidan guvullab o‘taverdi, uning esa o‘rnidan qo‘zg‘algisi ham kelmasdi. U muk tushgancha o‘z mashg‘ulotini davom ettirar edi. “Ellik besh ming bir yuz, ellik besh ming ikki yuz...” Uning dimog‘iga gupillab atir hidi urildi. Bir nozanin chap yonidan kelib, unga tiqilibroq o‘tirdi. Shunda uning xayoli bir chalg‘idi-yu, yana pul sanashga tushib ketdi. Boshqa payt bo‘lganda-ku, u qizga albatta e’tibor ko‘rsatardi, mulozamat ham qilib qo‘yardi. Axir, yigirma yetti yoshli har qanday yigit qo‘ltig‘i ostidan turtinib kelayotgan bir suluvga qarab qo‘ymay iloji yo‘q. Lekin hozir u chalg‘imasligi kerak. “Ikki yuz ellik bir ming ikki yuz, ikki yuz ellik bir ming uch yuz...”

U tobora avjga minar va o‘zi qilayotgan ishdan juda rohatlanardi. Endi u puli bor-yo‘g‘i to‘qqiz ming to‘qqiz yuz so‘m ekanini ham unutib qo‘ygandi. Uning vujudini, ruhini, ongini huzurli bir vasvasa butunlay egallab oldi. “Uch million bir yuz ellik ming yuz, uch million bir yuz ellik ming ikki yuz...”

* * *

Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar o‘tib ketaverdi. Poyezdlar kecha-yu kunduz bir-biriga qarama-qarshi tomonga guvullab o‘tar, ushbu bekatda bir to‘xtab, nafas rostlab, yana o‘z manzili sari shamolday tinimsiz yelar edi. Bora-bora hech kim, hatto metropoli-

RESPUBLIKA MARKAZI

ten xodimlari ham bekatda – o‘tirg‘ich ustida muk tushgan ko‘yi pul sanayotgan odamga e’tibor qilmay qo‘yishdi. U atrofdagilarni butunlay unutdi, atrofdagilar esa uni esdan chiqa-rishdi. “To‘qson million bir yuz o‘ttiz ikki ming yetti yuz, to‘qson million bir yuz o‘ttiz ikki ming sakkiz yuz...” U pul sanay turib, o‘zining tobora kuch-qudratga to‘lib borayotganini, endi bir hamla bilan juda ko‘p narsaga ega bo‘lishi mumkinligini chuqur his etardi. Bu esa uni yana va yana sanashga undardi. “O‘n milliard ikki yuz ellik million ikki yuz, o‘n milliard ikki yuz ellik million uch yuz...” U barmoqlari orasidan o‘ynab chiqayotgan son-sanoqsiz pul timsolida haybatli qasrlar va koshonalarni, avtoyo‘llarda oqqushday suzib borayotgan eng qimmatbaho avtomobillarni, shohona bazm-u jamshidlarni, unga sehrli ishvalar va diltortar nozlar hadya etayotgan, bittagina imosiga ilhaq turgan nozanin oyimchalarni, xul-las, ko‘ngil istaklarining mukammal ijobatini ayon ko‘rardi. Egalik va hukmronlik hirsi uni yuksaklarga ko‘tarar va mamnun etardi. U o‘zini shu dabdaba-yu as’asalar, kibri havo-yu vasvasalar ustidan yagona hukmronday sezardi. “Ellik milliard besh yuz yetmish million ikki yuz yigirma ming uch yuz, ellik milliard besh yuz yetmish million ikki yuz yigirma ming to‘rt yuz...”

* * *

Uning soch-soqoli oqarib, yuzini ajin qopladi, ko‘zidan nur keta boshladi. Necha yillar o‘tibdiki, u metroning rutubatli bir bekatida – sip-silliq o‘tirg‘ichda o‘tirib, kecha-yu kun-duz uyqu betini ko‘rmasdan tobora “semirib” ketayotgan raqamlarni sanardi... Sanardi... Avvalgi rohat, huzur, zavq-u shavq va nafsoniy surur endi uning uchun og‘ir va mashaq-qatli mehnatga aylanib borardi. U hovliqib, hansirab, go‘yoki eng muhim ishga ulgurolmay qoladiganday shoshilib... sanardi. Endi u nimaga, nima uchun va qanday maqsadda pul sanayotganini ham o‘zi bilmasdi. U o‘z hayotini yo‘qotib qo‘yganini ham anglay olmasdi. Faqat sanashi kerak, sanasa bo‘lgani, sanashdan to‘xtasa bas, o‘ladi, tamom bo‘ladi, butunlay yitib ketadi. U buni yaxshi biladi. U o‘lmasligi kerak! Poyezdlar goho chinqirib, goho guvullab uning ikki yonidan yelib o‘tar, millionlab yo‘lovchilar yer ostidan yer ustiga qarab shoshar, metro lahimlariga qamalib qolgan shamollar tashqariga, tabiat va hayot sari intilardi. U esa o‘zligini unutib, qartayib qolgan barmoqlari bilan pul sanardi. “Uch yuz milliard ellik million ikki yuz o‘ttiz bir ming uch yuz, uch yuz milliard ellik million ikki yuz o‘ttiz bir ming to‘rt yuz...”

* * *

Bir kuni u o‘ziga kulumsirab tikilib turgan bir bolaga e’tibor qildi. Yetti yoshlar chama-sidagi bu bolaning beg‘ubor chehrasida hayot barq urardi. Uning katta-katta samimiy ko‘zlari chiroyli kulib turardi. U shunda o‘zi unutib yuborgan, bir paytlar o‘zi yashab ko‘rgan o‘zga bir hayot, boshqa bir olam bor ekanini g‘ira-shira eslaganday bo‘ldi, qotib qolgan ko‘nglida nimadir qo‘zg‘aldi. Lekin changalidagi titilib, idrab qolgan pullarga ko‘zi tushishi bilanoq tag‘in o‘z ishiga kirishib ketdi. U yana hisobdan adashmadi. Mabodo, shu damda sanoqdan yanglishib ketganida... Yo‘q, yo‘q, u chalg‘imasligi kerak. Boshqa hayot bo‘lsa bordir, ammo uning ishlari ko‘p, allaqanday mayda-chuydalarga chalg‘ib, o‘z vazifasidan kecholmaydi.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

* * *

U kundan kun qarib-qartayib, tobora kuch-madordan qolib borardi. O‘tirgan holatda ham oyoqlari dirillab, pul sanayotgan qo‘llari qaltiraydigan, beli va yelkalari zirqirab og‘rib, azob beradigan bo‘lib qoldi. Uni rutubat va uqubat yemirib borardi. Va nihoyat... Va nihoyat bir kuni uning qulog‘iga kirmay qo‘ygan o‘sha yoqimli va jozibali ovoz nogahon yangradi: “Eshiklar yopiladi! Keyingi bekat – “Xalqlar do‘stligi!” Poyezd vagonlarining hamma eshigi taqa-taq yopildi! “To‘qqiz yuz milliard to‘qqiz yuz million to‘qqiz yuz ming to‘qqiz yuz so‘m!” U pul sanashning oxiriga yetgandi. U bir bog‘lam yuz so‘mlikni qoqsuyak qo‘llarida changallagan ko‘yi atrofiga alangladi va boshqa bir olamga tushib qolganday ichida hayrat ham, iztirob ham baravar uyg‘onganini angladi. U sanashdan to‘xtagan edi. Ammo bu paytda poyezdning barcha eshigi yopilib qolgan edi. U bahaybat marmar ustunga suyangan holatda hushidan ketdi. Birozdan so‘ng olag‘ovur tovushlar ichida g‘ira-shira o‘ziga keldi. Kimdir taassuf bilan ta’na qilardi: “Shunday qarib, munkillab qolgan cholning bir o‘zini ko‘chaga chiqarish insofdan emas-da”. Yana kimdir unga qo‘shildi: “To‘g‘ri aytasiz, bu o‘zbekchilikdan emas! O‘g‘limi, nabirasimi yonida yursa bo‘lmaydimi?..” Tag‘in achinish ohangida bir ovoz eshitildi: “Kim biladi deysiz, balki, sho‘rlik qariyaning o‘zidan boshqa hech kimi yo‘qdir. Bo‘lmasa, bir o‘zi o‘ligini sudrab metroda yurarmidi?..” Yana birov gapga qo‘shildi: “Bechora chol metrogacha qanday keldiykan? Rangini qarang, paxta deysiz, bir tomchiyam qoni yo‘q. Soqoli bilan yuzining rangi bir tus bo‘lib qolibdi. Yoshiyam to‘qsonlardan oshgan ko‘rinadi”. U esa o‘zicha g‘udranardi: “Qanaqa to‘qson?.. Axir, bugun yigirma yettiga to‘laman-ku! Qizim yettini to‘ldiradi. Bugun ikkovimizning ham tug‘ilgan kunimiz. Kechqurun uyimizga mehmonlar kelishadi. Hozir bozordan tort olishim kerak. Shoshilmasam bo‘lmaydi”. U o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi va bir qo‘zg‘aldi-da, ingranib jon berdi. Uning qoqsuyak, rangpar qo‘llari bir bog‘lam uvada yuz so‘mlikni – to‘qqiz ming to‘qqiz yuz so‘mni mahkam changallagan holatda qotib qolgan edi.

KELING, MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoya mutolaasidan keyin xayolingizdan qanday fikrlar o‘tdi? Nimalarnidir sarhisob qildingizmi? Sababini ayting.
2. Hikoya epigrafiga diqqat qarating. Epigrafdagi lirik qahramon va hikoya qahramoni o‘rtasidagi farqni ayting. Ularning pulga munosabati va yakuniy qismdagi holatini qiyoslang.
3. Hikoya syujeti uchun nega aynan metro – yerosti makoni tanlangan? Poyezdlarning tinimsiz kelib-ketishi va qahramonning pul sanashdan bosh ko‘tarmasligi bu makonda qanday ramziy ma’no kasb etadi?
4. Pul haqiqatan ko‘paymayotgan bo‘lsa-da, qahramonning vujudi va ko‘zlari yashnab boradi hamda u hisoblashda umuman adashib ketmaydi. Bu holatlar orqali “hirsiy surur”, “egalik va hukmronlik hirsi” bilan bog‘liq ruhiy jarayonlarni izohlang.

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

5. Yozuvchi qahramonning o‘z hayotiga qaytishi uchun qanday ruhiy yoki hayotiy ogohlantiruvchi ishoralarni beradi? Qahramon pul sanashdan to‘xtagan paytda poyezd eshiklarining yopilib qolishi nimadan dalolat beradi?
6. Hikoya tug‘ilgan kun quvonchi bilan boshlanib, ayanchli o‘lim bilan yakunlanadi. Muallif qahramonning butun bir umrini metro bekatida pul sanash jarayoniga sig‘dirish orqali jamiyatga (yoki bizga) nima demoqchi?

Ijodiy ish

Quyidagilardan birini tanlab, bajaring:

1. Nima deb o‘ylaysiz, “Pul sanayotgan odam” hikoyasidagi qahramon qaysi nuqtada ortga qaytishi mumkin edi? O‘sha lahzani belgilang va agar u o‘sha yerda to‘xtaganida, hikoya qanday yakun topishini tasvirlab, ijodiy ish tayyorlang.
2. Asardagi ramziy detallarni aniqlab, ularga izoh yozing.

NAZARIY MA’LUMOT

MONOLOG (ICHKI MONOLOG)

Monolog (yunoncha *monos* – bir, *logos* – so‘z) badiiy asarda qahramonning o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan nutqi bo‘lib, uning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ochib beradi.

Ichki monolog qahramonning o‘y-fikrlari, iztiroblari va ruhiy ziddiyatlarini ifodalaydi. U asosan epos va dramada uchrab, voqealardan ko‘ra **qahramon ruhiy holatini** ifodalashga xizmat qiladi.

Ichki monologga xos belgilar:

- fikrlarning bevosita, izohsiz berilishi;
- takrorlar, parcha-parcha jumlalar, sanash shakllari;
- vaqt tushunchasining buzilishi;
- qahramon ongidagi ichki ziddiyatlarning kuchayishi.

“Pul sanayotgan odam” hikoyasida pul sanash jarayoni qahramonning ichki monologi orqali uning moddiy hirsga berilib borishi va ruhiy yemirilishini aks ettiradi.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

FANFIKSHN: “YO‘QOLGAN SAHIFA”

Qisqacha yo‘riqnoma:

1. Yil davomida mutolaa qilingan **istalgan bitta badiiy asar**ni tanlang.
2. Asarda **ochiq qoldirilgan yoki to‘liq yoritilmagan bo‘shliq**ni aniqlang (tasvirlanmagan voqea, aytilmagan fikr, e’tibordan chetda qolgan obraz, ichki kechinma, vaziyat yoki sahna).
3. Aniqlangan bo‘shliqni **“yo‘qolib qolgan sahifa”** sifatida tasavvur eting va uni tiklashga harakat qiling.
4. Yoziladigan matn:
   − asarning umumiy ruhi va g‘oyasiga mos bo‘lsin;
   − obrazlar xarakteriga zid kelmasin;
   − voqealar mantiqiy izchillikda bayon etilsin.
5. “Yo‘qolgan sahifa” orqali **yangi syujet yaratmang**, balki asarda mavjud voqea va ruhiy holatni **chuqurlashtiring hamda mazmunan to‘ldiring**.
6. *Nega aynan shu bo‘shliq tanlandi va u qanday badiiy maqsadda to‘ldirildi?* Ish yakunida 2-3 jumladan iborat **muallif izohi** yozing.

Taqdimot

“Yo‘qolgan sahifa” tayyor bo‘lgach, ishni sinfdoshlaringizga o‘qib bering va baholash so‘rovnomasi o‘tkazing.

BAHOLASH SO‘ROVNOMASI		
1	*“Yo‘qolgan sahifa” **asar ruhi va g‘oyasiga mos** yozilganmi?*	☐ Ha; ☐ Qisman; ☐ Yo‘q.
2	*Fikrlar va harakatlar qahramonning **xarakteriga mos va ishonarlimi?***	☐ Ha; ☐ Qisman; ☐ Yo‘q.
3	*Matn asar voqealari bilan **mantiqan uzviy bog‘langanmi?***	☐ Ha; ☐ Qisman; ☐ Yo‘q.
4	*Til va badiiy ifoda **ta’sirchan va tabiiy** chiqqanmi?*	☐ Ha; ☐ Qisman; ☐ Yo‘q.
5	*Yakundagi muallif izohi **tanlangan bo‘shliqni to‘ldirib bera olganmi?***	☐ Ha; ☐ Qisman; ☐ Yo‘q.
6	***Qisqa fikr (ixtiyoriy):***	_____ _____ _____

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O‘quv nashri

Qambarova Saodat Irkinovna,
Yusupova Dilnavoz Rahmonovna,
Olimjanov Orifjon Odiljon o‘g‘li

ADABIYOT
11-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

Muharrir	*X. Abulfaizov*
Musahhih	*S. Jumanova*
Texnik muharrir	*A. Karimov*
Badiiy muharrir	*D. Jalilov*
Rassom	*I. Xolxo‘jayev*
Sahifalovchi-dizayner	*A. Aqilov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2026-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 25,2. Nashriyot-hisob tabog‘i 17,7.
Adadi _ nusxa. Buyurtma № _.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

Darslik holati haqida ma’lumot

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI